

0762  
3333  
493

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



# IQTISODIY TARIX

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI *ükm*  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universitetining

**100**

*yilligiga bag'ishlanadi*

*Muminov N.G., To'rayev X.N., Ochilov N.Y.*

**IQTISODIY TARIX**  
**fanidan**  
**O'QUV QO'LLANMA**

**UO'K 338 (4) (091)**

**KBK 65.02 (4)**

**M86**

**M86 Muminov N.G., To'rayev X.N., Ochilov N.Y.**

Iqtisodiy tarix fanidan o'quv qo'llanma [Matn] / – T.: "Tsentr innovatsionníx texnologiy" nashriyoti, 2018. -256 bet.

"Iqtisodiy tarix" fanidan o'quv qo'llanma O'zbekiston Milliy universiteti "Iqtisodiyot nazariyası" kafedrasida uzoq yillar davomida ushbu fandan ta'lím bergen To'rayev Xasan Nuriddinovichning yorqin xotirasiga bag'ishlanadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada qadimgi dunyo iqtisodiyotining rivoji, o'rta asrlarda Yevropaning iqtisodiy rivojlanishi, yangi davrda industrial tizimning vujudga kelishi, industrial sivilizatsiyaning shakllanishi davrida Yevropaning iqtisodiy taraqqiyoti masalalari yoritilgan.

O'quv qo'llanmada jahon agrar inqirozi va ikkinchi ilmiy-texnik inqilob, yetakchi kapitalistik mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotini tavsiflab berish alohida o'rın tutgan.

O'quv qo'llanma iqtisodiyot yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi doktorant va tadqiqotchilar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun mo'ljallangan

#### **MAS'UL MUHARRIR:**

**Rayxanov U.A.** O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti dekanining o'quv ishlari bo'yicha muovini

#### **TAQRIZCHILAR:**

**Xoshimov P.Z.** O'zbekiston Milliy universiteti "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasи mudiri, iqtisod fanlari nomzodi

**Ermetov A.A.** O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

**Rahmonova S.F.** O'zbekiston Milliy universiteti "Iqtisodiyot nazariyası" kafedrasи o qituvchisi

"Iqtisodiy tarix" fanidan o'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Uslubiy Kengashining 2018-yil 9-fevral majlisiga Qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan (4-bayonnomasi).

ISBN 978-9943-4943-5-0

© O'zbekiston Milliy universiteti.

© To'rayev X.N., Muminov N.G., Ochilov N.Y.

© "Tsentr innovatsionníx texnologiy" nashriyoti.

## § KIRISH

Insoniyat tarixi – bu iqtisodiyot tarixidir. Tarixning bir qismini tashkil etuvchi urushlar esa iqtisodiyotning rivojlanishi, xalqlar va mamlakatlar iqtisodiy manfaatlarini himoyalash natijasidir, xolos. Shu sababdan, xalqlarning tarixiy merosi – ularning qancha urush olib borishgani qancha hududlarni bosib olganlarida emas, balki ular sivilizatsiyaga qanday hissa qo'shganlari, nima qurishgani, yaratishgani, ixtiro qilishganidadir.

Asl tarixiy qahramonlar – bu lashkarboshi, bosqinchilar emas, balki hunarmandchilik, fan, iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo'shgan insonlardir. Chunki birinchilari odamlarni yo'q qilar va ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni vayron qilar edilar, ikkinchilari esa odamlarga yashash va ijod qilib yaratishga yordam berar edilar.

Iskandar Zulqarnayn, Amir Temur, Napoleon va Gitlerlar siyosati odamlarda katta taassurot qoldirdi. Lekin ularning natijalari turli muddat davom etdi. Ba'zilari qisqa muddatli edi, ba'zilari hozirga qadar davom etmoqda (masalan, Napoleonning Fransiya ni ma'muriy bo'lish tamoyillari).

Mamlakat iqtisodiyoti ma'lum bir ma'noda iqtisodiy tafakkur, ushbu mamlakat aholisining mentaliteti bilan bog'liqidir.

Iqtisodiyot tarixi jamiyatning iqtisodiy rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini va xususiyatlarini, iqtisodiy islohotlar va turli tarixiy davrlarda yetakchi mamlakatlar tomonidan amalgā oshirilgan iqtisodiy siyosatning muhim tarixiy tajribalarini tahlil etish imkonini beradi<sup>1</sup>. Bu esa, o'z navbatida, kelajakni prognozlashtirishda katta ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli tendensiyalarini ko'rish imkonini beradi. Iqtisodiyot tarixi talabalarda nazariy voqeliklardan kelib chiquvchi absolutlashtirish va dogmalashtirishning oldini oluvchi uslubiy madaniyatni shakllantirishi, amaliyotda maqbul qarorlarni qabul qilish ko'nikmalarini paydo qilishi kerak.

Iqtisodiyot – odamlarning mehnat faoliyati natijasidir. Ming yilliklar davomida sayyoramizda iqtisodiyot olg'a qarab rivojlangan.

<sup>1</sup>Шевчук Д.А. История экономики: учебное пособие. М.: 2009. —305 с.

Barcha xalqlarda boshlang'ich holatlar deyarli bir xil edi. Ammo xalqlarda iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari turlicha edi. Turli xalqlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari ular tomonidan xo'jalik yuritish natijaviyligiga bog'liq. O'z navbatida, iqtisodiy natijaviylik har bir xalqning tabiiy aqli rasoligi, mehnatkashligi va intizomlili-giga bog'liqdir.

Turli mamlakatlarda iqtisodiyotning rivojiga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatgan. Obyektiv omillar – tabiiy muhit, boshqa xalqlar bilan qo'shni chilikdir. Subyektiv omillar – xalqning iqtisodiy faolligi, uning urf-odatlari, jamiyat ko'pchilik a'zolarining ijtimoiy holatidir. Hech bir omil alohida olganda hal qiluvchi hisoblanmaydi, lekin ma'lum bir holatda qo'shilishib, ular turli xalqlar va mamlakatlar rivojlanish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyot tarxi tovar va bozor munosabatlарining paydo bo'lishidan, ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonlarining turli holatlarda bo'lishidan, qisqasi iqtisodiy munosabatlar paydo bo'lishidan boshlanadi.

**§ 1-MAVZU. IQTISODIY TARIX FANIGA KIRISH**

**Tayanch atamalar va iboralar:** iqtisodiy tarix, predmet, metod, tarixografiya, "fransuz agrar tarixi", "yangi iqtisodiy tarix", davrlashtirish.

■ **Reja:**

- 1.1. *Iqtisodiy tarixning qisqacha izohi*
- 1.2. *Iqtisodiy tarix fanining predmeti, metodlari va vazifalari*.
- 1.3. *Iqtisodiy tarixning manbalari va tuzilmasi*.

### **1.1. Iqtisodiy tarixning qisqacha izohi**

"Iqtisodiy tarix" fani G'arbiy Yevropada XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan shiddatli iqtisodiy jarayonlar ta'sirida yuzaga keldi va u "Siyosiy iqtisod" dan ajralib chiqdi. U XIX-XX asrlardan boshlab Yevropa universitetlarida mustaqil fan sifatida o'qitila boshlandi, bundan tashqari, bularning hammasi rahbar xodimlarni tayyorlash hamda siyosiy sohada islohotlarni oqilonat va samarali amalga oshirish uchun xizmat qildi.

Shu tariqa, 1895 yilda London universiteti qoshida iqtisodiyot va siyosiy bilimlar maktabi tashkil etilib unga ixtisoslashtirilgan kollej va 1896 yilda esa unga universitet qoshidagi alohida bo'lim maqomi berildi. Unga Buyuk Britaniyalik iqtisodiyot tarixinining dastlabki namoyondalaridan biri bo'lgan U.Xyuins boshchilik qildi.

"Iqtisodiy tarix" siyosiy fanlar, sotsiologiya, huquq kabi fanlar bilan birga barcha o'quv rejalarida asosiy o'rinni egalladi. 1901 yilda Birmingham universitetining sanoat sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan savdo-sotiq maktabi tashkil etilib, unga keyinroq AQShning Garvard universitetida birinchi iqtisodiyot tarixi kafedrasiga asos solgan U.Eshli boshchilik qildi.

## **Buyuk Britaniya**

XX asrning boshlarida iqtisodiyot tarixi bo'yicha ma'ruzalar to'liq holda Britaniyaning Oksford va Kembridj kabi qadimgi va nufuzli universitetlarida o'qilardi, 1928 yilda Kembridj va 1931 yilda esa Oksford universitetlarida iqtisodiyot tarixi kafedralari tashkil etildi<sup>1</sup>.

1920-1930 yillarda iqtisodiyot tarixiga qiziqish ortdi va boshqa oliyohlarda, jumladan Edinburg va Glazgo universitetlarining tegishli kurslar o'qitiladigan yo'nalishlarida, keyinroq esa 50-60 yillarda bir necha kafedralar va ixtisoslashtirilgan bo'lmlar tashkil etildi. 60-70 yillarda iqtisodiyot tarixi fani London universiteti, Lester, Sheffild, Liverpul, Nottingem shaharlardagi oliyohlarda o'z mavqeyini egalladi.

## **Fransiya**

Fransiyaning Parij shahrida iqtisodiyot va sotsiologiya tarixi instituti hamda ishlab chiqaruvchi kuchlar bozorining rivojlanishi tarixi bo'yicha markaz mavjud. Lion universiteti qoshida iqtisodiy va sotsial tarix markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

## **Italiya**

Italiya oliyohlarida iqtisodiy tarix kafedralari faoliyat ko'rsatmoqda. Agar 50-yillarning boshlarida Italiya universitetlari ning 46 tasida iqtisodiy tarix bo'yicha faqat 15 ta kurs o'qitilgan bo'lsa, 70-yillarning boshlarida 51 ta kurs, 80-yillarning boshida esa bunday kurslar soni 87 taga yetdi.

## **Shvetsiya**

Shvetsiyada iqtisodiy tarixni o'qitish va tadqiq qilish universitetlarning ijtimoiy fakultetlari doirasida joriy etildi. Stokholm va Uppsal universitetlari bu borada o'z an'analari bilan mashhur bo'ldi. Uppsal universitetida iqtisodiy tarix 1948 yilda "Siyosiy iqtisod" dan mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi va 1955 yilda esa iqtisodiy tarix kafedrasiga asos solindi.

<sup>1</sup> Хашимов П.З., Тураев Х.Н. Экономическая история. – Т: «Университет», 2003. -С. 3.

**AQSh**

Iqtisodiy tarix AQSh universitetlarida ham o'qitiladi. Hozirgi vaqtida iqtisodiy tarix iqtisodiyot nazariyasi bilan yagona tarib asosida birlashdi va bu "iqtisodiyot epidemiyasi"ning kuchli ta'sirida sinovdan o'tkazilgan.

Shunday qilib, iqtisodiyot xorijda allaqachon nafaqat iqtisodchilar, balki yuristlar, siyosatshunoslar va sotsiologlarni tayyorlashning ham ajralmas qismiga aylangan. Sobiq Ittifoqda iqtisodiy tarix Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlardan o'qitila boshlandi.

### **1.2. Iqtisodiy tarix fanining predmeti, metodlari va vazifalari**

Jahon xo'jaligi tarixini bilmasdan turib zamonaviy strategik va ilg'or iqtisodiy fikrlay oladigan haqiqiy iqtisodchi – mutaxassis bo'lish mumkin emas. Respublikamiz mutaxassislari o'tmishda G'arbiy Yevropa, AQSh va Yaponiyada qo'llanilgan iqtisodiy mexanizmlar to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lislari kerak.

#### **Ushbu tajriba quyidagilardan iborat:**

1. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi rivojlanishining amerika-cha yo'li.
2. XX asr iqtisodiyotini davlat tomonidan boshqarish metodlari tarixi.
3. Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi "iqtisodiyot mo'jizasi"ning iqtisodiyotga turki beruvchi sabab va omillari.
4. Bu bilimlar zamonaviy iqtisodiy nazariyalarni shakllantirish uchun ma'lumotlar bazasini yaratish va ayniqsa iqtisodiy inqirozdan chiqishning oqilona modellarini izlashga yordam beradi.

#### **Iqtisodiy tarix fani kishilik jamiyatni rivojlanishini tadqiq etishda uch yo'nalishga asoslanadi:**

- tarix;
- iqtisodiyot nazariyasi;
- aniq iqtisodiyot.

Bu fandan rivojlangan mamlakatlar, mintaqalar va butun dunyo iqtisodiy tarixi, xalq xo'jaligi tarixi hamda iqtisodiy g'oyalar tarixi kabi alohida yo'nalishlar ajralib chiqdi.

Iqtisodiy tarixning bunday tuzilishi va integratsion xususiyatlari uning turli-tuman o'rganish obyektlarini alohida tadqiq etilishiga bog'liq holda tushuntiriladi. Eng umumiy holda tushuntirishda iqtisodiy jarayon va voqealarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixini o'rganish obyekti sifatida xizmat qiladi. Turli mintaqalar iqtisodiy tarixini o'rganish obyekti bo'lib davlatning iqtisodiy siyosati hamda alohida tarixiy voqealarning sabab va oqibatlari xizmat qiladi.

Xalq xo'jaligi tarixining tadqiqot obyekti sifatida ishlab chiqarish usullari evolutsiyasi, xo'jalik tarmoqlari tarixi, alohida iqtisodiy jarayonlar (urbanizatsiya, kooperatsiyalashuv, sanoatlashuv va boshqalar) tarixi, iqtisodiy institutlar (soliq, narx, moliya va kredit, ish haqi) tarixi, iqtisodiy g'oyalar tarixi uchun esa iqtisodiy nazariyalar tarixi, alohida nazariyalar tarixi va iqtisodiy tahlil metodlari tarixi xizmat qiladi.

Iqtisodiy tarixning integratsion xususiyati e'tiborga olinsa uning tadqiq etish predmetlarini ajratish ancha murakkab. Bu masala yurtimiz va chet el adabiyotlarida qayta-qayta ko'tarib chiqilgan va u turli-tuman nuqtayi nazardan tushuntirilgan. Xuddi shunday iqtisodiy tarix va iqtisodiyot tarixining bir-biriga o'xshashligi to'g'risidagi turli fikr va munozaralar ham davom etmoqda.

- Keng ma'noda iqtisodiy tarixning predmeti jamiyatning "iqtisodiy harakati", uning o'zgarishi xususiyatlari, bunday harakatlarning transformatsion qonuniyatları, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalari bilan bo'lgan aloqalaridan iborat bo'ladi.
- Tor ma'noda esa turli mamlakatlar aholisining xo'jalik faoliyati, ulardagи ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ishlab chiqarish xususiyatlarining o'zgarib borishi predmet sifatida o'rganiladi.

### **Iqtisodiy tarixning asosiy metodlari:**

- 1) tarixiylik;
- 2) mantiqiylik;
- 3) tasniflash;
- 4) xronologik;
- 5) tarixiy taqqoslash;
- 6) tarixiy moddellashtirish;
- 7) matematik statistika;
- 8) ijtimoiy psixologik.

Iqtisodiy tarix juda ko'p ijtimoiy fanlar (birinchi navbatda jahon tarixi) bilan bog'liq. Iqtisodiy tarixni bilmasdan turib o'tgan davrlarda bo'lib o'tgan siyosiy voqealarning asl mohiyati va kelajakning siyosiy tendensiyalarini oxirigacha anglash mumkin emas.

Iqtisodiy tarixning jahon tarixi bilan bog'liqligi shundaki, ularning ikkalasi ham hodisalarini evolutsion jarayonida o'rghanadi, lekin jahon tarixinining predmeti ancha kengdir.

Jahon tarixi sivilizatsiyaning umuman o'zgarishini, iqtisodiy tarix esa iqtisodiy jarayonlardagi o'zgarishlarning xo'jalik faoliyatini o'rganadi.

Iqtisodiy tarixning iqtisodiy nazariya bilan bog'liqligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Agarda birinchisi tadqiqotning tarixiy metodiga asoslansa, ikkinchisi esa mantiqiy-iqtisodiy metodga asoslanadi, ammo ularning ikkalasi ham o'zaro bog'langan. Iqtisodiy tarixning iqtisodiy nazariyadan farqi shundaki, iqtisodiy tarix turli iqtisodiy hodisalarini turli iqtisodiy davrlarda ko'rib chiqadi, u asosiy e'tiborni uning qonuniyatlariga beradi, iqtisodiy nazariya esa jamiyatni nazariy tahlil etish bilan shug'ullanadi va asosan tadqiqotning mantiqiy-abstrakt va matematik metodlaridan foydalanadi.

Nazariy abstraksiyasiz iqtisodiy tarix nazariy asosdan ayrılib qoladi. O'z navbatida iqtisodiy nazariya iqtisodiy-tarixiy umumlashtiruvtsiz, dalil-isbotsiz fanga aylana olmaydi. Demak, ularning teng miqdorda rivojlanganligi talab etiladi.

Shuningdek, iqtisodiy tarix iqtisodiy ta'limotlar tarixi bilan chambarchas bog'liqidir. Chunki "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fandagi olimlarning fikrlarini tahlil etish va sharhlash ma'lum bir yuz berayotgan iqtisodiy hodisalar bilan bog'langandir.

### **1.3. Iqtisodiy tarixning manbalari va tuzilmasi**

Xorijiy davlatlar iqtisodiy tarixinining asosiy manbalariga moddiy, madaniy yodgorliklar va yozuvlar, qonunlar to'plamlari, ma'muriy va yuridik hujjatlar, statistik ma'lumotnomalar kiradi.

G'arb iqtisodiyoti "burjuaziya tarixografiyasida marksizm bilan kurashning asosiy shakli" deb qabul qilingan edi. Uning faqatgina ba'zi yutuqlari tan olinardi xolos, masalan, yuqori tadqiqot texnikasi, manbalarni sinchiklab o'rganishi, matematik metodlardan foydalananish va ba'zi boshqa metodlar.

Turli davlatlarning iqtisodiy tarixi muammolari ingliz, fransuz, nemis tarixografiyasida ko'rilgan.

Angliyada iqtisodiy tarixning asoschilaridan biri Arnold Toynbi<sup>1</sup> (1852-1883 yy.) hisoblanadi. Uning Buyuk Britaniyada sanoat to'ntarilishi tarixi bo'yicha ma'ruzalari muvaffaqiyat qozongan. Uning "XVIII asrda Angliyada sanoat to'ntarilishi" (1884 y.) kitobida XVIII va XIX asr davomida Britaniya iqtisodiy tarixi bo'yicha birinchilardan bo'lib tadqiqotlar olib borilgan edi. A.Toynbi o'zining jamoat faoliyatida ishchilar sinfi manfaatlarini himoya qilgani bilan shuhrat qozongan. U ijtimoiy qonunchilik, davlatning mehnat va kapitalga aralashuvi, korxonalardagi ixtiologlarni bartaraf etish tarafdori edi.

### **Fransiya**

Fyustel de Kulanj Numa Deni (1830 – 1889 yy.) Fransiya tarixini o'rganishda ilmiy yondashuv asosida samarali faoliyat olib borGAN. Uning asosiy ishi – "Qadimgi Fransiya ijtimoiy tuzumining tarixi" (1875-1892 yy.), unda muallif G'arbiy Yevropada feodalizmning kelib chiqishini asoslاب bergan, u antik davrdan o'rta asrga o'tishni oxirgi Rim imperiyasining qadamba-qadam afmashinishi deb aytgan.

Fyustel de Kulanj shuni ta'kidlab o'tdiki, Yevropa sivilizatsiyaning asosini faqat Rim jamoat institutlari tashkil qiladi va ularda umuman Germaniya qabilalarining hissasi bo'limgan, chunki u tarixiy faktlarga to'g'ri kelmas edi. U iqtisodiy, xususan agrar sohalarga katta e'tibor qaratgan, u birinchilardan bo'lib o'rta asr Fransiya agrar tarixini o'rgangan. U hujjatli materiallar bo'yicha mashhur bilimdon bo'lib, uning ko'pgina asarlarida ixtiyorilik va muayyan bir g'oya mavjud edi.

### **Fransuz tarixchisi Mark Blok (1886-1944 yy.)**

Mark Blok "Annal" maktabining asoschilaridan biri bo'lib, Yevropa zamonaliv tarixografiyasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning asosiy asarlari G'arbiy Yevropa feodalizmiga bag'ishlangan. Uning eng qimmatli ishlaridan biri "Fransuz agrar tarixining o'ziga xos xususiyatlari"dir. Unda Fransiyada yerdan foydalanishning ijtimoiy jihatlari ochib berilgan. Blok o'rta asr dehqonchiligining xilma-xil-

<sup>1</sup> Хашимов П.З., Тураев Х.Н. Экономическая история. – Т.: «Университет», 2003.- С.7.

ligi g'oyasini olg'a suradi. U ko'pgina G'arbiy Yevropa davlatlarining agrar va ijtimoiy tarixini qiyoslab o'rghanishga harakat qilgan.

### **Labrus Ernest Kamil (1895–1972 yy.)**

Uzoq yillar davomida Sorbonda ijtimoiy va iqtisodiy institutga boshchilik qilgan. Uning asosiy asarlari Fransiyaning XVIII va qisman XIX asrlardagi iqtisodiy tarixiga bag'ishlangan. Ularda narxlar harakati, daromadlar, iqtisodiyotda vaqt-i-vaqt bilan bo'lib turadigan o'sish va inqirozlar tarixi yoritilgan. U birinchi darajali ahamiyatga pu'l muomalasi muammolarini, taqsimlash, texnika rivojlaniishi masalalarini qo'ygan.

### **Fernan Brodel (1902–1985 yy.)**

Fernan Brodel jahon miqyosidagi haqiqiy yulduz hisoblanadi. U XX asr iqtisodiy tarixining eng ko'zga ko'ringan namoyodalariidan biridir. Brodel XVI asrda O'rta yer dengizi tarixi bo'yicha tezislarni ishlab chiqqan. Bu tezislар uchun unga 1947 yilda Sorbonada doktorlik darajasi berilgan, 1949 yilda bu tezislар "Fillipp II davrida O'rta yer dengizi va o'rta asr dunyosi" nomli kitobda nashr etilgan.

Bu kitob O'rta yer dengizining o'sha davrdagi geografiyasи, qishloq xo'jaligi, texnologik, diniy va intellektual muhit to'g'risidagi qomusiy asar edi. 1956 yildan 1968 yilgacha F. Brodel "Solnoma: iqtisodiyot, jamiyat, sivilizatsiya" nomli jurnalning muharriri bo'lib ishlagan.

F.Brodelning ikkinchi muhim asari uch tomli "Moddiy sivilizatsiya, iqtisodiyot, XV-XVIII asr kapitalizmi"dir. Bu kitobda dunyoning ijtimoiy va iqtisodiy tarixi o'rta asrdan sanoat to'ntarilishigacha bo'lgan davrgacha bayon qilingan. F.Brodel insoniyatning ulkan faoliyati va voqealarni tavsiflab, nima uchun G'arbiy Yevropada birinchi bo'lib sanoat to'ntarilishi bo'lganini tushuntirib berishga harakat qilgan. U kapitalizmning paydo bo'lishi vaqt-i yoki "kapitalizm arafasi"ni XIII asr deb bilgan, zamonaviy jamiyat esa uning fikricha, XVIII asr oxirida shakllangan, ammo bu jarayonning dastlabki shart-sharoitlari 6-8 yuz yilliklarda yuzaga kelgan.

## Karl Byuxer (1847-1930 yy.)

Nemis tarixchilari orasida Karl Byuxerni qayd etib o'tish zarur. U o'zining asosiy asari "Xalq xo'jaligining paydo bo'lishi"da (1893 y.) iqtisodiy jarayonlarni uch bosqichga bo'lib, xo'jalik rivojlanishining xususiy rejasini olg'a surgan: birinchi bosqich - "uy xo'jaligi" (hamma ne'matlar qayerda ishlab chiqarilgan bo'lsa, o'sha yerda iste'mol qilinadi); ikkinchi bosqich - "shahar xo'jaligi" (bevosita al-mashinuv bo'lib, shaxsiy ishlab chiqarish, qo'shimcha iste'molchi - buyurtmachi uchun ishlab chiqariladi); uchinchi bosqich - "xalq xo'jaligi" (milliy davlatlarning paydo bo'lishi natijasidir).

K.Byuxerning fikricha har bir bosqich boshqa bosqichga ustunlik qilgan sharoitda ham mavjud bo'lishi mumkin. Uning ko'p ishlari shaharlarning rivojlanishi haqida yozilgan. Olimning ta'kidlashicha, o'rta asrlarda mayda, shahar dehqonchiligi bilan bog'liq xo'jaliklar ustunlik qilgan.

## Maks Weber (1864-1920 yy.)

Nemis tarixchisi va sotsiolog Maks Veberning "Xo'jalik tarixi (umumiy ijtimoiy-iqtisodiy tarixi ocherki)", "Protestantlik etikasi va kapitalizm ruhi" (1904 y.) kabi asarlarida tarixiy-iqtisodiy muammolarni o'rganishdan asta-sekin ijtimoiy muammolarni o'rganishga o'tilgan. M.Veber qadimgi dunyoning agrar tarixi bilan shug'ullangan. Germaniyada XIX asr oxirida dehqonlarning ahvolini o'rgangan. U G'arbiy Yevropa kapitalizmining kelib chiqish nazariyasini ishlab chiqib, uning asosiy manbasi sifatida hunarmandlar va tadbirkorlarning kundalik faoliyati deb hisoblagan. U puritan<sup>1</sup> g'oyalari, ularning kuchli ruhiy tuzilishi kapitalizmning rivojlanishini rag'batlantirib turadi, deb hisoblardi. Uning fikricha, protestantizmning xo'jalik etikasi insonni o'zining professional vazifasini bajarishga, kundalik mehnat faoliyatida dindan yordam izlash, atrof-muhitni o'zgartirishga yo'naltirgan edi.

<sup>1</sup> Puritanlik (ing. puritan, lot. purus – sof, toza) – o'ta qat'iy fe'l-atvor, ehtiyojlarning maksimal darajada cheklanishi, har qanday dabdbabalik va qulayliklarga qarshi bo'lish, oila va nikoh masalalariga patriarxal munosabatga asoslangan turmush tarzi ([https://d.cacademic.ru/dic.nsf/enc\\_culture/2170](https://d.cacademic.ru/dic.nsf/enc_culture/2170))

## Verner Zombart (1863 – 1941 yy.)

Nemis tarixchi-iqtisodchisi Verner Zombart "Zamonaviy kapitalizm" (1902 y.), "Burjua" (1913 y.), "Germaniyaning XIX asr va XX asr boshlarida xalq xo'jaligi" (1923 y.) kabi asarlarida kapitalizmning paydo bo'lishi muammosiga evolutsion yondashuv zarurligini uqtiradi va uning rivojlanishini uch bosqichda ko'rib chiqish zarur, deb biladi, bular: individual, o'tish va ijtimoiy. Mezon sifatida u jamiyatning almashinuv darajasini olgan, ya'ni qadimdag'i uy xo'jaligining to'liq avtarkiyasidan kapitalizmdagi mehnat taqsimotigacha. Uning fikricha, har bir bosqichga o'zining iqtisodiy tamoyili mos keladi. Birinchi ikki bosqichda "o'ziga ovqat topish" tamoyili asosiy hisoblanadi, kapitalizm uchun esa "muvaqqiyatga erishish, manfaatparastlik" xosdir. V.Zombart, shuningdek, o'zining kapitalning dastlabki jamg'arilishi nazariyasini yaratishga harakat qildi, uning asosiy manbasi sifatida feodal yer rentasini qayd etdi. G'arbiy Yevropa iqtisodiy tarixi bo'yicha asar yozish uchun juda katta faktik material to'plagan.

## Yozef Aloiz Shumpeter (1883-1950 yy.)

Yozef Aloiz Shumpeter kelib chiqishi avstriyalik bo'lgan yirik amerikalik iqtisodchi va sotsiolog. 1925-1932 yillarda Bonn universitetining professori, 1932 yildan umrini oxirigacha Garvard universitetining professori. Shumpeter Garvard biznes maktabining asoschilaridan biri bo'lib, u yerda 30-yillarda tadbirkorlik tarixini o'rganish dasturi qabul qilingan edi. Uning asosiy asarlari; "Iqtisodiy rivojlanish nazariysi" (1911), "Iqtisodiy sikllar: kapitalistik jarayonlarni nazariy, tarixiy va statistik tahlil qilish" (1939), "Kapitalizm, sotsializm, demokratiya" (1942), "Iqtisodiy tahlil tarixi" (1954).

Shumpeter nazariyotchi olim bo'lib, u o'zining iqtisodiy sikllar ta'limoti tufayli shuhrat qozondi, uning konsepsiyasiga muvofiq sikllar iqtisodiy o'sish obyektiv qonuniyati sifatida ko'rildigan. Uning deyarli barcha asarlari faqatgina nazariy emas, balki tarixiy va statistik uslublardan foydalanib yozilgan. Misol uchun, "Kapitalizm, sotsializm, demokratiya" kitobida u kapitalizm va sotsializm dinamikasini katta tarixiy istiqboli fonida ko'rib chiqmoqchi bo'lgan. Xususiy tadbirkorlik kapitalizmini asta-sekin davlat tomonidan tartibga solinadigan iqtisodiy tizimga trasformatsiyasi to'g'risidagi xulosa ham unga tegishlidir.

Urushdan keyingi davr G'arb tarixografiyasida iqtisodiy tarix ulushining oshib borishi va katta hajmdagi faktik materiallar to'planishi bilan ajralib turardi. Texnika, texnik ixtiolar, texnologiyalar, alohida iqtisodiy hodisalar tarixi o'rganildi. Sanoat, shu jumladan, alohida korxonalar, tarmoqlar tarixi, ichki va tashqi savdo, transport, fan va boshqalar tarixi tadqiq etildi. Demografik o'zgarishlar, ish kuchi bozorlarining shakllanishi, mehnat unumdorligi o'sishi, xalqaro valyuta va tovar almashinuvi, aholining moddiy sharoitlariga bag'ishlangan ishlari ko'plab chop etildi.

Rus tarixograf yasida xorijiy mamlakatlar, birinchi navbatda Angliya va Fransiyaning agrar muammolariga katta e'tibor qaratilar edi (D.G.Vinogradov, M.M.Kovalevskiy, P.V.Luchitskiy, N.I.Kareev, D.M.Petrushevskiy, A.N.Savin va b.). I.M.Kulishevning ishlari qadimgi Gretsiya va G'arbiy Yevropaning iqtisodiy tarixiga bag'ishlangan edi.

Sovet ittifoqi tarixchilari asarlarida antik davr (V.I.Kuzishin, I.M.Shtraerman), o'rta asrlar (A.D.Udalov, S.D.Skazkin, E.A.Kosminskiy, M.A.Brag), Angliyaning yangi tarixi (V.F.Semenov, S.I.Arhangelskiy), Italiya (V. I. Rutenburg), Fransiya (A.D.Ayublinskaya), Germaniya (M.M.Smirin), Niderlandiya (A.N.Chistozvanov) tarixi tahlil etilgan. Shuningdek, qator o'quv manbalarini qayd etib o'tish lozim, misol uchun V.T.Chuntulova, V.G.Saricheva tahriri ostida yozilgan "Kapitalistik mamlakatlar iqtisodiy tarixi" va F.Ya.Polyanskiy, V.A.Jamina tahriri ostida yozilgan "Kapitalistik mamlakatlar iqtisodiy tarixi". Shu bilan birga 80-yillar oxiri va 90-yillar boshlarida iqtisodiy tarixiy fanlar jahon ilm-fanining rivojlanishdan ajralganlik, tadqiqotlar xulosalarini mafkuraviy yo'naltirilganligi, mxolifatning yo'qligi, manbalardan uzilish, tadqiqot usullari borasida jiddiy orqada qolishi xarakterli edi.

Shu bilan birga AQShda iqtisodiy tarix fanining rivojlanishi biroz boshqacha edi.

"Yangi iqtisodiy tarix" uchun EHM yordamida statistik usullar bilan tadqiqotlar o'tkazish xosdir. Bu matabning namoyondalari amerikalik olimlar A.Konrad, Dj.Meyer, R.Fogel va S.Engermanlar edi. Ular asosan quyidagi ikki muammoga e'tibor qaratishardi: AQSh Janubida quldarlik iqtisodiyoti va XIX asr oxirida mamlakat iqtisodiyotining rivojida temir yo'l qurilishining ahamiyati. Iqtisodiyot rivojlanishining muxolif jihatlarining real vogelikdan farqi tadqiqotlarining asosida yotar edi.

Misol uchun, tadqiqotlarda quyidagi holatlar mavjud bo'lishi mumkin deb taxmin qilinardi: 1861-1865 yillarca AQShda fuqarolar urushi bo'Imagan, quldarlik bekor qilinmagan yoki temir yo'llar u paytda hali bo'Imagan. Shunday tamoyillar asosida yaratilgan model real voqelik bilan solishtirilardi va taqqoslash natijasida XIX asr ikkinchi yarmida quldarlik yoki keng miqyosda temir yo'l qurilishi samaradorligi darajasi to'g'risida xulosalar qilinardi. Natijalar paradoksal edi, ular tanqidga uchradi, lekin hozirga kelib quldarlik iqtisodiyotining samaradorligi u haqida o'ylangandan ancha past ekanligi, temir yo'l qurilishi esa iqtisodiyotda muhim rol o'ynashida hech kimda shubha qolmadidi.

Shunday modellarning asosiy kamchiligi faraz qilinayotgan vaziyatni oldindan ko'ra bila olmaslidadir, umuman olganda real iqtisodiyotni to'liq aks ettirib turuvchi modelni yaratish imkonini yo'qdir. XX asrning 70-yillarida "yangi iqtisodiy tarix" iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli tendensiyalarni tahlil qilish ishlari bilan qo'shilib ketdi.

Iqtisodiy dinamikaning tahlil yo'nalishi XIX asrning oxiri XX asr boshlarida vujudga keldi. Ushbu yo'nalishning shakllanishi va rivojlanishiga rus va sovet olimlari (M.I.Tugan-Baranovskiy, N.D.Kondratev, E.S. Varga, I.A.Traxenberg va b.), ingлиз (S.Djevons), fransuz (A.Aftalon) va boshqa olimlar katta hissa qo'shganlar. 1917 yilda AQShda Iqtisodiy tadqiqotlar Milliy byurosi tashkil etilib, u iqtisodiy sikllar va iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishini tahlil qilish bo'yicha ishlarni olib bordi. Ushbu ilmiy maktab XX asrning 60-70-yillariga kelib o'sha davrdagi iqtisodiy rivojlanishni miqdoriy tahlil qilish bo'yicha juda boy materialni o'zlashtirdi. Natijada iqtisodiy rivojlanish sohasidagi tadqiqotlar birinchi o'ringa chiqdi, garchi boshqa mavzular ustida (ish haqining uzoq muddatli dinamikasi tendensiyalari, jahon xo'jaligi aloqalari rivojlanishining tarixiy tendensiyalari) ham faol izlanishlar olib borilgan bo'lsa ham.

Yangi iqtisodiy tarixning sintezi va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarining tahlili sifatida XX asrning 70-yillarida iqtisodiy tarixda yangi yo'nalish vujudga keldi. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar miqyosi keng bo'lib, u tadqiqot davri, iqtisodiyot sektori va iqtisodiy jarayonlar tiplarini tanlanishi bilan bog'liq edi. Iqtisodiy o'sish muammosi va unga ta'sir etuvchi turli omillar tahlili ustuvor ahamiyatga ega edi. Masalan, ilmiy-teknika

taraqqiyoti, texnologiyani yangilash, moliya tizimi evolutsiyasi, xalqaro moliya bozorlari taraqqiyoti, turli tarixiy davrlarda davlatning iqtisodiyotdagi rolini baholash, mehnat munosabatlari evolutsiyasi, ish kuchi bozori tahlili va boshqa shu kabi mavzular bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan edi. Eng ko'zga tashlanadigan ishlardan ba'zilari: U.Rostouning "Jahon iqtisodiyoti", unda XVIII asrdan boshlab jahon iqtisodiyoti rivojlanishini umumlashtirishga harakat qilinadi, shuningdek F.Bodelning "Moddiy sivilizatsiya, iqtisodiyot, kapitalizm. XV-XVIII asrlar" asarida kapitalistik iqtisodiyotning genezisi tadqiq etilgan edi.

Shunday qilib, tarixiy-iqtisodiy tadqiqotlar zamonaviy g'arb fanining muhim qismi hisoblanadi, kapitalizm davriga nisbatan olinganda tadqiqotlar iqtisodiyot fani tomon siljigan, shunga qaramasdan, tarixiy tadqiqotlar g'arb tarixchilari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Iqtisodiy tarix kursining tuzilishi va davrlashtirish.**

Eng murakkab muammolardan biri iqtisodiy tarixni davrlashtirishdir. Hozirda iqtisodiy adabiyotlarda ikkita asosiy yondashuv mavjud: formatsion va sivilizatsion.

Ilmiy-texnika inqilobi ta'sirida insoniyat tarixini davrlashtirishga turli xil yondashuvlar qo'llanila boshlandi, masalan, industrlashtirishdan oldingi-industrial-postindustrial jamiyat (D.Bell, A.Turen va boshqalar); agrar-industrial-texnogen sivilizatsiya (O.Goffler).

Tadqiqotlarning har bir yo'nalishi real voqelikning faqatgina bir qismini o'rgangan. Ko'pchilik zamonaviy tadqiqotchiilar hozirda mavjud nazariyalarning hech biri universallikka da'vo qilolmasligiga, tarixning har qanday davrlashtirilishi ixtiyoriy ekanligi va bu borada bahslashish mumkinligi bilan rozilar. Ko'pgina nazariyalar tarixiy jarayonlardagi real tendensiyalarni namoyon qildi, lekin ishonarli bo'lindi, chunki boshqa tendensiyalar ustuvorlikka erishib baland keldi.

Insoniyat jahon sivilizatsiyasining katta o'zgarishlar yuz berish bosqichida turganligi sababli tarixiy voqealarga sivilizatsion yondashuv bo'lishi tabiiydir. Bunda bir mamlakat emas, balki u yoki bu jamiyatning moddiy, g'oyaviy, madaniy, diniy, ma'naviy belgilari yaxlitligicha uning e'tibor markazida bo'ladi.

Bu yondashuv, birinchidan, zamonaviy insoniyatga bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnik va madaniy xususiyatlar-

ning umumiyligi umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarini jihatdan xosdir. Ikkinchidan, bu yondashuv asosida G'arb sivilizatsiyasi mezonlari, uning liberal-demokratik qadriyatlarini va ilmiy-texnik rivojlanganlik darajasi yotadi. U alohida mamlakatlar, ularning iqtisodiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari va boshqalarning rivojlanishini batafsil o'rghanishga yordam beradi.

### **Hozirga zamон qabul qilingan davrlashtirish quyidagi-chadir:<sup>1</sup>**

1. Qadimgi tarix (eramizdan avvalgi 100 minginchi yildan V asrgacha).
2. O'rta asrlar (V-XV asrlar).
3. Yangi davr (XVI-XX asrgacha).
4. Eng yangi davr (1914 yildan to hozirgacha).

Ushbu davrlashtirishni "Iqtisodiy tarix" kursiga moslashtirish zarur. Ilm-fan taraqqiyoti, ta'lim, madaniyat zamonaliviy jamiyatda yuqori ilmiy-texnika ishlab chiqarish darajasiga va butun iqtisodiyotga asoslanadi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. Iqtisodiy tarixning iqtisodiy nazariya bilan bog'liqlitk jihatlarini yoritib bering.
2. "Burjuaziya tarixografiyası" deganda nima tushuniladi?
3. Tarixni iqtisodiy jihatdan davrlashtirishda nimalarga e'tibor qaratiladi?

<sup>1</sup> Хашимов П.З., Тураев Х.Н. Экономическая история. – Т.: «Университет», 2003. - С.15.

## § 2-MAVZU. QADIMGI DUNYO IQTISODIYOTINING RIVOJI

**Tayanch atamalar va iboralar:** buyuk ipak yo'li, karvon, elchi, "Evpatrid", iolis, demos, latifundiya.

■ **Reja:**

- 2.1. *Qadimgi Sharq davlatlarining iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari*
  - 2.1.1. "Buyuk ipak yo'li"ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi o'rni.
  - 2.1.2. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo.
  - 2.1.3. Amir Temur davridagi iqtisodiy g'oyalar.
  - 2.1.4. Shoxruh Mirzo va Mirzo Ulug'bek davridagi iqtisodiy islohotlar.
- 2.2. *Qadimgi Gretsya rivojlanishining asosiy xususiyatlari*.
- 2.3. *Qadimgi Rim iqtisodiy rivojlanishining asosiy bosqichlari*.
- 2.1. *Qadimgi sharq davlatlarining iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari*.

### **2.1.1. "Buyuk ipak yo'li"ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi o'rni**

Xitoyning Tinch okeani bilan Hindiston, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa davlatlarini bog'lovchi qadimgi savdo yo'li – Buyuk ipak yo'lidir. Bu yo'l orqali asosan ipak eksport qilinganligi sababli "Ipak yo'li" nomi bilan shuhrat qozongan. Bu yo'l m.a. II asrdan to milodiy XV asrgacha, suv yo'llari rivojlanguncha Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Eron, Yaqin Sharq hamda O'rta yer dengiz mamlakatlari o'rtaidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojida muhim rol o'ynagan.

Manbalarga qaraganda, Sariq dengiz qirg'oqlaridan Xuanxe daryosidagi Sian shahridan boshlangan dastlabki yo'l Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan (Xutan), u yerda ikkiga ajralib, biri shimali-g'arbg'a ikkinchisi janubi-sharqqa yo'nalgan. Karvon yo'lining umumiyligi 12 ming chaqirim atrofida bo'lgan. Nemis tarixchisi K.Rixtgofen 1887 yil ushbu yo'nalishga ilk bor "Buyuk ipak yo'li" degan nisbat beradi va bu ibora muammolaga kiritiladi.

Shimoliy yo'l Turfon orqali Tarim vohasiga va bu yerdan qashg'ar, Dovon (Farg'ona vodiysi)ga borgan. U yerdan So'g'dning markazi Samarcand va Marg'iyona (Marv)ga yo'nalgan. Ipak yo'li Farg'ona vodiysida yana juft tarmoqqa bo'lingan. Janubiy qismi O'zgandan O'sh, Quva, Marg'ilon, Qo'qon orqali Xo'jand, Samarcand, Buxoro sari uzaygan. Keyingisi Aksi (Andijon) va Qamchiq dovonidan o'tib, Iloq vohasi hamda Toshkent tarafga yetgan. Demak, Qamchiq tarixiy yo'lning uzviy bo'lagi hisoblangan. Bu yo'l mohiyat-e'tibori bilan Sharq va G'arbni turli jahhalarda bog'lovchi yo'ldir (savdo-sotiq, diplomatiya, madaniyat va boshqalar).

Shu karvon yo'l orqali Xitoydan ipak Xitoya esa har xil gazzlamalar, gilam va poloslar, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho tosh va dorivorlar keltirilgan. Baqtriya va Dovon (Farg'ona)dan ot va tuyalar olib borilgan. XV-XVI asrlardan bu yo'lning ahamiyati ancha pasaydi, ammo Markaziy Osiyo respublikalarining siyosiy mustaqillikka erishuvli tufayli bu yo'lning yanada jonlantirishga katta ehtiyoj tug'ildi. Xitoy, Qирг'изистон, О'zbekiston, Turkmaniston, Kaspiy dengizi orqali Ozarbayjon, Gruziya, Qora dengizga chiquvchi, undan Yevropa (Parij, Rotterdam)ga yetkazuvchi savdo yo'li amal qilib turibdi.

Markaziy Osiyoga, xususan, hozirgi O'zbekiston hududiga qiziqish avvaldan ma'lum va bu har tomonlama (siyosiy, iqtisodiy iihatdan) ahamiyatli bo'lgan. Tarixiy va hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, bu hudud yer, suv, iqlim, tabiat, geografik o'rni, qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi jihatidan ajralib turgan. Aholining mehnatsevarligi, mirishkorligi, bunyodkorligi, kasb-hunarga mehr qo'yanligi va ijodkorligi muhim ahamiyatga ega.

Hudud zaminida turli-tuman boyliklar, ayniqsa oltin, kumush, boshqa rangli metallar va javohirlarning mavjudligi va serobligi shu soha hunarmandchiligi rivojida hal qiluvchidir. Ayniqsa oltin ajnabiylarni magnit kabi tortganligi aniq.

Bu o'lka eksport potensialida oltin, kumush va undan qilingan zebu-ziynatlar, zargarlik buyumlari, sifatli po'lat olish va undan yasalgan asbob-uskunalar, ayniqsa, qilich, qalqon va boshqa harbiy asbob-anjomlar, ipakdan to'qilgan xon atlas va boshqa nafis matolar, ajoyib ko'rinishli qorako'l terisi va undan tikilgan buyumlar xaridorgir bo'lgan.

Markaziy Osiyo donishmandlarining kitoblari, diniy va ilmiy asarlar hammani qiziqtirgan. Kitob yozish (hattotlar) san'ati ham yuqori bo'lган. Miniatyura san'ati yuqori darajada edi.

Shu sababli bilim, ilm makoni bo'lган kitob savdo-sotig'i yetakchi o'rinni egallagan. Hozirgi davrda ko'plab taniqli mutafakkirlarimizning asarlari xorij davlat va shaxsiy kutubxonalaridan topilmoqda va o'z vatani, O'zbekistonga qaytarilmoqda. Bu fakt shundan dalolat beradiki, o'z davrida kitob savdosiga Buyuk ipak yo'lining asosiy faoliyatidan biri bo'lган, demak, bu yerdan chetga ko'plab ilm va san'at asarlari chiqarilgan.

Mamlakatimizda dunyodagi eng yaxshi ot zotlari bo'lганligi ma'lum, xalq dostonlarida uchqur, ziyrak tulporlar haqidagi rivotlar haqiqatga juda yaqin. Masalan, Xitoy elchisidan uni qanday tuhfa qiziqtirishini so'ralganda, ot olishni afzal ko'rgan. Otlar xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida, harbiy xizmatda, transport vositalasi sifatida, uloq chopish, chovgan o'ynash, zeb-ziynat sifatida nihoyatda qadrlangan. Shu sababli, mazkur hudud otlar eksportida yetakchi o'rinni egallagan.

Qishloq xo'jaligida paxta yetishtirish va paxtadan olinadigan mahsulot asosiy o'rinda turgan. Polizchilik (ayniqsa, qovunchilik), bog'dorchilik (uzum) yaxshi rivojlangan. Agar bizga ipak yetishtirish Xitoydan kirib kelgan bo'lsa, xitoyliklar bizdan zotli otlar sotib olgan, uzum va beda yetishtirishni o'rganishgan.

O'zbekiston hududida qorako'l teri beradigan qo'yilar parvarishi muhimdir. Ularning terisi bilan savdo qilish muhim ahamiyat kasb etgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, bir karvonda 500-1000 tagacha odam, ot, tuya, boshqa ulovlar, savdogarlar bilan birga diplomatlar, elchilar, xajga boruvchilar, harbiy qo'riqchilar bo'lган. Butun yo'l boshidan-oxirigacha 120-150 kun davomida bosib o'tilgan.

## **2.1.2. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo**

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo ilg'or ijtimoiy tafakkurning Sharqdagi yirik markazlardan biriga aylandi. Bu davrda mazkur hududdagi davlat markazlashgan va eng rivojlangan pallaga kirdi. Buyuk ipak yo'li, Tinch okeani atrofidagi mamlakatlar (Yaponiya, Xitoy, Koreya) ni Vizantiya va G'arbiy Yevropa bilan chambarchas bog'lar edi. Bu esa karvon yo'li orqali minglab odamlar, ot-ulov-

lar, turli-tuman tovarlarning qarama-qarshi harakati, almashuvini vujudga keltirdi.

O'rta Osiyo Yevropani Osiyo bilan bog'lovchi yirik moddiy-madaniy va savdo markaziga aylandi. Bu jarayonlar bir-biridan minglab chaqirim uzoqlikdagi davlatlar, xalqlar o'tasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirdi. Axir, Osiyodagi va Yevropadagi tovarlarga bo'lgan talab va taklifni yaxshi bilmay turib, uzoq va xatarli yo'lga chiqish mumkinmidi, katta karvonlarni tog'u toshildan, qum cho'llardan olib o'tish osomnidi, buning uchun ma'lum qoidalarga, amallarga tayanib ish ko'rish kerak bo'ldi.

Yevropaga qancha va qaysi tovarlarni olib borish, u yerdan nima olib qaytish, karvon yo'lidagi mamlakatlar, xalqlar talab-ehtiyojini yaxshi bilish talab etilgan. Oqibatda turli bilim sohalari, matematika (al-jabr), geometriya (xandasasi), astronomiya (falakiyot) va boshqa ko'pgina fanlar rivojlandi.

### **2.1.3. Amir Temur davridagi iqtisodiy g'oyalar**

Amir Temur va uning avlodlari davrida markazlashgan davlat barpo etildi, iqtisodiyotning barcha sohalarida (hunarmandchilik, qurilish, qishloq xo'jaligi, ayniqsa savdoda) muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Bunga to'g'ri tanlab olingan iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat yordam berdi.

Amir Temur (1336-1405 yy.) davlat va iqtisodiyotni boshqarishda o'ziga xos maktab yaratgandi. Sohibqiron davlatida devoni buzurg (bosh vazir)dan tashqari har bir viloyatda Devon deyiluvchi boshqarma bo'lgan. U davlatning barcha ishlarini: saliq yig'ish, tartib saqlash, ijtimoiy binolar - bozorlar, hammomlar, yo'llar, suv inshootlari tarmoqlarini nazorat qilardi.

Xalqning hulq-axloqi kuzatib turilardi. Uning xodimlari vaqt-i-vaqt bilan so'roq, tekshirish, taftish va tergov ishlarini olib borishardi. Ayniqsa, toshu-tarozi to'g'riliqi, odil baho tekshirilgan, qallob va tovlamachilar qat'iy jazolangan, eng muhimi bu ish to'ppa-to'g'ri bozorda, xalq oldida amalga oshirilgan. Savdogarlarga olib kelingan mol ustiga 10 foiz narx qo'yish mumkin bo'lgan.

Temur sultanatini idora qilish uchun turli vazirlar faoliyat ko'rsatgan<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Темур тузуклари. – Т: "O'zbekiston" 2015. –6.123.

- Birinchi vazirga yer soliqlari, boj, o'lpon-soliq undirish hamda mirshablik yumushlarini boshqarish yuklatilgan. Bu vazir mamlakatdagi muhim ishlarni, kundalik muammolarni hal qilgan, raiyat ahvolini kuzatgan, viloyatlardan olingan hosil, soliq, o'lponlarni taqsimlagan.
- Ikkinci vazir sipoh vaziri hisoblanib, sipohiylarning maoshlari va tanho (bu yerda - toju-taxt uchun qilgan xizmatlari evaziga beriladigan in'om ma'nosida)larni boshqargan.
- Uchinchi vazir esa egasiz qolgan, o'lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, kelib-ketayotganlar, savdogarlar mol-mulkiyidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvasini boshqarib, bularning barchasida to'plangan daromadlarni omonat tarzida saqlagan. Agar g'oyib bo'lganlar va vafot etganlarning mol-mulki bo'lsa, ularni o'z merosxo'rlariga topshirgan.
- To'rtinchi vazir sultanat ishlarini yurituvchi vazir bo'lib, u sultanatdagi jami idoralarning kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilingan xarajat, xatto otxona va saroydag'i boshqa jonzotlarga qilingan xarajatlardan ogoh bo'lib borgan. Vazirlar Devonbegiga bo'yungan.

### **Sohibqiron Amir Temur, jumladan, shunday degan edilar:**

- "Amr qildimki, sadri a'zam sayyidlar (sadr, vaqf yerlar va vaqf etilgan boshqa mulkning hisob-kitobini olib boruvchi mansabdar - muallif) va boshqa arboblarga suyurg'ol tariqasida berilgan yerlar hamda vaqflarning ahvolini, ular vazifalarini qay darajada ado etayotganini, ularga ajratilgan jamg'armalarning taqsimlanishini mena arz qilib tursin... Sultanatning har bir idorasida bo'ladigan kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kotib tayinlansin".

Sohibqiron davrida yerga egalikning beshta asosiy ko'rinishi bo'lgan:

1. Suyurg'ol yerlar.
2. Tarxon yerlar.
3. Ushr yerlar.
4. Vaqf yerlar.
5. Askarlar, askarlarning rahbarlariga beriladigan yerlar.

## Suyurg'ol yerlar

1. Katta hajmdagi bu yerlar davlat tomonidan ajratib berilib, bir avloddan ikkinchisiga o'tgan. Suyurg'ol egasi markaziy xazinaga to'lanadigan soliqdan ozod qilingan. Bunday yer egalari dehqonlarni ishlatib, yer solig'i - xiroj olganlar.

## Tarxon yerlar

2. Bu yerlar xususiy mulk bo'lib, ular odamlarga biror-bir xizmati uchun berilgan.

## Vaqf yerlar

3. Masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston va shu singari joylarga doir yerlar. Vaqfda yer, suv, bozor, qul, pullar va boshqalar mol-mulki bilan in'om etilardi. Masalan, Amir Temurning Axmad Yassaviy uchun qurdirgan vaqfnomasi katta ahamiyatga ega. Ahmad Yassaviy va boshqa avliyolar, din peshvolarining maqbaralari uchun vaqfdan mablag' ajratilgan.

4. Kimda-kim biror sahroni obod qilsa yoki qoriz (yerosti suvlarini tortib chiqarish uchun qurilgan inshoot) qursa, biror bog'ko'kartirsa yohud xarob bo'lib yotgan joyni obod qilsa, birinchi yili undan hech qanday soliq olinmagan. Ikkinci yili raiyat o'z roziligi bilan bergenini olgan. Uchinchi yildagina soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilgan.

5. Amir Temur kattayu-kichik har bir shahar va qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilish, faqru-miskinlarga langarxona (yo'lovchilar qo'nib o'tadigan, kambag'aj yetim-yesirlarga ovqat beriladigan joy), g'aribxona qurish, kasallar uchun shifoxona buniyod etish va ularda ishslash uchun tabiblar tayinlashni buyurgan edi.

Amir Temur Angliya va Farangiston qirollariga murojaat qilib, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirdi. Markaziy Osiyo orqali o'tadigan Buyuk ipak yo'lida karvonlarning xavfsizligini ta'minladi. Mashriqdan Mag'ribgacha bo'lgan savdo-sotiq ishlarini kuchaytirib, turli ravotlar, karvonsaroylar, savdo rastalari qurdirdi.

Sohibqiron 1365-1366 yilning qishida Qarshi shahrining atrofini, 1370 yili Samarqandni devor bilan o'rab, qo'rg'on buniyod etirgan. 1380 yilda Shahrисабзда Oqsaroyni qurishga kirishib, shahar atrofini devor bilan o'ragan. Bu misollar aytib turibdiki, devor va qo'rg'onlar bekorga barpo bo'lmasan. Ular chegara vazifasini

o'tab, shahar aholisini do'st-dushman, bordi-keldidan muhofaza qilgan. Qarshi so'zi ichkari va tashqari degan ma'nolarga egadir. Ma'lumki, Amir Temur sultanatining chegarasi harbiy yurishlar vaqtida beqaror edi, lekin shunday bo'lishiga qaramay, uning yurtidan biron-bir narsa tashqariga so'roqsiz olib chiqib ketilmagan.

### **Jahongir bu haqda quyidagi fikr bildirgan:**

"Mamlakatni himoya qilib, dushmanni yo'latmagan navkarni yuqori martabaga ko'tarib, hurmatlasinlar. O'g'ri va qaroqchilarni jazolasinlar, fasodchi, buzuqi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan va chetga chiqadigan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlik haqidagi xabarlar qo'shni podsholar, ularning gaplari, ishlari uzoq o'lkalardan bo'lib, mening dargohimda yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi batatsil xabarlarni (xabarnavislari) rostlik, to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar. Xabarlarni kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy mening arzimga yetkazib tursinlar".

Mazkur vazifalarni bajarmoq uchun har bir shahar va qishloqda qutvol (qal'a boshlig'i) tayinlanib, ular sipoh va raiyatga soqchilik qilganlar va yana yo'l ustiga kuzatuvchilar, zabit (idora etuvchi, boshqaruvchi, qo'shin boshlig'i)lar tayinlanib, ular yo'llarni qo'riqlab, o'tkinchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo'yganlar. Yo'l ustida biror odamning biror narsasi yo'qolsa, o'zi o'ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, buning uchun javob berish ularning zimmasida bo'lган.

### **Buyuk jahongirning mana bu so'zlari yanada qimmatliroqdir:**

"Har mamlakat va diyor sayohatchilari musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdi-  
lar. Har bir mamlakat va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qayerga borishmasin: Xitoy, Xo'tan, Chinu-  
Mochin, Hindiston, Arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir,  
Farangiston, u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfalaridan keltirishsin. O'sha mamlakatda yashovchi kishilarning hol-ahvo-  
li, turish-turmushlari haqida menga xabar olib kelsinlar, har bir mamlakat hukmdorining o'z raiyatiga qanday muomala-yu mun-  
sabatda ekanligini aniqlasınlar".

Amir Temur davrida ulufa (oziq-ovqat, maosh, soliq turi) berish quyidagicha edi. Amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar va sipohiylargacha ushbu tartibda maosh berilgan: oddiy sipohiyga o'z vazifasini o'rinalatib bajarish sharti bilan maoshi mingan otining bahosiga teng bo'lgan. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to'rt otgacha tayinlangan. O'nboshilar maoshi qo'l ostidagi oddiy sipohiylnikidan o'n barobar ortiq bo'lgan. Yuzboshilar maoshi o'nboshilarnikiga qaraganda ikki barobar, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda edi.

Chorpilchor (urush vaqtida) xatoga yo'l qo'ygan sipohylarning maoshi o'ndan birga kamaytirilgan. O'nboshi yuzboshi tasdig'i bilan, yuzboshi mingboshining tasdig'i bilan, mingboshi bosh amir tasdig'i bilan ulufa olganlar. Bosh amir - amir-ul-umaroning maoshi qo'l ostidagilardan o'n barobar, devonbegi va vazirlarning maoshlari amirlarnikidan o'n barobar ortiq bo'lgan. Yasovul (xonlarning kichik xizmatchisi, qo'riqchi), chopovul (chopqunchi, asosan tunda o'tkaziladigan bosqin qatnashchisi), kalakchi (aholi dan yig'ilgan hosildan xiroj miqdorini belgilovchi mansabdar) larning maoshi xizmatiga yarasha, mingdan o'n ming tangagacha bo'lgan.

Sayyidlar, olimlar, fozil kishilar, hakimlar, tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar, xabarchilar, tarixdonlarning o'z hollariga qarab suyurg'ol, vazifa va maosh belgilangan. Xizmatchilar, farrosh (bu yerda palos to'shovchi ma'nosida) larga yuzdan ming tangagacha maosh berilardi.

Umuman, davlat tomonidan beriladigan maoshlarning to'liq ma'lumotlarini Devonbegi va vazirlar Amir Temurga bildirib, so'ngra tanho (bu yerda saroy xizmatchilari, lashkarboshilar va askarlar uchun maxsus xazinadan beriladigan maosh. Ba'zida alohida xizmat ko'rsatgan beklarga tanho sifatida yer-suv berilgan) bergenlar.

Sohibqiron vasiyatiga ko'ra uning to'ng'ich o'g'li Muhammad Jahongir Mirzo valiahd va viloyat hokimi bo'lib, o'n ikki ming otliq askarga ulufa olib, bir viloyat olgandi. Uchinchi ug'li Mironshoh Mirzo to'qqiz ming otliq askarga teng ulufa olgan va bir viloyatni tasarruf qilgan. To'rtinchi o'g'li Shohruh Mirzo yetti ming otliq askarga ulufa olgan va bir viloyat egasi bo'lgan. Nabiralari ham uch mingdan yetti minggacha otliqqa ulufa va bir viloyat oladilar.

Amir Temur davrida piyodalar, kalakchilar, yasovullar, chopo-vullarning bir yillik maoshlarini hisoblab, belgilangan mablag'ni devonxonaga keltirib shu yerda ularga tarqatilgan. Sipohiyalar va bahodirlarning yarim yillik maoshlari ham hisoblanib, tanho xazinasidan olib berilgan.

O'nbossi, yuzboshilarga maosh shahar aholisidan olinadigan soliqlardan yig'ilgan xazinadan va podsholik mulki daromadidan naqd pul hisobida olingan. Mingboshilarga viloyat ichidagi yerlardan tiyul (xiroj va soliq yig'ib olish haqi bilan in'om etiladigan yer-mulk'lardan berilgan. Amirlar va amir-ul-umarolarga viloyatlardan biri tiyul etib belgilangan. Temur viloyatlardan tushgan daromadlarni taqsimlash haqida shunday degan edi: "Viloyatlar va mamlakatlardan olingan jami daromadni taqsimlab, maosh berish yerliklariga biriga kam, biriga ortiq qilib yozsinlar. So'ng yerliklar devonxonaga keltirilsin. Amirlar, mingboshilar shu yerliklardan birini chiqarib olsin".

Amirlar, mingboshilar raiyatdan molu jihot (naqd pul va mahsulot bilan to'lanadigan soliq) yiqqanlarida, xirojdan ortiqcha sovari (podsho va xonlar o'z viloyatlaridan o'tayotganlarida xalqdan talab qilinadigan tortiqlar), qo'nalg'a (choparlar va elchilarga qo'noq berish solig'i) va shilon (podshohlar va amirlarning ovqati uchun yig'iladigan soliq) talab qilinmagan.

Tiyul qilib berilgan har bir mamlakatga ikkitadan vazir tayinlagan. Ularning birinchisi viloyatdan yig'ilgan mollarni yozib raiyat ahvolini tekshirib turib, tiyul egasi (jog'irdor) ning fuqarolarga zulm yetkazmasligi uchun ularning holidan xabardor bo'lib turgan, yig'ilgan butun mol-mulklarni kirim daftariga yozgan. Ikkinchisi daromadning xarj etilgan qismini chiqim daftariga yozib, yig'ilgan mollardan sipohiyarlarning maoshiga taqsim qilingan.

### **Amir Temur bu ishlar haqida yana quyidagilarni yozgan:**

"Qaysi amirga tiyul berilar ekan, uni uch yilgacha o'z holiga qo'yinsinlar. Uch yil o'tgandan so'ng uni tekshirib ko'rsinlar. Agar mamlakat obod, raiyat rozi ekan, shu holicha qoldirsinlar. Agar ahvol bunga xilof ravishda bo'lsa, ul viloyat holisa (davlat ixtiyordagi barcha soliqlardan ozod etilgan yer-suv)ga o'tkazilib, uch yilgacha o'sha jog'irdorga ulufa berilmasin".

Sohibqiron mamlakatlarni fath etish bilan birga, to'plangan mol-dunyoni, olinadigan boj soliqlarini xayrli maqsadlar uchun surf qilgan: "To'plangan xazinadagi naqd pul va qimmatbaho

buyumlarni sipohlarga taqsimlab berdim. Qo'shinga yetarli darajada ozuqa berdim", degan edi. Piri Amir Shamsiddin Kulol haqidagi: "Ular menga Xorazmga borishimni maslahat berdilar. Agar g'alaba qozonsam, Samarcandning bir yillik xirojini ularga nazr qilishga qaror qildim", - deydi.

## XIROJ

Ma'lumki, xiroj yer solig'i uchun va umuman daromad solig'i uchun qo'llanilgan. Xiroj ayrim hollarda daromadning uchdan birini tashkil etgan. Shuningdek, xirojni "mol" deb ham atashgan. "Raiyatga haq-nohaq jarimalar soluvchi vazir sultanatni buzadi", - degan edi sohibqiron.

### **Muruvvatli jahongir:**

"Kimki mening xizmatimni qilgan bo'lsa, xizmat haqini ado etdim. Farzandlar, qarindoshlar, oshna-og'aynilar, qo'ni-qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne'mat martabasiga erishganimda unutmadi, molu mulk va naqd pul bilan haqlarini ado etdim", - deydi. Shuningdek, u amirlar va sipohiyarlarni martaba va unvonlar, zaru zarvarlar bilan xushnud etgan, bazmlarda o'z yonidan joy bergen, xullas, ularning jang vaqtidagi qahramonliklarini hech vaqt unutmagan.

Sohibqiron hayr-ehson ishlari bilan odamlarning ko'nglini olgan. Sipoh va raiyatga bir ko'z bilan qarab, bahodirlar, dovyuraklarga maxsus faxriy o'tova (bosh kiyimiga taqiladigan qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynatli belgi), kamar va tarkash (sadoq - o'qdon) taqdim etib, martabalarini yanada yuqori ko'tartirdi. Har el va har mamlakatning ulug'larini, boshliq-oqsoqollarini qadrлади. Ularga sovg'a-salomlar berib, xizmatlardan foydalandi. Sipohiyarlarni hamisha jangda tayyor turishlari uchun oylik haqlarini so'rattirmay, vaqtida bergen. Sarmoyasi qo'lidan chiqib ketgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilgan.

U vaqtlarda bozor ahlidan soliq olish qal'a boshlig'i zimmasiga yuklangan. Soliq olish Qur'oni karim ta'limotiga muvofiq edi. Hadis va "Hidoya" kitoblarida bu to'g'rida to'la ma'lumotlar berilgan. Hech bir shahar va qishloqqa odamlardan sari shumor (jon boshidan olinadigan soliq) va xonashumor (har bir xonadondan olinadigan soliq) olinmagan. Raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni

og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanilgan.

Amir Temur "Raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa siyohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Siyohning tarqoqligi esa, o'z navbatida sultanatning kuchsizlanishiga olib boradi. Fath etilgan yerlik fuqaro azaldan berib kelingan xiroj miqdoridan rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar. Xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig'sinlar. Fath etilgan har bir mamlakatning mol-mulkini, buyumlarini talon-tarojdan saqlasınlar. O'sha mamlakatdan tushgan o'lja mollarni hisob-kitob qilsinlar".

Yevropadan ancha ilgari bu davlatda budget tushunchasi bo'lgan. Davlat xazinası, kirim, chiqim, hisob-kitob qat'iy olib borilgan, taftish yo'lga qo'yilgan edi. Buning uchun ma'lum mas'ul shaxslar ajratilgan va doim hisob berib borganlar.

A.Temurning davlat va iqtisodiyot sohasidagi asosiy fikrlari "Temur tuzuklari"ca to'la bayon etilgan. Tuzuklar Amir Temurning 1342-1405 yillar oraliq'idagi faoliyatini aks ettiradi va ikki qismidan iborat.

Birinchi qismda asosan yagona davlat barpo etish, uni mustah-kamplash, qo'shni yurt va mamlakatlarni zabit etish masalalari yoritilgan bo'lsa, ikkinchi qismda sohibqiron nomidan aytilgan o'ziga xos vasiyat, pand-nasihat, turli sohalar, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiyotga oid fikr-mulohazalar keltirilgan.

A.Temur mamlakatda gadoylar bo'imasligi kerak, degan qoidaga amal qilgan va uning yo'lini ham belgilab bergan. Gadoylar ning barchasi to'plangan va ularga bir yillik kerakli yemish, kiyim-kechak berilgan, ular biror foydali ish bilan shug'ullanishga jalb etilgan. Odadta, ko'pchilik gadoylikni tark etib, biror faoliyat bilan kun ko'rgan. Gadoylikni tark etmaganlar qul qilib sotilgan yoki mamlakatdan chiqarib yuborilgan.

## **2.1.4. Shohruh Mirzo va Mirzo Ulug'bek davridagi iqtisodiy islohotlar**

A.Temur va'fotidan keyin Shohruh va Ulug'bek (1394-1449 yy.) podsholigi (1409-1449 yy.) davrida iqtisodiyot yaxshi rivojlandi. Ayniqsa qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq munosabatlari o'sdi. Bu Movarounnahrda (arabcha "daryo ortidagi" (mamlakat) degani) 1428 yilda Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan pul islohoti

bilan bog'liqdir. Jamiyatda pulning ahamiyatini yaxshi tushungan holda uning qadr-qimmatini oshirish uchun harakat qilingan.

O'sha davrda muomaladagi fulusiy<sup>2</sup> chaqa pullar yengil vaznda bo'lib, savdo rivojiga to'siqlik qilgan. Ulug'bek yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan barcha chaqa pullarni man etdi. Eski chaqalarni yangisiga almashtirib, ichki savdoning mayda mis pullarga bo'lган talabini qondirish uchun u bir vaqtning o'zida Buxoro, Samarcand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruhiya va Andijon shaharlarida zarbxonalalar tashkil etib, bir xil vazndagi salmoqli fuluslarni zarb ettirib, muomalaga kiritdi.

Eski chaqalar qisqa vaqt davomida yangi pullarga almashtirilib olingach, mis pullar zARBini markazlashtirish maqsadida boshqa shaharlardagi zarbxonalarga barham berildi. Faqat Buxoro zarbxonasi saqlab qolindi. Xalq orasida "fulusi adliya" (adolatli chaqa) nomi bilan shuhrat qozongan bu yangi mis fuluslar mamlakatning barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kirib, davlatning ichki savdosini naqdina bilan to'la ta'minlay boshladi.

Ichki chakana savdo-pul munosabatlariagi tanqislikni fulusning vazni va qiymatini oshirish bilan hal etilishi o'rta asrlar sharoitida nodir va favqulodda voqeа bo'lsa-da, har holda Ulug'bekning bunday islohoti mamlakatda hunarmandchilik buyumlarining ichki chakana savdosи uchun keng yo'l ochib berdi. Ayni vaqtida tashqi savdodan keladigan daromadni oshirish maqsadida "tamg'a" boji ham birmuncha oshirildi, ya'ni proteksionizm siyosatidan foydalаниldi.

Ulug'bek (1394-1449 yy.) tarixda ko'proq davlat arbobi sifatida emas, bunyodkor inson, yuksak zehnli olim sifatida mashhurdir. Uning dong'i dunyoga ketgan, astronomiya, tarix ilmlariga oid asarlari mavjud. Bu yerda biz Ulug'bekning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatiga alohida e'tibor bermoqchimiz. Bu davrda mamlakat iqtisodiyotining asoslariga alohida qunt qilinadi, busiz rivojlanish bo'imasligini hokimlar yaxshi tushunishgan. Sug'orish tarmoqlari qurilib, ular toshhovuz, darg'ot, navo, chig'ir, charxpalak, qaynama, sharshara, osma ko'rik, handoq, tazar va sardobalar kabi turli-tuman suv inshootlari bilan jihozlandi.

O'sha davrda ham iqtisodiy rivojlanishning soliq tizimi bilan chambarchas bog'liqligi yaxshi ma'lum edi. Soliq yig'imi qancha yuqori bo'lsa, ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi kamdir,

<sup>2</sup> O'rta asrlardagi chaqa pullar

ammo soliqning pastligi aholi uchun qulay bo'lgani bilan, davlatning boshqaruv, mudofaa va boshqa maqsadlariga doimo to'g'ri kelavermaydi. Shularni yaxshi tushungan hukmdorlar soliqni iloji boricha me'yorida saqlash va uni yig'ishning ma'lum adolatli usullarini qo'llanganlar. Masalan, Ulug'bek hukmronligi davrida g'alla g'aram qilinmasdan avval soliq toplash qat'iyan man etilgan, chunki dehqon hosil yig'ib olgachgina real soliq to'lash imkoniga ega bo'ladi.

Soliq aniq uch muddatda, dehqon hosili pishishiga qarab bo'lingan:

- 1) saraton (iyun-iyul);
- 2) sumbula mezon (avgust va sentabr);
- 3) qavs (noyabr).

Yana bir muhim masala shuki, soliqlarni yig'ish paytida soliqchilar dehqon, chorvador yoki bog'bonga nisbatan zug'um o'tkazmasligi, jismoniy kuch ishlatmasligi va ishni urush-janjalga-cha olib bormasligi zarur qilib qo'yilgan. Bu bilan insонning haq-huquqi, yashashga bo'lgan daxsizligi ta'minlangan.

Umuman, soliq bo'yicha qarzdorlarni band qilish va zanjir bilan kishanlab, ularga nisbatan qat'iy choralar ko'rishga soliqchilarning haqqi yo'q edi.

Soliq miqdori va to'lov tartibini buzmaslikka, suiste'mollikning oldini olishga harakat qilingan. Tartibga amal qilmagan ayrim ma'murlar jazoga tortilgani ma'lum.

Bu davrda ichki va tashqi savdoga katta ahamiyat berilgan. Xitoy, Hindiston, Tibet va boshqa ko'pgina mamlakatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. Bu borada savdogarlar uchun qulay sharoitlar yaratilganligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Elchilar "Buyuk ipak yo'li" havfsizligini ta'minlash borasida katta ishlarni amalga oshirganlar.

Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli, ayniqsa, hunarmandchilik va saydoning rivojlanishi, tovar-pul munosabatlari, milliy valyuta mustahkamligiga bevosita bog'liq. 1428 yili Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan islohot katta ijobjiy ahamiyatga ega bo'ldi. Muomaladagi fulusiy pullar almashtirildi. Ulug'bek davridagi islohotlar tovar pul munosabatlari rivojiga muhim hissa qo'shdi. Iqtisodiyotning barqarorligiga erishildi.

## **2.2. Qadimgi Gretsya rivojlanishining asosi xususiyatlari**

Grek mustamlakachilik yo'nalishlari 3 turga bo'lindi. Birinchisi shimoliy va sharqiy Qora dengiz sohillari ochilgan yo'llar. Bu yerda eng katta grek mustamlakalaridan Olviya (Buga ustesi), Xersones, Feodosiya va Pantikapey (Qrim), Fanagoriya (Kubani ustesi)<sup>1</sup>. Grek mustamlakachilik harakatining yana bir yo'nalishi Garb tomon Appenin va Pireney yarimorollari tomon yo'nalgan edi. Eng katta va asosiy grek mustamlakalari Italiya sohillarida va Sitsiliya orollarida edi. Mustamlakalarda kelib joylashgan greklar juda katta shaharlar barpo etdilar, jumladan Sirakuzi, Tarent, Neapolis, Messinu va b. Nihoyat, greklarning oxirigi yo'nalishi janubga ya'ni Shimoliy Afrikaga yo'nalgan edi.

Gretsyaning mustamlakachilik harakati uning boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirdi. Mustamlakachilik Gretsya jamiyat hayotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatib va uning xo'jalik hayotini kengaytirdi va eng ahamiyatlisi u quidorlik tuzumini yanada rivojlantirdi.

So'nggi, Gretsya hayotida to'rtinchı voqeа bu eramizdan avvalgi VI va IV asrlarda Afina quidorlik davlatini gullab yashnashi edi. Eramizdan avv. VI asrga kelib Gretsyaning eng rivojlangan davlat-shahri Afina O'rta Gretsyaning janubi-sharqi Attikada joylashgan edi. Attika uch tarafidan dengiz bilan o'ralgan bo'lib, qoyali tog'lar tashkil topgan bo'lib dehqonchilik bilan shug'ullanib bo'lmadi. Lekin u yerosti metallariga boy edi, jumladan kumush, marmar va yuqori sifatli loyning mavjud bo'lishi unda hunarmandchilik va savdo rivojlanishiga olib keldi.

Eramizdan avv. VIII asrlarda Afinani boy zodagonlar ("Evpatriid" - olyjanoblar) boshqarar edi. Ularning saralangan vakillari (arkontam) va maslahat kengashi (arxeopaglar)ga qadimgi basilevslarning davlat boshqaruв vakolati tegishli edi. Evpatriidlar borgan sari demoslarni eza boshladilar. Mustamlakachilik natijasida Attikada demoslar ichidan yangi savdo-sanoat tarmog'i yangi sinf ajralib chiqsa boshladidi, bu yangi sinf o'zi ham qui va kambag'al sinfni siqib chiqara boshladidi.

<sup>1</sup> Конотопов М. В., Сметанин С. И. Экономическая история: Учебник. 9-е изд., доп. и перераб. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2007. - С.28.

Bu yangi quldorlar evpatridlarning o'zboshimchaligi bilan kelsa olmasdi va yangi quldorlar o'zlariga tarafdarlar yig'a boshladilar.

Afina o'z kuch-qudratini grek-forslar (mil.avv.500-479y.) bilan bo'lgan jangda katta o'lja va asirlar bilan mustahkamlab oldi. Afina butun grek davlatlar ittifoqi va Afina dengiz qo'mondonligini tuzdi. Natijada Afina Qadimgi Gretsyaning iqtisodiy va siyosiy markaziga aylanadi.

Eramizdan avv. V asrga kelib Afina iqtisodiy rivojlanishning choqqisiga chiqdi, uning zamirida qullar mehnatidan keng foydalanish yotadi. Qullar xalq xo'jaligining hamma sohalarida ishlatala boshlandi, jumladan qishloq xo'jaligi, qurilish, kemalarda hunarmandchilik ustaxonalar, tosh konlari va b. Ergasteriya deb nomlangan hunarmandchilik ustaxonalarida qullar mehnatidan keng foydalanilardi, ular metall buyumlar, sopol idishlar, qurollar va mebel, oyoq-kiyim, taqinchoqlar yasash bilan shug'ullanishar edi.

Vaqt o'tishi bilan Afinaning tashqi ko'rinishi o'zgardi, yangi imoratlar qad ko'tardi, u o'z zamonining hunarmandchilik va madaniyat markaziga aylandi. Afinaning Pirey gavani o'z davrining mashhur savdo portiga aylandi. Chunki Pirey orqali Afina va boshqa grek polislari vino, alifa moyi, metallar va turli buyumlar olib chiqilardi va Pireya non mahsulotlari, shirinliklar, qimmat-baho buyumlar, fil suyagi, temir, mis va shunga o'xshash turli xil mahsulotlar olib kelinar edi. Savdo bilan birgalikda, Gretsiyada pul almashtiruvchilardan chiqqan sudxo'rlar paydo bo'ldi. Metall pullar keng muomalaga qo'yilgan edi.

Lekin Afinaning rivojlanishi davomiy emas edi. Eramizdan avv. 433 yilda Afinada Gretsya janubidagi Sparta nomli kuchli aristokrat quldor davlat bilan jang boshlandi. Bu jangda Sparta yutib chiqdi. Ikkala davlatning urushdan keyin kuchsizlanishi eramizdan avv. IV asrda Gretsya shimolida joylashgan Makedoniya tomonidan bosib olinishiga sabab bo'ldi.

Mashhur Makedon shohi Iskandar Zulqarnayn keyinchalik o'zining g'olibona yurishlari bilan Sharqqa qarab yo'l oldi. Iskandar juda katta imperiya tuzdi lekin u katta bo'lgani bilan juda tarqoq edi shuning uchun u tezda mayda-mayda davlatlarga ajralib ketdi. Shundan so'ng antik dunyoning siyosiy hamda iqtisodiy markazi

sekinlik bilan g'arbgaga, ya'ni Appenin yarimorollariga ko'cha boshladi va qudratli qadimgi Rim davlatchiligi paydo bo'la boshladi.

Quldarlik tuzumi rivojlanishining eng yuqori nuqtasi Antik davr, ya'ni Qadimgi Gretsya va Qadimgi Rim davrlariga to'g'ri keladi. Antik davlatlarda quldarlik ancha mukammal, klassik shakliga keldi.

Qadimgi Gretsya va Rimda quldarlik davlatining tashkil etilishi ibtidoiy jamoa tuzumining butunlay tugatilishiga sabab bo'ldi. Qullar antik jamiyatda asosiy ishchi kuchi bo'lib qoldi.

Antik davr quldarlik munosabatlarning shakllanishi yirik urushlar bilan uzviy bog'liq edi, chunki urushlar natijasida egalangan hududlardan moddiy boyliklar hamda juda ko'p asirlar olib kelinardi va ular o'z navbatida qullarga aylantirilardi.

Greklerning madaniy, siyosiy va xo'jalik hayotining qadimgi o'choqlari bo'lib Krit oroli va Mesopotamiya yarimorolining shariqiy sohilidagi Miken shahri hisoblangan, shu bilan birga Gretsyaning eng qadimgi davri Krit-miken davri deb ataladi. Uning xronologik davrlanishi eramizdan avvalgi III ming yillik va eramizdan avvalgi XII asrga to'g'ri keladi. Krit-miken davrida moddiy madaniyat shakllanadi, bunga toshdan uylar qurish, mis va bronzadan yasalgan qurollarni ishlatalish, kemasozlik va dengizchilikning paydo bo'lishi isbot bo'la oladi<sup>1</sup>.

Qadimgi Gretsya tarixining keyingi, ya'ni ikkinchi davri eramizdan avvalgi XI-IX asrlarni o'z ichiga oluvchi gomer davri hisoblanadi. Bu davr Qadimgi Gretsyaning taniqli shoiri Gomer nomi bilan atalgan, chunki uning asarlarida eramizdan avvalgi II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlaridagi qadimgi greklar iqtisodiy hayotining yorqin ko'rinishlari aks etgan.

Gomer davri<sup>2</sup> ibtidoiy jamoa ishlab chiqarishi tuzumining parchanishi va quldarlik munosabatlari shakllanishi jarayoniga to'g'ri keladi. Grek urug' jamoalari boshqaruviga oqsoqol "bas-leve" tayinlangan. Bir nechta urug'lar "fratriy"larni tashkil etgan va o'z navbatida bir nechta fratriylar guruhi "fill"larni tashkil etgan. Vaqt o'tishi bilan mulk taqsimotidagi tengsizlik sababli urug'lar

<sup>1</sup> Хашимов П.З., Тураев Х.Н. Экономическая история. - Т.: «Университет», 2003. - С.28.

<sup>2</sup> История мировой экономики: Учебник для вузов. / Под ред. Г.Б. Поляка, А.Н. Марковой. 2-е изд., перераб. и доп. - М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2007. -С.95.

yirik-yirik oilalarga bo'linadilar, keyinchalik esa oilalar hududiy ja-moalarga birlasha boshladilar.

Har bir oilaga yer uchastkalari ajratildi va bu uchastkalar me-ros sifatida avlodlarga o'tkazila boshladи. Basilevslar va boshqa ko'pgina urug' boshliqlari turli harbiy o'ljalar evaziga boyiy bosh-fädilar hamda asta-sekin katta yer egaлari va qu'dorlarga aylan-dilar, shuningdek boy va katta harbiy kuchga ega bo'lgan jamoa kengashi a'zolari boshqaruvchi sinfni tashkil qila boshladilar. Bularning hammasi sinfiy jamiyat shakllanishi, davlatning paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Keyingi bosqich eramizdan avvalgi VIII-VI asrlarga to'g'ri kelib, bu davrda Qadimgi Grek shahar - davlatlari (polislar<sup>1</sup>)ning paydo bo'lishi va "buyuk grek mustamlakaga aylantirishi" sodir bo'lishiga sabab bo'ldi. Polis markazi bo'lib atrofi devor bilan o'rالgan sha-har hisoblangan, uning atrofida esa qishloq aholisi joylashgan. Polisning barcha aholisi 2 tabaqaga - erkin aholi va qullarga bo'lingan. Erkin aholi ham o'zlarining mulklari hajmiga ko'ra turli qatlamlarga bo'lingan.

Boylar qoida bo'yicha urug' aslzodasi bo'lgan va ular aso-san polis harbiy kuchlarini yaratgan. Ular o'zlarini "aristokrat"lar deb atashgan, shuning uchun shaharning siyosiy tuzilishi "aristokratiya"larga bo'lindi. Erkin aholining qolgan qismini deh-qonlar va hunarmandlar tashkil etgan. Aholining bu qatlami "de-mos" deb atala boshlandi va grekchadan tarjima qilganda "xalq" degan ma'noni beradi.

Grek erlarining mustamlakalashtirilishi natijasida boshqa hudud va mintaqalarda ham qu'dorlik shaharlari-davlatlari tash-kil topa boshladи. Eramizdan avvalgi VIII-VI asrlarda greklar yangi yerlarni egallah maqsadida o'sha davrga nisbatan yirik sayohat-lar va yurishlar uyuştirishdi.

Shundan so'ng qadimgi dunyoning siyosiy va iqtisodiy markaz-ları g'arba, qadimgi davrning yanada qudratli qu'dorlik davlati - Rim joylashgan Apennin yarimoroli tomonga surila boshladи.

<sup>1</sup> Qadimgi Gretsiyada jamiyatning shaharga o'xshash ijtimoiy-iqtisodiy birlashmasi

### **2.3. Qadimgi Rim iqtisodiy rivojlanishining asosiy bosqichlari**

Qadimgi Rim tarixi dunyo tarixining eng muhim bosqichlari dan biridir. Uning misolida quldarlik jamiyati va davlatining paydo bo'lishi, gullab yashnashi va yemirilishini ularning eng yetuk klassik shakllarida kuzatish mumkin. Rimliklar moddiy va ma'naviy madaniyatni yangi, yanada yuqoriroq darajaga ko'tardilar, ba'zi bir faoliyat sohalarida esa tengsiz yutuqlarga erishdilar.

Rim eramizdan avvalgi 754-753 yillarda Apennin yarimorolining o'rta qismida<sup>1</sup>, Tibr daryosi bo'yida, kichik bir aholi punkti sifatida paydo bo'ldi. Avvaliga Rim aholisi ibtidoiy jamoa shaklida hayot kechirdi. Jamoa a'zolari faqat dehqonchilik bilan shug'ullanardilar. Chunki Apennin yarimorolining, boshqacha qilib aytganda Italiyaning, iqlimi va tuproq sharoitlari shunga juda mos edi. Sekin-asta Rim jamoasi yemirila boshladи va eramizdan avvalgi VI asr o'rtalarida Rimdagи eski urug'doshlik tuzumi buzilib ketdi. Uning ornida Rim zodagon respublikasi ko'rinishida quldarlik davlati paydo bo'ldi va u bir qator urushlar natijasida qo'shni yerlarni ham o'ziga bo'ysundirib oldi. Eramizdan avvalgi III asrga kelib butun Italiya Rim ixtiyorida bo'lib qoldi.

Rim quldarlik Respublikasining qudrati eramizdan avvalgi III asr o'rtalaridan deyarli II asr o'rtalarigacha davom etgan punik urushlar<sup>2</sup> natijasida yanada mustahkamlandi. Rim bu urushlarni Karfagenning shimoliy Afrikadagi yirik quldarlik davlatiga qarshi olib bordi. Karfagen davlati mag'lubiyatga uchradi.

Ko'p o'tmay rimliklar Gretsya, Makedoniya hamda Pireneya yarimorolini zabit etadilar. Rim o'rta yer dengizi basseynidagi ko'pgina davlatlarga o'z hukmronligini o'tkaza olgan ulkan davlat markaziga aylanadi.

Rim davlati o'z hududlarini kengaytirish davomida bir qator iqtisodiy o'zgarishlarni ham boshidan kechirdi. Mamlakat xo'jaligida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu ayniqsa quldarlikning o'ta rivojlanishi va kengayishida kuchliroq namoyon bo'ldi.

<sup>1</sup> История мировой экономики: Учебник для вузов / Под ред. Г.Б. Поляка, А.Н. Марковой. — 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.- С.108.

<sup>2</sup> Punik urushlar – rimliklar va karfagenliklar ("punlar", ya'ni finikiyaliklar) o'rtasida ma'lum bir tanaffuslar bilan e.a. 264-146 yillar oralig'ida bo'lib o'tgan uchta urushlar. Urushda Rim g'olib chiqdi va Apenin va Iberiya yarimorollarida o'z holatlarini mustahkamladi va Karfagen orolini bosib oldi.

Eramizdan avvalgi II asrдан boshlab quldarlikka asoslangan ishlab chiqarish asosiy o'rinni egallaydi. Xo'jalikning hamma sohalarida qullar ishlatilardi.

Rimda quldarlikning asosiy manbasi urushlar edi. Biror mam-lakatni zabit etgan rimliklar aholining bir qismini o'ldirib, qolganlarini qulga aylantirardilar. Ayniqsa punik urushlardan keyin juda ko'p asirlar qulga aylantirilgan edi. Yuz minglab karfagenliklar va O'rta yer dengizi boshqa davlatlarining aholisi rimliklarning qul-lariga aylandilar. Yana qarzdorlik qullikni meros qilish, dengiz qa-roqchiligi kabilar quldarlik manbalari bo'lib xizmat qilgan.

Eramizdan avvalgi II va ayniqsa I asrda Rim qadimgi davrning eng rivojlangan quldarlik davlatiga aylanadi. Qul mehnati erkin mehnatni to'laligicha siqib chiqardi; qullar asosiy ishlab chiqarish vositasiga aylanib qoldi, Qadimgi Rimdagi qullarning umumiy sonini aniqlashning iloji yo'q, lekin shunisi aniqki, qullar soni erkin odamlar sonidan ancha ko'p bo'lgan. Masalan, eramizdan avvalgi I asr oxirida Rim aholisining umumiy soni 1 mln 500 ming kishi bo'lgan bo'lsa, shundan 600 mingi erkin, 900 mingi esa qullar bo'lgan.

Alovida xususiy kishilarga tegishli bo'lgan bu qullarning sal-moqli qismi ikki asosiy guruhga bo'lingan: shahar qullari va qishloq xo'jalik qullari. Shahar qullari ichida turli kasb egalari - to'quvchilar, tezyurarlar, yuk tashuvchilar, oshpazlar, tan soqchilar, o'qituvchilar, akterlar, musiqachilar, mirzalar bo'lgan. Ko'pchilik qullar ustaxonalarda, ruda va tosh konlarida ishlatilganlar.

Qullarning ko'p qismi Rim iqtisodiyotida asosiy ahamiyat kasb etadigan qishloq xo'jaligi sohasida band edi. Qul mehnati negizida Rimda ko'p miqdorda katta quldarlik xo'jaliklari paydo bo'ldi. Ular latifundiylar deb atala boshlandi (latus - keng, katta, fundus - yer-mulk, xo'jalik). Quldarlik latifundiylari qul mehnatining arzonligi va oddiy kooperatsiyaning afzalliklari natijasida erkin dehqonlarga nisbatan kam xarajat bilan mahsulot ishlab chiqarardilar. Bu Italiyadagi mayda erkin dehqonchilikning xonavayron bo'lishi va siqib chiqarilishga, ularning qullikka mutbalo bo'lishiga yoki shahar aholisining lyumpen deb ataluvchi qashshoq qatlami-ga kelib qo'shilishiga olib keldi.

**O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar**

1. "Buyuk ipak yo'lining" iqtisodiy ahamiyatini ta'riflang.
2. Amir Temur davridagi soliq tizimining xususiyatlari yoritib bering.
3. Iskandar Zulqarnayning Sharqqa qarab yurishining iqtisodiy jihatlari nimadan iborat?
4. Qadimgi Rimdagi shahar qullari bilan qishloq qullari o'rtaсидаги farq nimadan iborat?

### § 3-MAVZU. O'RTA ASRLARDA YEVROPANING IQTISODIY RIVOJLANISHI

**Tayanch atamalar va iboralar:** vassal-lenn, dominant, benefitsiy, kolonlar, qul-servlar, villanlar, sudxo'rlik, uy sanoati, "oltin tashnaligi", "narxlar inqilobi".

■ **Reja:**

- 3.1. V-X asrlarda G'arbiy Yevropada feodalizmning rivojlanish xususiyatlari.
- 3.2. XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropada qishloq xo'jaligi.
- 3.3. XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropada feudal shahar, hunarmandchilik va savdo-sotiq.
- 3.4. Yevropada kapitalistik ishlab chiqarish kurtaklarining vujudga kelishi.
- 3.5. Buyuk geografik kashfiyotlar.
- 3.6. Yevropada "narxlar inqilobi".
- 3.7. Jahan bozorining vujudga kelishi.

#### **3.1. V-X asrlarda G'arbiy Yevropada feodalizmning rivojlanish xususiyatlari**

G'arbiy Yevropa feodalizmida 2 xil ijtimoiy tizim shakllangan edi: **antik quldorlik tizimi** va **varvar quldor qabilalar tizimi**. Ular orasidagi farq juda katta edi. Birinchi tizim juda rivojlangan edi, ikkinchisi esa sinfiy tarmoqqa ega emas edi. Bir tarafdan IV-V asrlarda antik jamiyatda protofeodal elementlar paydo bo'la boshladi, boshqa tarafdan esa ko'pgina xalqlar o'zaro ichki rivojlanishlar orqali feodalizmga kela boshladilar.

Feodalizm tarixining ko'pgina muammolari, shu bilan birga uning davrlanishi yetarli darajada munozaralidir. So'nggi paytlarda davrlanish qo'yidagi tarzda deb belgilanmoqda;

I. Ilk o'rta asrlar V-IX asrlar. Bu davrda feodalizmning ilk shakllari paydo bo'ldi: yer yuqori tabaqa vakillari o'rtasida taqsimlansi yuzaga kela boshladi, erksiz dehqon qatlami shakllana boshladi, vassal-lenn munosabatlari vujudga keldi.

## **II.Yuqori o'rta asrlar X-XIII asrlar.**

Bu davrda dominant xo'jalikning shakllanishi, feodal ierarxiyaning vujudga kelishi, hunarmandchilik va savdoning birmuncha rivojlanishi ro'y berdi. Shuni aytib o'tish kerakki XIII asrda G'arbiy Yevropada o'ziga xos feudalizm rivojlanishi ro'y bera boshladi. XIII asrgacha deyarli barcha hududlarda iqtisodiyotning rivojlanishi ro'y berdi, minglab shaharlar paydo bo'ldi va ularning ko'pchiligi o'zini-o'zi boshqarishga o'tdi.

Bu shaharlarda yuzlab ixtisoslikka ega bo'lgan hunarmandlar ishlardi, ko'pgina sexlar va gildalar paydo bo'ldi. Qishloq xo'jaligida ish quollarining takomillashishi ro'y berdi, ichki mustamlakaga aylantirish ro'y berdi hamda o'z navbatida o'rmonlarni kesish, melioratsiya ishlari boshlab yuborildi. Iqtisodiy rivojlanish natijasida aholining 2-3 barobarga o'sishi sodir bo'ldi.

## **III.So'nggi o'rta asrlar XIV-XVII asrlar.<sup>1</sup>**

Feodal yer munosabatlari asta-sekin yo'q bo'la boshladi yoki dominant xo'jalik butunlay yo'q bo'la boshladi dehqonlarning shaxsiy ozodlikka erishishi jarayoni ro'y bera boshladi, feodal ierarxiyaning amalga kirish jarayoni boshlandi. Feodal tizimning inqirozga uchrash alomatlari paydo bo'lib, ilk kapitalizmning alovatlari paydo bo'ldi.

Yer fondlarining tugashi munosabati bilan yer mukofotlari - benefitsiyalar abadiy berilmaydigan, balki xizmat muddatiga yoki umr oxirigacha beriladigan bo'ldi va keyinchalik xizmatdagি boshqa kishilarga berilishi mumkin qilib belgilandi. IX-X asrlar davomida benefitsiyalar umr oxirigacha beriladigan shakldan meros qoldiriladigan yo'lga aylana bordi va majburiy harbiy xizmatda bo'lish bilan bog'liq shartli merosiy mulk sifatida feed<sup>2</sup> shaklini ola boshladi.

Bu islohot, birinchidan, harbiy tashkilotning asosi bo'lib qolgan mayda va o'rta feodallar qatlaminu mustahkamladi; ikkinchidan, feodal yer mulkdorligini mustahkamladi va yer odatda shu yerda yashagan odamlari bilan birga beriladigan bo'lgani uchun dehqonlarning qaramligini kuchaytirdi; uchinchidan, yer beruvchi

<sup>1</sup> Хашимов П.З., Тураев Х.Н. Экономическая история. Т.: «Университет», 2003.- С.36.

<sup>2</sup> Feed – seniyor tomonidan vassalga taqdim qilingan yerlar

va yer oluvchi o'rtasida yer munosabatlarni keltirib chiqarib, vassal munosabatlarning qaror topishiga sabab bo'ldi.

Qirol votchinasining qaram dehqonchiligi asosiy uch guruxga bo'linar edi:

- kolonlar, yoki chorakorlar, ular ko'pchilikni tashkil etishardi - shaxsan erkin, ammo yer qaramligida bo'lganlar;
- qul-servlar - shaxsan va yer qaramligida bo'lganlar;
- litlar - o'rta holatdagilar - qaysidir feodalning homiyligida bo'lib, yer ulushidan merosga qoldirish huquqi bilan foydalanuvchilar.

Bunday farqlar asta-sekin yo'qola borib, dehqonlar bir xil qaram odamlarga aylana bordilar. Ularning hammasi to'lov to'lab, feodalga tekin ishlab berishga majbur edilar.

Xo'jaliklar tabiiy bo'lib, hunarmandchilik mehnati dehqonchilik bilan birlashgan edi. Mahsulotning deyarli hammasi votchinaning o'zida ishlatilar, har zamonda ortiqcha mahsulot sotilar va votchinda ishlab chiqarish mumkin bo'limgan mahsulotlarga sotib olinar edi. Ammo savdo - sotiq iqtisodiy hayotning umumiylara-jasiga sezilarli ta'sir etmas edi.

XI asrda feodal-qaram dehqonchilikning shakllanishi tugallandi. Sen'orlarga shaxsan va yer qaramligida bo'lgan servlar asosiy qatlam bo'lib qoldilar. Dehqonlar villanlar deb atalmish, shaxsan erkin, lekin yer va suv qaramligida bo'lgan kichik guruhi saqlanib qoldi.

X-XIII asrlar uchun ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va qishloq xo'jaligining mahsuldarligini oshirishda yuksalish xususiyatlidir. Yerga ishlov berish yaxshilandi. Uch dalalik uslubi tarqaldi. Bo'sh yerlar va o'rmonlarni o'zlashtirish - ichki mustamlakalashtirish keng tarqaldi.

Ekin maydonlarining kengayishi va hosildorlikning ko'tarilishi mehnat unumdarligining oshishiga hamda qo'shimcha mahsulot yaratilishiga olib keldi. Sen'orlar uchun rentani dehqon hosilining bir qismi sifatida ol sh foydali bo'lib qoldi. Shuning uchun XII-XIII asrlarda ular tekin ishlab berishni yo'q qilib, barcha domenial yerlarni dehqonlarga foydalanish uchun tarqatib berishni yo'lga qo'yishdi. Mahsulot rentasi tez orada pul rentasi bilan almashтирildi, chunki fransuz qishloqlariga shaharlarning ta'siri to'bora kuchaya borardi.

Bozorga mahsulot yetkazib beruvchi asosiy ta'minotchi dehqon bo'lib qoldi. Bu bir qator oqibatlarga olib keldi.

Feodallar dehqonlar ustidan sud hukmronligini saqlab qolgan, ammo dehqonlar erkin odamlar, ya'ni villanlar sifatida qirolik sudiga murojat qila olardilar. Bundan tashqari salb yurishlarda qatnashish, ham shaxsiy erkinlikka olib kelar edi. Dehqonlarning sinfiy kurashi, ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Dehqonlarning tabaqalanishi kuchaydi, Senzivani<sup>1</sup> garovga qo'yish yoki sotish mumkinligi XIV-XV asrlarda o'ta qashshoqlashgan dehqonlar qatlaming paydo bo'lismiga olib keldi<sup>2</sup>. Qarzlarini to'lashga qurbi yetmaganligi uchun ular sen'orlarga yoki o'ziga to'q qo'shnilariga yollanib ishslashga majbur bo'lardilar. Natijada yollanma dehqonlar qatlami paydo bo'ldi. Shu davrning o'zida dehqon mulkchiligining yangi ko'rinishi yerni ijara olish, ko'proq chorvadorlik ko'rinishida, shakllandi.

Hukmron sinfning ahvolida o'zgarishlar ro'y berdi - XIV asrdan boshlab sen'orlar va ularning vassallari orasidagi munosabatlarning asosiy shakli shartli yer taqsimoti emas, balki rentalni feod bo'lib qoldi. Endi vassal o'z xizmati uchun aniq yer hududining o'rniga uning rentasinigina olar edi.

### **3.2. XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropada qishloq xo'jaligi**

XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropa feodalizmi tugallangan yetuk shakllarga ega bo'ldi. Bu davrda feodal tarqoqlik o'z o'rnini markazlashgan feodal davlatlarga bo'shatib berdi. Ulardan eng yiriklari Fransiya va Angliya edi. Feodal hukmronlikning markazlashuvi feodal ishlab chiqarish usullarining mustahkamlashuviga olib kelmay iloji yo'q edi. XI-XV asrlarda bu yerda feodal tuzum keng qamrovli ahamiyat kasb etib, xo'jalik hayotida hal qiluvchi rol o'ynay boshladi.

Krepostnoylashgan sen'orlar o'zlarining barshchina tizimi bilan chuqur inqirozga uchray boshladi. Feodal tuzumning natural xo'jaligi o'zinining ahamiyatini tobora yo'qota bordi, jamiyat borgan sari qarama - qarshi fikrni bildira boshladi. Dominant xo'jalik ishlab chiqargan mahsulotlar xalq ehtiyojlarini va shu bilan bir-

<sup>1</sup> Senziva (fr. la censive; cens, chinsh) – Fransiyada o'rta asrlarda dvoryan bo'limgan aholi qatlaming, dehqonlarning meros asosida yerga egalik qilish shakli.

<sup>2</sup> История мировой экономики: Учебник для вузов / Под ред. Г.Б. Поляка, А.Н. Марковой. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. — С.140.

ga feodallarning ham ehtiyojlarini qondira olmay qoldi. Fransuz dvoryanlari va dehqonlariga nisbatan sifatli va har xil turdag'i ish qurollari va iste'mol mollari kerak bo'la boshladi. Shahar va qishloqlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning tobora kuchayishi pul hajmini ko'paytirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Feodal rentani mahsulot va pul obroki shaklida topshirishga obyektiv ehtiyoj vujudga keldi. Mahsulot shaklidagi renta ishlab chiqaruvchidan yanada yuqori ishlab chiqarish madaniyatini talab etardi. XIV-XV asrlarda Fransiyada feodallar qaram dehqonlarni barshchinadan mahsulot shaklidagi rentaga, keyinchalik esa pul rentasiga o'tkazdilar. Natijada dehqon xo'jaligi feodal rentasini ishlab chiqarish markaziga aylandi. Fransuz zodagonlari oltin va kumushlarning shu'lasidan mast bo'lib qoldilar. Pul shaklidagi obrok o'lchab bo'lmas darajada katta ediki, feodallar o'zlarining barcha talablarini qondirishga harakat qilardilar.

Feodallar talablarining tobora ko'payishidan ko'pgina dehqon xo'jaliklari g'azablanardi. Feodallarning surunkali ravishda urushlar natijasida dehqonlarning ahvolini tobora og'irlashar, hosilning kamayishi, ocharchilik va epidemiyalar natijasida tabaqalararo urushlar kuchayib borardi.

Ingliz feodal qirolligi IX asrda vujudga keldi. Lekin feodal munosabatlар Angliyada sekin rivojlanardi. Feodal xo'jalik 1066 yilda Angliya Normandiya gersogi Vilgelm tomonidan bosib olingandan keyin to'la-to'kis rivojlanib bo'ldi. Yerlarning kelgindi normand va fransuz feodallari tomonidan birdaniga musodara qilinishi yirik yer egalarning paydo bo'lishi va dehqonlarning qaramlashuvi sur'atlarini tezlashtirib yubordi.

XI asrning oxirida yerlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida shu narsa ayon bo'ldiki, o'sha davrga kelib Angliya xo'jaligining asosiy qismini qaram dehqonlar mehnatiga assoslangan manor qo'rg'onlari tashkil etardi. XII-XIII asrlarga kelib manor tizimi mamlakatning 80% ini tashkil etardi. Manorlarga qaram dehqonlar xizmat qilardi. Asta-sekin manor tizimi 2 asosiy guruhga ajraldi:

- yillanlar qishloq xo'jaligining 30 akrigacha yeri bo'lgan va o'z ish qurola hamda xo'kiziga ega bo'lgan dehqonlar sinfi
- kotgerlar kichkina yeriga ega bo'lgan yoki umuman yeri bo'lmasan dehqonlar.

Kotgerlar barshchinada ishlab, xo'jayinning xo'kizi va mehnat qurollarini ishlatishgan. Manorial xo'jalik tizimi natural shaklda

edi, manorlar o'rtasidagi savdo munosabatlari sekin rivojlanardi, o'sha davrdagi boshqa Yevropa mamlakatlari manorlariga nisbatan agrotexnik darajada zaif edilar.

Lekin shuni aytib o'tish kerakki XII-XIII asrlarda Angliyada feodallardan ozod hisoblangan dehqonlar mavjud edi. Ular frigolderlar deb atalgan. Ammo ular juda kam sonli edilar va ularning roli ijtimoiy hayotda unchalik muhim o'rinn tutmasdi. XIV-XV asrlarda Angliyada Fransiyadagi kabi feodal munosabatlarning ancha ko'zga tashlanuvchan darajada keskin o'zgarishi yuz berdi.

Bunda mamlakat ichki bozorining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Junga bo'lgan talabning tobora osha borishi natijasida Angliyada qo'ychilikning rivojlanishi kuchaya bordi. Bu xol feodal qo'rg'onlarida ham, dehqon xo'jaliklarida ham kuzatildi. Jun matolar ishlab chiqarish markazlariga aylanib borayotgan flandr shaharlarning junga talabi ayniqsa katta edi. Bu "ishlab berishning kommutatsiyasi"ga, ya'ni o'zgarishiga olib keldi. Villanlar kopigollderlarga<sup>1</sup> aylanishdi va ba'zi bir, asosan og'ir va qaramlik ko'rinishlaridan qutulishdi.

Endi ular ishlab berish o'rniga to'lov, jun holida yoki pul bilan to'laydigan bo'lishdi. Kopigolder o'sha joydagি cherkovda saqlanadigan hujjatning nusxasi bilan: yerga egalik qiladigan dehqon degani edi. XV asrda Angliya qishloqlarida kopigolderlar asosiy shaxslar bo'lib qoldi. Tobora oshayotgan to'lov majburiyatları, feodal zodagonlar qo'lida qurol bo'lib qolayotgan va yakka xo'kimilikka asoslangan davlatning og'ir soliqlari, qo'shni Fransiyadagi kabi, sinfiy kurashning kuchayib ketishiga olib keldi.

1381 yili Angliyada Uot Tayler boshchiligidagi dehqonlarning katta qo'zg'oloni alanga oldi. Qo'zg'olonchilar jiddiy muvaffaqiyatlarga erishdilar, xatto poytaxt Londonni ham egallahsga muvaffaq bo'lishdi. By ko'zg'olon bostirilgan bo'lishiga qaramay, muhim ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga ega bo'ldi.

XV asr davomida Angliyaning deyarli barcha dehqonlari shaxsan ozod bo'ldilar qishloq xo'jaligi esa asosan tovar xo'jaligi shaklini oldi. Angliyaning ko'pchilik dvoryanlari yollanma mehnatga asoslangan xo'jalik yurita boshladilar. Yangi burjuazlashgan dvoryanlar tabaqasi paydo bo'ldi. Bu Angliya qishloq xo'jaligida yangi, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari tug'ilayotganini bildirar edi.

<sup>1</sup> Kopigollder – dehqonlarni dvoryanlarga tobelik shaxlidan bini

O'rta asrlarda Germaniyada feodal munosabatlarning rivojlanishi Angliya va Fransiyadagiga nisbatan sekinroq amalga oshdi. Buning asosiy sababi Germaniyada ancha vaqt davomida siyosiy tarqoqlik hukm surgani va markazlashgan yagona feodal davlatning yo'qligi edi. Shunga qaramay XII asr boshida nemis qishloqlari asosan feodal qishloqlarga aylandi. Qishloq aholisining asosini qaram dehqonlar tashkil qildi. Cherkov va monastir yerlарida fogtlar deb atalmish neofeodalarga bo'ysunadigan "fogt odamlari" yashaganlar.

Nemis feodalizmi tarixida Germaniya feodallarining Elba daryosi shargida joylashgan G'arbiy slavyanlar yerlariga qilgan bosqinchilik harakatları muhim o'r'in tutadi. By harakatlar zamirida yangi yerlar va qaram dehqonlarni qo'lga kiritish yotar, tub slavyan aholisi doimiy ravishda, rahmsizlarcha qirib tashlanardi. Bosib olingan yerlarda bir necha feodal ritsarlik knyazliklari tuzildi. Nemis ritsarlari butun Boltiq bo'yи yerlarini bosib olishga erishdilar.

Germaniyada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning ahvoli taxminan Fransiya va Angliyadagidek edi. O'zlashtirilgan yerlar maydoni sezilarli darajada kengaydi, texnik ekinlar ekila boshlandi, donli ekinlar, poliz va bog'larga qarash yaxshilandi, chorvachilikning rivojlanishi ancha yuqori darajaga yetdi.

XIII asr oxirlaridan boshlab Germaniyadagi agrar munosabatlarda, Angliya va Fransiyadagidan ko'ra kamroq seziladigan darajada bo'lsa ham, to'ntarish boshlandi.

Shahar va qishloq orasida tovar munosabatlarining kuchayishi ta'sirida Germaniyaning bir qator rayonlarida ishlab berish tizimi va shaxsiy qaramlikning bir qator elementlari yo'q qilindi, feodal qaramlikning to'lov to'lash shakllariga o'tildi. Sharqiyan Germaniyaning nemis feedallari tomonidan mustamlakaga aylantirishi natijasida XV asrda keng miqyosda dehqonlarni qaramlashtirish amalga oshirildi. Bularning hammasi ezilgan dehqonlarning keskin noroziliklariga sabab bo'ldi va XVI asrda ularning ommaviy ko'zg'olontari - "Buyuk dehqonlar urush"ni tayyorlab berdi.

### **3.3. XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropada feodal shahar, hunarmandchilik va savdo sotiq**

Hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralish jarayoni G'arbiy Yevropada feodal shaharlarning paydo bo'l shiga moddiy asos bo'lib xizmat qildi. O'rta asrlarning boshlarida insonning xo'jalik faoliyati to'laligicha qishloqda jamlangan, hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralmagan edi. To'g'ri, devorlar bilan o'rallgan yirik aholi punktlari mavjud edi, lekin iqtisodiy jihatdan ular qishloqlardan farq qilmas, faqat ma'muriy va diniy markazlar vazifasini o'tar edilar.

Lekin XI asrga kelib, umumiy iqtisodiy yuksalish natijasida, hunarmandchilik va savdo - sotiq markazlari sifatida shaharlar vujudga keldi. Jamoaviy mehnat taqsimotining rivojlanishi bilan Rim davridan saqlanib kelayotgan eski shaharlar jonlandi, yangilari paydo bo'ldi. Markazlashgan shaharlarning iqtisodiy va siyosiy hayoti aynan shaharlarda jamlana boshladi. Shaharlar iqtisodiy va madaniy rivojlanish timsoliga aylandi.

XI-XIII asrlarda G'arbiy Yevropa feodallari bir necha bor Sharq yo'nali shida yurishlar amalga oshirdilar. Ko'plab ritsarlar, dehqonlar va shaharliklarni o'z domiga tortgan salb yurishlari, umuman olganda, yevropaliklar uchun muvaffaqiyatsiz tugagan bo'l shiga qaramay, Yevropa hayotida iz qoldirmay iloji yo'q edi. Ular sharq davlatlari bilan G'arbiy Yevropa o'rtasida tovar-pul munosabatlarning rivojlanishiga, buning natijasi o'laroq Yevropa shaharlarining yanada o'sishiga xizmat qildi.

Shaharlar yanada mustahkmlana borib, yomg'irdan keyin paydo bo'lgan qo'ziqorinlardek tez ko'paya boshladilar. Faqat Germaniyaning o'zida XIII-XIV asrlarda 700 dan ortiq shaharlar paydo bo'ldi. G'arbiy Yevropa shaharlarning ichidagi Italiyadagi Venetsiya, Genuya va Florensiya, Germaniyadagi Keln, Gamburg, Lyubek, Augsburg, Regensburg, Fransiyadagi Parij, Angliyadagi London va York kabi yirik savdo-sanoat markazlarini alohida aytib o'tish kerak.

Ularning aholisi ko'p emas edi. Germaniyada 10-15 ming aholisi bo'lgan shaharlar o'rtacha, 25-35 ming aholisi bo'lganlari yirik, 3 mingdan 5 minggacha aholisi bo'lganlari esa mayda shaharlar hisoblanar edi, o'rta asr shaharlari qulayliklarga ega emas edi. Ko'chalari tor, qing'ir-qiyshiq, qoplamasiz va yoritilmagan edi. Binolar yog'ochdan qurilar, tez-tez yong'in ostida qolar edilar.

O'rta asr shaharlari asosan feodallarning yerlarida joylashgan bo'lib, ular esa qaram edilar. Shaharlarda avvaliga erkin hunarmandlar bilan bir qatorda qaram dehqonlar ham yashashgan. Lekin sekin-asta shaharlар o'z erkinliklari va mustaqilliklari uchun kurasha boshladilar. Feodal shaharlarda xokimiyat boy savdogarlar, sudxo'rлar va uy egalari qo'liga o'ta boshladi.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq shahar aholisining asosiy mashg'uloti bo'la boshladi. Shahar hunarmandchiligining eng keng tarqalgan turlari to'qimachilik metallarni eritish va ularga ishlov berish edi.

To'qimachilik sohasida movut va dag'al jun matolar ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega edi. Feodal G'arbiy Yevropada Flandriya<sup>1</sup> va Florensiya rayonlari jun ishlab chiqarishning asosiy markazlari edi. Sharq davlatlaridan o'zlashtirib olingen shoyi ishlab chiqarish shimoliy italyan shaharlari va Fransiyaning ba'zi shaharlarda (Lion) rivojlandi.

Qurol-yarog' ishlab chiqarish juda tez rivojlana boshladi. Uzluksiz urushlar ko'p miqdorda qurol va yarog'-aslaha talab qildi. Metallga bo'lgan talab metallurgiyaning tez rivojlanishiga olib keldi. Ochiq o'choqlar o'rnini yopik o'choqlar egallay boshladi. Yopiq o'choqlarda yuqoriyoq temperatura rejimlariga erishish mumkin bo'lib, natijada qiyin eruvchi temir rudalaridan ham metall olinadigan bo'ldi. XV asrda deyarli barcha G'arbiy Yevropa davlatlarida domna o'choqlari bor edi. Metallga ishlov berishda quymachilik ishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Yevropadagi o'rta asr hunarmandchiliga xos bo'lgan jihat ishning sexlar ko'rinishida tashkil etilishi bo'lib, bu feodal tuzumining oqibati edi. U yoki bu shaharning har bir sexi bir kasb yoki mutaxassislik hunarmandlarini birlashtirar, o'z ustavi va saylanadigan ma'muriyati-oqsoqollariga ega edi. Faqat ustalar o'rta asr sexlarining to'la huquqli a'zolari edi. Hunarmandchilik ustaxonalarida ustalar bilan bir qatorda yordamchi ishchi va shogirdlar ham ishlar edi.

Sex hunarmandchiligidagi hali mehnat taqsimoti yo'q bo'lib, har bir hunarmand o'z mahsulotini boshidan oxirigacha o'zi tayyorlar edi. Raqobatga qarshi turish hamda hunarmandchilik ustaxon-

<sup>1</sup> Конотопов М. В., Сметанин С. И. Экономическая история: Учебник. - 9-е изд., доп. и перераб. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2007. - С. 100.

aridagi ishchilar o'rtasida iqtisodiy tenglikni ta'minlash maqsadida o'rta asr hunarmandchilik sexlarida shafqatsiz, qattiq reglamentlash tartibi amalda bo'lgan. Mahsulot hajmi va sifati, bahosi, yordamchi ishchi va shogirdlar soni, jixozlar va xom-ashyo miqdori, ish kunining davomiyligi bularning hammasi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Shaharda hech kim, agar u sex a'zosi bo'lmasa, biror bir hunar bilan shug'ullanishga haqqi yo'q edi.

Bu tadbirlarning hammasi, shu jumladan sex tashkiloti ham avval boshda progressiv ahamiyatga ega bo'ldi, chunki hunarmandlarning manfaatlarini himoya qilar edi. Lekin sexlar sekin-asta jamoaviy ishlab chiqarish rivojlanishiga to'sqinlik qila boshladi. Chunki sexlardagi reglamentlash tartibi texnik rivojlanishga, ishlab chiqarish kuchlarining o'sishiga sun'iy to'sqinlik qilar, raqobatni va hunarmandlarning tashabbusini bo'g'ib turar edi.

XI-XV asrlarda ishlab chiqarish kuchlari va tovar ishlab chiqarish rivojlanishi bilan birga ichki va tashqi savdo ham kengaya bording. Ayniqsa kompaniyadagi yarmarkalar mashhur edi. Uning oltita shahrida navbatma-navbat yarmarkalar tashkil etilar, bu yerga turli davlatlardan savdogarlar oqib kelardi. Savdogarlar va hunarmandlarni talon-tarojdan va yirik feodallar o'z boshimchaligidan himoya qilish uchun shaharlar maxsus ittifoqlarga birlashganlari. Ulardan eng mashhuri Ganza ittifoqi bo'lib, u butun Shimoliy Yevropadan (Novgoroddan) Londongacha - o'z filial va idoralariga ega edi.

Turli vaqtarda Ganzaga 70 dan 100 tagacha<sup>1</sup>, asosan nemis shaharları birlashgan. Yevropada tovar-pul munosabatlarning rivojlanishi XI-XV asrlarda, dastlabki banklar va qarz muomalalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ba'zi ishbilarmon va savdogarlar bankirlardan, ya'ni sudxo'rlardan pul qarz olib ishlatardilar. Bank-kredit muomalalari va muassasalari eng avvalo Shimoliy Italiya shaharlarida rivojlana boshladilar. "Bank" atamasi italyancha "banka" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, sudxo'rning pul ayirboshlash stolchasini anglatadi.

<sup>1</sup> История мировой экономики: Учебник для вузов / Под ред. Г.Б. Поляка, А.Н. Марковой. — 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.- С. 136.

### **3.4. Yevropada kapitalistik ishlab chiqarish kurtaklarining vujudga kelishi**

IX asrning ikkinchi yarmida Buyuk Karl imperiyasi tarkibidan ajralib chiqqan Italiya bir nechta alohida, feodal yakka qismlarga bo'linib ketdi. Shimoliy Italiyada bir necha boy shahar-respublikalar - Venetsiya, Genuya va Florensiya tashkil topdi. Xo'jalik rivojlanishi jihatidan ular Italiyaning boshqa rayonlarini ancha orqada qoldirib ketishdi. Aslida ular sanoat ishlab chiqarishi va savdo-sotiqning dunyo markazlari edilar.

#### ◀ Venetsiya

o'sha davr me'yirlari bo'yicha juda katta shahar bo'lib, 200 ming aholisi bor edi. Venetsiya movutlari va shoyi matolari, shisha qurollar, qahrabodan tayyorlangan buyumlari butun Yevropaga tarqalar, sharq mamlakatlarda katta talabga ega edi.

#### ◀ Genuya

Venetsianing doimiy raqobatchisi Genuya edi. Ular orasida O'rta Yer dengizi basseynida savdo-sotiq bo'yicha birinchilik uchun to'xtovsiz kurash borardi. Genuyaliklar Qora dengizning shimaliy qirg'oqlarida bir qator faktoriyalar tashkil qildilar. Ulardan eng ahamiyatlilari Kafa va Soldayya edi. XIV asrning ikkinchi yarmida (1380 y.) Venetsiya floti Genuya flotini kuchli mag'lubiyatga uchratdi va shundan keyin O'rta yer dengizi hududida birinchilik uzil-kesil Venetsiya tomoniga o'tdi.

#### ◀ Florensiya

Dengizdan ancha uzoqda joylashgan Florensiyada sanoat, ayniqla movut va shoyi ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bank ishlari ham gullab-yashnadi. Florensiya savdogarlar va sanoatchilar o'z kapitallarini Rim papasi, qirollar va feodal zodagonlarga qarzga berar edilar.

Florensiya boyligining ortishi bilan shahar aholisining mulkiy va ijtimoiy tabaqalanishi kuchaya bordi. Shahar xokimiyyati "katta sex'lar" deb atalmish korporatsiyalar qo'lida bo'lib, ularga boy savdogarlar, sanoatchilar, bankirlar, vrachlar va yuristlar kirar edi. Qolgan sexlar "kichik sexlar" deb atalardi.

XVI asr va XVII asrning so'nggi uchdan biri jahon xo'jaligida feodal munosabatlarning emirilishi va feodal jamiyat asosida kapitalistik ishlab chiqarishning paydo bo'lishi hisoblanadi.

Bu jarayonning boshlanishiga G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI asrda yuz bergan moddiy ishlab chiqarish sohasidagi, ishlab chiqarish kuchlarining ahvoli va xususiyatlaridagi o'zgarishlar, ichki va tashqi bozorning kengayishi sabab bo'ldi.

XVI asr boshiga kelib sanoat ishlab chiqarishining barcha sohalarida ish qurollari va ishlab chiqarish texnologiyalari ancha takomillashgan edi. Takomillashgan sohalar qazib olish va qayta ishlash sohalari edi. Shaxtalarda o'z davri uchun ancha murakkab qurilmalar paydo bo'ldi. Bunday mexanizmlar chuqurroq shaxtalardan qurish va avvallari yetib bo'lmasan qatlamlardan ruda olish imkoniyatini berdi.

Metallurgiya sanoatida kichik o'choqlar o'rniga domna o'choqlar qurildi va cho'yandan temir va po'lat olish usuli topildi. Bu usulning asosiy qirralari hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

O'sha davrda eng keng tarqalgan sanoat sohasi hisoblangan to'qimachilik sohasida ham texnika va texnologiyaning rivojlanishi kuzatildi. Movutsozlik texnikasi ancha o'zgardi. Shoyi va paxtadan ip-gazlama ishlab chiqarish rivoj topdi.

Texnika rivojlanishi faqat sanoatda yuz berib qolmadi. Harakatlanish vositalarida, ayniqsa dengiz transportida katta o'zgarishlar yuz berdi. XVI asrda o'q otar qurollar harbiy sohada haqiqiy inqilobga olib keldi.

Qishloq xo'jaligida ham sanoatdagiday tez bo'lmasa ham texnika va texnologiya yuksalishi kuzatildi:

- Botqoqliklarni quritish va o'rmonlarni qo'porib tashlash natijasida haydaladigan yerlar ancha kengaydi.
- XVI asrda dehqonchilikning ko'proq takomillashgan tizimlari - ko'p dalalik almashlab ekish va o't o'stirishga o'tish boshlandi.
- O'g'itlardan foydalanish kengaydi, qishloq xo'jalik asbob-uskunalari soni ko'paydi.
- Metallurgiya yutuqlari metalldan ishlangan qurollarning ko'payishi va ularning sifati oshishiga olib keldi.

Sanoat va qishloq xo'jaligining mahsulorligi oshishi bilan birga:

- ichki bozor kengaydi,
- tashqi bozorga mahsulot yetkazib berish tez o'sa boshladi,
- savdogar asosiy shaxsga aylana bordi,
- pul munosabatlari murakkablashdi,

- savdo shartnomalari va bitimlarining yangi ko'rinishlari ildiz ota boshladi,
- birja mahsulot va qimmatbaho qog'ozlar ayirboshlash joyiga aylandi,
- qarz berish va bank ishi rivojlandi.

**G'arbiy Yevropada ishlab chiqarish kuchlari ahvoldagi ma'lum o'zgarishlar shundan dalolat beradiki:** jamiyatdagi asosiy ishlab chiqaruvchilar bo'lgan hunarmand va dehqonlarning mayda xo'jaliklari XVI asrda o'z imkoniyatlarini tugatib bitirdi va endilikda mustaqil rivojlanishga qodir bo'lmay qoldi.

Mayda ishlab chiqaruvchining iqtisodiy ahvoli o'zgara bordi, chunki u endi mehnat qurollarini olish uchun tobora ko'proq mablag' sarflashi kerak bo'la boshladi.

Bu pirovard natijada hunarmandning savdogaryoki boshqa kapital egasiga iqtisodiy qaram bo'lib qolishini yengillashtirdi, mayda ishlab chiqarishning yemirilishiga va kapitalga bo'ysunishiga olib keldi va nihoyat, mayda sanoatni unumliroq kapitalistik ishlab chiqarish shakllariga o'z joyini bo'shatib berishga majbur qildi.

Tog'-kon sanoati, metalluriya va metallga ishlov berish sohalarida mayda sanoatning "qobiliyatsizligi" yanada yaqqol namoyon bo'ldiki, hunarmand o'z mablag'lariiga shaxta, domna o'choqlari, temirga ishlov berish uchun og'ir to'qmoqlar sotib ola olmas va bularni faqat o'z kuchi bilan ishlata olmas edi. Bu sohalarda alo'hida hunarmandlarning mayda sanoati yirik ishlab chiqaruvchilar tomonidan surib tashlanishi aniq edi.

Mayda ishlab chiqaruvchilarni mahsulot yoki sudxo'rlar kapitaliga asta-sekin bo'ysundirish yo'li bilan kapitalistik sanoatni tashkil etish amalga osha bordi. Bunday bo'ysundirish darajasi va aniq shakllari turlicha edi.

Avvaliga hunarmand, o'z xo'jaligiga shaxsiy egaligini saqlagan holda, savdogardan xom-ashyo sotib olar yoki xom-ashyonini qarzga olar edi.

Amalda mayda ishlab chiqaruvchi bora-bora savdogarga qaram bo'lib borar, undan xom-ashyo olib, avvaldan belgilab qo'yilgan narxda mahsulot tayyorlab berishga majbur edi. Hunarmandning savdogarga yoki sudxo'rga bo'ysunish va qaramlik shaklining aynan shu ko'rinishi XVI asrda G'arbiy Yevropada keng tarqalgan edi.

Hunarmand savdogardan vaqtincha foydalanish uchun mehnat qurolini olib turishga yoki uni sotib olish uchun pul qarz olishga majbur bo'lar edi. Bunday holda mayda ishlab chiqaruvchi maosh olib ishlovchi yollanma ishchiga deyarli to'liq aylanib qoljar edi. Shunday qilib, asta-sekin bevosita ishlab chiqaruvchi o'z xo'jaligi va ishlab chiqarish vositalariga egalik huquqidan mahrum bo'lgan ishlab chiqarishning mini shakli paydo bo'ldi. Sanoat ishlab chiqarishishning bunday shakli kapitalistik uy sanoati deb nom oldi, Demak, mayda ishlab chiqarish xususiyatini saqlab qolgan kapitalistik ishlab chiqarishning eng quyi shakli uyda ishlash yoki tarqoq manufaktura edi.

Kapitalistik ishlab chiqarishning bunday shakli XVI asrda juda keng tarqaldi, ayniqsa, sex cheklashlari yo'q bo'lgan qishloqlarda tarmoq yoydi. Iqtisodiy hayotning yangi sharoitlarida qishloq hunarmandlari mustaqil ishlab chiqaruvchi bo'lish imkoniyatiga ega emas va bir yo'la savdogarga ishlab boshlar edilar, ya'ni amalda yollanma ishchilar bo'lib qolgan edi. Natijada qishloqda mayda, lekin mohiyati jihatidan kapitalistik bo'lgan, jun va zig'irdan gazlama to'qish, ko'pgina metall buyumlar va boshqalarni ishlab chiqarish bo'yicha rayonlar paydo bo'ldi.

Tarqoq manufakturada ishchilar bir-biridan makon jihatidan ajralgan bo'lishiga qaramay, mehnat taqsimoti bilan bog'langan edilar; birovlar xom-ashyodan yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarsa, boshqalari uni tayyor mahsulot darajasiga yetkazardilar. Mahsulot ishlab chiqarishning ayrim bosqichlari ustaxonlarda amalga oshirilar edi, bu yerda yollanma ishchilar bir binoning ichida tadbirkorning rahbarligi ostida ishlar edilar. Odatda bunday ustaxonlarda mahsulot tayyorlashning ko'proq jarayonlari, masalan soat yig'ish ishlari va hokazolar bajarilar edi. Bunday manufaktular aralash manufaktular deb atalar edi.

Eng rivojlangan manufaktura, odatda sobiq sex ustalari tomonidan tashkil etilgan, markazlashgan manufaktura edi. Unda mehnat taqsimoti qo'llanilar, ayrim ishchilar u yoki bu jarayonlarni bajarishga ixtisoslashgan bo'lib, bu ish unumдорligini ancha oshirar edi. Barcha ishchilar bitta binoda tadbirkor yoki ustalar nazorati ostida ishlar edilar.

Kapitalizm rivojlanishining birinchi davrida - XVI asrdan XVIII asrning so'ngi uchdan birigacha - G'arbiy Yevropada manufaktura kapitalistik ishlab chiqarishning asosiy shakli edi. Ishchilarni

bir binoga birlashtirish ular orasida mehnatni mukammal taqsimlash, texnologiyani, ish qurollari va asboblarini takomillashtirish imkonini berdi hamda sanoat to'ntarishi davrida mashinalashgan texnologiyalarga o'tishga zamin tayyorladi.

Sanoatning alohida sohalarida kapitalistik ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi va shakli turlicha edi. Ishlab chiqarish vositalari sezilarli qimmatlashgan va murakkablashgan sohalarda kapitalizm ayniqsa jadal rivojlandi. Bunday sohalar qatoriga tog'-kon sanoati, metallga ishlov berish, ayniqsa qurol ishlab chiqarish, kemasozlik, qog'oz ishlab chiqarish, porox, ipak tolalari ishlab chiqarish, bosma ishlari va boshqalar kiradi.

Bu sohalarda kapitalistik tashkilotlarning hajmi unchalik katta bo'limgan, faqatgina ayrim artilleriya va boshqa turdag'i qurollarni ishlab chiqarish manufakturalarida bir necha yuz kishidan iborat ishchilar ishlagan. Hunarmandchilik texnika saqlanib qolgan sohalarda kapitalizm juda sekin rivojlanardi. Bu ishlab chiqarish sohalariga G'arbiy Yevropa mamlakatlari to'qimachilik va teri mahsulotlaridan kiyim tikish kabilar kirardi.

Qishloq xo'jaligida sanoat sohasiga nisbatan kapitalizm anchagina sekin ildiz otardi. Bunga asosiy sabab qishloq xo'jaligida texnikaning sust rivojlanishi, yerga feodal mulkchiligining mavjudligi, dehqonlarning shaxsiy erkinligi yo'qligi va feodal munosabatlari G'arbiy Yevropa mamlakatlarda saqlanib qolganligi bo'ldi.

Qishloq xo'jaligida kapitalizmning paydo bo'lishini dehqonlarning qayta tabaqalanishi, zodagonlarning paydo bo'lishi, yetishtirilgan mahsulot bozorlarga chiqarilishi hamda past sifatli qaram dehqonlar mehnatini yollanma ishchilar mehnatiga almashtirilishi jarayonlarida kuzatish mumkin. G'arbiy Yevropadagi bunday o'zgarishlar qishloq xo'jaligida kapitalizmning keng rivojlanishiga olib kelmadni, faqatgina Angliyada kapitalizatsiya jarayoni juda keng miyosda rivojlandi va natijada agrar sektorda katta o'zgarishlarga olib keldi.

Umuman olganda G'arbiy Yevropa mamlakatlarda kapitalizm rivojlanishi bir xilda kechmasdi, lekin bu hududda kapitalizm qaysidir ma'noda faol rivojlanardi. Bu holatga, har bir mamlakatda mavjud aniq sabablarga bog'liq edi. Bunga misol qilib, XIV-XV asrlarda Italiyada kapitalizmning ilk kurtaklari paydo bo'lib, XVI asrda inqirozga uchraganini ko'rsatishimiz mumkin. XVI asrga kelib, Germaniya va Ispaniya davlatlari iqtisodiy rivojlanishda orqada

qola boshladi va Angliya, Gollandiya, Fransiya davlatlari intensiv ravishda iqtisodiy jihatdan juda tez rivojlanadi hamda iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shiladi.

Lekin shuni aytib o'tish kerakki, XVI asrda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida kapitalizmning rivojlanishi kapitalizmdan oldingi xo'jalik tizimining butunlay yo'q bo'lib ketishidan dalolat bermasdi. Kapitalistik ishlab chiqarish faqatgina feodalizm unsurlari muhitida shakllanayotgan uklad edi, xolos.

Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida kapitalistik munosabatlardan rivojlanishi sur'atlari tezlashdi.

### **3.5. Buyuk geografik kashfiyotlar**

XVI -XVII asrlarda Yevropa mamlakatlarida feodal tuzumning barham topishi va feodal jamiyat negizida yangi, kapitalistik munosabatlardan tug'ilishi jarayoni yuz berdi.

O'zgarishlar G'arbiy Yevropa mamlakatlari jamiyatining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatdi. Feodal ishlab chiqarish munosabatlari asta-sekin o'zining cheksiz ustunligini yo'qota boshladi. Dastlabki kapital to'plash jarayoni ildiz ota boshladi. Mehnat taqsimoti yanada o'sdi.

Dehqonlarning yersiz qolishi va shahar hunarmandlarining xarob bo'lishi natijasida paydo bo'lgan yollarma ishchilar ishlaydigan kapitalistik manufakturalar yuzaga keldi. Ijtimoiy tuzilishda ham o'zgarishlar yuz berdi; feodal jamiyatda yangi sinflar - burjuaziya va proletariat shakllandi.

Kapitalizmning rivojlanishida buyuk geografik kashfiyotlar alohida ahamiyat kasb etdi (XV asr oxiri - XVII asr). Yangi savdo yo'llari va ilgari ma'lum bo'limgan mamlakatlar va kontinentlarning ochilishi, Yevropa bilan dunyoning boshqa mamlakatlari orasida doimiy aloqalar o'rnatilishi nisbatan qisqa vaqt ichida Yevropa davlatlari xo'jaliklariga ulkan mablag'lar keltirdi.

Olimlarning fikricha: "XVI-XVII asrlarda geografik kashfiyotlar natijasida yuz bergen buyuk inqiloblar va savdo-sotiq kapitalining tez rivojlanishi ishlab chiqarishning feodal usulidan kapital usuliga o'tishiga ko'mak bergen eng asosiy omillardan biridir".

XV asrning ikkinchi yarmiga kelib Yevropa davlatlarining Sharq bilan savdo-sotiq sohasida paydo bo'lgan qiyinchiliklar va muomala vositalarining keskin yetishmovchiligi buyuk geografik kashfiyotlar uchun turtki bo'lib xizmat qildi. Avval an'anaviy

bo'lgan sharq yo'llari turklar, arablar va tatar-mo'g'ullar tomonidan bosib olingan edi. Arablarning sharq mahsulotlarini Yevropaga olib kelishda hukmronligi hamda mahsulotlarni 8-10 baravar narxlarda sotishi Yevropaliklar uchun o'ta foydasiz bo'lsa, turklarning o'zboshimchaligi va bosqinchiligi umuman tovar ayirboshlash jarayoniga tahdid sola boshlagan edi.

Ammo Venetsiyaliklar va Genuyaliklar turklar bosib olishidan ko'rgan zararlarini narxlarni ko'tarish yo'li bilan qisman qoplay olardilar. Sharqdan keltiriladigan gazlamalar, taqinchoqlar, ziravorlar va qimmatbaho zeb-ziynat buyumlarining xaridorlari bo'lgan boshqa Yevropa davlatlarining feodallari va savdogarlar nafaqat turk bosqinchiligiga qarshi, balki Italiyaliklarning Levantiya savdolaridagi vositachiligidagi qarshi ham boshqa yo'l bilan kurashishga harakat qildilar. Shu sababli Genuyalik dengizchi Kolumbning Hindistonga Atlantika orqali yo'l topish rejasи Ispaniada qo'llab-quvvatlangani ham bejiz emas edi.

XV asrda G'arbiy Yevropada muomala vositasi sifatida oltin va kumush yetishmasligi jiddiy sezila boshladi. Buning sababi faqatgina savdo-sotiqdagi o'zgarishlar natijasida oltinning Sharqqa qarab oqib ketishi emas, balki sanoat va savdoning o'sishi natijasida G'arbiy Yevropada muomala vositalariga bo'lgan talab keskin ortgan bir paytda Germaniya va Ispaniyaning kumush zaxiralari kamayib ketganligi ham edi. Feodal aristokratiya va tug'ilayotgan burjuaziya boyish va boylik orttirishga harakat qilar edi. "Oltin tashnaligi" tezda hal qilish kerak bo'lgan dolzarb iqtisodiy muammoga aylandi. Bu esa okeanlar orqali Sharqqa yangi yo'llar topishga undar edi.

Feodal yerlарining qismlarga bo'linib ketishi dvoryanlarning kambag'allashuviga olib keldi. Aynan kambag'allashgan dvoryanlar konkivistadorlarning<sup>1</sup> asosini tashkil etdilar.

Buyuk geograf k kashfiyotlarni osonlashtirgan siyosiy omillar orasida shuni aytish joizki, faqat markazlashgan qudratli monarxiyalargina yirik dengiz ekspeditsiyalarini moliyalashtirish imkoniga ega edilar. Bundan tashqari, yollanma armiya va amaldorlarga haq to'lash, boshqa xarajatlarni qoplash uchun pul vositalarining yakkahukmronligiga talab ortgan edi.

<sup>1</sup> Konkvistador – Amerikadagi birinchi ispan yer egaları.

Yevropada texnika va fanning rivojlanishisiz buyuk geografik kashfiyotlar amalga oshmas edi. Birinchi navbatda bu kemasozlik, navigatsiya va geografiya sohalariga tegishi O'rta Yer dengizi basseynida qo'llanilgan elkanli va eshkakli kemalar okean sayohatlari uchun yaroqsiz edi. XV asrda yaratilgan karavella uchta ishchi machtalarga va qavat-qavat joylashgan bir nechta elkanlarga ega edi. Bu dovullarda havfni kamaytirar, kamroq ekipaj talab qilar, kemaning suzish tezligini oshirar va shamolning har qanday yo'nali shida kerakli kurs bilan suzish imkonini berar edi. Navigatsiya fanidagi yutuqlar eng avvalo kompasning takomillashuvi bilan bog'liq bo'lib, bu aniqroq dengiz kartalarini chizish imkonini berdi.

Lekin trans atlantik suzishning amalda mumkinligini asoslagan nazariya bo'lmaganda, hech qanday texnik yangiliklar o'z rolini o'ynay olmas edi. XV asr oxirida yerning shar shaklida ekanliga to'g'risidagi antik tushunchalar qayta tug'ildi, Florensiyalik astronom va kosmograf Paolo Toskanellining g'arbg'a harakatlanib, Hindistonga borish mumkinligi to'g'risidagi taxmini to'g'ri, deb qabul qilina boshlandi.

Buyuk geografik kashfiyotlar sayyoramizning o'zlashtirilmagan kengliklariga qilingan qator dengiz ekspeditsiyalari natijasi edi. Ularda Yevropaning turli davlatlaridan ko'plab dengizchi va olimlari ishtiroy etdilar. Amerikaning ochilishi va Afrikani aylanib o'tib, Hindistonga borish yo'lining kashf etilishiga olib kelgan ikki qator ekspeditsiyalar bu kashfiyotlarning ibtidosi bo'ldi.

Hindistonga dengiz yo'lini ochish uchun portugaliyaliklar bir necha bor ekspeditsiya uyuştirdilar va XV asr davomida Afrikaning G'arbiy sohili bo'ylab borgan sari janub tomon siljidilar. 1486 yili Bartolomeo Dias boshchiligidagi Portugaliya flotiliyasi, dovul oqibatida Afrika sohillaridan uzoqlashib ketganiliga qaramay, kutilmaganda Afrika materigining janubiy nuqtasi (Dobra-yada Nadejda buruni) aylanib o'tdi. O'n ikki yildan so'ng Vasko da Gama boshchiligidagi ekspeditsiya Hind okeaniga o'tib, Hindiston qirg'oqlariga yetib bordi. Ispaniyada g'arb yo'nali shida ekspeditsiya uyuştirildi. 1492 yili Xristofor Kolumb tomonidan Amerika kashf qilindi.

Pedru Kabral va Amerigo Vespuuchchi. Keyingi ekspeditsiyalar da Yangi Dunyo qirg'oqlariga portugaliyalik Pedru Kabral va Florensiyalik Amerigo Vespuuchchi yetib bordilar. Yangi qit'a Amerigo

Vespuchchi nomi bilan Amerika deb atala boshlandi. Yevropaliklar ichida Tinch okeanini birinchi bo'lib Peruga qulayroq yo'l topish maqsadida 1513 yili Panama bo'g'ozini kesib o'tgan konkivistador Nuples de Valboa ko'rdi.

Fernando Magellan. Xristofor Kolumbning g'arbgaga qarab suzib, Hindistonga yetib borish fikrini ispan dengiz sayyohi Fernando Magellan qo'llab-quvvatladi va 1519-1521 yillari dunyo bo'ylab birinchi aylanma sayohatini amalga oshirdi. U Amerika qirg'oklari bo'ylab janubga yurib, Amerika materigini Olovli Yer orosidan ajratib turuvchi tor bo'g'ozdan o'tib Tinch okeaniga o'tdi va Filippin orollariga yetib bordi. Shu yerda Magellanni tub xalq odamlari o'ldirdilar. Magellan ekspeditsiyasining qoldiqlari Hind okeani orqali g'arbgaga harakatlanib, Dobraя Nadejda burunidan o'tib, Ispaniyaga yetib keldilar.

Magellan dengiz sayohatlarining tarixiy ahamiyati shundan iborat ediki, Yerning shar shaklida ekanligi, yagona Dunyo okeanining mavjudligi va har qanday yo'nalishda suzib, yerni aylanish mumkinligi uzil-kesil isbotlandi. Shu ekspeditsiya bilan buyuk geografik kashfiyotlarning birinchi va eng muhim bosqichi tutgallandi, desa bo'ladi. Keyinchalik ingliz, golland va rus dengiz sayyohlari ko'plab sayohatlar va kashfiyotlar qildilar, fanni va Yevropa xalqlarining madaniyatini yanada boyitdilar. Lekin birinchi okean ekspeditsiyalarining ilmiy-tadqiqiy jihatlari to'falignicha harbiy-iqtisodiy xususiyatga ega bo'ldi. Ularning hammasi aslida bir maqsadga - Sharq mamlakatlarining boyliklariga to'g'ri yo'l bilan tez yetib olish, ularni qarshiliklarsiz egallab olishga qaratilgan edi.

### 3.6. Yevropada "narxlar inqilobi"

Buyuk geografik kashfiyotlarning muhim oqibati "narxlar ravolyusiyasi"dir. Bu XVI asr davomida qishloq xo'jalik va sanoat mahsulotlariga narxlar juda tez ko'tarilib ketishida o'z ifodasini topdi. XVI asrgacha narxlar asosan barqaror bo'lib, faqat urush va tabiiy ofatlar davridagina o'zgargan bo'lsa, XVI asrning 30-yillardan boshlab oxirigacha Ispaniyada narxlar 4 baravar, qishloq xo'jalik mahsulotlarininki esa xatto 5 baravar, Fransiyada o'rtacha 2,3 baravar, Angliyada 2,5 baravar, Germaniyada 2 baravar, G'arbiy Yevropa bo'yicha esa o'rtacha 2-2,5 baravar oshib ketdi.

Narxlarning bunday o'zgarishini qimmatbaho metallarning Yevropaga ko'plab keltirilishi yoki, Ispaniyada bo'lgani kabi, ularning boshqa davlatlarga ko'plab tashib ketilishi bilan bog'laydilar. Yangi yerlardan Yevropaga ko'p miqdorda oltin va kumush keltirildi. Natijada bir asr davomida Yevropadagi oltin miqdori 550 ming-dan 1192 ming kg.gacha, ya'ni 2 baravardan oshiq kumush miqdori esa 7 mln.dan 21,4 mln.kg.gacha, ya'ni uch baravardan oshiq ko'payib ketdi.

Lekin "narxlar inqilobi"ning asl sababi pullik metallar miqdorining ko'payishi emas, balki ularning qiymati tushib ketishida edi. Oltin va kumushning arzonlashuvi ularning juda boy konlardan, qaram ishchilar va qullarning arzon mehnati evaziga, xatto oddiygina talonchilik yo'li bilan topilayotgani bilan bog'liq edi. Boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish sharoitlari esa deyarli o'zgarmagan, o'sha miqdordagi mahsulotning XVI asrdagi ekvivalenti avvalgiga nisbatan anchagina ko'p miqdordagi oltin va kumush bilan o'lchanar edi.

Shuning uchun narxlarning keskin o'sishi yuz berdi. Birinchi navbatda va eng ko'p darajada qishloq xo'jalik mahsulotlariga, eng avvalo non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga narxlar oshdi. XVI asr o'rtasidan boshlab narxlar oshishi umum xususiyatga ega bo'ldi. Lekin baribir qayta ishslash sanoati mahsulotlari va sanoat xom-ashyosiga narxlar birinchi navbatda kerak bo'ladigan mahsulotlar narxlariiga nisbatan kamroq oshdi.

"Narxlar inqilobi" muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bir tomondan "... ish haqi va yer rentasining qadrsizlanishi, ikinchi tomondan sanoat daromadlarning o'sishi" kuzatildi. Shuning uchun "narxlar inqilobi" o'sha davrda tug'ilayotgan sanoat burjuaziyasining boyishi va proletariatning qashshoqlashuviga olib keldi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari va keng iste'mol buyumlariga narxlarning oshishi aholining haqiqiy daromadlari miqdorining tushib ketishiga olib kelib, yollanma ishchilarning hayot darajasini keskin pasaytirdi. Angliyada tovarlar narxi o'rtacha 155 % ga, yollanma ishchilarning ish haqi esa faqat 30 % gagina oshdi.

Savdo burjuaziyasini ham "narxlar inqilobi"dan yaxshigina boyib oldi, chunki chayqov shartnomalari va chayqov daromadlarini olishga qulay shart-sharoit yaratilgan edi. "Narxlar inqilobi" o'ziga to'q dehqonlarning tez boyishiga, qishloq burjuaziyasining paydo

bo'lishiga ham olib keldi. Sababi, qishloq xo'jalik ishchilarining real ish haqlari tushdi, pulning sotib olish qobiliyati pasayishi bilan yer egalari oladigan to'lovlar yoki ijara haqining real miqdorlari kamaydi, qishloq xo'jalik mahsulotlariga narxlar esa misli ko'rilmagan darajada oshib ketdi.

Shu bilan birga miqdori barqaror turgan rentani pul holida oladigan feodallar narxlar oshishidan jiddiy zarar ko'rdilar.

Shunday qilib, "narxlar inqilobi" ning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari feodallar va endi paydo bo'layotgan yollanma ishchilar sinflarining jamiyatdagi ahvoli yomonlashuvi hamda kapitalistlar sinfining rivojlanishida o'z ifodasini topdi. "Narxlar inqilobi" katta ahamiyatga ega bo'ldi: u kapitalistik xo'jalikning shakllanishi va feodal tuzumning yemirilishini tezlashtirdi.

### **3.7. Jahon bozorining vujudga kelishi**

Buyuk geografik kashfiyotlar Yevropaning keyingi iqtisodiy rivojlanishiga juda kuchli inqilobiy ta'sir ko'rsatdi. "Amerikaning kashf qilinishi va Afrikani aylanib o'tadigan dengiz yo'lining ochilishi o'sayotgan burjuaziya uchun yangi faoliyat maydonlarini yaratib berdi. Sharqiy Hindiston va Xitoy bozorlari, Amerikaning mustamlakalashtirilishi, mustamlakalar bilan ayriboshlash, ayriboshlash vositalari va umuman tovarlar miqdorining ko'payishi savdo-sotiq, dengizda suzish, va sanoatga shu vaqatgacha misli ko'rilmagan turki berdi va parchalanayotgan feodal jamiyatda revolyutsion elementlarning tez rivojlanishiga olib keldi".

Yangi yerlar kashf etilishi natijasida XVI asr oxiriga kelib yer sharining yevropaliklarga ma'lum bo'lgan hududlari XIV asrga nisbatan 6 marta ko'paydi. Dunyo quruqligining 60 % i o'rganib bo'lindi. Dengizda suzish san'ati dunyoning juda uzoq qismlari va xalqlari orasida barqaror iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishiga imkon berdi.

Mustamlaka hududlar Yevropa kapitalining chekka xo'jaligi si-fatida ishlatila boshlandi, aslini olganda dunyo savdosiga aylanib qolgan tashqi savdoni kengaytirishning asosi bo'lib xizmat qildi. Buyuk geografik kashfiyotlar xalqaro mehnat taqsimoti, dunyo xo'jaligi va bozorining vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qildi. Savdo-sotiq hajmi oshdi, mustamlakalardan keladigan mahsulotlar hisobiga ularning turlari mislsiz kengaydi. Savdo aylanmasiga avvallari Yevropaga noma'lum bo'lgan yangi tovarlar - tamaki,

kakao, kofe va boshqa mahsulotlar kiritildi. Shu vaqtidan boshlab bunday mahsulotlar juda keng tarqalib ketdi. Ziravorlar, guruch, qand iste'moli keskin oshdi.

Dunyo bozorining vujudga kelishi xalqaro savdo-sotiqlarning nafaqat tuzilishi va xususiyatlariiga, balki uni amalga oshirish usullariga ham radikal o'zgarishlar kiritdi. Yangi bozorlarni egal-lash uchun kurashda bir qator davlatlarda yakkahukmron savdo kompaniyalari tashkil etila boshladi. Ularning dastlabkilari ushbu mamlakat savdogarlarining yer sharining ma'lum hududi bilan savdo-sotig'ini boshqarib turardi xolos.

Masalan, Angliyada faqat Afrika kompaniyasi a'zolarigina Afrikada savdo-sotiq olib bora olar edilar, lekin ularning har biri alohida faoliyat yuritardi. Boshqa davlatlar bilan raqobatbardosh kurash olib borish uchun bu yetarli bo'lmay qoldi va kompaniya ichidagi savdogarlar kapitali sekin-asta birlasha boshladi. Birlashgan kompaniyalar orasida eng qudratililar Angliya va Gollandiyadagi Sharqiy Hindiston kompaniyalari bo'lib, ular Hindiston bozoriga yakkahukmronlik qila oldilar.

XVI asrda tovar birjalari ancha takomillashgan shaklga ega bo'la boshladi. Ularning ahamiyati oshishi tovar miqdorlarining o'sishi natijasida ularni to'liq ko'rib chiqish amalda mumkin bo'lmay qolganligi bilan bog'liq edi. Shartnoma tuzishda partiya sifatini aniqlash uchun tovarning nusxasini ko'rish bilangina cheklaqadigan bo'lindi. Buni maxsus ajratilgan joylarda - birjalarda - ishlab chiqilgan qoidalarga asosan, tovar va boyliklarni ko'rsatmay, amalga oshirish qulay edi. Shu bilan birga dunyo xo'jalik aloqalarining kengayishi xalqaro qarz berish tizimini rivojlantirdi.

Shuning uchun tovar birjalari qatorida fond birjalari ham paydo bo'la boshladi va ularda chet mamlakatlarning veksellari, obligatsiyalari, keyinroq esa aksiyalari bilan savdo qilinadigan bo'ldi. Birja savdolari qatorida yarmarka savdolari, shu jumladan chay-qov xususiyatli yarmarka savdolari ham jonlandi.

Dunyo bozorining vujudga kelishi asosiy savdo yo'llarining O'rta Yer dengizi basseynidan Atlantika okeaniga ko'chib o'tishini bildirar edi. Dunyo savdo aylanmasida yetakchi o'rin Venetsiya va Genuyadan Pireneya yarim oroli portlariga, keyin esa Angliya, Gollandiya, Fransiya portlariga o'tdi. Italiya shaharlari Sharq bilan savdo-sotiqdagi yakkahukmronligini yo'qtgandan so'ng qarz berish ishlariga ixtisoslasha boshladilar.

Germaniya shaharlari ham dunyo savdosidan chetda bo'lib qoldilar. Lekin Atlantika okeani qirg'oqlarida joylashgan shaharlari, birinchi navbatda Niderlandiya alohida iqtisodiy ahamiyat kasbi eta boshladilar. Lissabon va Sevilyaning ahamiyati mustamlaka tovarlar kiritilishiga asoslangan bo'lsa, Antverpen va Amsterdam dunyo savdosining vositachilik markaziga aylandi va bu yerlardan butun Yevropaga tovarlar tarqatiladigan bo'ldi. Niderlandiya shaharlari birjalariga barcha Yevropa davlatlarining savdogarları yig'iladigan bo'ldi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. G'arbiy Yevropada feodalizmning shakllanishini xususiyatlari nimadan iborat?
2. Angliyada Uot Tayler boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'onlarning sabablari nimada?
3. G'arbiy Yevropada hunarmandchilikni qishloq xo'jaligidan ajralishi qanday natijalarga olib keldi?
4. Ganza ittifoqining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Shimoliy Italiyadagi shahar-respublikalarning rivojlanish xususiyatlari nimadan iborat?
6. Buyuk geografik kashfiyotlarning G'arbiy Yevropa iqtisodiyotiga ta'siri nimadan iborat?

## § 4-MAVZU. YANGI DAVRDA INDUSTRIAL TIZIMNING VUJUDGA KELISHI (XVIII asr)

**Tayanch atamalar va iboralar:** manafakturna, fabrika, sanoat proletariati, sanoat to'ntarilishi, senz, shampar, kurfyurst,

### ■ Reja:

- 4.1. Davrning umumiy tavsifi.
- 4.2. Angliya – sanoat inqilobining vatani.
- 4.3. Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.
- 4.4. Germaniyaning iqtisodiy qoloqligi sabablari.

### 4.1. Davrning umumiy tavsifi

XVIII asrda G'arbiy Yevropada ijtimoiy-iqtisodiy sohada quyidagi muhim hodisalar yuz berdi:

- burjua iqtisodiy munosabatlarini paydo bo'lishi va rivojlanishi;
- sanoatning jadal o'sishi sharoitida raqobatning hukmronligi;
- Angliyadagi sanoat inqilobi;
- burjuaziyaning iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini o'sishi;
- andifeodal harakatning kuchayishi;
- qishloqning shaharga bo'y sunishi;
- insonlar o'rtasidagi deyarli barcha an'anaviy munosabatlarning pul munosabatlari bilan to'liq almashtirilishi;
- ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlik to'g'risidagi ma'rifiy g'oyalarning keng tarqalishi.

XVIII asrda G'arbiy Yevropa iqtisodiy jihatdan sanoat rivojlanish sur'atlari bo'yicha namuna bo'ldi. Asr boshidayoq yevropa manafakturasi o'z taraqqiyotining oxirgi bosqichiga o'tdi va bir qator mamlakatlarda (Angliya, Gollandiya, Fransiya sanoatining ba'zi tarmoqlari) hunarmandchilikdan ustunlik qila boshladi. Boshqa Yevropa mamlakatlarida esa (Germaniya, Fransiya) manufakturaning rivojlanishi feodalizm sarqitlari, sexga berilayotgan imtiyozlar, ichki bozorning torligi sababli sekinlashar edi.

*Ingliz manufakturasi*<sup>1</sup>. Ingliz manufakturasi eng yetuk cho'qqiga erishdi. XVIII asr c'rtalariga kelib Angliyada sanoat to'ntarilishini amalga oshirish uchun barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlar vujudga keldi. Ushbu jarayonning asosiy mazmuni *manufakturadan fabrikaga* o'tishda mujassamlashgandir: qo'l mehnatiga asoslangan mayda ishlab chiqarishdan yirik mashina industriyasiга o'tishda (birinchi navbatda yengil sanoatda).

Sanoat inqilobi texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etishga ta'sir ko'rsatdi.

- Umumiy dv gatelli mashinalar tizimi mehnat jarayonini uzluksizligini ta'minladi.
- Arzonroq va sifatli bo'lgan fabrika-zavod mahsulotlari hunarmandchilik va manufakturna mahsulotlarini siqib chiqardi.
- Sanoatni qishloq xo'jaligidan uzil-kesil ajralishi yuz berdi.
- Yirik shaharlar va kapitalistik sanoat markazlari paydo bo'ldi.

Bu davrda burjuaziya – *fabrikantlar* va yollanma ishchilar – *sanoat proletariati* sinflari to'liq shakllandi. XVIII asr savdo asri hisoblanadi. Ba'zi hollarda tashqi savdoning o'sish sur'atlari sanoat ishlab chiqarishi o'sishi sur'atlaridan yuqori bo'ldi. Bu davrda merkantelizm g'oyalari ustuvorlik qilardi, aktiv savdo balansi targ'ib qilinar edi. Burjuaziya cho'qqisidagilarning kapitali sanoatda emas, balki savdoda, kemasozlikda, bank sohasida mujassamlashgandir. Ushbu davrda merkantilizm siyosati faol proteksionizm siyosati bilan uzviy bog'liq edi.

Shunday bo'lsa ham XVIII asrda Yevropa asosan agrar hududidir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jamiyatni mavjudligi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni belgilab berar edi. Ushbu tarmoqda aholining asosiy qismi band edi: Angliyadagi 75%dan Fransiyadagi 80-85%gacha. Yerga mulkchilikning turli shakllari mintaqaviy xususiyatlarni keltirib chiqarar edi. Asta-sekin yevropa mamlakatlari agrar sektorida ijaraning shakllari va tarkibi o'zgarib bordi.

- Mayda dehqonchilik ijarasi yirik tijorat ijarasi tomonidan siqib chiqarilardi.

<sup>1</sup> Заславская М.Д. История экономики: Учебное пособие для бакалавров / М.Д.Заславская. – М. "Дашков и К°", 2013. –С. 103.

- Ijara munosabatlari borgan sari ko'proq yollanma mehnat jalg etilar edi.
- Dehqonchilikning ijtimoiy-iqtisodiy differensiatsiyasi ushbu munosabalarga bevosita bog'liq edi.

#### **4.2. Angliya – sanoat inqilobining vatani**

XVII asrga kelib Angliya jahon yetakchisi hisoblangan Golland-yadan kapitalistik manufakturalarning o'sish sur'atlari, jahon savdosi va mustamlaka iqtisodiyoti bo'yicha o'zib ketdi. XVIII asr o'rtasiga kelib Angliya yetakchi kapitalistik mamlakatga aylandi.

Qishloq xo'jaligi. XVIII asrda Angliya asosan agrar mamlakat hisoblanardi. XVII asr o'rtalaridagi burjua inqilobidan so'ng mayda va o'rta dehqon xo'jaliklarini yirik yer mulkdorligi tomonidan siqib chiqarilishi XVIII asr o'rtalarida dehqonchilikni sinf sifatida ahamiyatini yo'qolib borishiga olib keldi. Jamoa va mayda dehqonchilikni tugatilishi natijasida yer mulkini qayta taqsimlanshi, yerga yirik egalik qilish va kapitalistik fermerlikni rivojlanishi amalga oshirildi.

- pomesteylarni yiriklashtirilishi lenlordlarga qishloq xo'jalik texnikasidan keng foydalanish imkonini berdi.

- agroteknika takomillashtirildi

- almashlab ekishga o'tish amalga oshirildi

- yirik fermerlar yollanma ishchilarni jalg qilib, yetakchi texnikani ishlatib va yer egalariga kapitalistik rentani to'lab xo'jalik yurita boshlashdi.

- qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan barqaror talab va ichki va tashqi bozorlarni muntazam kengayib borishi ishlab chiqarishni takomillashtirishga doimiy rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

XVIII asrda mayda yarlarni yirik yer egalari tomonidan tortib olinishi jarayoni yirik fermalar uchun ochiq dalalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Yer uchastkalarini yiriklasnuvi va mayda ijarrachilarni yiriklari tomonidan siqib chiqarilishi ijara to'lovlarini o'sishiga olib keldi. Uning hajmi ba'zida oddiy to'lovdan 4-10 barobar katta bo'lar edi. Mayda yarlarni yirik yer egalari tomonidan tortib olinishi jarayonini kengayib borishi ingliz parlamenti tomonidan qabul qilingan huquqiy aktlar sonidan ham ko'rindi. XVIII asrning birinchi choragida – 15 akt, asr o'rtasida – 220 ta akt, asr oxirida 1,5ta akt. Jamoa va dehqon yeralarini lenlordlarning

xususiy mulkiga aylanishi jarayoni 1800 yilda qonun qabul qilinishi bilan yakunlandi.

Shunday qilib XVIII asrda Angliyaning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi yuqori darajada rivojlanar edi. Uning tovarlilik darajasi oshdi. Yerda ishlamaydigan aholining oziq-ovqat mahsulotlariга, sanoatni esa xom ashyoga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyoji to'liqroq qondirila boshlandi. O'z navbatida yerlarni yiriklashtirish jarayoni ish kuchi zaxirasini vujudga keltirib uni sanoatda foydalanishga imkon yaratadi.

Sanoat to'ntarilishining shart-sharoitlari. XVII asr o'talaridagi burjua inqilobi natijasida:

- kapitalistik rivojlanish oldida turgan to'siglarni olib tashlandi;
- yerga burjua mulkini o'rnatildi;
- milliy bozorni shakllanishini jadallashtirildi;
- mamlakatda monarxiya boshchiligidagi yer va moliyaviy aristokratiya ittifoqi shakllandi.

Amalga oshirilayotgan proteksionizm siyosati olib kelinayotgan xorijiy tovarlarga yuqori bojxona bojini o'rnatdi. Jahon bozorida boshqa tovarlar bilan raqobatlashish uchun Angliya fabrika usulida va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi zarur edi.

Angliya ilmiy tadqiqotlarga va ixtirolarni amaliyatga joriy etishga yetarli bo'lgan kapitalni jamlashga muvaffaq bo'ldi. Kerakli mablag'ning manbalari:

- davlat qarzi;
- soliq stavkasini oshirilishi;
- ishlab chiqarish va savdoni kengaytirilishi.

Angliyaning XVIII asrdagi savdo urushlari yangi mustamlakalarni bosib olinishi bilan yakunlanar edi. XVIII asrda Angliya 120 ta mustamlaka bosib olish urushlarida qatnashdi.

Britaniya mustamlaka imperiyasini shakllanishi Yetti yillik urush (1756-1763) bilan yakunlandi. Unda g'alaba qozonib Angliya Fransiyani Hindistondan siqib chiqardi, Kanadani bosib oldi va qudratli mamlakatga aylandi.

Angliya burjuaziyasi mustamlakalarni talash evaziga katta mablag' to'pladi. Mustamlakalarga olib borilayotgan tovarlar monopol yuqori narxlarda sotilar edi. Mustamlakalardan esa tovarlar suv tekin narxlarda olib kelinar edi.

Angliya yiliga 20 ming qora tanlilarni Amerikaga olib borib qul sifatida sotish evaziga juda katta foyda topar edi.

Sanoat to'ntarilishining yo'nalishlari va ogibatlari. Sanoat to'ntarilishi – bu qo'l mehnatiga asoslangan manufakturadan sanoat burjuaziysi va sanoat proletariatini shakllanishi bilan birgalikda amalga oshadigan fabrika-zavod ishlab chiqarishiga o'tishdir.

Sanoat to'ntarilishining yo'nalishlari:

- To'ntarilish birinchi bo'lib tekstil sanoatida boshlandi. Mato va gazlamalar yangi mashina va uskunlarda ishlab chiqarilib, arzon narxlarda bozorda sotila boshlandi va raqobatchilarni siqib chiqardi

- Keyingi yo'nalish – metallurgiya sanoatini rivojlanishi bo'lib, oxir natijada u ko'mir qazib olishga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

- Ko'mir qazib olishni rivojlanishi transport kommunikatsiyasi taraqqiyotiga olib keldi.

- Transportni rivojlanishi savdoni taraqqiy etishiga turki bo'ldi.

- Yakuniy bosqich bo'lib mashinasozlik tarmog'i namoyon bo'ldi. Bunda metallga ishlov beruvchi mashinalar ishlab chiqarila boshlandi.

#### 4.3. Fransyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari

##### ► Feodalizm sarqitlari

XVIII asrning o'rtalariga qadar Fransiya Yevropada yetakchilik qilishga intildi. Bunga uning Angliya oldida bir muncha ustunlikka ega ekanligi imkon berdi. Fransiya aholisi Angliyanikidan ikki barobar ko'p edi. Fransiya hududi ham kattaroq edi. Fransuz sanoati va savdosи (ayniqsa, tashqi savdo) samarali rivojlandi. yengil sanoat – ipakchilik, jungga ishlov berish, to'qimachilik, qog'oz, shisha va farfor, sovungarlik, ko'nchilik (teriga ishlov berish) yuqori natjalarga erishdi. Butun dunyoda fransuz manufakturalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan kiyim-kechak va matolari, bezaklar va parfyumeriya, mebel va farforlar keng miqyosda tanildi. Manufakturalar asosan markazlashtirilgan va uncha katta bo'limasdan, 10-50 ishchidan iborat bo'lgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Fransiya taraqqiyotda orqada qola boshladi. Buning asosiy sababi feodalizm sarqitlarining og'ir

yuki va mavjud hukumatning konservativ siyosatidir. Feodal tartiblar manufakturalar va savdoni rivojlanishiga to'siqlik qildi. Sanoatda o'rta asr sexlari katta ulushga ega edi. Non sotish va olib chiqib ketish ta'qiqlangan edi. Alovida monopol imtiyozlar ba'zi provinsiyalar, savdo kompaniyalari va manufakturalarga tegishli edi.

Savdoni rivojlanishiga ichki bojxonalar va o'lchov va me'yorlarning yagona tizmi mavjud emasligi to'siqlik qilar edi. Bu cheklovlar sexlarni rivojlanishiga to'siqlik qildi, ishlab chiqarishni inqiroziga va ichki bozorni torayib borishiga olib keldi.

Fransiya iqtisodiyotining asosiy tarmog'i hisoblangan agrar sektorda asosiy ziddiyatlar shakllandi. Ekin maydonlari, o'rmonlar va yaylovlarning katta qismiga egalik qilgan dvoryanlik va cherkov mamlakatda o'z imtiozi va hukmroligiga ega edilar.

Mamlakatda merkantelizm siyosati quyi qatlama (dehqonlar) ni soliq yordamida talash amalga oshirilgan edi. Aholining aynan shu qatlami o'z daromadlarining 2/3 qismini g'aznaga to'lashlari kerak edi. XVIII asrning 80-yy.da soliq tushumlarining yarmidan ortig'i aksizlarga to'g'ri kelar edi.

Fransiyada aholining asosiy qismini dehqonlar tashkil etardi (26 mln.kishidan 22 mln kishi – dehqonlar). Bu qatlama obrok to'lar edi – pullik (senz) va natural (shampar<sup>1</sup>) non bilan, uning hajmi bug'doy hosilining 20-26 %ni tashkil etardi. Yana boshqa soliq turlari ham amal qilar edi – jon boshiga, gabel (tuz solig'i) va cherkov ushri<sup>2</sup>. Juda ko'p to'lov va yig'imlar mavjud edi: parom va ko'priq yig'imi, tutun yig'imi va baliq tutish huquqini beruvchi to'lov va boshqalar. Huquqbazarliklar uchun katta jarimalar solinlar edi. Yer egalari hosilsizlikdan katta jabr ko'rар edilar. XVIII asrda ular o'ttizdan ortiq edi. Dehqonlarning shaxsiy qaramligi ularni yer egalari xo'jaligidagi yiliga 5-15 kun mehnat qilishga majbur qilar edi.

XVIII asrning 70-yy. o'rtalariga kelib fransuz moliyasining nazoratchisi A.Tyurgo islohotlari natijasida non savdosidagi cheklovlar bekor qilindi, shaharga olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlaridan olinadigan bojlar kamaytirildi. Dehqonlarning davlatga

<sup>1</sup> История мировой экономики: учебник для вузов / под ред. Г. Б. Поляка, А. Н. Марковой. - 3-е изд., стер. - М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2008. - С. 161.

<sup>2</sup> Daromadning o'ndan biri miqdorida cherkov foydasiga olinadigan soliq

bo'lgan majburiyatlar bekor qilindi. Savdo-sanoat faoliyatining deyarli barcha turlari barcha cheklovlardan ozod qilindi.

Ammo iqtisodiyotdag'i qiyinchiliklar chuqurlashib bordi. Hosilsizlik, savdo-sanoat inqirozlari, davlat bankrotligi va hukumatning mamlakat xo'jalik faoliyatini yo'lga qo'ya olmasligi – bularning barchasi feodal tizimning tanazzuli chuqurligini va keskin yechimlarga kelish zaruratinizi keltirib chiqardi.

#### ◀ Buyuk Fransuz inqilobi

Barcha boshqa burjua inqiloblari kabi ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarni keskinlashuvi natijasida kelib chiqqan Buyuk fransuz burjua inqilobi (1789-1794) butun Yevropa feodolizmiga tahdid soldi.

1789 yilning 14 iyulida Bastiliyani qo'lga olinishi keyinchalik burjua inqilobiga aylanib ketdi. Avvalombor, birinchi bosqichda (iyun 1979 – avgust 1792 yy.) konstitutsion-monarxiya hokimiysi saqlanib qoldi va bir necha muhim o'zgarishlar amalga oshirildi.

Dehqonlar harakati Ta'sis kengashini 1789 yil avgustida "Feodal tuzumni to'liq yo'q qilinishi to'g'risida"gi deklaratsiyani qabul qilishga undadi. Lekin agrar qonunchilikni ishlab chiqishda dvoryanlarning faqatgina ba'zi huquqlarini cheklashga e'tibor qaratildi. Ular jumlasiga – sen'orlar sudini bekor qilish, dvoryanlarni cheksiz ov qilish huquini bekor qilinishi va boshq. Dehqonlar qaramligini boshqa jihatlari saqlanib qolgan bo'lib, ularni sotib olish kerak edi, uning narxi esa yigirma yillik renta hajmiga teng edi.

Shu davrning o'zida cherkov mulkini sekulyarizatsiya<sup>1</sup> qilish jarayoni amalga oshirildi. Dvoryanlar va ruxoniylarga beriladigan soliq imtiyozlari bekor qilindi. Barcha fuqarolarga har qanday lavozimni egallash huquqi kafolatlandi.

Bir necha burjua islohotlari sanoat va savdoga keng tarqaldi. 1791 yil fevralida Ta'sis kengashi sanoat ishlab chiqarishini qat'iy reglamentga solishni bekor qildi. Sexlar tizimi qisqartirildi. Savdo erkinligi joriy etildi. Barcha imtiyozlar va monopoliyalar, ichki bojxonalar, non sotishga ta'qiqlar bekor qilindi. 1791 yil martda joriy etilgan yangi bojxona boji proteksionistik xarakterga ega edi.

Ammo mehnatkashlar holati kam o'zgardi. Ish haqining kamayishi, narxlarning jadal o'sishi va chayqovchilik xalqda noro-

<sup>1</sup> Cherkov mulkini davlat mulkiga aylantirish

zilikni kuchaytirdi. Ta'sis kengashi, xalqni inqilobiy chiqishlaridan cho'chigan holda, 1791 yil yozida Le Shapele qonunini qabul qildi (ushbu qonunda ishchilar birlashmasi va ish tashlashlari taq-iqlanib ularga nisbatan pul jarimalari va qamoqxona muddatları belgilandi).

Keyinchalik ishsizlar uchun ochilgan "hayriya ustaxonaları" yopildi. Shu bilan birga hukumat tepasidagi yirik burjuaziya soliqqa tortishning yagona tizimini joriy etishda yuqoriroq soliqlarni mayda sanoatchilar zimmasiga yuklashdi. Agrar masala oxirigacha hal etilmagan edi. Feodalizm sarqitlari oxirigacha bartaraf etilmagan edi.

1972 yil avgustida xalq qo'zg'aloni natijasida monarxiya tuzumi ag'darildi. Hukumat tepasiga jirondistlar – respublikachi burjuaziya vakillari keldi. Bir yildan kam bo'lган davr ichida oziq-ovqatga maksimum narx belgilandi. Emigrantlarning konfiskatsiya qilingan yerlarini mayda uchastkalar qilib sotish yoki ularni yillik renta evaziga muddatsiz egalik qilishga berish to'g'risida Qonun qabul qilindi. Sobiq feodal huquqlari bilan bog'liq barcha tergov ishlari bekor qilindi.

Agrar va boshqa muammolarni keskin hal etilishi inqilobning uchinchi bosqichi (iyun 1793 – iyul 1794 yy.)ga to'g'ri keldi. Parij qo'zg'oloni natijasida yakobinlar – inqilobiy demokratlar diktaturasi o'rnatildi. Hukumat tepasiga quyidagi siyosatchilar kelishidi - M. Robesper, L. Sen-Jyust, J.P. Marat, J. J. Danton va boshq. Yakobinchilar diktaturasining qat'iyatligi ichki va tashqi dushmanlarga zarba berib, feodal tuzumni butunlay tugatdi.

Xususan, 1793 yil iyunida Konvent dekreti bilan emigrantlarning konfiskatsiya qilingan yerlarini imtiyozli sotish tartibi belgilandi. Kam ta'minlangan dehqonlar kichik yer maydonlarini sotib olishda boshlang'ich yerning 5% summasini kiritish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Qolgan summani to'lash uchun 10 yil muddat berilar edi. Dehqonlarning yerlari ularning xususiy mulkiga aylandi.

Oziq-ovqat muammosini hal etish maqsadida "tovarlarni chay-qov maqsadida sotib olish" jinoyat deb hisoblana boshlandi. Har bir rayonda oziq-ovqat omborlari tashkil etildi. Non zaxiralarini ro'yxatdan o'tkazish bilan maxsus komissarlar shug'ullanar edilar. Yer egasi va uning oilasining ehtiyojidan ortiq bo'lган bug'doy konfiskatsiya qilinar edi. 1793 yilning kuzidan boshlab birinchi zaruratdagi mahsulotlardan (kiyim-kechak, yoqilg'i va boshq.)

tashqari, xom ashyo, temir, cho'yanga ham qat'iy cheklangan narxlar belgilandi.

Yakobinchilar o'zlarining qat'iy va ziddiyatli siyosatlari natijasida xalqni qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'ldilar. Bu holatdan yirik burjuaziya foydalanishga harakat qildi. 1 mlrd.livr hajmda majburiy qarz olingandan so'ng mamlakatning iqtisodiy holatini yomonlashtirdi. Daromadi 9 ming livrdan oshgan boylarning zebziyat va mulk soliqlari deyarli konfiskatsiyaga tenglashdi. Ushbu "soliqlar" joylarda qat'iylik bilan undirilardi. Aholining kambag'al qismi uchun hayriya cassalari tuzildi.

1794 yilning 27 iyulida yirik moliyaviy burjuaziya, sanoat tadbirkorlari, savdogarlar manfaatlarini yoqlab chiqqan aksilingilib yakobinchilar diktaturasini ag'darib hukumat tepasiga general Napoleon Bonapartni kelishiga sababchi bo'ldi.

#### **4.4. Germanianing iqtisodiy qoloqligi sabablari**

XVIII asrda Germaniya feodal va iqtisodiy jihatdan qolcq mamlakatligicha qolardi. Bozor xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan Gollandiya, Angliya va Fransiyadan farqli o'laroq Germaniya, ayniqsa uning sharqiy qismi, krepostnoylikni kuchayib borishi bilan xarakterlarnalardi. Yerni feodal ekspropriatsiya qilish (barshchina) yirik miqyoslarga erishdi. Yerdan mahrum bo'lgan dehqonlar feodalning xonadonida ovqat uchun yollanib ishlashardi.

Mamlakat iqtisodiyotini kuchsizlanib borishining sabablari dan biri – Germaniya tomonidan yirik jahon savdosini markazi o'rning yo'qotishidir. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida savdo markazi Atlantika okeaniga ko'chib o'tdi. Germaniya siyosiy tarqoqligi sababli mustamlakalarni bosib olish, dastlabki kapital jamg'arishining tashqi manbalarini izlashda faol ishtirot etishda qatnasha olmadi.

#### **► Siyosiy tarqoqlik**

XVIII asr boshlarida Germaniya hududida 300 ga yaqin mustaqil knyazliklar, gersogliklar va arxiepiskopliklar, 9 ta kurfyurstliklar<sup>1</sup>, 36 ta diniy knyazliklar, 62 ta aristokratik va 100 ga yaqin imperiya ritsarliklari, 50 ta imperiya shaharlari mavjud edi. Ushbu konglomerat "German millatining muqaddas Rim imperiyasi" deb

<sup>1</sup> Kurfyurst – imperator saylovida qatnashish huquqiga ega bo'lgan knyaz ("German millatining muqaddas Rim imperiyasi").

nomlanar edi. Ushbu knyazliklarning yerlari alohidalashgan bo'lib, o'z avtonomiyasiga ega edi, lekin rasman ular imperatorlik tarkibida edi. Ushbu alohida hududlarning eng yiriklari - Brandenburg va Saksoniya, Meklenburg va Gessen, Gannover va Braunschveyg, Bavariya va Vyurtenberg va boshq.

Siyosiy tarqoqlik xo'jaliklarni rivojlanishiga ham to'siqlik qildi. Ko'psonli bojxona postlari juda ko'p bojlar olar edilar. Yagona pul birligi mavjud bo'lImaganligi sababli pul muomalasida betartiblik mavjud edi. Mamlakatda 600 turdag'i tangalar zarb etilardi. Yagona o'lchov va og'irlik tizimi yo'q edi. Bu sharoitda sanoat va savdodagi bir tomonlama proteksionizm iqtisodiy turg'unlikni chuqurlashtirar edi.

Ichki (diniy) va tashqi urushlar ham qashshoqlikka olib kelardi. O'ttiz yillik urush (1618-1648 yy.) haqiqiy milliy fojiaga olib kelib, uzoq muddatga xo'jalik rivojlanishiga to'siqlik qildi. Urushdagi yo'qotishlar juda katta bo'lib ba'zi yerlarda aholining s qismini nobud bo'lishiga olib keldi. Qishloq xo'jaligida ham katta yo'qotishlar yuz berdi.

#### ◀ Qishloq xo'jaligi

Bu davrda qishloq xo'jalik mahsulotlariga ichki va tashqi bozor talabi ortib bordi. Don, zig'ir, mol, jun, teri va boshqalar aholi va rivojlanib borayotgan shaharlar ishlab chiqarishlari uchun zarur edi. Bu hol nemis knyazlarini xo'jaliklarini kengaytirishga majburlardi. Bu islohotlar feodal uslubda amalga oshirilardi. Barshchina mehnati va dehqonlarni ekspluatatsiya og'irlashtirildi. Dehqonlarning yerlarini ekspropriatsiya qilish evaziga yerlarning kengayishi va ishlab chiqarishni rivojlantirish dehqonlarni ekspluatatsiya qilish evaziga amalga oshirilgan yerlar yunker xo'jaliklari deb nomlanardi. Yirik nemis feodal-knyazlari (yunkerlar) davlat siyosatining boshida turar edilar. Faqatgina ular armiya va hukumatda yuqori lavozimlarni egallahashga, va yerga egalik qilish huquqiga ega edilar.

#### ◀ Taraqqiyotning yangi tendensiyalari

Germaniya sanoatida sexlar tuzumi kechki o'rta asrlarning a'analarini saqlagan holda XIX asrning ikkinchi yarmigacha amal qildi. Ammo mamlakat iqtisodiyotida asta-sekin kapitalistik rivojlanish elementlari paydo bo'la boshladi. Qishloq xo'jaligida qisman

yollanma mehnatdan foydalana boshlandi. Dehqonlar yerlarini ekspropriatsiya qilinishi, o'z navbatida feudal tuzumning iqtisodiy asoslariga putur yetkazdi. Tarqoq manufaktura keng rivoj topdi. Savdo kapitali tog'-kon ishlariiga, metallni qayta ishlashga, mato to'qish sanoatiga kirib bordi. XVIII asr oxirlarida markazlashtirilgan savdo manufakturalari paydo bo'la boshladi. Ammo ular hali Gollandiya, Angliya va Fransiya savdo manufakturalari oldida kuchsiz edi.

Shunday qilib XVIII asrda Germaniya, uni iqtisodiy rivojlanishiiga to'sqinlik qiluvchi feudal tuzumni saqlagar holda kapitalistik ishlab chiqarishga qarab birinchi qadamlar tashlay boshladi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. *Burjuaziya va yollanma ishchilar sinflarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar nimalardan iborat?*
2. *Sanoat to'ntarilishining shart-sharoitlari nimalardan iborat?*
3. *Buyuk Fransuz inqilobining iqtisodiy zamiri nimada?*
4. *Germaniya siyosiy tarqoqligining iqtisodiy oqibatlari nimada?*

## § 5-MAVZU. INDUSTRIAL SIVILIZATSİYANING SHAKLLANISHI DAVRIDA YEVROPANING IQTISODIY TARAQQIYOTI (XIX asr)

**Tayanch atamalar va iboralar:** to'qimachilik sanoati, bug' dvigatel'i, "savdo assotsiatsiyalari", mustamlaka, fritrederlik, prusscha yo'l

■ **Reja:**

1. Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari.
2. Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.
3. Germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari.

### 5.1. Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari

Sanoat to'ntarilishi ogibatlari. XIX asrning 30-yillariga kelib Angliyada sanoat to'ntarilishi yakunlandi. Yirik mashinalashgan ishlab chiqarish past mehnat unumдорligi va qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandchilik va manufakturna ustidan g'alaba qozondi. Mamlakatda muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz berdi. XIX asr o'rtalariga kelib Angliya shaharlar va ishchilar shaharchalari mamlakatiga aylandi, ularda aholining 86% istiqomat qilar edi. Qurilish va sanoatda band bo'lganlar ulushi 50%gacha ko'tarildi, qishloq xo'jaligida esa 15%ga pasaydi.

Paxtani qayta ishlash sanoati. Industrial taraqqiyot yetakchisi bo'lib paxtani qayta ishlash sanoati saqlanib qoldi. To'qish stanoklari bilan jihozlangan fabrikalar soni ko'paydi. 1800-1870 yy.da paxta matosini ishlab chiqarish 19 martaga, paxta iste'moli 1000 martaga o'sdi. XIX asr o'rtasiga kelib tekstil va to'qimachilik sanoatida ish kuchining 1/3 qismi band edi.

► Og'ir sanoat

- og'ir sanoat ham sekin-asta rivojlana boshlandi. Mamlakatda 600ta domna pechlari ishlab turardi
- 1800-1870 yy.da ko'mir qazib olish 11 marotaba va metallni qayta ishlash mahsulotlari 28 marotaba o'sdi

- dunyo bo'yicha cho'yan ishlab chiqarishning yarmi, toshko'mir qazib olishning yarmidan ortig'i Angliyaga to'g'ri kelardi
- mamlakatning og'ir sanoat mahsuloti AQSh, Germaniya va Fransiyani mahsulotlaridan 4-5 barobar ortiq edi.

Bug' dvigatellari. Industrial taraqqiyotning yutuqlari asosan bug' dvigatellarini joriy etilishi bilan bog'liq. Bu bug' transportini rivojlanishiga ham olib keldi. Mamlakatning orolda joylashganligi kemasozlik rivojini taqazo etdi. 1811 yilda Angliyada paroxod transporti rivojlana boshlandi, 40-50-yy.dan boshlab yirik okean kemalari qurila boshlandi.

Angliya yirik savdo flotiga ega edi. 1800-1870 yy.da uning tonnajni 12,5 barobarga o'sib dunyo tonnajining 60%ni tashkil etdi. Angliya "jahon yuk tashuvchi" siga aylandi.

#### Jahondagi sanoat yetakchiligin yo'qotilishi

- XIX asrning 70-yillariga kelib Angliya o'z yetakchilik mavqeini yo'qota boshladi.
- Mamlakatning jahon sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 1870 yildagi 32%dan XX asr boshiga kelib 18%ga tushib qoldi.
- Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlari qisqardi.
- An'anaviy tarmoqlar ham (tekstil, metallurgiya, ko'mir) nisbatan tushkunlik holatiga tushdi.
- XIX asrda shakllangan ularning texnik asosi eskirgan bo'lib, yangi texnikani ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan edi.

Ingliz monopoliyalari. XIX asrning 80-90 yy.da birinchi ingliz monopoliyalari tashkil topdi. Yirik monopolistik birlashmalar sanoatning quyidagi tarmoqlarida vujudga keldi – elekrotexnika, quvur ishlab chiqarish, kimyo, harbiy va boshqalar.

Ularga misol: ingliz-german portlovchi moddalar tresti (Dinamit-Nobel, 1886 y.), kimyo tresti (Yunayted Alkali, 1890 y.). Morgan moliyaviy guruhi qudratli ingliz-amerika kemasozlik trestini yaratdi.

An'anaviy sanoat tarmoqlarida kam sonli kartellar "savdo assotsiatsiyalari" ko'rinishida vujudga keldi.

Paxtani qayta ishlash sanoati uchun matoga ishlov berish va bo'yash bo'yicha alohida monopoliyalar yaratish xarakterli edi.

Mustamlakalar. XIX asr o'rtalariga kelib Angliya qudratli ishlab-chiqarish texnik bazadan tashqari katta mustamlaka yerlariiga egalikni qo'lga kiritdi. Mamlakatning qudrati deyarli qaram

hududlarni ekspluatatsiyasi evaziga ta'minlanar edi. Mahalliy aholini talon-taroj qilish, noekvivalent ayrboshlov, ko'psonli soliq to'lovlari keng tarqalgan edi. Mustamlakalardagi yerosti va yerga ustini boyliklari talon-taroj qilindi.

Mustamlakalardan o'ta past narxlarda zarur xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari olib kelinardi. O'z navbatida, bepoyon Britaniya mustamlaka imperiyasi ingliz tovarlarini monopol narxlarda daromadli sotishning katta bozori hisoblanar edi.

Bu davrda Britaniya imperiyasining durdonasi hisoblangan Hindiston to'liq bosib olindi. Hindistonda Britaniya imperiyasi aholisining 70% istiqomat qilardi. 1860 yilga kelib ushbu hududa 6,5 mln.kv.km. maydonda 145 mln.kishi yashardi.

#### ◀ Saydo siyosati

- industirlashtirish jarayoni sanoatni qudratini oshirib Angliyaning "dunyoning fabrikasi"ga aylantirdi va tashqi savdo siyosating yo'nalishlarini o'zgartirdi
- Angliya sanoat rivoji bo'yicha boshqa mamlakatlarni o'zib o'tib raqobatdan cho'chimas edi.
- proteksionizmdan *friteaderlikka*<sup>1</sup> (erkin savdoga) o'tish mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlanishiga, kapitalni jamg'arilishiga, industirlashtirish sur'atlarini o'sishiga sababchi bo'ldi.
- xom ashyoning arzon narxlari jahon bozorida ingliz tovarlarining raqobatbardoshligini oshirdi, ingliz tovarlariga bojlarni pasayishiga olib keldi.
- Angliyada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi mamlakatning ichki ehtiyojlaridan ancha ko'p bo'lib, sanoat mahsulotlari eksportini kengaytirdi.
- XIX asrda Angliya tashqi savdo operatsiyalari hajmi bo'yicha yetakchilik qildi. 1800-1870 yy.da tashqi saydo oboroti 7 marotaba (85 mln.dan 611 mln.f.st.gacha) o'sdi.
- eksport tovarlari ichida tekstil, mashinalar, ko'mir, qora metallurgiya mahsulotlari katta ulushga ega edi.
- xom ashyo (paxta, jun) va oziq-ovqat (don, go'sht va boshq.) import qilinardi.

<sup>1</sup> Кустова Т.Н., Камакина О.В. История экономики: Учебное пособие / РГАТА-Рыбинск, 2001.- С. 56.

## 5.2. Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari

Napoleonning iqtisodiy siyosati. Fransiyada XVIII asr oxiridagi inqilob mag'lubiyatga uchragandan so'ng 1799 yil 9-10 noyabrdan davlat to'ntarishini amalga oshirib hukumatga general Napoleon Bonapart keldi. U yirik burjuaziyanı holatini mustahkamladi va 1804 yilda o'zini imperator deb e'lon qildi.

Napoleon davrida

- xususiy mulk muqaddas deb e'lon qildindi;
- sanoat rivojlandi;
- 1800 yilda uning qo'llab-quvvatlashi natijasida *Fransuz banki* tashkil etildi;
- ushbu bank 30 millionli kapitalga ega bo'lib burjuaziyaning bosh moliyaviy asosiga aylandi. U poytaxt va boshqa hududlarda boshqa banklarni tashkil etishga asos soldi;
- Napoleon tomonidan bosib olingan yerlarda hamda Yevropaga fransuz eksportini kengayib borishi evaziga katta mablag'lar oqib kela boshladi;
- Napoleonning mamlakatlarni bosib olish siyosati harbiy sohaga xarajatlarni keskin ravishda oshishiga olib keldi.

Sanoat to'ntarilishi. Fransiyada sanoat to'ntarilishi Angliyadan kechroq amalga oshdi. U past sur'atlar bilan amalga oshdi. Buni mamlakatning tarixiy rivojlanish xususiyatlari, mayda hunarmand-chilikning ustuvorlikka egaligi, proletarlashtirish jarayonining sustligi, sanoat kapitalini emas bank-savdo kapitalini rivojlanganligi taqazo qilar edi.

Shunday bo'lsa ham:

- manufakturna va fabrikalarni rivojlantirishga sharoit vujudga keldi;
- sex tizimi yo'q qilindi;
- fabrika sanoati uchun muhim hisoblangan ish kuchi bozori tashkil topdi;
- Fransiyada sanoat inqilobi XIX asrning birinchi yarmida yuz berdi;
- tekstil sanoati, ayniqsa paxtani qayta ishlash sanoatida katta ahamiyatga ega ixtiolar qilindi;
- metallurgiyani sust rivojlanishiga xom ashyo (temir rudasi va ko'mir)ni yetishmasligi sababchi edi.

XIX asrning 50-70-yy.da paxta iste'moli 2 barobar oshdi. Lion shoyi ishlab chiqarishning yirik markaziga aylandi. Lionda 2 mln.

kg. ipak-xom ashyosi qayta ishlanardi va mamlakatda ishlab chiqariladigan shoyi matosining 2/3 qismi ishlab chiqilardi.

Sanoat inqilobi XIX asrning 60-yillarda yakunlandi. Sanoat mahsulotining umumiy hajmi 6 marotaba o'sdi (asr boshidagi 2 mlrd.fr.dan 60-yy. oxiridagi 12 mlrd.fr.gacha).

Fransiya sanoat ishlab chiqarishi va umumiy iqtisodiy salohiyat bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinni egalladi.

Qishloq xo'jaligi. O'sha davrda Fransiya baribir agrar mamlakat edi. Mamlakatning 8.7 mlrd.fr.li milliy daromadidan 5 mlrd. fr. agrar sektorga to'g'ri kelardi.

- qishloq xo'jaligida 40% aholi band edi, aholining 56% qishloq joylarda yashar edi.

- feodal-qaram dehqonlar erkin yer egalariga aylandi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi o'sdi. Ekin maydonlari kengaydi. Agrotexnika va mehnatni mexanizatsiyalashtirish yaxshilandi. Yirik qoramolning boshi 1.5 barobar ko'paydi.

- yirik yer egalari va dehqonlarning boy qatlamlarining holatlari yaxshilanib bordi.

- bug'doy, qandlavlagi, ipak qurti, uzum yetishtirish o'sdi.

- chorvachilik qishloq xo'jaligining yetakchi sohasiga aylandi.

Savdo va moliya. XIX asr o'rtalariga kelib Fransiyada savdo-moliya sohasida muhim voqealar sodir bo'ldi.

- bojxona siyosatidagi o'zgarishlar – ingliz uskunalar, metall va ko'miriga bojlar bekor qilindi.

- kapital ishlab chiqarish sohasidan kredit sohasiga oqib o'tdi.

- natijada ommaviy ravishda banklar tashkil bo'ldi: yer banki, savdo va sanoat banklari

Kreditlashda yangi hodisa bo'lib "Kredi mobnle" bankini tuzilishini aytish mumkin. U XIX asrning 50-yy.da tashkil topib, o'z kapitalini mamlakatni iqtisodiy taraqqiyotiga, ta'sischilik faoliyatiga, aksioner jamiyatlarni shakllantirishga sarflar edi.

XIX asrning 60-yy.lar boshida yirik "Lion krediti" va "Bosh jamiyat" banklari tashkil topdi.

Parij Kommunasi. XIX asrning 2-yarmida franko-pruss urushi-da (1870-1871 yy.) Fransiya boshiga og'ir kulfatlar tushdi. Nemis qo'shinlari fransuz armiyasini mag'lubiyatga uchratib Parijni bosib oldi. Yo'l-yo'lakay aholi, manufakturalar talon-taroj qilindi.

Fransuz burjuaziyasingin sotqinlik siyosati va nemis bosqinchilarining vaxshiy xatti-harakatlaridan ta'sirlangan parijs proletariati 1871 yil 18 martda qo'zg'olon uyuştirdi.

Keyinchalik qo'zg'olonga hunarmandlar, mayda burjuaziya va xizmatchilar ham qo'shilishdi. A.Ter hukumati<sup>1</sup> Parijdan Versalga qochib ketdi. 26 martda Parij shahri kengashiga saylov o'tkazildi. Parij Kommunasi e'lon qilindi.

Bu proletar inqilobning va proletar diktaturasini o'rnatishning birinchi urinishi edi. Asosiy maqsad qilib burjuaziya sinfining hukmonligini yo'q qilish va nemis bosqinchilaridan ozod bo'lish edi. Kommuna 72 kun umr ko'rgan bo'lsa ham u o'z izini tarixda qoldirdi.

### **5.3. Germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'naliishlari**

#### **► Iqtisodiy qologlik sabablari**

XIX asr boshiga kelib Germaniya hanuzgacha iqtisodiy qoloqlikdan chiqish bo'yicha asosiy muammolarni yechmagan edi. Buning asosiy sabablaridan biri mamlakatning siyosiy tarqoqligidadir. Faqatgina 1815 yilga kelib Vena kongressi qaroriga binoan 34 ta monarxiya va 4 ta erkin shaharlarni birlashtiruvchi Germaniya ittifofi tuzildi. Shu davrda ham yagona pul tizimi, o'Ichov birligi yo'q edi. Mamlakat ichidagi bojxonalar iqtisodiy, savdo va transport aloqalarining imkoniyatlarni chegaralar edi.

Nemis hunarmandchilik tovarlari rivojlangan mamlakatlarning fabrikalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari bilan raqobat qila olmasdi. O'tgan asrning oxirida paydo bo'lgan nemis manufakturasi hali ancha kuchsiz edi. Nemis savdogarları, ustalar va boshqa boy shaharliklar yirik manufakturna ishlab chiqarishini tashkil etish bo'yicha yetarli mablag' to'plamagan edilar.

#### **► Agrar inqilobining prusscha yo'li**

1850 yilning martida Prussiyada dehqonlarning qaramligini bekor qiluvchi, lekin yirik yunkerlik yerga egalik qilishni va ko'pchilik feodal sarqitlarini saqlab qoluvchi qonun qabul qilindi. Asta-sekin agrar islohotlar boshqa nemis yerlarini qamrab oldi: Bavariya, Nassay, Vyurtenberg, Gessen-Darmshtadt, Baden va

<sup>1</sup> История мировой экономики: учебник для вузов / под ред. Г. Б. Поляка, А. Н. Марковой. - 3-е изд., стер. - М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2008. - С. 303.

boshqalar. Bunday holatni olimlar qishloq xo'jaligida kapitalistik evolutsiyaning prusscha yo'li deb nomlagan edi. Shimoli-g'arbiy yerlarda va Bavariyada grossbauerlarning<sup>1</sup> xo'jaliklari shakllandi. Janubi-g'arbda mayda dehqon xo'jaliklari ko'p edi.

Qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvining o'sishi va "savdo" hududlarining ko'tarilishi iqtisodiyotdagagi progressiv tendensiyalarni aks ettirdi. Germaniya kartoshka va lavlagi yetishtirish bo'yicha jahonda birinchi o'ringa chiqdi. Nemis qishloq xo'jaligi mahsuloti va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari nemis eksportining asosiy qismini tashkil etardi.

#### ► Burjua inqilobi

Mamlakatda burjua inqilobi bo'lib o'tgan bo'lsa ham ko'pchilik muammolar o'z yechimini topmagan edi. XIX asrning birinchi yar-mida Germaniya dengiz savdosida yetakchilikni o'ziga qaytarib ololmadi. U hanuzgacha jahon savdo yo'llaridan chetda qolib ketardi.

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida Germaniyaning iqtisodiy va siyosiy tarqoqligini bosqichma-bosqich bartaraf etish harakatlari muhim ahamiyat kasb etdi. Mamlakatning paydo bo'lib borayotgan yirik sanoati proteksionizm va bojaxona himoyasiga muhtoj edi.

1818 yildayoq bojaxona qonuni Prussiya hududida bojaxona postlarini, ichki bojlar va aksizlarni to'pfashni bekor qildi. Prussiyani emas bo'lgan tovarlarga bir xildagi tariflar belgilandi.

1833 yilda 20 ga yaqin shimoliy Germaniya davlatlarini birlashtirgan Bojaxona ittifoqi tuzildi va u yevropa mamlakatlari bilan savdo shartnomalarini imzolash huquqiga ega bo'ldi. Bu iqtisodiy va siyosiy birdamlikda muhim qadam bo'lib, yirik sanoat uchun ichki bozorni kengaytirish va chuqurlashtirish imkonini berdi, temiryo'l qurilishini rag'batlantirdi.

#### ► Sanoat ishlashini boshlanishi

XVIII asr oxiri – XIX asr boshida sanoat ishlab chiqarishi jarayonida nemislardan xorijiy (ayniqsa, ingliz) texnika va texnologiyasidan foydalana boshlacilar. Ingliz mashinalari bazasida paxtani qayta ishlash sanoati rivojlandi. Toshko'mir asosida ishlaydigan cho'yan eritish pechlari o'rnatildi.

<sup>1</sup> Grossbauer – Germaniyada qisloq kapitalisti, qulog

Germaniyada sanoat inqilobi bir necha bosqichdan o'tdi. 50-yillarga qadar uning boshlang'ich bosqichida asosan tekstil sanoati tarmoqlari rivojlantirildi. Keyingi 20 yil davomida og'ir sanoat (ko'mir, metallurgiya, mashinasozlik) rivojlantirildi. 70-yillarning oxirlarida sanoat inqilobi yakunlanib, ishlab chiqarish monopolizatsiyalashishi amalga oshdi.

An'anaviy ravishda sanoat inqilobi tekstil sanoatini qamrab oldi. Saksoniyada paxtani qayta ishlash sanoati, Sileziyada – zig'irpoya tolasini yigirish rivojlandi. Leypsig yarmarkalarida shoyidan tikilgan mahsulotlar keng namoyish etilardi. Tekstil sanoati tobora mashinalashib borar edi. 1864 yilda Bojxona ittifoqi hududida 310 ta ip yigirish uskunlari va 750 mingta mexanik dug mavjud edi.

Og'ir sanoatda ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Bug' mashinasini paydo bo'lishi ko'mirga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Ko'mir qazib olish ikki barobar o'sdi, shaxtalarda band bo'lganlar esa to'rt barobar o'sdi. Og'ir sanoatning boshqa tarmoqlarida band bo'lganlarning soni XIX asrning birinchi yarmida 12 marotaba o'sdi. Reyn-Vestfal sanoat rayoni alohida taraqqiy topib 200 domna pechlari joylashgan va Germaniya ishchilarining  $\frac{1}{4}$  shu yerda faoliyat yuritardi.

#### ◀ XIX asrning 50-60 yy.dagi sanoat o'sishi.

Yangi tarmoqlar va texnologiyalarni shakllanishiga yirik ixtirolar va ishlanmalar sababchi bo'ldi. E.V.Simens tomonidan dinamo-mashinani (1867 y.) ixtiro qilinishi, hamda toshko'mirdan sun'iy bo'yoq olishni (1856 y.) boshlanishi bularga misol bo'la oladi. Kaliy o'g'itlarini ishlab chiqarish boshlandi.

Bu davrda mamlakatning kredit tizimiga asos solindi, aksioner banklar va kompaniyalar tashkil etildi. XIX asrning 50-60 yillarda Prussiyada 300 ga yaqin tog' sanoati, metallurgiya, sug'urta, temir yo'l va boshqa jami 2,5 mlrd.marka kapitalga kompaniyalar tashkil etildi.

XIX asrning 50-70 yillarda Germaniya sanoati m sli ko'rilmagan o'sish sur'atlariiga erishdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha Germaniya Angliya va Fransiyadan o'zib ketdi. XIX asrning 50-yillarda sanoat mahsuloti hajmi ikki barobar o'sdi, XIX asrning 60-yillarda esa yana 1,5 barobarga o'sdi.

Jahon sanoati ishlab chiqarishining 13 % Germaniyaga to'g'ri kelardi. Bunda og'ir sanoatning hissasi katta edi. 60-yillarda ish-

lab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish 23%ga, iste'mol buyumlari esa 9%ga o'sdi. XIX asrning 50-60 yillarda ko'mir qazib olish besh barobar, cho'yan ishlab chiqarish yetti barobar, temir yo'llar uzunligi uch barobar, bug' mashinalari quvvati to'qqiz barobar o'sdi. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha Germaniya Fransiyadan o'zib ketdi. Lekin hali sanoat inqilobi to'liq tugamagan edi. Sanoat tarmoqlarining ba'zilarida hunarmandchilik ishlab chiqarishi saqlanib qolgandi. Qishloq xo'jaligi sanoatdan ko'ra usunlikka ega edi.

#### ► Savdo

Sanoatlashtirish bo'yicha yutuqlar savdoni rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Mamlakat ichida tovar aylanmasi ko'paydi. XIX asrning 50-60-yy.lar davomida mamlakat ichida yuk tashishlar 190 mln.t-km.dan 4045 mln.t-km.gacha, ya'ni 21 marotaba oshdi. Pul aylanmasi 27 marotabaga oshdi. Yirik yarmarkalarda savdo kengaydi. Yirik universal magazinlar tashkil etildi. Tovar birjalari yirik ulgurji bitimlarni rasmiylashtira boshladi.

Tashqi savdo ham orqada qolmadi. XIX asrning 50-yy.larning o'zidayoq nemis tovarlarini eksporti uch barobarga, import esa ikki barobarga o'sdi. Savdo balansining ijobiy saldosiga erishildi. XIX asrning 50-60-yy. davomida tashqi savdoning umumiylajmiy hajmi uch barobarga ko'paydi.

#### ► XIX asrning 70-90-yy.dagi sanoat o'sishi.

XIX asrning 70-yillar boshlari Germaniyada yangi, kuchli iqtisodiy ko'tarilish davri hisoblanadi.

Bunda yetakchi rolni franko-pruss urushidagi g'alaba (1870-1871 yy.) va mamlakatni siyosiy jihatdan yagona German imperiyasiga birlashishi (1871 y.) o'ynadi. Fransiya ustidan g'alaba Germaniyaga 5 mlrd.frank kontributsiya<sup>1</sup> keltirdi va u nemis ishlab chiqarishini jihozlashga sarflandi. Undan tashqari, Germaniya fransuzlarning boy provinsiyalariga ega bo'ldi – Elzas va Lotaringiya<sup>2</sup> – va Fransiyadan temir rudasi Germaniyaning Reyn va Saar basseynlaridagi ko'mir-metallurgiya bazasini to'ldirdi. Bu Germaniya og'ir sanoatidagi metallurgiya, metallni qayta ishslash, mashinasozlik

<sup>1</sup> Kontributsiya – urushda mag'lub bo'lgan mamlakat tomonidan g'olib mamlakatga to'lanadigan mablag'.

<sup>2</sup> Конотопов М. В., Сметанин С. И. Экономическая история: Учебник. - 9-е изд., доп. и перераб. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2007. - С.260.

tarmoqlarini mamlakatda yetakchilik qilishini ta'minladi. Fransiyada rivoj topgan paxtani qayta ishlash sanoati korxonalarini o'ziga qo'shib olish natijasida Germaniyada gul bosilgan matoli mahsulotlar ishlab chiqarish ikki barobar o'sdi.

1879 yilda mamlakatda proteksionistik siyosat qo'llanilib, import mahsulotlariga bojlarni oshirish orqali milliy sanoatni rivojini qo'llab-quvvatladidi. Hanuzgacha temir yo'l qurilishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanardi. Temir yo'lning asosiy qismi davlat mulkiga o'tgandi.

#### ◀ Sanoat to'ntarilishining yakunlanishi va uning ogibatlari

XIX asrning 70-yy.lar oxirida sanoat inqilobini yakunlanishi bilan ishlab chiqarishning o'sishi yanada kuchaydi. Nemis industriysi yangi texnik ixtirolargaga tayangan edi: elektromotor, ichki yonish dvigateli, bug' turbinalarini yaratilishi, elektroenergiyanı masofaga uzatish va boshqalar. Mamlakat korxonalariga ko'plab yollanma ishchilar kelib qo'shildi. Yollanma ishchilar asosan yetakchi mamlakatlardagi eng yuqori tug'ilish natijasida va xonavayron bo'lgan hunarmandlar va dehqonlarni kelib qo'shilishidan vujudga keldi.

Umuman olganda XIX asrning oxirgi 30 yilligida nemis sanoatining ishlab chiqarish hajmi besh marotaba o'sdi, Fransiyada uch barobar, Angliyada esa ikki barobar o'sdi. Natijada XIX asr oxiriga kelib Germaniya agrar-industrial mamlakatdan qudratli industrial-agrar mamlakatga aylandi.

Shahar aholisi tinimsiz o'sib bordi, XIX asrning 70-90-yy.da 33%dan 50%gacha o'sib, 1910 yilga kelib 60%ni tashkil etdi.

#### ◀ Qishloq xo'jaligi

XIX asrning 70-yillarga kelib agrar islohotlar yakunlandi. Ammo bu tarmoqda mahsulot yetishtirishning o'sishi feodalizm qoldiqlari va absolyut rentaning katta hajmi sababli sekinlashgan edi. Sharqi Prussiyaning bir qator yirik pomestelarida ko'pchilik dehqonlar erkinlikka ega bo'ldilar, lekin ularning yerlari yo'q edi, va ular yunkerlar pomestelarida yollanma ishchi bo'lib qolishdi.

Qishloq xo'jalik o'rtoqliklari vujudga kela boshladi. Qishloq xo'jaligi texnikasi va mineral o'g'itlar kengroq qo'llanila boshlandi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini bunday intensiv metodlar yordamida yuritilishi ijobji natijalarni berdi: hosildorlik yarim

barobar o'sdi, texnik ekin maydonlari kengaydi, qoramol soni ko'paydi.

#### ◀ Monopoliyalar

XIX asrning oxirgi 30 yilligida ishlab chiqarish va kapitalning konsernatsiyalashuvi monopolizatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Qazib olish va u bilan bog'liq og'ir sanoat tarmoqlarida kartel va sindikatlar ko'pchilikni tashkil etardi. Bu turdag'i birlashmalar faqatgina mahsulot sotish sohasini monopo'llashtirgan edi. Texnik-iqtisodiy va tashkiliy jihatdan korxonalar erkinlikni saqlab qolishgan edi.

Tog', metallurgiya, mashinasozlik va qurilish tarmoqlarida yirik monopoliyalar shakllandi. XIX asrning 80-90-yy. ichida mingta ishchisi bor korxonalar soni to'rt barobar ko'paydi. Reyn-Vestfal toshko'mir sindikati tashkil etildi. U o'ziga Rur basseynida ko'mir qazib olishni 95%ni bo'yusundirdi va mamlakatda ko'mir qazib olishni 40%ga egalik qildi.

Sanoatning elektrotexnika (AEG-Umumiyl elektr jamiyatasi va "Simens"), po'lal quyish va harbiy sanoat ("Krupp" firmasi), kimyo (G.Farbenindustri) kemasozlik (Shimoliy-German Lloyd va Gamburg-Amerika kompaniyasi) tarmoqlarida yirik monopolistik birlashmalar shakllandi. Kartel va sindikatlar soni 50 barobarga ko'paydi, ya'ni 1870 y.da 6 tadan 1900 y.dagi 300 tagacha. Nemis monopoliyalarining o'ziga xos xususiyati – ular o'nlab va yuzlab korxonalarni birlashtirar edi.

#### ◀ German imperializmining ekspansiyasi

XIX asr oxirida Germaniya imperialistik g'oyalarni targ'ibotini kuchaytirdi, va uni xom ashyo yetishmovchiligi va o'z mahsulotlarini sotish bozorlari cheklanganligi bilan asosladi. Mamlakat iqtisodiyoti ichki bozor chegarasidan chiqib ketdi, lekin arzon narxlardagi xom ashyo keladigan va o'zida ishlab chiqarilgan tovarlarni bojlarsiz sotish imkonini bo'lgan mustamlakalarga ega emas edi.

Milliy chegaralarni kengaytirish g'oyasi Pangerman ittifoqini (1891 y.) yaratishda, yangi hududlarni bosib olish zaruratida namoyon bo'ldi. Togo, Kamerun, Shimoli-G'arbiy Afrika, Karolina, Marian va Marshallov orollari bosib olindi. Lekin baribir Ger-  
82

maniya mustamlakalari Angliya mustamlakalariga nisbatan hudud bo'yicha 11 marotaba va aholisi bo'yicha 32 marotaba kichik edi.

Germaniyada qudratli harbiy-sanoat kompleksi shakllanib, unga mamlakatning butun industriyasi ishlar edi. Armiya va flotga xarajatlar sezilarli oshdi. Quruqlikdagi qo'shincharning qurolyarog'lari takomillashdi. Yirik harbiy-dengiz floti shakllandi. Mamlakat jahonni qayta taqsimlashda qatnashish uchun urushga tayyorlandi.

### **O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar**

1. Angliyaning "jahon yuk tashuvchisi" ga aylanishiga nima sabab bo'ldi?
2. Angliyaning mustamlakachilik siyosatini mazmuni nimadan iborat?
3. Napoleon Bonapartning iqtisodiy siyosatining asosiy jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Pangerman ittifoqining g'oyasi nimadan iborat?

## § 6-MAVZU. YANGI DAVRDA AQSh (XVIII asrning oxiri-XIX asrning 70 y.gacha)

**Tayanch atamalar va iboralar:** koloniya, flot, fermerlik, metropoliya, "gerb yig'imi", harbiy sanoat, ixtiolar

■ **Reja:**

- 6.1. Mustaqillik uchun kurash. AQShning tashkil topishi.
- 6.2. AQShning XIX asr birinchi yarmidagi iqtisodiy rivojlanishi.
- 6.3. AQShda sanoat to'ntarilishi.
- 6.4. Fuqarolik urushi va uning oqibatlari.

### 6.1. Mustaqillik uchun kurash. AQShning tashkil topishi

Mustamlakachilik davri iqtisodiyoti. Yevropaliliklar tomonidan Amerikani o'zlashtirilishi Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlandi.

Shimoliy Amerikada birinchi koloniylar XVII asrning boshida Angliya, Gollandiya va Fransiyadan kelgan ko'chmanchilar tomonidan tashkil etilgan edi.

Angliya kolonizatsiya jarayonidan avval Gollandiyani, so'ng XVIII asr 60-yy da Fransiyani siqib chiqardi.

Amerikaga birinchi bo'lib savdo kompaniyalari vakillari kelishgan.

Ingliz qiroli Yakov I 1606 y.da London va Plimut kompaniyalari ga Atlantika qirg'cg'ini egallahga xartiya (yozma ijozat) berdi.<sup>1</sup>

Keyinchalik bu yarlarga Londondan ishchilar, ustalar va tadbirkorlar ko'chib kela boshladi.

Diniy e'tiqodi nuqtai-nazaridan puritan jamoalari ko'chib kela boshladi.

Yerlarni chegaralash natijasida yersiz qolgan dehqonlar, kasbga ega bo'lmagan yoshlari, kambag'allar ham ko'chib keldi.

Undan tashqari ingliz hukumati mustamlakalarga mehnatga layoqatli jinoyatchilarni jo'natar edi.

<sup>1</sup> Кустова Т.Н., Камакина О.В. История экономики: Учебное пособие / РГАТА, - Рыбинск, 2001 - С.53.

Ko'chmanchilar asta-sekin Atlantika qirg'og'ida 13ta koloniya tashkil etishib, 1760 y.da uning aholisi 2,5 mln. kishini tashkil etdi.

Ko'chmanchilarning asosiy qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanar edi.

XVIII asr oxiriga kelib Shimoliy Amerikada iqtisodiy rivojlanish xarakteri va darajasi nuqtai-nazaridan uchta rayon shakllandi: Shimoli-Shraq, Janub va Markaz.

Shimoli-Shraq eng rivojlangan hudud edi. Aholisining asosiy qismi diniy e'tiqodi nuqtai-nazaridan ko'chib kelganlardan iborat bo'lgan;

- aholining asosiy qismi yerga ishlov berish bilan shug'ullangan;

- sanoatning asosiy tarmog'i – kemasozlik bo'lgan (o'sha davrda ingliz flotining 1/3 qismi amerika kemasozligi mahsuloti edi);

- mato to'qish jadal rivojlandi. Jun beradigan qo'yalar olib kelinib, ularning junidan matolar to'qilardi;

- temir rudasi zaxiralari metallga ishlov berish sanoatini rivojlanishiga turtki bo'ldi;

- Angliya bilan savdo yaxshi yo'lga qo'yilganligi sabab bu hududning savdo burjuaziysi yetakchi o'rindarda edi.

Markaziy hudud. Qishloq xo'jaligida fermerlik katta ulushga ega edi.

- ingliz aristokratiyasining yirik yer egaligi mavjud edi. Yerlar kichik uchastkalarga bo'linib ijara berilardi;

- bug'doy yetishtirishga ixtisoslashgan edi;

- metallni qayta ishlash va pivo qaynatish yo'lga qo'yilgan edi;

- bug'doydan tashqari kartoshka, jo'xori, qovoq yetishtirildi;

- qishloq xo'jaligida oq tanli odamlarni majburlab ishlatalish mavjud edi. Bular asosan qamoqxonalardan chiqqan maxbuslar edi.

Janub. Janubda qulchilik-plantatsiya xo'jalik yuritish tizimi shakllangan edi. Bu yerda juda katta unumdon yerlar mavjud bo'lib, ko'chib kelgan ingliz aristokratlari Angliya hukumatidan yirik yer (latifundiya)larni olishar edi. Bu yerlarda mehnat qilish uchun ish kuchi etishmas edi.

Afrikadan negr-qullarni olib kelinishi bu muammoni hal etdi. Ularning soni o'sib bordi – 1700 y. – 27,8 ming.kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1790 y. da – 760 ming.kishidan iborat bo'ldi (janubiy sh'itatlar aholisining 40%).<sup>1</sup>

Janubiy hududlarda hukmron sinf quldarlar-plantatorlar edi.

Ushbu hududda tamaki, guruch, shakar-qamish yetishtirilardi. Asta-sekin paxta asosiy ekinga aylandi.

Metropoliya bilan munosabat. Shimoliy Amerikada kapitalistik munosabat arning rivojlanib borishi natijasida Yevropa imigrantlari hisobiga yollanma ishchilar soni oshib bordi. Ishchilar tarkibida malakali mutaxassilar ulushi katta edi.

Shu sababdan Angliya yuqori malakali mutuxassislarining emigratsiyasini chegaralashga (1718 y.) majbur bo'ldi. 1765 yilda esa parlament umuman ularni chiqib ketishini taqiqladi.

Lekin bu jarayonni to'xtatib bo'lmas edi. Undan tashqari malakali mutaxassislar mehnati Angliyadan ko'ra yuqoriroq bahanalar edi.

Vaqt o'tishi bilan mustamlakalar va metropoliya o'rtaсидаги munosabatlar barcha sohalarda keskinlasha bordi.

Amerika savdo burjuaziyasiga savdo cheklovlarini belgilash yuqori darajada edi. 1650-1761 yy.da 125ta qonuniy akt yordamida amerika savdogarlarini yevropa mamlakatlari bilan savdo qilinishi cheklandi.

Shakar, tamaki, paxta, teri, mis rudasi kabi kolonial mahsulotlar bilan savdoga ingliz monopoliyasi o'rnatildi.

1750 yildan "temir" qonuni amal qilib, unga muvofiq koloniada domna pechlari, temirchilik ustaxonalari qurish man etilgan edi.

1765 y.da "gerb yig'imi" joriy etilib, har bir tovar sotib olinishida soliq to'lanishi nazarda tutilgan edi (mablag'lar Angliya budgetiga ketar edi).

Qishloq xojaligida fermerlik shaklini rivojlanishiga yirik yer mulkchiligi to'siqlik qilar edi. 1763 yilda Angliya hukumati xususiy shaxslarga hindulardan yer sotib olishni taqiqlab qo'ydi.

Bu qarama-qarshiliklar keskinlashib borib oxir natijada urushga olib keldi. Tarixda bu urush Mustaqillik uchun urush deb nom oldi.

<sup>1</sup> Хашимов П.З., Тураев К.Н. Экономическая история. Т.: «Университет», 2003. - С.117.

Urush 8 yil davom etdi (1775-1783 yy.) va kolonistlar g' alabasi bilan yakunlandi.

1776 y.da mustaqil davlat – Amerika Qo'shma Shtatlari e'lon qilindi.

Amerika inqilobining xususiyatlari.<sup>1</sup> Shimoliy Amerikadagi mustaqillik urushi qit'adagi birinchi burjua incilobi bo'lib, uning natijasida bir necha demokratik o'zgarishlar amalga oshirildi:

- mayda yer egalari ijara haqidan ozod etildi.
- ingliz qirolidan, cherkovdan, mustamlaka ma'muriyatidan yer olgan aristokratlarning yirik yerlari konfiskatsiya qilindi.
- tortib olingan yerlar mayda uchastkalarga bo'linib sotilar edi.
- mustaqillik deklaratsiyasi muallifi T.Djefferson taklifiga ko'ra yerlari bo'limgan kambag'allarga g'arbdagi yerlardan tekinga berildi.
- yerga egalik qilishning feodal shakllari bekor qilindi. Dvoryan unvonlari, ijara merosi bekor qilindi.
- barcha portlar Yevropa savdogarlari uchun ochiq deb e'lon qilindi (savdoda ingliz monopoliyasi yo'q bo'ldi).
- mamlakat proteksionizm siyosatidan friteaderlik siyosatiga o'tdi. Fransiya, Prussiya, Shvetsiya bilan hamkorlik shartnomalari imzolandi.
- inqilob davrida ingizlar tarafidori bo'lganlarning 30 ming imeniylari konfiskatsiya qilindi
- urush davrida harbiy sanoatni rivojlanishi rag'batlantirildi. Hukumat metall, qurol-yarog', porox, harbiy kiyim ishlab chiqaruvchilarga pul mukofotlari, subsidiyalar berdi.
- 1778 y.da Springfeldda zambarak ishlab chiqaruvchi davlat zavodi ishga tushdi.
- 1781 yilda Shimoliy Amerika Bankini tashki etilishi mamlakatda emissiya faoliyatini barqarorlashtirishga olib keldi.

<sup>1</sup> История мировой экономики: Учебник для вузов / Под ред. Г.Б. Поляка, А.Н. Марковой. — 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.- С.365.

## 6.2. AQShning XIX asr birinchi yarmidagi iqtisodiy rivojlanishi

Hududlarni kengayishi. Kolonial qaramlikdan endigina ozodlikka erishgan AQSh hukumati keng qamrovli hududlar ekspansiysi siyosatini amalga oshira boshladi.

Yangi hududlar tengsiz shartnomalar, savdo bitimlari, bosib olish asosida qo'shilar edi.

AQSh tarkibiga Luiziana (1803 y.), Florida (1819 y.) shtatlari kirdi.

1823 y.da AQSh "Monro doktrinası"ni e'lon qildi, unga binoan Yevropa mamlakatlarining Amerika ishlariiga aralashuvi AQShga tahdid deb qaraldi. Shu bilan AQSh Meksikaga nisbatan bosqinchilik urushlarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ldi.

*Qo'shib olish va bosib olishlar:*

- Texas (1845),
- Yangi Meksika (1849),
- Yuqori Kaliforniya (1848),
- Oregon (1846).
- XIX asrning birinchi yarmida AQSh hududi 3,5-4 barobar kengaydi.

Yevropadagi doimiy ravishdagi urushlar amerika kapitalizmini jadal o'sishiga sababchi bo'ldi.

AQSh okean ortida bo'lganligi sababli ushbu urushlarda qatnashmasdi, shu sababdan yirik harbiy xarajatlardan holi edi.

Lekin barcha urush qatnashchilari bilan savdo-sotiq qilib daromad oldi.

Aholi. XIX asr o'rtafiga kelib hududlar ekspansiyasi natijasida shtatlar soni 13 tadan 30 gacha ko'paydi.

Hududlarning kengayishi quyidagi muhim demografik o'zgarishlarga olib keldi: aholining tez o'sishi, aholini G'arbg'a faol migratsiyasi va asta-sekin urbanizatsiyasi.

1790 y.da AQSh aholisi 3,9 mln.kishi edi. 1860 y.da esa 31,4 mln.kishi.

Aholi sonini o'sishi ichki omillar (tabiiy o'sish) hamda tashqi omillar (immigrantlar oqimi va qullarni olib kelish) hisobiga amalga oshdi.

AQShda katta yerlarning mavjudligi Yevropadan ko'chib keluvchilarni o'ziga jalb qilar edi.

Demografik holatning o'zgarishi urbanizatsiyada o'z aksini topdi. Mehnat taqsimoti shahar aholisini o'sishiga olib keldi.

AQShning yirik shaharlari: *Nyu-York, Sinsinnati, Filadelfiya, Chicago, Klivlend, Sent-Luis*.

Qishloq xo'jaligini rivojlanishi. XIX asrning birinchi yarmida AQSh iqtisodiyotida asosiy tarmoq bo'lib qishloq xo'jaligi hisoblanar edi.

Ushbu tarmoqni rivojlantirish omillari: G'arbni mustamlaka-ga aylantirish, qullar mehnatidan foydalanish, rayonlarni ixtisoslashuvi.

Shimoli-G'arbda jo'xori yetishtirish rivojlandi. Undan tashqari ekstensiv chovachilik rivojlandi.

Ushbu hududni o'zlashtirilishi bug'doy yetishtirilishini keng tarqalishiga olib keldi. Indiana, Illinois, Viskonsin shtatlari asosiy bug'doy yetishtiruvchi hududlarga aylandi.

Shimoli-sharqdagi shtatlar intensiv qishloq xo'jaligiga ixtisoslashib sanoat markazlarini xom ashyo bilan ta'minlardi.

Janub va janubi-g'arbdagi yangi hududlar paxtachilikka ixtisoslashib AQSh jahonda yirik paxta yetishtiruvchiga aylandi.

1791 y.da jahonda paxta yetishtirishda AQSh 0,4 % ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 1860 y.da 66%gacha o'sdi.

### **6.3. AQShda sanoat to'ntarilishi**

#### Sanoat to'ntarilishining shart-sharoitlari

- AQShdagagi sanoat to'ntarilishining texnik shart-sharoitlari Angliyada erishilgan yutuqlar natijasida yuzaga keldi.
- AQShda ixtirolarni rag'batlantirish tizimi joriy etildi.
- 1790 y.dan patentlar to'g'risida qonun amal qilib, unga muvofiq ixtirochi o'z ixtirosiga 14 yilga monopol huquqqa egalik qildi.

#### Yirik sanoat ishlab chiqarishi mablag' manbalari:

- savdo burjuaziyasining foydasi,
- tashqi savdodan olingan daromad,
- fermer xo'jaliklari daromadi,
- er bilan spekulyativ bitimlardan tushumlar.

Sanoat to'ntarilishiga davlatning iqtisodiy siyosati ham ta'sir ko'rsatdi - XIX asr boshida investitsiyalar savdo va dengizchilik sohalaridan sanoatga yo'naltirila boshlandi. Shu bilan birga olib kirilayotgan tovarlarga proteksionistik tariflar belgilandi.

Sanoat to'ntarilishi xususiyatlari. Angliyadan keyin mashinalardan foydalanish bosqichiga o'tib ingliz texnik tajribasidan unumli foydalanildi. Shu bilan birga o'zining yutuqlar dan ham foydala-

nildi. Ushbu aralash usul sanoat to'ntarilishini qisqa muddatda (40-50 yil) amalga oshirishga imkon berdi.

*AQShda sanoat to'ntarilishining xususiyatlari:*

- Amerika muhandislik ixtiolarining faol roli.
- Mamlakatning tabiiy shart-sharoiti (daryo va ko'llarni ko'pligi).
- Mamlakatda o'rmonlarning ko'pligi.
- Manufaktura ishlab chiqarishining chegaralanganligi.
- Mintaqalar va tarmoqlarni notejis rivojlanganligi.

*1. Amerika muhandislik ixtiolarining faol roli*

Muhim ixtiolar:

- tikuv mashinkasi.
- tipografiya mashinasи.
- fosforli gugurt.
- morze elektromagnit telegrafi.
- D.Yuza harf bosuvchi apparati,
- revolver.
- pnevmatik tormoz.

AQShda paydo bo'lgan bu ixtiolar sanoatning ko'pgina yangi tarmoqlarini rivojlanishiga olib keldi.

*2. Mamlakatning tabiiy shart-sharoiti (daryo va ko'llarni ko'pligi).*

Daryolarning ko'pligi bug' energiyasidan arzonroq bo'lgan suv energiyasi bilan ta'minlash imkonini berdi. Shu sababdan bug' energiyasidan ommaviy foydalanish kechroq amalga oshdi.

*3. Mamlakatda o'rmonlarning ko'pligi.* Toshko'mir o'rniiga yog'och ko'mirdan foydalanish keng tarqalgandi. 1860 yilga qadar temiryo'l transportida yog'och ko'mir ishlatalilar edi. Ba'zi sohalarda yog'och ko'mir mahsulotni sifatliroq bo'lishiga imkon berardi.

*4. Manufaktura ishlab chiqarishining chegaralanganligi.* Sanoat to'ntarilishi kechroq amalga oshganligi sababli manufaktura kapitalizmi shakllanmadidi. Angliya hukumati AQShda manufakturani rivojlanishiga to'siqlik qildi.

*5. Mintaqalar va tarmoqlarni notejis rivojlanganligi.* Fuqarolik urushi natijasida Janubda fabrika va zavodlar yo'q edi. Bu hududda paxta, tamaki, guruch, shakar-qamish yetishtirish rivojlangan edi. Agar mashinalar ishlatalisa ular ham qullar tomonidan ishlatalilar edi.

Sanoat to'ntarilishi yo'naliishlari. Sanoat to'ntarilishi mamlakatning Shimoli-sharqida boshlandi. Mashina yordamida ishlab

chiqarishga o'tgan birinchi tarmoq paxtani qayta ishlash tarmog'i edi. E.Uitni tomonidan 1793 y.da ixtiro qilingan paxta tozalash mashinasi paxtani qayta ishlashni tubdan o'zgartirishga va paxtachilik sanoatini xom ashyo bilan ta'minlashga imkon berdi.

Asta-sekin mashinalar junni qayta ishlashga ham joriy qilindi. 1840 y.ga kelib Shimoli-shargda uyda jun to'qish mashina yordamida to'qishga almashdi.

Shimoli-sharq tekstil sanoatining markaziga aylandi. Bu hududda tarmoqning 78% fabrikalari joylashgan edi.

Engil sanoatda sanoat to'ntarilishi tekstil sanoatidan tashqari oziq-ovqat, poyafzal, to'qimachilik, teriga ishlov berish sanoatlarga ham ta'sir etdi (1841 y.da Zinger tikuv mashinkasi ixtiro qildi).

Yana bir yo'naliш – transportni rivojlanishi. XVIII asr oxirida kanallar qurilishi rivoj topdi. XIX asrning birinchi choragida Buyuk ko'llarni Atlantika okeani bilan bog'laydigan ERI kanali qurildi.

Kemalar qatnovini jadallahuviga 1807 y.da R.Fulton tomonidan "Klermont" g'ildirakli paroxodini ixtiro qilinishi ta'sir ko'rsatdi.

Birinchi temir reqlar Baltimor va Ogayo shaharlarini bog'ladi (1828-1830 yy.), keyingi 20 yil davomida temir yo'llar uzunligi 300 barobar o'sdi. Dunyodagi hech qaysi mamlakat bunday sur'atlarga erishmagan edi.

Transportning rivojlanishi metallurgiya, qazib olish va o'rmonchilik sanoatlarini rivojlanishiga turtki berdi.

Sanoat to'ntarilishi davrida toshko'mir qazib olish 20 barobar, cho'yan ishlab chiqarish 3 barobar o'sdi.

Metallurgiya markazlari - Pittsburg; G'arbda yangi markazlar tashkil etildi (Tennesi, Kentukki), Pensilvaniya, Ogayo.

XIX asr o'rtalarida AQShda yirik mashinasozlik zavodlari mavjud edi (Nyu-York, Pensilvaniya).

Bu sanoat to'ntarilishini yakunlovchi bosqichga (mashinalarni mashinalar ishlab chiqarishi) o'tganligidan dalolatdir.

AQSh parovozlar, kemalar va qishloq xo'jaligi mashinalarini yirik ishlab chiqaruvchisiga aylandi. 1851 y.da AQShda elektrovoz ishlab chiqarildi. Keyinchalik poezdning yotoq vagonlari, sisternalari yaratildi.

## **6.4. Fuqarolik urushi va uning oqibatlari**

Fuqarolik urushi sabablari. XIX asr birinchi yarmida AQSh ijtimoiy-iqtisodiy tizimida qarama-qarshiliklar yuzaga keldi. Bular – yangi o'zlashtirilayotgan rayonlarda iqtisodiy rivojlanish modellarini tanlash, kapitalizm evolutsiyasida qulchilikni saqlash, eksportda xom ashyni ustuvorligi, Angliyadan uskunalarini olib kirilishiga bog'liqligi.

O'zlashtirilayotgan g'arb yerlariga shimoliy va janubiy shtatlarning munosabatlari bir-biriga zid edi. Shimoliy shtatlar fermerlik rivojlanishi tarafdorlari bo'lalar, janubdagilar – plantatorlik tarafdorlari edilar.

Janub plantatorlari g'arbdagi yerkarni o'z latifundiylarini kengaytirish maqsadida sotib olish niyatida edilar.

Undan tashqari janub plantatorlari va shimol sanoatchilari o'rtaida qarama-qarshiliklar chuqurlashdi, fabrikant-kapitalistlar janubni tekstil sanoati xom ashyo bazasi sifatida taraqqiy etishi tarafdorlari edi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. Shimoliy Amerikada shakllangan uch rayonning xususiyatlari va farqli jihatlari nimada?
2. Amerikaning metropoliya bilan munosabatlari qanday shakllangan?
3. Amerikada yangi hududlarni qo'shib olish va bosib olish qanday amalga oshirildi?
4. AQShda sanoat to'ntarilishining xususiyatlari, shart-sharoitlari qanday bo'lgan?
5. AQShda fuqarolik urushi va uning oqibatlari qanday?

## § 7-MAVZU. XVIII-XIX ASRLARDA YAPONIYANING IQTISODIY RIVOJLANISHI

**Tayanch atamalar va iboralar:** samuray, natural obrok, syogun, Meydzi inqilobi, iena, sen, "davlat kapitalizmi".

■ **Reja:**

- 7.1. XVIII asrda Yaponiyaning iqtisodiyoti rivoji.
- 7.2. XIX asrda Yaponiya iqtisodiyoti.
- 7.3. Imperializmga o'tish davrida Yaponiya iqtisodiyotining xususiyatlari.

### 7.1. XVIII asrda Yaponiyaning iqtisodiyoti rivoji

XVIII asrda Yaponiya agrar mamlakat edi. Uning aholisi asosan dehqonlardan (aholining 80%) va samuraylardan tashkil topgan edi. Asta-sekin hunarmandlar va savdogarlar paydo bo'ldi. Davlat va harbiy apparat, hamda ziyolilar hukmron sinf – *samuraylardan shakllandi*.

Dehqonlarning ahvoli juda og'ir bo'lib, ular yerni feodallardan "umrbod" ijara sharti bilan olar edilar.

Bu davrda dehqonlar natural obrok berar edilar. Undan tashqari dehqonlar yo'llar, ko'priklar, kanallarni ta'mirlashga jalb etilardi.

XVI asrda Ieyasuning qishloq xo'jaligi sohasida takror ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan agrar islohoti dehqonlarga yerlarni biriktirishga va dehqonlardan soliqlar yig'imini maksimal darajaga yetkazishga imkon berdi.<sup>1</sup>

Yer va undan olinadigan mahsulotlarga bog'liq bo'lgan samuray va dehqonlarni tovar munosabatlariga jalb etilishi ularni qashshoqlanishiga olib keldi. Ko'pgina knyazliklar kambag'allashib bordi. Zarur moddiy qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'layotganligi sababli samuraylik instituti sekin-asta yo'qolib bora boshladidi. Dehqonlar shaharga ketishga majbur bo'ldilar. XVIII asrda Yaponiyada 90 ta manufakturna tashkil etildi, shu jumladan paxtani qayta ishslash va shoyi to'qish bo'yicha

<sup>1</sup> История мировой экономики: Учебник для вузов / Под ред. Г.Б. Поляка, А.Н. Марковой. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.- С.381.

## ► Shaharning o'rni

Savdo kapitaliga ega bo'lgan savdogarlarning roli oshib bordi. Bu davrda yapon qishloqlarida "yangi pomeshchiklar" deb nomlanuvchi qatlam savdogarlar, boy dehqonlar va samuraylardan shakllandi. Shu tariqa kapitalistik uklad shakllana boshladi. Astasekin shaharlarning iqtisodiy va ijtimoiy o'rni oshib bordi. Ularning aholisi ko'paydi. XVIII asrning boshida Edo shahrining aholisi 500 ming kishidan oshdi.

Shahar aholisining turmush darajasini o'sib borishi qurilish tarmog'ini rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

## ► Syogunlar islohoti

1716 y.da sakkizinch syogun Tokugava feodal tizimni kuchaytirish maqsadida islohotlar boshladi, keyinchalik 1767 yilda bu islohotlar o'ninchi syogun Iexaru tomonidan davom ettirildi.

Bu islohotlar rivojlanib borayotgan tovar munosabatlarni feodal hukumatning ehtiyojlariga moslashtirishga harakat qildi.

## 7.2. XIX asrda Yaponiya iqtisodiyoti

XIX asr boshi Yaponiyada qishloq xo'jaligidagi inqirozlar natisida yuzaga kelgan xalq qo'zg'olonlari davri edi.

Dehqonlardan keyin shaharliklar ham ko'tarilishdi. Ammo segunlar mol-mulki o'zgarmasdan qoldi, bunga konfutsiychilikni paydo bo'lishi sababchi bo'ldi.

1830-1840 yy.ca o'n ikkinchi segun Ieyosi boshqaruvi davrida Midzuno Tadakuni tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar feodal tizimni mustahkamlashning oxirgi urinishi edi. Savdogarlarga yuqori soliqlar qo'yildi. Narxlar ustidan nazorat o'matishga, qishloqlarga dehqonlarni qaytarishga harakat qilindi.

XIX asr birinchi yarmida Yaponiyada 181 ta manufaktura qurildi. Ba'zi texnik yangiliklar qo'llanila boshlandi, ayniqsa tog'-konchilikda va metall eritishda. Manufakturalar tekstil sohasidan tashqari shakar, chinni buyumlar, sopol buyumlar ishlab chiqarish sohasida ham ochildi. Qurol ishlab chiqaradigan manufakturalar yirik feodallar va davlatga tegishli edi. Davlat manufakturalarida qochoq dehqonlar mehnatidan foydalanilar edi.

## ► Feodal tizim inqirozi

XIX asr o'rtalari – Yaponiya tarixida eng og'ir davr hisoblanardi. Ikki yarim asr davomida mamlakatni feodal tartib iskanjasida ushlagan Tokugava segunlari idorasi tugatildi. Mamlakat aholisi uning tugatilishi bilan o'z hayotini yaxshilanishni kutar edi, lekin hukmdorlarning rejalarini boshqacha edi: ular qisqa muddatda harbiy va iqtisodiy jihatdan qudratli mamlakatni yaratishga harakat qilishdi.

## ► Meydzi inqilobi (1867—1868 yy.)

1868 yilda imperatorlik hukmroligi tiklandi. Yaponiya tepasiga 16 yoshli imperator Mutsixito keldi. Uning hukmdorligi Meydzi nomini oldi (ma'rifatli hukmdorlik). Bu davr muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Shu sababdan Meydzi to'ntarishi burjua inqilobi (1867-1868 yy.) deb hisoblanib, Yaponiyani jahondagi buyuk mamlakatlar darajasiga olib chiqdi. Yosh imperator atrofiga iqtidorli vazirlar va maslahatchilarni to'pladi. Birinchi yilning o'zida Yaponiya poytaxtini Kiotodan Edo-ga ko'chirdi (keyinchalik Tokio deb nomlangan) va islohotlarni boshlab yubordi.

## ► Asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar:

1) Mamlakatni birlashtirish jarayonini tugatilishi. Feodal knyazliklar yo'q qilinib prefekturalar yaratildi; markazlashgan davlatni shakllantirish – Yaponiyani qudratli mamlakatga aylanishida muhim omildir;

2) Feodal tuzum, knyaz va samuraylarning feodal huquqlari bekor qilindi; 1869 yildagi farmon feodallarni o'z yerlarni imperatorga topshirishga majbur bo'ldilar;

3) Faoliyat va kasblarga davlat cheklovlarini bekor qilindi, sex tizimi, gildiyalar va klanlar bekor qilindi;

4) Xo'jalik faoliyatida tabaqalashuv bekor qilindi, savdo va mamlakat ichida harakat erkinligi e'lon qilindi;

5) Jamiyatni tabaqalashuvining yangi usuli shlab chiqildi. Avval to'rtta tabaqa bo'lgan bo'lsa, endi uchta bo'ldi. Dvoryanlik yuqori tabaqani namoyon etdi (unga sobiq feodal knyazlar, saroy aristokratiyasini kirdi). Ikkinci tabaqa – dvoryanlik (barcha sobiq samuraylar). Uchinchi – oddiy xalq tabaqasi. Unga aholining qolgan qatlamlari, shu jumladan savdo-sanoat burjuaziyasini kirardi;

6) Barcha ichki bojxonalar olib tashlandi, yagona pul birligi (oltin bilan ta'minlangan) kiritildi.

1870 y. imperator Mutsixito segunlarning an'anaviy tangasini ajdarho rasmi tushurilgan dollarga almashtirdi. Yaponfarda dollar iena deb nomlana boshlandi (dumaloq tanga), sent esa – sen.

Ushbu chora-tadbirlarning barchasi yagona umumyapon bozorini, yagona iqtisodiy makonni shakllanishiga olib keldi.

#### ► Agrar islohotlar

1872-73 yy.da Yaponiyada agrar islohot amalga oshirildi. U feodal yer egaligini bekor qilinishi, yerning yangi egalarini shakllanishi masalalarini hal etishi zarur edi. Yer rasmiy ravishda uni taqsimlovchilarga tegishlidir. Dehqonlar, yerga meros sifatida erishganlar ularning egalariga aylandilar.

1873 y.da yer solig'i joriy qilinib, u davlat budgetining asosiy manbasiga aylandi. U barcha yer egalariga tegishli bo'lib, uning hajmi olingan hosilning 50%gacha belgilangan edi.

Shunday qilib Yaponiyada yerga xususiy mulkchilik qonuniylashtirildi; uni erkin sotish-sotib olishga ruxsat berildi, yer egalarining yangi kategoriyalari paydo bo'ldi; yerning sobiq egalariga tadbirkorlik bilan shug'ullanish imkonii berildi. Bularning hammasi ishlab chiqarishning kapitalistik shakllarini vujudga kelishiga asos bo'ldi.

### **7.3. Imperializmga o'tish davrida Yaponiya iqtisodiyotining xususiyatlari**

#### ► Sanoat inqilobi, "Daylat kapitalizmi"

O'ta qisqa muddatda Yaponiya sanoat inqilobini amalga oshirdi. Yapon hukumati subsidiyalar berish, soliqlardan ozod etish, davlat buyurtmalarini bajarayotgan firmalarga qurilgan zavodlarni haqini bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat etish orqali xususiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatladi.

1872 y.da davlat tomonidan birinchi telegraf va temiryo'l liniyalari qurildi, ya'ni infratuzilma yaratilishi boshlandi.

Davlat mamlakatni geologik o'rganilishini amalga oshirdi – ko'mir, temir rudasi, oltin konlari ochildi.

Kapitalning yetishmasligi xorijiy kapitalni jalb qilinishini taqazo etdi, uning ishtirokida fabrika tipidagi yirik korxonalar qurildi.

Yaponiyada xorijiy zayomlar hisobiga temiryo'l qurilishi boshlandi. Ingliz kapitali ko'mir qazib olishga konsessiya oldi. Yapon hukumati xorijiy mutaxassislarni ham jalb etishar edi.

**► XIX asr 80-yy.dagi iqtisodiy siyosat**

XIX asr 80-yy. boshlarida yapon hukumati "davlat kapitalizmi"dan voz kechib iqtisodiy siyosatni o'zgartirdi. Sanoat departamenti qisqartirildi. 1881 y.da zavodlarni xususiy shaxslarga berish to'g'risida farmon qabul qilindi. Davlat budgeti mablag'lari hisobiga yaratilgan korxonalar o'z qiymatidan 2-4 barobar arzon sotilardi, yoki hukumat qarzlarini qoplash hisobiga berilar edi.

Davlat mulkini talon-taroj qilishda hukumatning quyidagi kreditorlari ishtirok etishdi - Mitsui, Mitsubishi, Sumitomo, Yasuda.

O'sha davrdan xususiy tadbirkorlik faollashib yirik kapital muomala sohasidan ishlab chiqarishga ko'chib o'tishini taqazo etdi. Yaponiya pul islohotini amalga oshirdi va oltin standart joriy etildi.

Milliy xom ashyo bazasi mavjud tarmoqlar tez rivojlandi. 1880-1913 yy.da ko'mir qazib olish 20 marotabaga, mis qazib olish 13 marotabaga o'sdi. Yaponiyada temir rudasi bo'lmasa ham qora metallurgiya rivojlandi.

Industirlashtirishning ikkinchi yo'nalishi – temir yo'l qurilishi: 1882-1890 yy.da temir yo'llarning uzunligi 10 marotaba ko'payib mamlakatda yagona transport aloqa tarmog'i yaratildi.

**► Iqtisodiyotni harbiylashtirilishi**

XIX asrning 90-yy. boshida Yaponiya harbiylashtirish yo'lliga o'tdi. Yaponiyada harbiy xarajatlarning darajasi eng yuqori edi (budgetning 36%). Yaponiya va Xitoy o'rta sidagi Koreya yarimorolini nazorat qilish bo'yicha tortishuvlar 1894 yilda yapon-xitoy urushiga olib keldi. Yaponiya Xitoyga xujum qilib g'alaba qozondi. Shunday qilib og'ir sanoat rivojlanishga rag'bat oldi.. Xitoy bilan shartnomaga binoan Yaponiya Koreyani ekspansiya qilish huquqiga, katta kontributsiyaga, yapon fuqarolarini Xitoyda sanoat korxonalarini ochish huquqiga ega bo'ldi.

***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. Ileyasuning agrar islohotining xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Midzuno Tadakuni iqtisodiy islohotining asosiy maqsadi nimadan iborat edi?
3. Yaponiyada "davlat kapitalizmi" va iqtisodiyotning harbiylashtirilishi xususiyatlari.

## § 8-MAVZU. MUSTAMLAKACHILIK DAVRIDA SHARQ MAMLAQATLARI IQTISODIYOTI

**Tayanch atamalar va iboralar:** mustamlaka, metropoliya, sanoat kapitalizmi, ost-indiya kompaniyalari, qul savdosi, yarim-mustamlaka

■ **Reja:**

- 8.1. Mustamlakachilikning tarixiy shakllari
- 8.2. XVI-XVII asrlarda mustamlakachilik
- 8.3. Sanoat kapitalizmi davrida mustamlakachilik
- 8.4. Mustamlakalar iqtisodiyotining rivojlanishi

### 8.1. Mustamlakachilikning tarixiy shakllari

◀ Mustamlakachilik tizimini shakllanishi xususiyatlari.

Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida mustamlakachilik tizimi shakllana boshlandi. Mustamlakachilik rivojlanishining bu bosqichi kapitalistik munosabatlarning shakllanishi bilan bog'liqdir. Shu davrdan boshlab "kapitalizm" va "mustamlakachilik" kategoriyalari uzviy bog'liq bo'lib qoldi.

Mustamlaka - bu siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan mahrum bo'lgan, metropoliyaga qaram hududdir. Bosib olingen hududlarda metropoliyalar kapitalistik munosabatlarni shakllantiradi. Bu hol Angliyaning Shimoliy Amerikadagi, Avstraliyadagi, Yangi Zellandiyadagi va Janubiy Afrikadagi mustamlakalarida yuz berdi. Mahalliy aholi mustamlakachilarga qarshi chiga olishmadi, ular yo'q qilindi yoki rezervatsiyalarga haydar yuborildi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng ushbu mamlakatlar aholisi Yevropadan ko'chib kelgan ko'chmanchilardan iborat edi.

◀ Sanoat kapitalizmi davri

Mustamlaka tizimini rivojlanishining keyingi bosqichi XVIII asrning oxirgi choragida boshlangan va rivojlangan Yevropa mamlakatlarida XIX asrning o'talarigacha davom etgan sanoat inqilobi bilan bog'liq.

Tovar ayrboshlash davri boshlanib mustamlaka mamlakatlarni jahon savdo ayrboshlash tizimiga jalb etdi. Bu ikkiyoqlama oqibat-

ga olib keladi: bir tomondan, mustamlaka mamlakatlar metropoliyalarning agrar-xom ashyo ta'minotchisiga aylanib qoldi, ikkinchi tomondan – metropoliyalar mustamlakalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini amalga oshirdi (xom ashycni qayta ishlash bo'yicha mahalliy sanoat, transport, aloqa, telegraf rivojlantirildi).

Birinchi jahon urushi boshiga kelib monopolistik kapitalizm bosqichida uchta yirik Yevropa mamlakatlarning mustamlaka yeri shakllandi:

### **8.1-JADVAL. YEVROPANING YIRIK MAMLAKATLARNI MUSTAMLAKALARI TO'G'RISIDA MA'LUMOT**

| Mamlakat  | Mustamlaka hududi, mln. km <sup>2</sup> | aholi, mln. kishi |
|-----------|-----------------------------------------|-------------------|
| Angliya   | 33,5                                    | 400               |
| Fransiya  | 10,6                                    | 55                |
| Germaniya | 3                                       | 13,3              |

Bu bosqichda jahoning hududiy taqsimlanishi yakunlandi. Yetakchi mustamlakachilik mamlakatlari mustamlakalarga kapitalni olib chiqishni kuchaytirdi.

### **8.2. XVI-XVII asrlarda mustamlakachilik**

- Mustamlakalardan foydalanishda savdo kompaniyalarning o'rni.

XVII asr boshi va o'talarida barcha mustamlakalarda ost-ind kompaniyalari tashkil etildi (ingliz – 1600-1858 yy., golland – 1602-1798 yy., fransuz – 1664-1770 yy. va 1785-1793 yy.). Metropoliyalarning yirik savdogarlari va sanoatchilarini birlashtirgan kompaniyalar o'z hukumatidan yangi yerlarni qo'shib olish, mustamlakalarda savdo olib borish maqsadida urush qilish monopol huquqini oladilar.

Mustamlakachilar daromadining asosiy manbasi Sharqda sanoat mahsulotlarini sotish emas, balki mustamlakachilik tovarlarini qayta sotish, yuqori soliqlar va badallarni undirish, mahalliy aholini talash, harbiy o'ljaga ega bo'lish hisoblanadi.

Misol uchun, XVIII asr o'talarida Osiyo mamlakatlaridan ingliz importining 80% oltin va kumushni olib kelish evaziga, 20% esa sanoat mahsulotlari evaziga qoplanardi. Ost-ind kompaniyalari tuz va boshqa zarur tovarlarga yuqori to'lovlar o'rnatib aholini talardi.

Shunday usullardan golland ost-ind kompaniyasi ham foydalanib sharqning boy mamlakatlaridan biri – Indoneziyani o'z nazoratiga oldi.

#### ► Afrika qit'asida mustamlakachilik

XVI-XVII asrlarda Yevropa mamlakatlarining mustamlakachilik siyosatida Afrika qit'asi alohida o'rın tutadi. Yevropa mamlakatlarining markazlarini Afrika qit'asida qurilishi mahalliy aholiga avvaliga hech ham ta'sir etmadidi. Vest-Indiya (Amerika)da shakar qamish, kofe, tamaki, paxta plantatsiyalarini paydo bo'lishi, oltin va kumush konlarini ochilishi Afrikadan qullarni olib kelib foydalanishni rivojlantirdi.

*Qul savdosini* XV asrda birinchi bo'lib portugallar boshlashdi, undan keyin bu jarayonga inglizlar, gollandlar, fransuzlar, daniyaliklar, shvedlar qo'shilishdi. *Qul savdosini* markazlari asosan Afrikaning g'arbiy qırq'oqlarida (Yashil burundan Angolaga qadar) joylashgan edi.

### 8.3. Sanoat kapitalizmi davrida mustamlakachilik

Sanoat inqiobi natijasida kapitalistik mamlakatlarda industrial sivilizatsiya shakllandi. Sanoat ishlab chiqarishi birinchi o'ringa chiqib oldi.

#### ► Metropoliyaning mustamlaka siyosatini o'zgarishi.

Yangi turdag'i tovarlarga (ayniqsa, xom ashyoga) ehtiyoj o'sib bordi. Endi savdo kompaniyalardan ko'ra yirik sanoat egalarining ahamiyati yuqori bo'ldi.

Mustamlakachilik tovarlarining ahamiyati pasayib bordi, lekin oziq-ovqat, xom ashyo, bo'yoqlar, qurilish xom ashyosi, jun, paxtaga, ya'ni rivojlanayotgan yevropa iqtisodiyoti uchun o'ta zarur bo'lgan mahsulotlarga zarurat oshdi.

Bu mustamlaka va metropoliya o'rtasidagi munosabatlarni o'zgarishiga olib keldi. Mustamlakalarga tovarlarni eksport qilish zarurati tug'ildi. Ingliz burjuaziyasi tashqi savdo va mustamlaka siyosatini qayta kc'rib chiqdi.

Mustamlakalar metropoliyalarning agrar-xom ashyo bazasiga, sanoat uchun xom ashyo va qo'shimcha materiallar, o'sib borayotgan shahar aholisiga oziq-ovqat ta'minotchisiga aylandi. Mustamlakalarga matolar, metall buyumlari, yarimfabrikatlar va boshqa

tovarlar yuborildi. 1870 y.da Hindiston eksportining tarkibi 36% paxta xom ashysidan, 21% qora doridan, 12% - don, 4% - jut<sup>1</sup>dan iborat edi. Hindiston eksportining bor yo'g'i 2% paxta matolari, 0,5% jutdan ishlangan mahsulotlar tashkil etardi. Shu vaqtning o'zida mamlakat importining 45% - paxta matosi, 8% - yigirilgan ip, 13% - metall buyumlar, 2 % - mashina va uskunalardan iborat edi. Hindistonga 85% tovarlar metropoliyalardan olib kirilardi.

#### **8.4. Mustamlakalar iqtisodiyotining rivojlanishi**

##### ◀ Mustamlakalarda sanoatning rivojlanishi.

Kapitalning birlamchi jamg'arilishi davrida mustamlakachilar Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy tarkibini o'zgartirishmadidi. Yevropadagi sanoat inqilobi holatni tubdan o'zgartirdi.

Mustamlakalarda mamlakat ichkarisidan xom ashyo olib chiqishni osonlashtirish uchun temiryo'llar qurish, ko'mir va boshqa qazilma boyliklar (olmos, oltin, mis) qazib olish, vositachi kredit muassasalarini tashkil etish boshlandi.

Mustamlaka va yarimmustamlakalarca tovar-pul munosabatlari rivojlandi, feodal tartib inqirozi jadallahdi.

##### ◀ Xitoy – yirik yarimmustamlaka.

Osiyo va Afrika mamlakatlarida yarimmustamlakalar paydo bo'la boshladi. Ular yetakchi kapitalistik mamlakatlar o'rtasida katta bahs va tortishuvlar obyektiga aylandi.

Yarimmustamlakalar – bu o'z hukumati va boshqaruv tizimiga ega formal jihatdan mustaqil davlatadir. Ular misol – Xitoy, Eron, Usmon imperiyasi.

Sharqning yirik mamlakatlarini (xususan, Xitoyni) yarimmustamlakalarga aylanishi xolatlari mavjud. Xitoyning 1756 y.da boshqa mamlakatlar bilan savdo uchun "yopilishi" (Makaodan tashqari), Yevropa mamlakatlari tomonidan Uzoq Sharq mamlakatlarini ekspansiyasiga qarshi munosabati edi.<sup>2</sup> Lekin bu hol Xitoyning o'zini iqtisodiy holatini og'irlashtirdi. Xitoy Yevropaning

<sup>1</sup> Jut - Hindiston kanopi (tola beradigan o'simlik).

<sup>2</sup> История мировой экономики: Учебник для вузов / Под ред. Г.Б. Поляка, А.Н. Марковой. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. — С.398.

fan va texnika yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi, uning boshqa mamlakatlar bilan savdosи qisqarishi nati-jasida ishlab chiqarish inqirozga uchradi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. Buyuk geografik kashfiyotlarning mustamlakachilik tizimiga ta'siri qanday bo'ldi?
2. Mustamlakalordan foydalanishda Ost-Indiya kompaniya-larin roli qanday bo'lgan?
3. Sanoat rivojini ta'minlashda mustamlakalardagi xom-ashyolarning o'rni nimade?

## § 9-MAVZU. JAHON AGRAR INQIROZI VA IKKINCHI ILMIY-TEXNIK INQILOBI (XIX asr oxiri-XX asr boshi)

**Tayanch atamalar va iboralar:** agrar inqiroz, bug'doy, yer rentasi, texnika qoloqligi, ilmiy inqilob, ichki yonish dvigateli, radio, domna pechi, transport, harbiy texnika, aksioner multk, kooperativ multk.

### ■ Reja:

9.1. XIX asrning to'rtinchi choragida jahon agrar inqirozi va uning ahamiyati.

9.2. Ikkinchilik ilmiy-texnika inqilobi va jahon ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi

### 9.1. XIX asrning to'rtinchi choragida jahon agrar inqirozi va uning ahamiyati.

Ortiqcha ishlab chiqarish natijasida yuzaga keladigan kapitalistik inqirozlar ishsizlik, ish haqini pasayishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga to'lov qobiliyatini qisqarishiga olib kelib qishloq xo'jalik sohasida qisman yoki to'liq ortiqcha ishlab chiqarishni yuzaga keltirdi.

Qishloq xo'jaligida ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi *agrар inqiroz* deyiladi. Agrar inqiroz ham sanoat inqirozlarini assosini tashkil etuvchi kapitalizm qarama-qarshiliklari natijasida paydo bo'ladi.

Shu bilan birga agrar inqirozlar bir qancha xususiyatlarga ega: ular asosan sanoat inqirozlariga nisbatan uzoqroq davom etadi.

XIX asr oxirgi choragidagi agrar inqiroz G'arbiy Yevropa mamalakatlari, Rossiya va AQShni qamrab olgan holda 70-yy.larning birinchi yarmida paydo bo'lib, 90-yy.lar o'rtalariga qadar davom etdi.

Bu inqiroz dengiz transportini rivojlanishi va temiryo'i tarmog'ini kengayib borishi natijasida Yevropa bozorlariga Amerika, Rossiya va Hindistondan arzon va ko'p hajmda bug'doy va non kirib kelishi natijasida yuzaga keldi.

Yangi unumdor yarlarni o'zlashtirilishi va absolyut renta olinmaydigan bo'sh yarlarni mavjudligi sababli Amerikada non ishlab chiqarish arzon edi. Rossiya va Hindiston G'arbiy Yevropaga past

narxlarda bug'doyni eksport qilishiga asosiy sabab rus va hind dehqonlari katta soliqlar bosimi ostida ezilib bug'doyni juda arzon sotishga majbur edilar.

Yevropalik kapitalist-ijarachilar va dehqonlar yirik yer egaligi mayjudligida yuqori renta sharoitida raqobatchilikka bardosh bera olmaydi. Birinchi jahon urushidan so'ng, aholining to'lov qobiliyatini keskin qisqarishida, 1920 yil bahorida kuchli agrar inqirozi yuzaga kelib, u Yevropadan tashqari mamlakatlarga ta'sir ko'rsatdi (AQSh, Kanada, Avstraliya).

Qishloq xo'jaligi agrar inqirozdan o'ziga kelmasdan 1928 yilda Kanada, AQSh, Braziliya va Avstraliyada boshlangan yangi agrar inqiroz boshlandi. Bu inqiroz xom ashyo va oziq-ovqatni eksport qiluvchi kapitalistik dunyoning asosiy mamlakatlarini qamrab oldi. Inqiroz qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarini qamrab olib, 1929-1933 yy.dagi sanoat inqirozi bilan chatishib ketdi va Ikkinchidagi urushi boshlangunga qadar davom etdi.

*Agrar inqirozlarning uzoq vaqt davom etishining asosiy sabablari:*

- Birinchidan, yerga xususiy mulk monopoliyasi ijrachilarini agrar inqirozlar davrida ham shartnoma bilan belgilangan ijara haqini to'lashga majburlaydi. Qishloq xo'jaligi tovarlari narxlarini pasayishi yer rentasi ish haqini pasayishi, hamda foyda va ba'zan ijarachilarning avanslangan kapitali hisobiga amalga oshiriladi. Natijada takomillashgan texnika va ishlab chiqarish xarakatlarni pasaytirish yo'li bilan inqirozdan chiqish murakkablashadi.

- Ikkinchidan, kapitalizm sharoitida qishloq xo'jaligi sanoatga nisbatan qoloq tarmoq hisoblanadi. Yerga xususiy mulkchilik, feodal munosabatlar qoldiqlari, yer egalariga absolyut va differensial rentani to'lash zarurati – bularning barchasi qishloq xo'jaligiga kapitalni erkin oqib kirishiga to'siq bo'ladi, ishlab chiqarish kuchlari rivojini sekinlashtiradi. Bu tarmoqda texnika o'ta qoloq edi. Qishloq xo'jaligida kapitalning organik tuzilishi sanoatdagidan ko'ra pastdir; sanoat inqirozlarining moddiy asosi hisoblangan asosiy kapital sanoatdagiga nisbatan qishloq xo'jaligida kam rol o'ynaydi.

- Uchinchidan, mayda tovar ishlab chiqaruvchilar – dehqonlar inqirozlar davrida juda og'ir mehnat, kam ovqat iste'mol qilish, yer va uy hayvonlaridan vahshiylarcha foydalanish evaziga

o'z yerlarida yoki ijara dagi yerlarida qolishlari maqsadida ishlab chiqarishning oldingi hajmini saqlab qolishga intiladilar. Bu qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'p ishlab chiqarishni kuchaytiradi.

Shunday qilib, agrar inqirozlarning uzoq davom etadigan xarakterining umumiy asosi bo'lib yerga xususiy mulk monopoliyasi, u bilan bog'liq feodal sarqitlari va kapitalistik mamlakatlarda qishloq xo'jaligining o'ta qoloqligi xizmat qiladi.

## 9.2. Ikkinchchi ilmiy-texnika inqilobi va jahon ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi

XIX asr oxiri XX asr boshlarida jahon ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi o'ta yuqori sur'atlarda amalga oshdi, natijada jahon sanoat ishlab chiqarishi hajmi o'sdi.

Bu o'sish shu davrda amalga oshgan ilmiy-texnik inqilobi (ITI) bilan bog'liq.

Ilmiy inqilob. XIX-XX asrlar chegarasida ilmiy tafakkur asoslari mutlaq o'zgardi; tabiatshunoslik yuksaldi, fanning yagona tizimini yaratish boshlandi. Bunga elektron va radioaktivlikni ixtiro qilinishi sababchi bo'ldi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida fanning ishlab chiqarish bilan aloqasi yanada mustahkamlanib tizimli xarakterga ega bo'ldi, fanning texnika bilan o'zaro aloqasi o'rnatildi, fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylandi.

Elektr. Elektr asosida sanoat va transportning yangi energetik asosi yaratildi, ya'ni yirik texnik muammo echildi. 1867 yilda Germaniyada V.Simens tomonidan elektromagnit generatori ixtiro qilindi.

Elektr energiyasiga ehtiyoj muntazam oshib borishi natijasida yangi tipdagi dvigatellarni (kuchliroq, tejamliroq) ixtiro qilish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Issiqlik turbinalari bilan birga gidravlik turbinalarni joriy etish ustida ishlar olib borildi. Gidravlik turbinalar birinchi bo'lib Niagara gidroelektrstansiyasida 1896 yilda o'rnatildi.

Ichki yonish dvigatellari katta ahamiyat ega edi. Suyuq yoqilg'i(benzin)da ishlaydigan bunday dvigatellarni 1880-yillarda nemis muhandislari G. Daymler va K. Benslar yaratishdi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> История мировой экономики: Учебник для вузов / Под ред. Г.Б. Поляка, А.Н. Марковой. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. — С.404.

**Elektrotexnika.** Elektrotexnika eng yetakchi tarmoqlardan birliga aylandi, uning tarmoqchalari rivojlandi. Yirik sanoat korxonalarini qurilishi, katta shaharlarning o'sishi, elektr energiyasi ishlab chiqarishni o'sishi natijasida elektr yorig'ligidan foydalanish keng tarqaldi.

Ikkinci ITI – bu elektrotexnikaning *aloqa vositalari texniki*-si tarmog'ini rivojlanish davri hisoblanadi. XIX asr oxirida simli telegraf apparaturasi takomillashtirildi, 80-yy. boshida esa telefon apparaturasi amaliyotda qo'llanila boshlandi.

Ikkinci ITIning eng muhim yutuqlaridan biri – *radioni* (radito'lqinlarga asoslangan simsiz elektralоqa) ixtiro qilinishidir.

**Metallurgiya.** Ikkinci ITI faqatgina yangi tarmoqlarni yaratilishi bilan emas, balki eski tarmoqlarni takomillashtirilishi bilan ham ajralib turar edi. Birinchi navbatda – metallurgiya.

Mashinasozlik, kemasozlik, harbiy sanoat, temiryo'l transporti kabi tarmoqlarning jadal rivojlanishi qora metallga talabni oshib ketishiga olib keldi. Metallurgiyada texnik yangiliklar kiritildi. Domna pechlar hajmi kattalashdi.

**Transport.** Transport – ikkinchi ITIning muhim yo'nalishiga aylandi, transportning yangi turlari paydo bo'ldi va mavjud vositalari takomillashtirildi.

Tashish hajmi va tezligini oshirish ehtiyoji temiryo'l texnikasini takomillashtirishga sababchi bo'ldi. XIX asr oxirida po'latdan ishlangan temiryo'l resslariiga o'tish yakunlandi. Po'lat ko'pincha ko'priklar qurilishida keng qo'llanilar edi.

Ikkinci ITI davrida paydo bo'lgan transportning yangi turi – *avtomobil transportidir*. Birinchi avtomobillar nemis muhandislar G. Daymler va K. Benslar tomonidan yaratildi. Avtomobillarni sanoat miqyosida ishlab chiqarish bir necha mamlakatda birdaniga 90-yillarda boshlandi.

XIX va XX asrlar chegarasida paydo bo'lgan transportning yangi turi – *havo transportidir*. U ikki turga bo'linadi – birinchisi – havodan yengil apparatlar – dirijabllar, ikkinchisi – havodan og'ir apparatlar – samolyotlar (aeroplanlar).

**Texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etish.** Xom ashyoni kimyoviy usullar bilan qayta ishlanishini ishlab chiqarishning barsha tarmoqlariga kirib borishi ITI uchun xarakterli hisoblandi.

Mashinasozlik, elektrotexnika, tekstil sanoati tarmoqlarida sintetik tolalar kimyosi keng qo'llanila boshlandi.

ITIning eng katta yutug'i kreking-jarayon hisoblanadi. Bunda yuqori bosim va issiqlik ta'sirida neft parchalanadi. Bu benzin ajratib olishni keskin oshirib yubordi.

Ikkinci ITI yengil, poligrafiya va sanoatning boshqa tarmoqlarini takomillashtirish uchun ko'pgina yangiliklarni joriy etdi.

Harbiy texnika. Ikkinci ITIda harbiy texnikadagi yutuqlar katta edi. Uning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- 1) O'qotar qurolni avtomatlashtirish.
- 2) Artilleriyani avtomatlashtirish.
- 3) Portlovchi moddalarni ishlab chiqarish.
- 4) Havoda uchish va aviatsiya vositalaridan keng foydalanish.
- 5) Yirik suv(ost)usti kemalarini yaratish.

O'qotar qurolni avtomatlashtirish. Amerikalik muhandis X.Maksimning pulemyotlari ixtiro qilindi (1883) va qurollanish uchun qabul qilindi. Avtomalashtirilgan miltiqlarning bir necha turлari yaratildi.

Artilleriyani avtomatlashtirish. Birinchi jahon urushidan oldin va urush davomida yangi tezotar zambaraklar (yarimavtomat va avtomatik) yaratildi. To'p otish uzoqligi 16-18 km.dan 120 km.gacha uzaydi.

Portlovchi moddalarni ishlab chiqarish. Ularni ishlab chiqarish keskin oshib ketdi. Yangi ixtirolar (tutunsiz porox) amalga oshirildi, azot ishlab chiqarish (portlovchi moddalar uchun xom ashyo) rivojlantirildi.

Havoda uchish va aviatsiya vositalaridan keng foydalanish. Samoletlar faqatgina harbiy razvedkani amalga oshirmsandan, balki qiruvchi funksiyasini bajarardi. 1915 yil yozidan boshlab samolyotlarga pulemyotlar o'rnatila boshlandi.

Yirik suvusti(ost) kemalarini yaratish. Suv osti kemasi real vogelikka aylandi. XIX asr yakunida suv osti kemalari bir necha mamlakatlarda yaratildi. Ushbu kemalar suv ustida ichki yonuv dvigatevi yordamida harakatlantirilsa, suv ostida elektrodvigatel yordamida harakatga keltiriladi.

Ikkinci ITI natijalari. Birinchi jahon urushi harbiy texnikani rivojlantirilishiga olib keldi. Natijada ikkinchi ITI sanoat ishlab

chiqarilishining turli sohalarini qamrab oldi. Texnika progressi sur'atlari juda yuqori bo'lib ixtiolar soni minglab hisoblanar edi. Eng ko'p ixtiolar amerikalik T.Edison tomonidan patentlashtirilgan edi – 1000 dan oshiq.

1. Ikkinci ITI c'z xarakteriga ko'ra XVIII-XIX asrlardagi sanoat to'ntarilishi (inqilobi)dan farq qilar edi. Uning natijalari – ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasidagi o'zgarishlar, mashina industriyasining qayta ta'mirlanishi, fanni "kichik fan"dan "katta fan"ga aylanishi. Shu sababdan uni sanoat inqilobi emas Ilmiy-tehnika inqilobi deb ataladi.

2. ITI ko'pgina sanoat ishlab chiqarishlarini paydo bo'lishiga olib keldi: elektrotexnika, kimyo, neft qazib olish, neftni qayta ishlash va neftkimyo, avtomobil sanoati, samolyotsozlik va boshq.

3. Faqtgina tarmoqlarning emas, balki kichik tarmoqchalarning diversifikatsiyasi amalga oshdi. Transport mashinasozligi rivojlandi (lokmotivlar, avtomobillar, samolyotlar, daryo va den-giz kemalari, tramvaylar ishlab chiqarish).

4. Mashinasozlikning yangi tarmoqlarini jadal rivojlanishi qora metallurgiya tarkibini o'zgarishiga olib keldi – po'latga talab oshishi natijasida uni ishlab chiqarish cho'yan ishlab chiqarishdan oshib ketdi.

5. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi texnik siljishlar va yangi tarmoqlarni jadal rivojlanishi jahon sanoat ishlab chiqarish tarkibining o'zgarishini taqazo etdi.

Ikkinci ITI natijasida individual mulk shakli o'rniiga *aksioner* mulk asosiy bo'lib qoldi, qishloq xo'jaligida esa – *fermerlik*, *kooperativ* mulk va *munitsipal* mulk rivoj topdi.

Tarixning bu bosqichida sanoat rivojlanishi bo'yicha jahonda yetakchilikni yosh kapitalistik mamlakatlar – AQSh va Germaniya egallahdi, Yaponiya tez o'sa boshladgi, sobiq yetakchilar Angliya va Fransiya esa orqada qola boshlashdi.

Kapitalizmning monopolistik bosqichiga o'tish davrida jahon iqtisodiy taraqqiyot markazi Yevropadan Shimoliy Amerikaga ko'chdi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha yetakchi mamlakat bo'lib Amerika Qo'shma Shtatlari tan olindi.

**O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar**

1. Agrar inqirozning sanoat inqiroziga aylanib (ulanib) ketishining asosiy sabablari nimada?
2. Ikkinci ilmiy-texnika inqilobining iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati nimadan iborat?
3. Sanoat inqilobi bilan ilmiy-texnika inqilobining farqli jihatlari nimada?
4. Ikkinci ilmiy-texnika inqilobining harbiy texnikaning rivojidagi o'rni qanday?

## § 10-MAVZU. Yetakchi KAPITALISTIK MAMILAKATLARNING IQTISODIY TARAQQIYOTI (XIX asr oxiri-XX asr boshi)

**Tayanch atamalar va iboralar:** tabiiy-geografik omil, import boji, demografik omil, monopoliya, progressizm, oilaviy monopoliya.

■ **Reja:**

- 10.1. AQShning iqtisodiy taraqqiyoti.
- 10.2. Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti.
- 10.3. Yaponianing iqtisodiy taraqqiyoti.

### 10.1. AQShning iqtisodiy taraqqiyoti

◀ AQShda jadal iqtisodiy o'sish omillari

1. Janubiy shtatlarda quldarlik tuzumini bekor qilib, davlat tomonidan yerni mayda uchastkalarga bo'lib, ommaviy sotib va yerga ishlov berishni xohlovchi har bir fuqaroga yer sotib olishga ruxsat berib, Amerika hukumati Qo'shma Shtatlarda kapitalizm rivojlanishiga yo'l ochib berdi.

2. Sanoat ishlab chiqarishi o'sish sur'atlarining jadallahuvida tabiiy-geografik omil katta rol o'yinaydi – katta xomashyo bazasining mavjudligi, turli foydali qazilmalar.

3. AQShning tashqi savdo siyosati – olib kirilayotgan tovarlarga katta bojlar qo'yildi, shu bilan birga kapital olib kirishga umuman boj yo'q edi. Import tovarlariga 10% darajada boj qo'yilishi 1861 yildan so'ng davlat daromadlarini xarajatlarga nisbatan yili ga 100 mln.doll.ga oshishini ta'miniadi.

4. ilmiy-texnika progressi va inqilobi yutuqlarini keng qo'llanilishi. Qo'shma Shtatlar o'z korxonalarini yangi texnika (o'sha davrga nisbatan) bilan ta'minlardilar. Ular elektroenergiyanı ishlab chiqarish va qo'llash bo'yicha jahonda birinchi o'rinda edilar – elektr toki sanoatda, shaharlarni yoritishda, xo'jalikda ishlatalilar edi.

5. demografik omil. AQSh hududida aholi zichligi juda past darajada ekanligi ish kuchi etishmovchiligini keltirib chiqardi, undan tashqari bu holat ishlab chiqarish jarayonlarini mex-

anizatsiyalash va texnik fikrlashni rivojlantirishga olib kelib, Yevropa mamlakatlariiga nisbatan yuqoriroq ish haqini taqozo etardi.

6. tarixiy-geografik omil. Yevropadan uzoqligi va Janubiy Amerikaga yaqinligi bu yosh kapitalistik mamlakatga G'arbiy yarimsharda o'z holatini mustahkamlash imkonini berdi.

1913 yilga kelib AQShning xorijiy investitsiyalari 2,5 mlrd.doll. ni tashkil etdi, ulardan 1 mlrd.doll. Kanadaga (temiryo'l qurilishi) va 1 mlrd.doll. Meksikaga (neft qazib olish). AQSh Boliviyaning qalay sanoatini, Chili va Perudagi mis sanoatini, Janubiy Amerikadagi muhim temir yo'llarni nazorat qilar edi. Uzoq Sharqda AQShni qiziqish obyekti Xitoy edi, uning ichki bozori cheksiz talabdan iborat edi.

Amerika sanoatining rivojlanish sur'atlari va tarkibi. Monopolistik bosqchida AQSh iqtisodiyoti yuqori sur'atlar bilan rivojlandi, ushbu ko'rsatkich boshqa kapitalistik mamlakatlarnikidan yuqori edi. 1870-1913 yy.da AQSh yalpi ijtimoiy mahsulotining o'sish sur'ati 4,3%ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich Germaniyada – 3%, Angliyada – 2,4%, Fransiyada – 1,1%ni tashkil etdi. Milliy boylik etti marotaba, sanoat ishlab chiqarishi to'qqiz marotaba o'sdi.

AQShda ayniqsa og'ir sanoat tez rivojlandi, bu ikkinchi ITning asosiy yo'naliishlari natijasi edi. 1870-1913 yy.da ko'mir qazib olish 17 marotaba, neft qazib olish – 76 marotaba, po'lat eritish – 46 marotaba o'sdi.

Konsentratsiya va monopolizatsiya jarayonji. Monopolistik bosqichga o'tish ishlab chiqarishni jadal konsentratsiyalashuvi natijasi edi. 1913 yilda AQShda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmida yirik korxonalar (500 va undan ko'p ishchilar) ulushi 85%ni tashkil etardi. Kapitalning markazlashuvi darajasini quyidagi ko'rsatkich aks ettiradi – aksioner jamiyatlar barcha ishchilarning 80%ni mujassamlashtirar edi.

AQShda birinchi monopoliya 1872 yili paydo bo'ldi – "Standart oyl" eng yirik neft kompaniyasi<sup>1</sup>. Uni Dj. Rokfeller tashkil etgan. 1879 yilda bu monopoliya katta daromadlar olib mamlakatda neftni qayta ishlashni 95%ni nazorat qilar edi.

AQShda monopolianing eng keng tarqalgan shakli – trestlar edi, ular barcha tarmoqlarda (elektrotexnikadan tortib to tamaki

<sup>1</sup> Заславская М.Д. История экономики: Учебное пособие для бакалавров / М.Д.Заславская. – М.: "Дашков и К°", 2013. –С.169.

sanoatigacha) tashkil etildi. Temiryo'l qurilishi to'liq monopol-ashtirilgan tarmoq hisoblanar edi.

AQShning monopolashganligi darajasiga po'lat, neft, elektr, temir yo'l "qirollari" sulolalari orqali baho berish mumkin, bular - Morganlar, Rokfellerlar, Vanderbildlar, Garrimanlar va boshq.

Trestlarni bank monopoliyalari bilan birlashib ketishi jarayoni faollahashib Amerika moliyaviy kapitali vujudga keldi. Ikki bank guruhi Morgan va Rokfeller yetakchi pozitsiyalarni egallahdi.

XX asr boshida AQSh iqtisodiyoti yuqori sur'atlar bilan rivojlanishda davom etdi. Qayta ishlash sanoatining hajmi Angliya, Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlarning jami ishlab chiqarish hajmi bilan tenglashdi. Jahan sanoat ishlab chiqarishida AQShning ulushi 36%ga etdi, po'lat eritishda – 47%, toshko'mir qazib olish – 45%, neft qazib olish – 82%ga tenglashdi.

Progressizm va davlat-monopolistik kapitalizm davri. 1901-1914 yy. Amerika tarixiga progressizm davri sifatida kiritildi, chunki bu yillarda davlat tomonidan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarni qamrab oluvchi demokratik o'zgarishlar amalga oshirilgan edi.

1914 yilda AQShda Kleyton qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra kasaba uyushmalari va fermerlar ittifoqlari aksiltrest qonuni ta'siri ostiga tushmas edi.

Federal zaxira tizimi(FZT)ni tashkil etish to'g'risida qonun qabul qilindi. Bu tizimga Vashingtonda joylashgan Federal zaxira boshqaruvi boshchilik qilishi kerak edi. 12 ta federal zaxira banklari tashkil etilib ularning kapitali milliy, shtat va sanoat banklari badallaridan shakllanar edi.

Shu davrda Federal sanoat komissiyasi (FSK) tashkil etildi, uning vazifasi - shaxs va korporatsiya faoliyatining noplak uslublari to'g'risida axborot to'plashi va javobgarlikka tortish edi.

Shunday qilib, AQShda progressizm davrida davlat-monopolistik kapitalizmi boshlanib, bunda davlat iqtisodiyotni rivojlan Tiruvchi, uning barcha sohalarini qamrab oluvchi tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

Ishchilar holati. Shahar aholisi. Kapitalistik tizim yuqori ekspluatatsiya normasi aholini tabaqalashuvi bilan ajralib turar edi. Millionerlar soni 4 mingga etdi; 1% aholi mamlakat milliy boyligining yarmiga ega edi. Shaharlar soni o'sdi. 1850 yilda AQShda 6 ta yirik shahar bo'lgan bo'lsa, 1900 yilda ularning soni 38 taga etdi, ular dan eng yiriklari - Nyu-York, Chikago, Filadelfiya. Ammo qishloq

aholisi soni shaharnikidan ko'proq edi, va bu ko'rsatkich bo'yicha AQSh Germaniya va Angliyadan orqada edi.

**Qishloq xo'jaligi.** Agrar sektor infratuzilmasi intensiv rivojlandi – elevatorlar, muzlatkich omborlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlanishini ta'minlovchi turli texnik vositalar.

1870-1900 yy.da o'zlashtirilgan yangi yerlar Germaniya, Fransiya va Angliya maydonlarini qo'shib hisoblanganidan katta edi. Fermerlar soni 1860 yildagi 2 mln.dan 1900 yilda 5,7 mln.ga etdi.

Mamlakat qishloq xo'jaligi rayonlarini iqtisodiy asosli ravishda ixtisoslashuvi xo'jalik yuritishni ratsionalligini ta'minladi. Bug'doy yetishtirish bo'yicha rayonlar (O'rta G'arb, Kaliforniya, Dakota, Nebraska), jo'xori yetishtirish bo'yicha rayonlar (Ayova, Nebraska, Kanzas) shakllandi. Amerika bo'g'doyining sifati yuqori va tannarxi past edi, bu bug'doy eksportini oshirishni taqazo etdi. Bug'doy yetishtirish va eksport qilish bo'yicha AQSh jahonda birinchi o'ringa chiqdi.

AQShning agrar sektorida ham ishlab chiqarishni konsentratsiyalashuvi jarayoni bo'ldi. Mayda va kichik fermer xo'jaliklari texnikani qo'llashning moddiy imkoniyatlari ega emasdilar, natijada, qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxlari pasaymas edi.

**Amerika eksporti.** Sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini o'sishi Amerika eksportini kengayishiga olib keldi. Eksport-import nisbati o'zgardi. 1876 y.da tovarlarni olib chiqish summasi olib kirish summasidan oshib ketdi. Eksport tarkibi tez sur'atlar bilan o'zgara boshladi. Fuqarolik urushi vaqtida eksportda xom ashyo katta ulushga ega bo'lgan bo'lsa, bu bosqichda og'ir sanoat tarmoqlari mahsulotlari eksporti oshib bordi.

## 10.2. Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti

XIX asr o'talarida Germaniya iqtisodiy jihatdan Angliya va Fransiyadan orqada edi. 70-yy.ga kelib keskin o'zgarishlar yuz bera boshladi – mamlakatda sanoat o'sishi yuz berdi, Germaniya texnik va energetik qayta jihozlanishni amalga cshirdi; bunda mahsulot ishlab chiqarish hajmi (ayniqsa, og'ir sanoatda) keskin oshdi, mehnat unumdarligi, tashqi savdo aylanmasi o'sdi.

**O'sish sur'atlari, iqtisodiyot tarkibi.** XIX asrning oxirgi 30 yilida Germaniya sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha jahonda 2-chi (Yevropa da birinchi) o'ringa chiqdi. Uning jahon ishlab chiqarishidagi ulushi 13%dan 16%gacha ko'tarildi. Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari

6 marotaba o'sdi<sup>1</sup>. Og'ir sanoat tarmoqlari, ayniqsa yangi tarmoqlar yuqori sur'atlari bilan rivojlandi. XX asrning birinchi o'n yilligida elektrstansiyalari quvvati 100 marta o'sdi. Po'lat quyish cho'yan ishlab chiqarish bilan tenglashdi. Germaniya harbiy ishlab chiqarishni keskin oshirib 1913 y.da Fransiyadan 4 marotaba o'zib ketdi.

Germaniyada sanoat o'sishi iqtisodiyot tarkibini o'zgarishini taqozo etdi – endi sanoat ulushi qishloq xo'jaligidan oshib Germaniya industrial mamlakatga aylandi. Og'ir sanoat rivojlanish sur'atlari bo'yicha yengil sanoatdan oshdi. Germaniyada og'ir sanoat tarmoqlarida elektroenergetika, mashinasozlik, kimyo, temiryo'l qurilishi tarmoqlari muhim ahamiyat kasb etardi. Germaniya sanoati rivojlanishida markaziy bo'g'in bo'lib metallurgiya va mashinasozlik xizmat qildi.

Asrlar bo'sag'asida ikkinchi ITI natijasida paydo bo'lgan yangi tarmoqlar (elektrotexnika va kimyo) intensiv rivojlandi.

Germaniya sintetik bo'yoqlar, kimyoviy o'g'itlar ishlab chiqaradi. Juhon kimyo mahsulotlari eksportida Germaniya 50% ulushga ega edi.

Temiryo'l qurilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. 70-yy.ga kelib Germaniyada temiryo'l tarmog'i yaratildi.

Konsentratsiya va monopolizatsiya jarayoni. Germaniya sanoati tarkibida og'ir sanoat tarmoqlari va yirik korxonalar ustuvorlikka ega bo'ldi. Bunday siljishlar ishlab chiqarish va kapitalni konsentratsiyalashuviga, hamda monopolizatsiyalashuviga otib keldi. XIX asrning oxirgi 20 yilida Germaniyada yirik korxonalar (1000dan ortiq ishchi) soni 4 marotaba o'sdi.

Shunday qilib, muhim tarmoqlarda ishlab chiqarish yirik fabrika va zavodlarda konsentratsiyalashdi.

Bu mamlakatda monopolizatsiya jarayonining xususiyati asosan kartel va sindikatlarni tashkil etishdir.

1893 y.dagi inqirozdan so'ng konsentratsiya va monopolizatsiya jarayonlari kuchaydi, ayniqsa yangi tarmoqlarda – kimyo va elektrotexnika.

<sup>1</sup> <http://www.istmira.com/vsemirnaya-istoriya-v-3-ch-ch-2-xix-v-oktyabr-v84-/3896-soedinennye-shtaty-ameriki-v-konce-xix-nachale-xx-v.html>

Elektrotexnika tarmog'ida ta'sir doiralarini taqsimlab olgan holda "Umumiy elektr jamiyati" (AEG) va "Simens-Galske va Shukkert" lar hukmron edi.

Kimyo sanoati "I.G.Farbenindustri" konserni nazorati ostida edi.

Qurol ishlab chiqaruvchi Krupp po'lat quyuvchi firmasi uzoq vaqt "oilaviy monopoliya" edi, keyinchalik aksioner jamiyatga aylanтирildи.

Dengiz savdo va passajir kema qatnovi ikki yirik jamiyatlar tomonidan nazorat qilinar edi - "Gamburg-Amerika" va "Shimoliy-german Lloyd".

Birinchi jahon urushidan oldin Germaniyada monopolistik birlashmalar soni 600 tani tashkil etdi.

Sanoat va transportni monopoliashtirish bilan birga banklarni konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi, ularni sanoat kapitali bilan qo'shilishi jarayoni amalga oshirildi.

1913 y.da 9 ta yirik Berlin banklari hukmrolik qilardi, ulardan eng yiriklari "Nemis banki" va "Hisob jamiyati" bo'lib, ular Germaniyadagi bank qo'yilmalarining yarmini konsentratsiyalashtirgan edi.

Aholi. Germaniya industrial qudratini o'sishi shaharlar, rivojlanishi va shahar aholisini ko'payishi ta'minladi. 1870 y.da shaharlarda aholining 1/3 qismi yashar edi, 1910 yilda esa – 60%. Shahar aholisining asosiy qismi yollanma ishchilar edi. 1907 yilda ishchi kuchining soni 18 mln.kishiga etdi.

Tashqi savdo. Bu davrda Germaniya jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'ldi. 1870-1913 yy.da Germanyaning tashqi savdo hajmi Angliya va Fransiyangiga nisbatan tezroq o'sdi. Ayniqsa elektrotexnika, kimyo va mashinasozlik mahsulotlari eksporti oshib bordi.

Germaniya monopoliyalari xalqaro monopolistik kelishuvlarda faol ishtirok etishdi. Masalan, 1907 yilda AEG va "Djeneral elektrik" Amerika kompaniyasi o'rtasida shartnoma imzolandi; Morganning "Dengiz savdosи xalqaro kompaniyasi" xalqaro savdo karteli tashkil etildi. Rels karteli, sink sindikati to'g'risida shartnomalar imzolandi. Birinchi jahon urushidan oldin nemis monopoliyalari 100 ta xalqaro kelishuvlarda ishtirok etishdi.

**Qishloq xo'jaligini rivojlanishi.** XIX asrning oxirgi 30 yilligida Germaniyada sanoat sektoridan farqli o'laroq qishloq xo'jaligining rivojlanishi Amerikanikiga nisbatan past sur'atlarda edi.

1880 y.da qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat yer egalarini huquqlarini cheklovchi qonun qabul qildi. Ushbu qonunda - maxsus agronomik jamiyatlar, tajriba stansiyalari, qishloq xo'jalik maktablarini yaratish nazarda tutildi.

Pangerman ittifoqini yaratilishi. Agrar sektor Germaniyaning umumiyligi rivojlanishini sekinlashtirdi. Mamlakat bug'doy eksport eridan uning importeriga aylandi. Germaniyaning paxta, jun, teriga bog'liqligi yengil sanoatni rivojlanishini sekinlashtirdi.

Germaniya *Pangerman* ittifoqini tashkil etib dunyoni qayta taqsimlashni boshladi.<sup>1</sup>

Shunday qilib, XIX asr oxiriga kelib Germaniya sanoati (ayniqsa, og'ir sanoat) ichki bozor doirasidan chiqib ketdi, u yetarli xom ashyo zaxirasiga va o'z mahsulotini sotish bozoriga ega emas edi. Germaniyani arzon xom ashyo bilan ta'minlaydigan va bojxonasiz tovarlarini olib chiqadigan ko'p sonli mustamlakalari yo'q edi. Shu sababdan u qattiq raqobatga duch keldi va bu sharoitda kurashish uchun o'z tovarlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishi zarur edi.

Bu omillar german kapitalizmini o'ta agressivligini va tashqi ekspansiyasini tushunish imkonini beradi. Bu Birinchi jahon urushiga olib keldi.

### 10.3. Yaponianing iqtisodiy taraqqiyoti

Yaponiya XIX asrning oxirida mustaqil kapitalistik rivojlanish yo'lidan borgan birinchi va yagona osiyo mamlakati edi. Bu rivojlanish o'ziga xos xususiyatga ega edi, chunki feodalizm qoldiqlari ni ta'siri bo'lib rivojlanishni sekinlatar edi.

Yapon kapitalizmi harbiy-feodal xarakterga ega edi, ya'ni iqtisodiy faoliyatda pomeshchiklar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan monopoliyalar hukmroligi mavjud edi.

Qarama-qarshiliklarga qaramasdan Yaponiyani markazlashgan davlatga aylanishi tez sur'atlar bilan amalga oshdi va Yaponiya goloq feodal mamlakatdan "buyuk mamlakat"ga aylandi. Bu mus-

<sup>1</sup> Хашимов П.З., Тураев Х.Н. Экономическая история. Т.: «Университет», 2003.- С 156.

tamlaka va yarimmustamlaka sharoitidagi boshqa osiyo mamlakatlariga namuna bo'ldi.

Konsentratsiya va monopolizatsiya jarayoni. Bu bosqichda ishlab chiqarishni konsentratsiyalashuvi davom etdi, yapon eksporti tarkibi o'zgardi. Mamlakat ichida kapitalistik munosabatlarning juda past darajada rivojlanganligiga qaramasdan Yaponiya Xitoy, Koreya va Tayvanga kapital chiqarishni boshladi.

Ishchilarning mehnat faoliyati og'ir edi: o'sish davrida ish haqi bir necha bor oshgan bo'lsa ham ish vaqtining uzunligi 15-18 soatga etar edi. 1914 y.da ishchilar soni 1 mln.kishiga etdi.

1897-1898 yy.dagi moliyaviy inqiroz va 1900-1903 yy.dagi ortiqcha ishlab chiqarish jahon inqirozi monopolizatsiyani chuqurlashuviga turki bo'ldi. Yaponiya monopoliyalari birdaniga moliya-sanoat guruhlari tarzida shakllandi. Bu yapon kapitalizmining "davlat" xarakterini aks ettirardi. Davlat-monopolistik kapitalizmi birinchi bo'lib Yaponiyada paydo bo'lgan.

Yosh yapon kapitalizmining Xitoy va Koreyaga qarab intilishi 1904-1905 yy.dagi rus-yapon urushiga olib keldi. Mamlakat iqtisodiyoti to'lqligicha harbiylashtirilgan edi. Ichki zayomlar (ayniqsa majburiylari) keng tarqaldi. Yer solig'i 3%dan 17%gacha ko'tarildi. Real ish haqi 20%ga pasaydi. Harbiylashmagan tarmoqlarni qisqarishi ishsizlikka olib keldi. Ekin maydonlari qisqardi. Mamlakatning tashqi qarzi o'sdi. Harbiy xarajatlarning 60% xorijiy zayomlar evaziga qoplanardi.

Ushbu urushda g'olib chiqib Yaponiya Janubiy Manjuriyani va Janubiy Saxalinni bosib oldi. Yapon monopoliyalari ushbu mamlakatlarga qarab intildi. Yapon tovarlarining Koreya va Manjuriya importidagi ulushi tegishli ravishda 74 va 60%ni tashkil etdi. Maxsus mustamlaka banklari tuzildi. 1906 yilda Janubiy Manjuriyada temiryo'l qurilishini boshlagan yarimdaylat konserni tashkil etildi. 1900-1914 yy.da ushbu mamlakatlarga yapon investitsiyalari 1 mln. AQSh doll.dan 220 mln.doll.ga etdi.

Kapital konsentratsiyasi kuchayib borib ishlab chiqarish konsentratsiyasidan o'zib ketdi. Birinchi jahon urushi arafasida barcha kompaniyalarning 0,4%i mamlakat yalpi kapitalining 38%iga egalik qilar edi. Yaponiya banki (1882 yilda tashkil topgan) yetakchi bank bo'lib, unda moliyaviy mablag'larning asosiy qismi jamlangan edi.

Yaponiyaning moliya-bank tizimi o'ziga xosligi bilan ajralib turardi – unga jamoa moliya muassasalari kirar edi, masalan Omonatlar byurosi (Trast fond byurosi) va Narx jamg'arma tizimi.

Shakar, sement, ko'mir, temiryo'l uskunalari ishlab chiqarish tarmoqlarida yangi kartellar va sindikatlar paydo bo'ldi.

"Mitsui" va "Mitsubisi" kabi eski monopoliyalar xolding-kompaniyalar boshqaruvidagi rosmana konsernlarga aylandi. "Asano", "Fudzito" va "Okura" kabi kompaniyalar ham monopoliyaga aylandi.

Ammo Yaponiya G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShdan orqada edi, uning milliy daromadida sanoatning ulushi 40% edi. XX asr boshida mamlakat aholisining 2/3 qismi qishloq xo'jaligida band edi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. AQShda konsentratsiya va monopolialashuv jarayonining xususiyatlari nimadan iborat?
2. AQSh tashqi savdosining o'zgarish xususiyatlari nimadan iborat?
3. Germaniya iqtisodiyatidagi tarkibiy o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
4. Yaponiyaning qoloq feudal mamlakatdan "buyuk mamlakat" aylanish xususiyatlari qanday?

## § 11-MAVZU. IKKI JAHON URUSHLARI ORALIG'IDA TARTIBGA SOLINADIGAN KAPITALIZMNING SHAKLLANISHI

**Tayanch atamalar va iboralar:** etatizatsiya, harbiy iqtisodiyot davri, urush talofatlari, doktrina, prosperiti, yangi kurs, stagnatsiya, sterling bloki, xalq fronti, Daves rejasi, fashizm

### ■ Reja:

- 11.1. Etatizatsiya jarayoni davrlari.
- 11.2. Industrial mamlakat - AQShning iqtisodiy taraqqiyoti.
- 11.3. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti.
- 11.4. Fransiyaning iqtisodiy rivojlanishi.
- 11.5. Germaniya iqtisodiyoti.
- 11.6. Italiya va Yaponiyaning iqtisodiy taraqqiyoti.

1914-1939 yillar kapitalizmni davlat tomonidan tartibga solish tizimini shakllantirish va faol rivojlantirish davri sifatida xarakterlanadi. Bu jarayonni *etatizatsiya* (fransuzchadan *l'etat* - davlat) termini bilan atash mumkin.

Ushbu davrni tizimli ravishda bir necha bosqichga ajratish mumkin:

- 1914-1918 yy. – harbiy iqtisodiyot davri;
- 1919-1923 yy. – urushdan keyingi inqirozli holatli davri;
- 1924-1928 yy. – barqarorlashtirish davri;
- 1929-1933 yy. – jahon iqtisodiy inqirozi davri;
- 1934-1939 yy. – urusholdi iqtisodiy kon'yunktura davri.

### 11.1. Etatizatsiya jarayoni davrlari

Harbiy iqtisodiyot davri 1914-1918 yy. XX asrning ikkinchi o'n yilligi insoniyatning shu davrgacha bo'lgan harbiy muammolarning eng yirigi – Birinchi jahon urushi bilan bog'liqdir. Birinchi jahon urushida 30 ta mamlakat ishtirot etib ularning aholisi 1,5 mlrd.ni tashkil etdi (dunyo aholisining 2/3 qismi).

Urush natijasida 10 mln.kishi halok bo'ldi. 20 mln kishi yarador bo'ldi. Epidemiyalar va ocharchilikdan vafot etgan tinch aholi 10 mln kishini tashkil etdi.

Undan tashqari, urush natijasida ishtirokchi mamlakatlar moddiy boyliklarini uchdan biri yakson bo'ldi. Bu faqat harbiy texnika bo'lmasdan, sanoat, qishloq xo'jaligi sohalarida, infratuzilmada, uy-joy fondidagi yo'qotishlar edi.

Urush xo'jalik faoliyatiga davlatni aralashuvini kuchaytirib kapitalizmni tartibga solish tizimini rivojlanishiga olib keldi. Harbiy-siyosiy maqsadlarga qisqa muddatlarda erishish uchun qat'iy davlat tartibga solinishini amalga oshirish zarur edi. Shu sababdan urush yakuniga kelib deyarli barcha mamlakatlarda xo'jalik munosabatlarining etatistik tizimi shakllandi.

Birinchi jahon urushida ishtirok etuvchi mamlakatlarda iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish tizimiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi;
- milliy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar xususiyatlari;
- u yoki bu mamlakatni bevosita urushda ishtirok etish darajasi.

Barcha urushda qatnashgan mamlakatlarda xo'jalik munosabatlarini etatizatsiya qilish jarayonlari kuchaydi.

Lekin bu jarayon urush tugagandan so'ng orqaga qayta boshladi, ya'ni davlat tomonidan tartibga solish tizimi qisqartirila boshlandi.

Urushdan keyingi yillar. Jahonning ko'pchilik mamlakatlarida urushdan keyingi yillardagi beqarorlik 1914-18 yy.dagi og'ir talofatlar natijasidir. Beqarorlik darajasiga quyidagi omillar ham ta'sir ko'rsatdi:

- ko'rilgan talofatlar miqyosi;
- mamlakatni urushdag'i g'alabasi yoki mag'lubligi;
- urush yillarida iqtisodiyotni harbiylashganligi va etatizatsiyalashganligi;
- Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning umumiyligi;
- shu bilan birga bir qator milliy xususiyatlar.

Barqarorlashtirish davri. 1924-29 yy.dagi davr rivojlangan mamlakatlarda xo'jalik munosabatlariga davlat aralashuvini qisqarib borishi bilan xarakterlanadi. Bu holni erkin bozor munosabatlariga qaytish deb tushunish kerak emas.

Shuni ta'kidlash kerakki, etatizmni chekinishi to'liq emas edi, chunki 20-yy.da deyarli barcha mamlakatlarda iqtisodiyotni monopollashushi, monopoliya va davlatni qo'shilib ketishi, erkin iqtisodiy munosabatlarni buzilishi amalga oshdi.

Undan tashqari, "yangi" siyosiy tartibni o'rnatgan mukammal bo'limgan Versal tizimi jahondagi va Yevropadagi muhim qarama-qarshiliklarni hal eta olmadi. Harbiylashtirish tendensiyasi kuchaydi, urushda mag'lub bo'lgan mamlakatlarni jahonni qayta hududiy va iqtisodiy taqsimlashga undadi. Bu oxir natijada etatizmning kuchli elementlarini saqlanib qolinishiga siyosiy asoslar yaratdi.

Buyuk inqiroz davri. 1929-1933 yy.dagi Buyuk inqiroz davrida tinchlik sharoitida iqtisodiyotga davlatni aralashuvi darajasini keskin o'sishi yuz berdi. Etatizmni rivojlanishi barcha mamlakatlarga xos edi. Davlat tomonidan tartibga solish tizimi rivojlanishini yangi bosqichining farqlantiruvchi xususiyati shundaki, etatizatsiya jarayoni nazarii asosga ega bo'ldi – bu keynschilik nazariyasidir.

O'sha davrda mashhur doktrinalar iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish zaruratini taqazo etdi. Bu doktrinalar:

- Italiya korporativizmi
- Nemis milliy-sotsializmi
- Turli sotsialistik konsepsiylar

Inqirozdan keyingi davr. Inqirozdan keyin bo'lgan nisbatan qisqa muddat (1934-39 yy.) etatizmdan voz kechish namoyon bo'lgan davr emas edi. Buning asosiy sababi – o'sha davrda barcha iqtisodiyotlar boshidan kechirayotgan beqarorlik holatidir. Undan tashqari Ikkinci jahon urushiga tayyorgarlik bilan bog'liq ravishda iqtisodiyotni harbiylashtirish tendensiyasi iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni chuqurlashuviga olib keldi.

## **11.2.Yirik industrial mamlakat - AQShning iqtisodiy taraqqiyoti**

Birinchi jahon urushidan oldin va urush davridagi iqtisodiyot. Birinchi jahon urushi boshida AQSh jahonning yirik industrial mamlakati hisoblanib, unga jahon sanoat ishlab chiqarishining 35% to'g'ri kelardi. Rivojlangan qishloq xo'jaligi, infratuzilma, qulay tabiiy-iqtisodiy muhit, Janubiy Amerikaning bitmas-tugarmas bozorining yaqinligi, urush holatidagi Yevropaning uzoqligi XX asr boshidayoq AQShga jahonda yetakchilikka erishishga imkon berdi.

Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq AQSh Birinchi jahon urushida deyarli qatnashmadi, 1917 yilning 6 apreliga qadar

neytral pozitsiyani ushlab turdi. AQSh armiyasi bevosita harbiy harakatlarni 1918 yilning yozida boshladi, va Yevropa mamlakatlariiga nisbatan kam talofatlar ko'rди (taxminan 120 ming kishi).

Birinchi jahon urushi oxiriga kelib AQSh o'zining tashqi qarzini yarmini qoplash imkoniyatiga ega edi, va yirik kreditorga aylanish imkoniyatiga ega bo'lди. 1918 yilda AQSh jahon oltin zaxirasining yarmiga ega edi.

Inqirozli holatlar. Boshqa mamlakatlardagi kabi AQShda ham iqtisodiyot tarmoqlari rivojida nomutanosibliklar sezila boshlanди. Bu hol xo'jalik faoliyatiga davlatning faol aralashuviga sabab bo'lди.

XIX asrning oxiridayoq Amerika hukumati monopoliyalarni iqtisodiyotga salbiy ta'siri bilan kurash olib bora boshladi.

Urushdan keyingi davrda taraqqiyot. *Prosperiti*<sup>1</sup>. Urushdan keyingi davrda ko'pchilik mamlakatlarda inqirozli holatlar harbiy talofatlar, konversion jarayonlar natijasida yuz berib ijtimoiy inqirozga clib keldi. Lekin bu hol AQSh uchun xos emasdi.

AQSh inqirozni juda qisqa muddatlarda engib 1923 yildayoq iqtisodiyotni jonlanishi kuzatildi. 1929 yilning oxiriga qadar iqtisodiyotda *prosperiti* davri hisoblandi.<sup>2</sup>

Taraqqiyotning asosi esa yangi tarmoqlarning (avtomobil, elektrotexnik, kimyo, radiotexnika va boshq.) jadal rivojlanishi bilan bog'liq.

1929-1933 yy. JAHON INQIROZI. 1929-1933 yy. Jahon inqirozi AQShda boshlanib bu mamlakat iqtisodiyotining barcha jabhalariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. 1929 yilning 25 oktyabrida Nyu-York fond birjasida birja spekulyantlari tomonidan sun'iy narxлari oshirilgan aksiyalar kursini keskin pasayib ketishi natijasida sarosima vujudga keldi.

Zarar 15 mird.doll. hajmida hisoblandi. "Qora juma" XX asr 20-yy.dagi iqtisodiy o'sishning yakunlanishini va chuqr iqtisodiy inqirozni boshlanishini anglatardi.

*Buyuk Depressiya* deb nomlangan iqtisodiy inqiroz xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini qamrab oldi. To'rt yil ichida

<sup>1</sup> prosperiti (ingl. prosperity) - taraqqiyot

<sup>2</sup> Конотопов М. В., Сметанин С. И. Экономическая история: Учебник. - 9-е изд., доп. и перераб. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2007. - С.240.

mamlakatda sanoat ishlab chiqarishi 46,2%ga qisqardi. Avtomobilsozlik eng katta talofat ko'rdi (ishlab chiqarish 80%ga qisqardi), cho'yan eritish 79%ga qisqardi, po'lat eritish 76%ga, neft qazib olish 78%, ko'mir qazib olish 59%ga qisqardi.

F. Ruzveltning "Yangi kurs"i. Franklin Ruzveltni 1933 yilda prezidentlikka saylanishida "Yangi kurs" deb nomlangan samarali aksilingiroz dasturi katta ahamiyatga ega bo'ldi. "Yangi kurs"ni avvalgi aksilingiroz dasturlaridan prinsipial farqi shundaki Ruzvelt bozordagi jarayonlarni mustaqil ravishda tartibga solinishini rad etdi va davlatni xo'jalik munosabatlariiga faol aralashuvini tan oldi.

"Yangi kurs" avvaldan o'ylab chiqilgan islohotlar tizimi bo'lmasdan empirik xarakterga ega edi. Buni ushbu siyosatning g'oyasini ifodalovchi asosiy manba bo'lgan Dj.Keynsning "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" kitobini 1936 yilda chop etilganligi ham isbotlaydi. Islohotlar boshlanganiga ikki yil bo'lgandan keyingina aksilingiroz siyosat tizimli xarakterga ega bo'la boshladи.

Ruzveltning birinchi islohotlari bank va moliya tizimini sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan edi. 1933 yil martida mamlakatda barcha banklar faoliyati to'xtatildi. Bu banknotalarni oltunga aylantirish va ularni chetga olib chiqib ketishga to'siq bo'ldi. Mazmunan bu choralar dollarning oltin standart tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatib milliy valyutani qadrsizlanishiga olib keldi. Banknotalarni oltin bilan ta'minlash metodidan voz kechmagan holda AQSh hukumati tashqi bozorlardan oltin sotib olishni amalga oshirdi, natijada ichki bozorda uning narxi pasaydi va 1934 yil yanvarida mamlakat valyutasini devalvatsiyasini 41% darajasida amalga oshirishga erishildi.

"Yangi kurs" siyosatini qo'llab hukumat mamlakatning eksport imkoniyatlarini kengayishiga, milliy ishlab chiqaruvchilarning holatini yaxshilanishiga erishdi, spekulyativ kapital faoliyati sohasini toraytirdi, investitsion jarayonni jonlanishi uchun shart-sharoit yaratdi. Sanoat ishlab chiqarishini jonlanishi ko'pchilik muammolarni hal etilishiga asos bo'ldi.

Ruzveltning aksilingiroz agrar siyosati 1933 yil bahorida AQSh Kongressi tomonidan qabul qilingan qishloq xo'jaligini tartibga solish to'g'risidagi qonun asosida amalga oshirildi. Agrar sektorni Qishloq xo'jaligini tartibga solish Ma'muriyatni boshqarardi. Ortiq-

cha ishlab chiqarish inqirozini engib o'tish uchun o'z xo'jaliklarida ishlab chiqarishni qisqartirayotgan fermerlarga mukofotlar va kompensatsiyalar berish tizimi ishlab chiqildi.

"Yangi kurs" AQShni ijtimoiy yo'naltirilgan davlatga aylanishini boshlab berdi. Siyosatning ijtimoiy yo'naltirilganligi islohotlarning ikkinchi bosqichidayoq ustuvor holatni egalladi. Stagnatsiya sharoitida 1935 yil yozida mehnat munosabatlari to'g'risida Milliy qonunni qabul qilinishiga erishildi. Bu qonun tarixga Vagner qonuni sifatida kirdi (senator R.Vagner nomi bilan nomlangan). Kasaba uyushmalari tuzilishi qonuniy deb tan olindi, ular ish beruvchilar oldida yollanma ishchilar manfaatlarini jamaa shartnomalarini tuzish orqali amalga oshirar edi.

1936 yilda Ijtimoiy ta'minot to'g'risida qonun qabul qilindi. Unga binoan qarilik pensiyasi va ishsizlik, kasallik va nogironlik nafaqalari joriy etildi. Ammo qonun savdo va xizmat sohalarida band bo'lganlarga ta'sir etmas edi.

Ikki yildan so'ng AQShda *Adolatli mehnat sharoitlari to'g'risida qonun qabul qilindi*. Unda mehnat haftasining uzunligi 44 saat hajmda belgilandi, federal ahamiyatdagi korxonalarda ish haqining minimal va maksimal chegaralari belgilandi, bolalar mehnati taqiqlandi.

Ruzvelt siyosatining asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini inqirozdan olib chiqishga yo'naltirilgan edi. Shu bilan birga, xususiy mulkka, ish kuchini sotish va sotib olishga asoslangan bozor mexanizmlari tiklandi. Shu sabadan mamlakatni sotsilizatsiyalashtirish maqsad qilib qo'yilmagan.

Umuman olganda davlat aralashuvi siyosati AQShga iqtisodiyotni inqirozli holatdan chiqarish imkonini berdi (ba'zi Yevropa mamlakatlariga nisbatan sekinroq bo'lsa ham). 1937 yilga kelib AQSh bir necha iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha 1929 yildagi pozitsiyaga chiqib oldi.

### **11.3. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti**

Birinchi Jahon urushidan keyingi rivojlanish xususiyatlari. Angliyada Birinchi Jahon urushi davrida statistik tendensiyalarni intensiv rivojlanishi kuzatildi, ushbu jarayon 1919-1929 yy.da susaydi. Angliya g'olib mamlakat sifatida urushdagagi talofatlarini qisman bo'lsa ham kompensatsiyaladi.

Jahon bozorlarida ingliz kapitalining pozitsiyalari AQShning ekspansionistik siyosati natijasida susayib, Angliya qarzdor mamlakatga aylandi (4 mlrd.doll.).

Shu sharoitda ham Angliyada sanoatning yetakchi (kimyo, avtomobil, elekrotexnika, aviatsiya va boshq.) tarmoqlari rivojlanib bordi.

Eski tarmoqlar (kemasozlik, metallurgiya, ko'mir qazib olish va tekstil) esa stagnatsiya holatida edi. Ushbu tarmoqlarni modernizatsiyash uchun zarur bo'lgan kapitalning etishmasligi, ularni yuqori daromad topish maqsadida chetga chiqib ketishi bilan bog'liqdir.

Investitsiyalarning etishmasligi ingliz sanoatiga xarajatlarni pasaytiruvchi, tovarlarning raqobatbardoshligini oshiruvchi ishlab chiqarishning yangi shakllarini joriy etish imkonini bermas edi. Angliya yuqori sifatli, ommaviy bo'limgan, qimmat, boy iste'molchilarga mo'ljallangan tovarlarni ishlab chiqarishga urg'u berdi. Bu esa unga tashqi va ichki bozorda o'z o'rnnini saqlab qolish imkonini berdi.

Angliyani ommaviy talab etiluvchi tovarlar tashqi bozorlaridan siqib chiqarilishi jahon savdosida proteksionistik tendensiyalarni kuchayishiga olib keldi. Undan tashqari tovar bozorlarida pozitsiyalarni topshirish Angliya hukumatini bank sohasidagi yetakchilikni saqlab qolish bilan bog'liqdir. 1925 yilda hukumat Ingлиз valutasining revalvatsiyasini funt sterlingni oltin standartini joriy etish hisobiga amalga oshirdi. Bu tadbir funt kursini oshishiga olib kelgan bo'lsa ham, ingliz tovarlarining qimmatlashuvij sanoatchi-eksporterlar manfaatlariga ta'sir etdi.

Angliyada Buyuk depressiya. Angliya iqtisodiyotida inqirozli holatlar 1930 yil boshlarida kuzatildi. Boshlang'ich davrda aksilingiroz dastur borasida mamlakat boshqaruvida birdamlik yo'q edi. Leyboristlar hukumati, saylovoldi va'dalarini bajarish maqsadida aholining keng qatlamlari, kam ta'minlanganlar va ishsizlar holatini yaxshilash maqsadida budjet xarajatlarini oshirish tarafdoirlari edilar.

Aksilingiroz chora-tadbirlari. 1931 yil sentyabrda milliy valyutaning oltin paritetini bekor qilinishi muhim voqeа bo'lib, natijada funt devalvatsiyasi yuzaga keldi. Buyuk Britaniya ketidan sterling blokiga kiruvchi mamlakatlar (25 ta mamlakat – Skandinaviya mamlakatlari, Gollandiya, Portugaliya, Argentina, Braziliya va Bri-

taniya mustamlakalari) borishga majbur bo'ldilar, ular ingliz funti asosida o'z valyutalarini kursini belgilashar edi.

1933 yil oxiriga kelib Angliya aksilinqiroz choralar yordamida barqarorlashuvga erishishga muvaffaq bo'ldi. Bunga Buyuk Britaniyada mavjud ustunliklardan foydalangan holda erishildi.

Ta'kidlash kerakki 1934 yildayoq qat'iy budjet siyosati ancha yumshadi (ish hagi oshirildi, avval kesib tashlangan ishsizlik nafaqalari tiklandi, daromad solig'i hajmi pasaydi).

1934 yilda boshlangan o'sish qurol-yarog' ishlab chiqarish bilan bog'liq tarmoqlarni (avtomobilsozlik, aviatsiya, radiosanoat va boshq.) rivojlantirishga davlat ajratmalari bilan bog'liqdir.

Shu bilan birga hukumatning moliya tizimini sog'lomlashtirish bo'yicha choralar, qat'iy proteksionistik siyosati bir qator eski tarmoqlarga (kemasozlik, metallurgiya) investitsiyalar kirib kelishiga sababchi bo'lci, bu iqtisodiyotdagi mavjud nomutanosibliklarni o'zgartirmadi, ko'mir va tekstil sanoati stagnatsiya holatidaligi davom etdi.

#### **11.4. Fransyaning iqtisodiy rivojlanishi**

Urushdan keyingi davrdagi iqtisodiyot. Urush davrida Fransiyada iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi qo'llanilgan edi. Fransyaning moddiy talofatlari mag'lub mamlakatlar (asosan Germaniya) hisobiga qoplandi. Versal shartnomasiga binoan Fransiyaga Elzas va Lotaringiya viloyatlari o'tdi, ko'mir konlariga boy Saar viloyati 15 yilga o'tdi (1920 yildan Saar Millatlar Ligasi boshqaruvi ostida edi).

Yangi olingan hududlar va yirik kontributsiya mamlakat iqtisodiyotini urushdan keyingi va inqirozgacha bo'lgan davrdagi (1919-1930) rivojiga katta yordam bo'ldi. Fransyaning iqtisodiy o'sish sur'atlari boshqa yetakchi mamlakatlarga qaraganda (AQShdan tashqari) ancha yuqori edi. Muvaffaqiyatli rivojlanish davlatning harbiy buyurtmalari bilan bog'liq sanoatning yangi va eski tarmoqlarni jadal rivoji bilan bog'liqdir. Bu davrda yengil sanoat va qishloq xo'jaligi turg'un holatda bo'lib, davriy inqirozlarni boshidan o'tkazayotgan edi.

Ichki siyosiy munosabatlar. Fransiyada jahon inqirozi sal kechroq (1930 y.) tarqalishiga qaramasdan uzoqroq davom etdi va o'ta chuqurlashdi. Inqiroz davrida ichki siyosiy munosabatlar o'ta radikallashdi. Bu fransuz jamiyatining o'zgacha ijtimoiy tarkibi va

mamlakatning siyosiy an'analari bilan bog'liqdir. Demokratik va so'lradikal oqimlarni kuchayib borishi bilan birgalikda Fransiyaning respublika-demokratik an'analarga xos bo'limgan Italiya va Germaniyadagi kabi mamlakatni fashizatsiyalashuvi tendensiyasi paydo bo'ldi.

Xalq fronti dasturi. Sotsialistlar va kommunistlar birdamligi natijasida 1936 yilda Xalq fronti tashkil etildi. Xalq frontining dasturi aholining keng qatlamlarini ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan edi.

Dasturning asosiy talablari:

- ishsizlikning milliy fondini yaratish;
- nafaqani kamaytirmagan holda mehnat haftasini qisqartirish;
- pensiyaga chiqish yoshini qisqartirish hisobiga ish o'rinnarini ko'paytirish;
- kengmiqyosli jamoat ishlarini tashkil etish;
- ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini ko'zlagan holda qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olish narxlarini tartibga solish;
- dehqonchilik kooperativlarini qo'llab-quvvatlash;
- savdo inshootlari uchun to'lovlar to'g'risidagi qonunni qayta ko'rib chiqish;
- mayda rante (qimmatli qog'ozlarning mayda egalari)larning manfaatlarini himoya qilish;
- kam ta'minlanganlar foydasiga soliqqa tortish tizimini isloh etish.

1936 yil 4 iyunda Xalq frontining birinchi hukumati shakllantirilib, unga bosh vazir L.Blyum boshchilik qildi. 7 iyunda esa Umumiy mehnat konfederatsiyasi va tadbirkorlar o'rtasida ish haqini ko'paytirish, kasaba uyushmasini va sex starostalari institutini tan olish borasida kelishuv imzolandi.

K.Shotan hukumati chora-tadbirlari. Sotsial-radikal Kamil Shotan hukumati keng aholi qatlami manfaatlari bilan yirik kapital egalarining manfaatlari o'rtasida Xalq fronti dasturi talablarini bir oz cheklash hisobiga murosaga kelishga intildi. Ammo, budjet xarajatlarini qisqartirilishiga qaramasdan moliya tizimining holati yomonlashdi. Bu hol hukumatni milliy valyutani ikkinchi bor devlatsiyasini o'tkazishga majburladi.

Aksilinqiroz harakatlarining tartibsizligi mamlakat ichkarisida ijtimoiy qarama-qarshiliklarning keskinlashuviga olib keldi, Xalq

frontining ichida ixtilofga olib keldi, natijada uning dasturi ham sezilardi darajada o'zgartirildi.

Yangi hukumat inqirozi natijasida 1938 yil bahorida L.Blyumning ikkinchi kabinet shakllanib, u Xalq fronti siyosatini asta-sekin tugatilishi borasida faoliyat olib bordi. Buning sabablari faqatgina Xalq fronti ichidagi ixtilof, aksilinqiroz chora-tadbirlarining muvaffaqiyatsizligi, ijtimoiy tanglikni keskinlashuvi emas, balki Yevropadagi siyosiy holatlarning keskinlashuvi hamdir. Ijtimoiy nafaqalarni qisqartirish evaziga Blyum mamlakatda harbiy-mudofaa qurilishini jadallashtirishga erishmoqchi edi.

E.Dalade hukumati. 1938 yil aprelida shakllantirilgan Eduard Dalade hukumati Parlamentdan olgan favqulodda vakolatlari asosida Xalq fronti dasturidan to'liq voz kechdi. Daladening ismi to'rt Yevropa mamlakatining (Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya) *Myunxen kelishuvini* imzolanishi bilan bog'liqdir. Bu kelishuv ikkinchi jahon urushi oldidan Germaniyani "tinchlantiruvchi" siyosat deb hisoblanmish Chexoslovakiyani bo'lib olish bilan bog'liqdir.

Iqtisodiy beqarorlik holati Fransiya uchun 30-yillarning oxiriga qadar xos bo'lib, bu aksilinqiroz harakatlarining tartibsizligi, inqirozdan chiqishning umummiliy dasturini yo'qligi bilan bog'liqdir. Natijada Fransiya jahon bozorlarida o'z pozitsiyalarini sezilarli darajada yo'qotdi. Urush oldida mamlakat iqtisodiyotidagi bir oz jonlanish harbiy qurilishga davlat mablag'larini ajratilishi bilan bog'liqdir.

## 11.5. Germaniya iqtisodiyoti

Urushdan keyingi iqtisodiyot. Birinchi jahon urushi davrida Yevropa mamlakatlari ichida eng etatizatsiyalashgan iqtisodiyot Germaniyaniki edi. Bunga sabab faqatgina nemis tarixiy maktabining "tarbiyaviy proteksionizm" konsepsiysi asosida rivojlanayotgan nemis kapitalizmining o'ziga xos siyosiy shakli emasdi. Balkim Germaniya tomonidan olib borilgan urushda uzoq davr mobaynida resurslarga bo'lgan katta ehtiyoj ham katta ahamiyat kasb etdi.

Urushda mag'lub bo'lish natijasida siyosiy tizimni barbos bo'lishi, katta hajmda inson va moddiy yo'qotishlar, Versal tinchlik shartnomasining Germaniya uchun og'ir shartlari uzoq davom etgan urushdan keyingi inqiroz va keyinchalik mamlakat iqtisodi-

yotini stagnatsiyasining asosiy omillari hisoblanadi. Faqatgina 20-yillarning o'talariga kelib sog'lomlashuv boshlanib, sanoatning monopollashgan tarmoqlarida ijobjiy siljishlar yuzaga keldi, tashqi savdo oboroti o'sa boshladi.

Daves va Yung rejaları. Bu davrda AQSh va Yevropaning yetakchi mamlakatlari Germaniya mag'lubiyati natijasida buzilgan kuchlar balansini tiklash tarafdori edilar. Shu bilan birga Germaniyadagi ijtimoiy tanglikni susaytirish, mamlakatni SSSR bilan yaqinlashuviga to'sqinlik qilish, hamda sotsializmni G'arbiy Yevropaga kirib borishini oldini olishga harakat qilindi.

Aynan shu maqsadda yangi reparatsion reja qabul qilinib, unga xalqaro ekspert kengashi rahbari, amerikalik bankir Ch.Daves nomi berilib – Daves rejasi (1924-1929 yy) deb nomlandi. Ushbu reja reparatsion to'lovlar shartlarini yengillashtirishni nazarda tutgan edi. Ushbu rejada yana amerikalik kreditorlar tomonidan Germaniya budjetini kuchaytirish maqsadida katta hajmdagi kreditlarni ajratish va iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jaib qilish nazarda tutilgan edi.

Ushbu rejani amalga oshirish davrida Germaniya AQSh va, qisman, Buyuk Britaniyadan 21 mlrd.marka hajmida kreditlar olishdi.

Germaniyadagi noqulay iqtisodiy holatni hisobga olgan holda kreditor-mamlakatlar moliyaviy ekspertlari Germaniya reparatsion to'lovlar tizimini o'zgartirish to'g'risida qarorni qabul qilişdi.

Daves rejasi 1929 yilda Yung<sup>1</sup> rejasi bilan almashtirildi. Yangi yordam rejasi reparatsiyalarning umumiyligi hajmini chegaraladi va korxonalar foydasidan reparatsion fondga ajratmalarni qisqartirdi, natijada iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirish mumkin bo'lgan mablag'lar tejab qolindi. Bir vaqtning o'zida Germaniya iqtisodiyoti ustidan moliyaviy nazorat qisqartirildi. Ammo inqiroz davridan Yung rejasi deyarli bekor qilindi.

### 1929-1933 yy.dagi inqiroz. Fashizmning iqtisodiy siyosati

Iqtisodiy jihatdan zaif Germaniya iqtisodiyotining qaramililik darjasini 1929-1933 yy.dagi inqirozni chuqurlashuvi darajasini belgilab berdi. Inqiroz eng quyi nuqtasiga 1932 yilda etdi, va birinchi navbatda sanoat sektorini (68 mingta korxona bankrot bo'ldi), bank sohasini izdan chiqardi, katta ishsizlikni keltirib chiqardi

<sup>1</sup> O.Yung Xalqaro ekspertlar kengashining yangi raisi, Morgan elektrotexnik tresti prezidenti, moliyachi

(taxminan 8 mln. kishi). Inqirozni boshidan kechirayotgan yetakchi mamlakatlar tomonidan yordamni to'xtatilishi Germaniyaning latinini og'irlashtirdi.

Veymar respublikasi hukumatining iqtisodiy inqirozga qarshi samarali kurasha olmasligi, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni keskinlashuvi, monopoliyalarni jahon bozorlarida yo'qotgan pozitsiyalarini tiklab olishga intilishi, hukumat tomonidan Germaniyaning ichki muammolariga befarqligi mamlakatda 1933 yilda fashistlar rejimini o'rnatilishining asosiy sababi hisoblanadi.

Fashizmning iqtisodiy siyosati yorqin ifodalangan etatistik xarakterga ega. Hitler hukumat tepasiga inqirozni yakunida kelgan bo'lsa ham, yangi qabul qilingan antiinqiroz chora-tadbirlari favqulotda xarakterga ega edi, unga mamlakatni iqtisodiy o'sish holatiga olib chiqish bilan birga uni harbiy-siyosiy izga o'tkazib, yo'qotilan bozorlar va hududlarni qaytarishi, mamlakat hududini yanada kengaytirishi, va dunyoda hukmrolikni ta'minlashi zarur edi.

Ushbu strategiya mamlakatni inqirozdan chiqarish shakllari va metodlarini belgilab berdi, uning asosiy mazmuni iqtisodiyotni to'liq militarizatsiyalashdan iboratdir. Shu maqsadda german fashistlar tomonidan harbiy jihatdan muhim bo'lgan og'ir va yoqilg'i sanoati tarmoqlarini tiklash, harbiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonalar yaratishga harakat qilindi.

Shu sababdan, german fashistlar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga soluvchi qudratli apparat yaratishdi, unda moliyaviy, xom ashyo, ishlab chiqarish, oziq-ovqat, inson va boshqa resurslar mujassamlashgandir. Iqtisodiyotni majburiy kartel-lashtirish to'g'risidagi, Germaniya iqtisodiyotini organik tuzilishi to'g'risidagi, imperiyani himoyalash to'g'risidagi qonuniy hujjatlar sanoat salohiyatining 2/3 qismini davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinishiga imkon berdi. Milliy mehnatni tashkil etish to'g'risidagi qonun majburiy mehnat tizimini shakllanishiga me'yoriy asos yaratdi.

Germaniya iqtisodiyotini boshqarish yagona markazdan – Bosh xo'jalik kengashidan amalga oshirilar edi, u moliyaviy, inson, va xom ashyo resurslarini birinchi navbatda harbiy kompleksga ajratilishini ta'minladi.

Shunday qilib, fashizm diktaturasi sharoitida, keng miqyosli harbiy investitsiyalarni amalga oshirish ilojsizligi, boshqa davlatlar

tomonidan yordam berish to'xtatilganligi, mamlakatni yakkalanib qolinishi (avtarkiyasi) davlat tomonidan boshqarish metodlari yaqqol aks etgan ma'muriy shaklni oldi.

Iqtisodiyotni militarizatsiyalash siyosatini davom ettirilishi optimal xo'jalik tuzilmalarini tiklanishi, ichki va tashqi bozorlarni kengayishi, moliya tizimini sog'lomlashtirilishi masalalarini hal etmadi. German fashistlari hukumati bu muammolarni hal etishga intilmasdi ham.

Tashqi agressiyani rivojlantirilishi iqtisodiyotdagi halokatli holatni vaqtinchalik saqlab turishga imkon berar edi. Shu sababdan 1935 yildan boshlab Germaniya harbiy mojarolarga aralasha boshladi va oxir oqibatda Ikkinci jahon urushini boshlab berdi.

### **11.6. Italiya va Yaponiyaning iqtisodiy taraqqiyoti**

Italiya va Yaponiyani dunyoni yangidan qayta taqsimlash kabi agressiv intilishlar birlashtirar edi. Bu mamlakatlar, Germaniyadan farqli o'laroq, Birinchi jahon urushida g'oliblar lagerida edi.

#### ► Italiya

Birinchi jahon urushida katta talofatlar ko'rgan Italiyada katta iqtisodiy va siyosiy inqirozlar yuzaga keldi, va uning natijasida 20-yillarning boshida hukumat tepasiga fashistlar keldi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning totalitar tizimini yaratilishi korporativ shaklda amalga oshirilib, u shaklan fashistlar Germaniyasidan katta farq qilmaydi, hamda boshqaruvni markazlashtirish, militarizatsiyalash maqsadida mamlakatning barcha resurslarini konsestratsiyalashuvi vazifasini amalga oshirgan. Etabistik tizim-larning ikki shaklini o'xshashligi Germaniyada hukumat tepasiga Hitler kelganidan so'ng Mussolinining diktatorlik hukumati bilan harbiy-siyosiy alyans tuzilishiga olib keldi.

#### ► Yaponiya

Yaponiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish variantining o'ziga xosligi, hamda hukumatning mamlakatni Tinch okeani hududi va Janubiy-Sharqiy Osiyoda yetakchilik o'rnlarda emasligidan noroziligi yapon iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish variantini nemis va italyan variantlari bilan yaqinlashtirdi.

Urushlar orasidagi davrda harbiy radikal kayfiyatdag'i "yosh ofitserlar" guruhi mamlakat siyosatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu guruhning ta'siri 1927 yilda bosh vazir lavozimiga general

G.Tanakaning kelishi bilan kuchaydi. 1931 yilda Manjuriyani okupatsiya qilinishi mamlakat iqtisodiyotini militarizatsiya tomon yetakladi.

Yaponiya xo'jalik munosabatlariga ta'sir etib yuqori darajada etatizatsiyalashgan tizimni joriy etilishida Dzaybatsuni<sup>1</sup> hukmronligi muhim rol o'yndadi.<sup>2</sup>

Yaponiya va barcha militaristik mamlakatlarning tajribasi davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning ushbu variantini istiqbolsiz va noto'g'ri ekanligini namoyon etdi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. Buyuk inqiroz davridagi doktrinalarning asosiy mazmuni nimadan iborat?
2. Franklin Ruzveltning "yangi kursi"ning mazmun-mohiyati nimadan iborat?
3. Angliyada aksilinqiroz chora-tadbirlarining xususiyatlari nimada?
4. Fransiyada xalq fronti dasturining amalga oshirilishning ahamiyati nimada?
5. Fashizm iqtisodiy siyosatining mazmuni nimada?

<sup>1</sup> Dzabaysu – imperator xonadoni va markaziy boshqaruvi apparati bilan qarindoshlik rishtalari uzviy bog'langan universal monopoliya (konglomerat).

<sup>2</sup> Заславская М.Д. История экономики: Учебное пособие для бакалавров / М.Д.Заславская. – М. "Дашков и К°", 2013. –С 191.

## § 12-MAVZU. IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG DUNYONING YETAKCHI MAMLAKATLARI IQTISODIY RIVOJLANISHNING XUSUSIYATLARI

**Tayanch atamalar va iboralar:** Marshall rejasi, amerika ta'siri, "yangi marralar" dasturi, reyganomika, retsessiya, "Tetcherizm", Neoliberalizm, integratsiya

### ■ Reja:

12.1. AQSh iqtisodiy qudratining o'sib borishi.

12.2. Yetakchi mamlakatlarning rivojlanishi dinamikasi va shakllari.

12.3. Integratsiya jarayonlari.

### 12.1. AQSh iqtisodiy qudratining o'sib borishi

Ikkinci jahon urushi oqibatida bir qator mamlakatlarning, birinchi navbatda Yaponiya va G'arbiy Germaniyaning iqtisodiyoti uzoq muddatga izdan chiqqan edi. Fransiya va Buyuk Britaniyaning pozitsiyasi sezilarli bo'shashgan edi. Urush kapitalistik takror ishlab chiqarishni tartibga solishni bozor mexanizmlari shakllarini buzdi yoki to'liq ishdan chiqartirdi, ko'pchilik mamlakatlarning xo'jalik faoliyatida tushkunlik yuzaga keldi.

AQSh – Ikkinci jahon urushidan kuch-quvvatga to'lib chiqqan jahondagi yagona mamlakat edi. Undan tashqari, urush davrida mamlakatning milliy daromadi ikki barobar o'sdi. Urushdan so'ng AQShga kapitalistik dunyo sanoat mahsulotining 60%, oltin zaxirasing 2/3 va eksportning 1/3 to'g'ri kelgan edi. Belgiyalik tarixchi va iqtisodchi olim German Van der Bee quyidagi fikrni bildirgan edi: "Qo'shma shtatlar urushdan kuchayib chiqishdi"<sup>1</sup>. Shu sababdan urushdan so'ng mamlakat o'z iqtisodiyotini xalq iste'moli mahsulotlari ishlab chiqarishga tez o'tkazishga imkon topdi. 1947 yilning o'rtalariga kelib bu o'tish to'liq yakunlandi. Uning asosini quyidagi omillar tashkil qildi:

- davlat boshqaruvining yaxshi tashkil etilganligi;
- frontdan qaytgan askarlar uchun rekonversiya dasturlarining mavjudligi;

<sup>1</sup> <http://www.historicus.ru/789>

- xususiy iste'molni jadal o'sishi;
- zaxira va uskunalarga investitsiyalarni jadal o'sishi;
- xukumat siyosati ta'sirida tovar va xizmatlar eksportini rivojlanishi.

AQSh Yalpi ichki mahsuloti (YaIM) indeksi o'sdi.

Texnologik ustunlik va eng yuqori mehnat unumдорлиги, mo'l foydalar mamlakat ichida va uni tashqarisida yangi kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish imkonini berdi.

AQShning urushdan keyingi davrdagi tashqi iqtisodiy siyosatida G'arbiy Yevropa alohida o'rın egallaydi. Urushdan keyingi davrda AQSh ushbu hudud bilan aloqalarida yetakchilik qilishdan nisbatan tenglik munosabatlari gacha bo'lgan bosqichlarni bosib o'tdi.

#### ◀ Marshall rejası "Yangi marralar"<sup>1</sup>

Bu bosqichda AQSh o'zining G'arbiy Yevropadagi ittifoqdoshlarini ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlashtirish bo'yicha say'i-harakatlarini amalga oshirdi. 1947 yilning 5 iyunida ikkinchi Jahon urushidan so'ng "Yevropani tiklanish dasturi" sifatida Marshall rejası taqdim etildi. Uning nomi rejani ishlab chiqqan AQSh davlat kotibi Dj. Marshallga atab qo'yilgan edi. Reja bo'yicha ma'lum bir shartlar bo'yicha zayom va kreditlar ajratilishi nazarda tutilgan edi. Marshall rejasida 16 ta yevropa mamlakatlari ishtiroy etishga rozilik bildirdilar. 1948 yil apreldan 1952 yil fevralgacha G'arbiy Yevropa mamlakatlari (Angliya, Fransiya, Gollandiya, Ispaniya, G'arbiy Germaniya) Marshall rejası doirasida 17 mlrd.dollar olishdi. Shu bilan bir vaqtida amerika biznesi o'z manfaatini ko'zlagan holda G'arbiy Yevropa korxonalarini sotib olardi.

G'arbiy Yevropa kapitalizmi holatini mustahkamlash, mintaqada Amerika ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan rejani amalga oshirish maqsadida maxsus Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (YIHT-OEES)<sup>2</sup> tashkil etilib, u mablag'larni taqsimlash va ulardan foydalanish sharoitlarini nazorat qilish bilan shug'ullandi.

Koreyadagi urush (1950-1953 yy.) Amerika iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi: harbiy ehtiyojlar uchun ishlovchi sanoat hajmi kengaydi, aholi bandligi oshdi. AQSh sanoatiga 30 mlrd.doll. in-

<sup>1</sup> Заславская М.Д. История экономики: Учебное пособие для бакалавров / М.Д.Заславская. – М.: "Дашков и К°", 2013. –С.235.

<sup>2</sup> 1961 yildan IHTT (OECSR) – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti.

vestitsiya qilindi, ya'ni butun Ikkinchiji jahon urushi davridagidan ko'p.

Ijobiy iqtisodiy kon'yunkturaga qaramasdan, AQShga 54 ming halok bo'lganlar va 103 mingta yarador bo'lganlarni vujudga keltirgan Koreya urushi, mamlakatda shuhrat qozonmadidi. Bu 1952 yildagi saylovda demokratlarni mag'lub bo'lishiga olib keldi.

Hukumat iqtisodiyotda *monetaristik siyosatga* asoslanar edi. Tartibga solishning moliyaviy markazlari yordamida 1953-1954 yy.dagi iqtisodiy tushkunlik va 1957-1958 yy.dagi uchinchi urushdan keyingi retsessiya yengib o'tildi.

Urushdan keyingi birinchi o'n yillikda jahon kapitalistik xo'jaligida AQShning yetakchilik holati shubhasiz edi. Lekin G'arbiy Yevropaning iqtisodiy ko'tarilishi va Yaponiyaning sanoat sakrashi ushbu holatni sezilarli darajada o'zgartirdi.

50-yy.larning ikkinchi yarmida AQSh iqtisodiyotiga ilmiy-teknika inqilobi (ITI) katta ta'sir ko'rsatdi. ITIning tarkibiga ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, EHMDan foydalanish, ishlab chiqarishni intensifikatsiyalashtirish va konsentratsiyalashtirish kiradi. Buning natijasida, bir tomonidan, ishlab chiqarish jadal rivojlandi va turmush sifati oshdi, ikkinchi tomonidan, ishsizlik ko'paydi, iqtisodiy o'sish sur'atlari pasaydi.

Davlat oldida turgan yangi vazifalar 60-yy. boshidagi Dj.Kennedining "Yangi marralar" dasturida o'z aksini topdi. Dastur bir guruh neoliberal iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan edi. Ular yuqori darajada bandlik va barqaror narxlar zarurati sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida tovar va xizmatlar taklifi va jami talab o'rtaida muvozanatni saqlashga qaratilgan bosqichma-bosqich rivojlanishni nazarda tutishgan edi. Dastur asosida *defitsitni moliyalashtirishni keysian g'oyasi* yotardi. 1962-1963 yy.da ijtimoiy dasturlar sohasida chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yirik biznes vakillariga imtiyozlar berildi.

Umuman olganda "Yangi marralar" siyosati ijobiy natijalar berdi. 1964 yilda sanoat ishlab chiqarishi indeksi 1961 yildagi ko'rsatkichdan 20%ga oshdi. Jahon kapitalistik eksportida AQShning ulushi sezilarli darajada qisqardi: 1960 yilda - 18%, 1980 yilda - 12%. 1950 yilda AQShdan mehnat unumdorligi darjasasi bo'yicha 2-5 marotaba orqada bo'lgan yetakchi kapitalistik mamlakatlar, 80-yy.lar boshlariga kelib ushbu farqni butunlay bartaraf etishdi.

Jahon kapitilistik xo'jaligida AQShning yetakchilik roli havfi ishlab chiqarishni tarmoq tarkibini o'zgartirishga, fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarga yo'naltirilgan sanoatni qayta qurishga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari (ITTKI)ga xarajatlarni oshirishga, ilmiy-texnika progressini rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksini qabul qilishga majbur qildi.

**I-JADVAL. URUSHDAN KEYINGI DAVRDA MEHNAT UNUMDORLIGI DINAMIKASI<sup>1</sup>.**

| Yillar    | Mehnat unumdorligi o'sishi sur'atlari, % | Aholi jon boshiga real YaMMni o'sish sur'atlari, % |
|-----------|------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| 1948-1966 | 3,2                                      | 2,2                                                |
| 1966-1973 | 2,0                                      | 2,0                                                |
| 1973-1981 | 0,7                                      | 1,1                                                |
| 1981-1987 | 1,5                                      | 1,8                                                |

Jadval ma'lumotlarini ko'rsatishicha, Ikkinci jahon urushidan keyingi 20 yil davomida (1948-1966 yy.) mehnat unumdorligi yuqori sur'atlarda o'sdi – yiliga o'rtacha 3,2%. Ammo 1966-1973 yy.da ushbu sur'atlar keskin pasayib ketdi. Undan keyin mehnat unumdorligi dinamikasida eng noqulay davr boshlandi (1973-1981 yy.), undan so'ng esa, 80-yy.da mehnat unumdorligini o'sish sur'atlarida jonlanish yuz berdi.

► "Reyganomikaga o'tish"

1981 yil yanvarda R.Reygan AQSh prezidenti etib saylandi. Utomonidan o'tkazilgan iqtisodiy siyosat, "reyganomika" nomini oldi, neokonservativ siyosatning shakli bo'lib, 80-90 yy. davomida barcha rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda qo'llanildi. Uning tarkibiga quyidagilar kirardi: ijtimoiy dasturlar va soliqlarni qisqartirish, qat'iy pul-kredit siyosati yordamida inflyasiya bilan kurashish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishdan voz kechish.

Federal hukumatning faoliyat sohasi, ayniqsa ijtimoiy sohada, qisqartirilgan bo'lib 46 ta ijtimoiy dasturlardan 44 tasi shtatlar ixitiyoriga o'tkazildi.

1986 yilda daromad solig'i to'g'risida qonun qabul qilingan bo'lib, unda fuqarolardan undiraladigan daromad solig'i 50%dan

<sup>1</sup> Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы, и политика. В 2 т. Т. 1. -М., 1992. - С.38.

28%gacha pasaytirildi, korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliqlar 46%dan 34%gacha pasaytirildi. Ushbu qonunni qabul qilinishi investitsion faollikni rag'batlantirdi. Mamlakatda, ITRning yangi bosqichi bilan bog'liq ravishda, iqtisodiyotni chuqur tarkibiy o'zgarishi amalga oshirildi, shaxsiy iste'mol real hajmini o'sishi va boshqa mamlakatlarga davlat qarzini o'sishi kuzatildi.

XX asrning 80-yillarida jahon xo'jaligida AQShning pozitsiyasi yanada mustahkamlandi: 1986 yilda rivojlangan mamlakatlar sanoat ishlab chiqarishining 34%i (1970 yilda 32%) va tashqi savdo aylanmasining 20%i (1970 yilda - 18%) AQSh hissasiga to'g'ri kelardi.

80-yillarning oxirida AQSh iqtisodiyoti o'sish sur'atlari keskin ravishda pasaydi. Mehnat unum dorligi o'sish sur'atlarini pasayshi va bu ko'rsatkich bo'yicha Yaponiya va G'arbiy Yevropadan orqada qolishi sabablari bo'yicha ekspertlarning yagona fikri yo'qdir. AQSh aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM bo'yicha ham Yaponiya va deyarli barcha G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan orqada qolardi.<sup>1</sup>

**2-JADVAL. AQSHNING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARI**

| Ko'rsatkichlar | 1979 | 1980 | 1985 | 1989 |
|----------------|------|------|------|------|
| YaIM           | 2,0  | -0,1 | 3,8  | 3,0  |
| Inflyasiya     | 11,3 | 13,5 | 3,5  | 4,8  |
| Ishsizlik      | 5,8  | 7,0  | 7,2  | 5,3  |

90-yillarning boshlarida asosiy iqtisodiy muammo bo'lib davlat budgeti defitsiti namoyon bo'ldi - 290 mlrd. doll., davlat qarzi taxminan 4 mlrd.doll.ni tashkil etdi.

B.Klinton ma'muriyatining iqtisodiy strategiyasi. 1992 yilning noyabrida AQShning yangi prezidenti B.Klinton hukumat tepasiga kelib yuzaga kelgan holatdan chiqish yo'lini iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni budget-moliya dasturini amalga oshirishda ko'rди.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish rejasiga uchta dastur kirdi:

1) ish o'rirlari sonini ko'paytirish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish dasturi, unga 30 mlrd.doll. ajratilgan edi;

<sup>1</sup> Герман Ван дер Веэ. История мировой экономики. — М.: Наука. — 1994. — С. 344.

2) investitsion dastur, xususiy investorlarga imtiyozli moliyalashtirish va maqsadli kapital qo'yilmalarni nazarda tutardi. Ushbu dasturga 140 mlrd.doll. ajratilgan edi;

3) budjet defitsitini qisqartirish dasturi. Ushbu dasturni amalga oshirish uchun Clinton ma'muriyati bir vaqtning o'zida hukumat xarajatlarini qisqartirish va soliqlarni oshirishni nazarda tutgan edi. Hukumat dasturi 1993 yil budjeti bo'yicha 150 ta aniq takliflarni nazarda tutgan edi.

Ishlab chiqarish sohasiga kapital jalb etish maqsadida soliq islohotlari bilan birlashtirishda zarurat yuzaga kelganda bank kreditlari stavkalari keskin oshirilar edi. Bu kapitalni xalqaro miqyosda harakatiga ta'sir ko'rsatdi, ko'pgina mamlakatlardan Amerika iqtisodiyotiga kapitalni intensiv oqimini rag'batlantirdi, bu esa AQShga o'z iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonini "birovning hisobiga" moliyalashtirish imkonini berdi. Iqtisodiyot nazariyasida monetarizm yo'naliшining asoschisi, Amerika iqtisodchisi M.Fridmen dollarning yuqori kursi kapitalni oqib kirishiga va AQSh iqtisodiyotini modernizatsiyalashga imkon berdi. Natijada neokonservativ strategiya AQShga iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni va texnologik qayta qurollantirishni asosan xorijiy kapital qo'yilmalar va mahsulot raqobatbardoshligini keskin pasaytirish evaziga amalga oshirish imkonini berdi. Shundan so'ng kredit siyosatining keyingi fazasi boshlandi – foiz stavkalarini pasaytirishi. Natijada mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyasini va iqtisodiy o'sishni barqaror sur'atlarini ta'minladi.

## **12.2. Yetakchi mamlakatlarning rivojlanishi dinamikasi va shakllari**

XX asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishi barqaror edi. 1948 yildan 1973 yilga qadar ushbu hududning umumiy YaIM hech ham qisqarmadi. Shu davr iqtisodchilari avvaldan beri foydalaniб kelinayotgan iqtisodiy terminlar o'rniغا yangilarini joriy eta boshlashdi: "inqiroz" o'rniغا – "retsessiya", "ish sikli" o'rniغا – "iqtisodiy o'sish sikli", "inqiroz siyosati" o'rniغا – "nuqtali tartibga solish".<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Хашимов П.З., Тураев Х.Н. Экономическая история. Т.: «Университет», 2003.- С.185.

G'arb mamlakatlari iqtisodiyotini urushdan keyingi rivojlanishi ularni 50-60-yillarda jadal o'sishi bilan xarakterlanadi. Germaniya va Italiyaning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 4 marotaba o'sdi, Fransiya 2 marotabidan ortiq, Buyuk Britaniya deyarli ikki marotaba. G'arb mamlakatlarini jadal rivojlanishiga faqatgina Marshall rejasi sabab bo'lmasdan, balki ichki bozorni kengayib boriishi, xalqaro savdoni o'sishi, Fors ko'rfazi mamlakatlaridan arzon neft qazib olinishi, urush davridagi ilmiy va texnik ishlanmalarni amaliyotga joriy etish asosida sanoatni sifat jiqatdan qayta qurish, g'arb mamlakatlari hukumatlarini iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosati ham o'z hissasini qo'shgandir.

#### ► Retsessiyalar

Yevropada biznes faollikni birinchi bor tushkunlikka tushishi 1948-1949 yy.da kuzatildi, lekin u havfli emasdi. 1951-1952 yy.da kuchli pasayish bo'lib o'tib, u butun Yevropa mamlakatlarini qamrab oldi. Ushbu retsessiya Koreya urushining (1950-1953 yy.) nati-jasi bo'lib, jahon urushiga aylanishi havfi mayjud edi.

1957-1958 yy.dagi retsessiya faqatgina Yevropa mamlakatlarini emas, balki AQSh va Yaponiyani ham qamrab oldi. Retsessiyadan chiqishga hukumatlar tomonidan soliqlarni qisqartirish, kredit-lashtirish shartlarini yumshatish va boshqa qabul qilingan choratadbirlari sababchi bo'ldi. Iqtisodiy taraqqiyotga yangi, 1958 yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH)ni tashkil etilishi ijobili ta'sir ko'rsatdi.

1966-1967 yy.dagi retsessiya va undan keyin yuz bergan iqtisodiy jonlanish qisqa muddatli bo'lib, 1971 yilga kelib pul inqirozi va 1973 yilda neft embargosi ta'siriga duch keldi, va u Yevropada iqtisodiy o'sish sikllariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1974-1975 yy.dagi tushkunlik davrida barcha industrial jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishining jismoniy hajmi 5%ga qisqardi, xalqaro tovar aylanishi esa 4%ga qisqardi.

Iqtisodiy o'sish to'xtadi. G'arb mamlakatlarini xom ashyo va, asosan, neft bilan ta'minlanishida uzilishlar yuz bera boshladi. Neft narxning o'sishi barcha tovar va xizmatlarning qimmatlashishiga olib keldi. Narxlarni o'sishi, inflyasiya asosiy iqtisodiy muammoga aylandi. XX asrning 80-yillardagi murakkab iqtisodiy holat nati-jasi g'arbning ko'pchilik mamlakatlarida neokonservatorlarni hukumatga kelishiga olib keldi.

► Buyuk Britaniya iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlari.

XX asrning 50-yillarda Buyuk Britaniyada rivojlanish sur'atlari boshqa yevropa mamlakatlariniga nisbatan pastroq edi. 70-yillar boshlariga kelib Britaniya imperiyasi tarkibida jahon okeanidagi bir necha o'rollar qolgandi xolos, uning o'zi esa Britaniya hamkorligiga (avvallari tarkibiga kirgan va sobiq metropoliya bilan bog'liqlikni tan oluvchi mamlakatlarning hukumatlararo tashkiloti) aylantirildi. Imperiyani yo'q qilinishi uni yevropa integratsiyasida ishtirok etish masalasini ko'tardi.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotni barqarorlashtirishga yo'naltirilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. 1947 yildan boshlab tejamkorlik holati e'lon qilinib, unga binoan ish haqi, daromadlar muzlatildi, fuqarolarni iste'moli chegaralandi. Mamlakat uchun 1945 yil 6 dekabrda ingliz-amerika zayomi to'g'risidagi kelishuv (Amerika hukumati funt sterling konvertatsiyalangan taqdirda Buyuk Britaniyani uzoq muddatli zayomlar bilan ta'minlaydi, bu esa, o'z navbatida, funt egalarini dollarga yo'naltirardi) katta muammolar tug'dirdi.

Sanoatga kapital qo'yilmalar mehnat unumdorligini o'sishiga olib keldi, 1948 yoldayoq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish urushdan oldingi darajaga yetdi. 1947 yilda qabul qilingan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning to'rt yillik dasaturi mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirdi. XX asrning 50-yillar boshlariga kelib mamlakatning iqtisodiy salohiyati tiklangan edi.

50-yillarda mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti jadallahdi. Bunga quyidagi omillar sababchi bo'ldi: ilmiy-texnika inqilobini ta'siri, boshqaruv metodlarini takomillashtirish, ishlab chiqarishga davlatning yirik kapital qo'yilmalari, sanoatdagagi tarkibiy o'zgarishlar.

Angliya boshchiligidida 1960 yilda tashkil etilgan *Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi* (YESA), YIHga kirmagan mamlakatlarni (Avstriya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, Shveysariya, Shvetsiya) birlashtirgan bo'lib ingliz tovarlari uchun qulay muhit yaratma olmadi. Shu sababdan 1961 yildan Angliya *Umumiyo bozorga* qo'shilish bo'yicha muzokaralarni olib borishni boshladi, va muzokaralar faqatgina 1973 yilga kelib muvaffaqiyat bilan tugadi.

XX asr 60-70-yy.ning ikkinchi yarmida mamlakat iqtisodiyoti murakkab holatda edi. Bunga 1973 yildagi jahon energetik in-

qirozi, 1975 yildagi siklik inqiroz, va leyboristlar hukumatining ijtimoiy dasturlarga katta xarajatlari sababchi bo'ldi.

◀ "Tetcherizm"<sup>1</sup>

1979 yilda Angliyada M.Tetcher boshchiligidagi hukumat rahbarlik qila boshladi. "Tetcherizm" tushunchasi, huddi "reygano-mika" kabi, jahon iqtisodiy adabiyotiga kirib, iqtisodiy siyosatning yangi konseptual ko'rinishlarini (neoliberalizm<sup>2</sup> yoki "yangi konservativizm" doirasida, neokeynsian tartibga solish konsepsiyalardan voz kechganlikni) aks ettira boshladi.

*Neokeyschilar* – Keynsning izdoshlari, ular Keynsning samarali talab nazariyasini to'ldirishgan va aniqlashtirishgan edi. Ular tomonidan turli kon'yunktura holatlarida (pasayishda va o'sishda) iqtisodiyotni davlat budjeti orqali tartibga solish nazariyasi yaratilgan edi.

Siyosat borasida Reygan va Tetcher chin konservator edilar. Amalga oshirilgan raqobatni qo'llab-quvvatlash siyosati, Amerika va Britaniya iqtisodiyotiga jo'shqinlik bag'ishladi. Reygan soliqlarni qisqartirish bo'yicha keng miqyosli dasturni amalga oshirishini va pul muomilasi sohasida monetaristik siyosat o'tkazishini e'lon qildi. Buyuk Britaniya va GFR AQShdan o'rak olishdi. Monetaristik siyosat oqibatlari IHTT (OESR) mamlakatlarida uzoq muddatli stagnatsiyani, ishsizlikni o'sishini yuzaga keltirdi. Ammo importni kamayishi va neft eksport qiluvchi mamlakatlarga sanoat mahsulotlari sotilishini ko'payishi natijasida IHTT savdo balansi yaxshilandi. Soliqlarni pasaytirilishi kapital qo'yilmalarni o'sishtiga, iqtisodiy faoliytni oshishiga olib keldi.

Tetcher davrida Buyuk Britaniya iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish apparatini modernizatsiyalash amalga oshirildi. Yalpi ichki mahsulotni o'sishi G'arbiy Yevropadagi eng yuqori ko'rsatkichga erishdi, mehnat unumdarligi oshdi. 80-yillar boshlardan iqtisodiy o'sish boshlandi.

<sup>1</sup> История мировой экономики: Учебник для вузов / Под ред. Г.Б. Поляка, А.Н. Марковой. — 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.- С.467.

<sup>2</sup> Neoliberalizm – iqtisodiyot fani va xo'jalik faoliyatini boshqarish amaliyotidagi yo'nalish bo'lib, uning namoyondalari o'zini-o'zi tartibga solish, ortiqcha bo'yundurishdan ozod bo'lish tamoyilini yoglaydilar. Neoliberalizmga asosan uch maktab kiritiladi: chikago (Milton Fridmen), london (Fridrix fon Xayek), frayburg (Valter Oyken, Lyudvig Erxard).

## ► Fransiya iqtisodiyotining taraqqiyoti.

Urush va to'rt yil davomidagi okkupatsiya mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar yetkazdi. 1944 yilda Sharl de Goll boshchiligidagi muvaqqat hukumat tashkil etildi va u 1946 yilga qadar faoliyat ko'rsatdi. Hukumat tarkibiga aholining turli qatlamlari manfaatlarini aks ettiruvchi turli partiyalar vakillari kirdi.

Hukumatda moliya-iqtisod sohasidagi masalalar bo'yicha fikrlar birdamligi yo'q edi. Milliy iqtisodiyot vaziri P.M.Frans tomonidan taklif etilgan pul islohoti, inflyasiyani oldini olish maqsadida ish haqi va narxlarni muzlatilishini, bank hisob raqamlarini yopish, banknotalarni majburiy tarzda almashtirishni nazarda tutgan edi, lekin bu islohot de Goll tomonidan rad etildi. U moliya vaziri R.Pleven tomonidan ishlab chiqilgan islohot loyihasini qo'llab-quvvatadi. Ushbu islohot asosida katta hajmda ichki zayomlar chiqarish nazarda tutilgan edi. Kommunistlar va hukumatdagi ba'zi "so'llar" muhim vazifa tariqasida xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechish qayd etishardi.

1945-1947 yy. davomida mamlakatda fransuz sanoatining 1/5 qismi davlat mulkiga o'tkazildi. Boshqa rivojlangan mamlakatlar kabi xususiy mulkni davlat mulkiga o'tkazish sanoatning boshqa asosiy tarmoqlariga ta'sir ko'rsatmadı. Davlat mulkiga o'tkazish jarayonining cheklangan xarakterga egaligiga qaramasdan, u ma'lum bir darajada monopoliyalarning hukmronligini cheklash imkonini berdi, ikkinchi tomondan esa milliy iqtisodiyotga kapital qo'yilmalar oqimini o'sishiga olib keldi. 40-yy. oxiriga kelib mamlakat iqtisodiyoti tiklandi.

1947 yil kuzida yangi moliya vaziri R.Mayer qat'iy cheklangan narxlari tizimini bekor qilib, turli valyuta kurslarini joriy etadigan rejani olg'a surdi. Uning siyosati muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

1947-1955 yy.da o'zaro yordam borasida keng shartnoma va kelishuvlar tizimi yaratildi.

1948 yilda Parijda AQSh bilan iqtisodiy hamkorlik borasida kelishuv (Marshall rejası) imzolandi. 1958 yilga kelib Fransiyaga AQSh tomonidan ko'rsatilgan umumi yordam 12 mlrd.doll.ni tashkil etdi. Bu summaning asosiy qismi mamlakat sanoat salohiyatini rivojlantirishga mo'ljalangan edi.

Urushdan keyingi davrda Fransiyada ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, iste'mol buyumlari ishlab chiqarishdan us-

tunlik qilardi. Sanoat tarkibidagi o'zgarishlar avtomobilsozlikni jadal rivojlanishidan boshlandi. XX asrning 50-yillar oxiriga kelib mamlakatda sanoatning uch sektori shakllandi: an'anaviy tarmoqlar (tekstil, metallurgiya, mashinasozlik, zeb-ziynat buyumlarini ishlab chiqarish), yangi tarmoqlar (avtomobilsozlik, aviasanoat, neftni qayta ishlash) va o'ta yangi (atom energetikasi, elektronika, plastmassa buyumlar ishlab chiqarish).

XX asrning 50-60-yy.dagi iqtisodiy strategiyani o'zgarishi sanoatni yangi texnika bilan qayta jihozlanishida, sanoat va savdoga kapital qo'yilmalarni oshib borishida, iqtisodiyotni militarizatsiyalashuvida, hamda xo'jalik taraqqiyotini dasturlashtirishda namoyon bo'ldi. Militarizatsiya – ittifoqdoshlar oldidagi majburiyatlar bilan bog'liq: NATO (1949 y.), SEATO (1954 y.), G'arbiy Yevropa Ittifoqi (1955 y.), Vietnamdagi (1946-1954 yy.) va Jazoirdagi (1954-1962 yy.) harbiy harakatlar. Xo'jalik taraqqiyotini dasturlashtirish deganda – Birinchi reja (1947-1953 yy.), Ikkinchi reja (1954-1957 yy.), Uchinchi reja (1958-1961 yy.) tushuniladi. Rejalar majburiy emas edi, ular tavsiya xarakteriga ega edi.

Fransiyani G'arbiy Yevropa integratsiyasida va Ilmiy-tehnika inqilobi (ITI)da faol ishtiroki sanoat va qishloq xo'jaligini iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'n yil ichida (1958-1968 yy.) sanoat ishlab chiqarish hajmi 60%ga (har yili 5.5% o'sgan holda), qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish 66%ga o'sdi.

1969 yildan boshlab yangi prezident J.Pompidu saylangandan so'ng mamlakatning moliyaviy siyosatida o'zgarishlar yuz berdi: frank devalvatsiyasi, tashqi bozorlarda fransuz tovarlarining raqabatbardoshligini oshirish maqsadida narxlarni chegaralash.

Ettinchi reja (1976-1980 yy.) sanoatni qayta tashkil etishni nazarda tutgan edi. Bunda mamlakat xo'jaligi tarkibini xalqaro iqtisodiy integratsiya sharoitlariga moslashtirish, yadro energetikasi, informatika, aviasozlik bo'yicha davlatning tarmoq dasturlarini ishlab chiqish, hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensiv metodlarini joriy etish nazarda tutilgan edi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sish sur'atlarini ikki barobar qisqartirgan 70-yillardagi inqirozga, "neft falaji" ga qaramasdan Fransiyaning jahondagi iqtisodiy holati barqaror bo'lib qolaverdi, mamlakat yirik besh rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallardi.

80-yy. boshlarida Fransiya iqtisodiyotiga amerikaning dollar kursini sun'iy ravishda oshirish borasidagi valyuta-moliya siyosati

jiddiy zarar yetkazdi. Dollar kursini oshishi mamlakatning to'lov balansini keskin yomonlashuviga olib keldi, chunki fransuz importining 1/3 qismi amerika valyutasida to'lanar edi. Fransuz eksportini rag'batlantirish maqsadida hukumat frankni devalvatsiya qilishga, ishlab chiqarish va moliya tarkibini qayta qurishga majbur bo'ldi.

1982 yilda yirik sanoat guruhlari, tijorat va tadbirkorlik banklarini davlat mulkiga o'tkazish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Moliyalashtirish va kredit sohasida davlat sektorining ulushi 95%ni tashkil etdi. Bu choralar iqtisodiyotni barqarorlashuviga olib keldi, 1984 yilda iqtisodiy o'sish 1,75%, 1985 yilda – 2%ni tashkil etdi.

1986 yilda davlat tepasiga yangi hukumatni kelishi natijasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, soliqqa tortishni qisqartirish, xo'jalik faoliyatining turli sohalarini tartibga solishni bekor qilish borasida islohotlar amalga oshirildi. 1987 yildan boshlab korxonalar o'z mahsulotlariga mustaqil narx belgilash huquqiga ega bo'ldilar, narxlar faqatgina dori vositalariga, kitoblarga, elektr energiyasi, gaz va temiryo'l transporti tariflariga chegaralangan edi.

Bu chora-tadbirlar Fransiya iqtisodiyotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Fransyaning iqtisodiy taraqqiyotiga uning Yevropa Ittifoqi(YI) dagi ishtiroki juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. YI doirasida Fransiya kamlitraj (tejamkor) avtomobillar, ayollar liboslari, poyabzal, ichki kiyim eksportiga ixtisoslashgan. Iqtisodiy tarkibni tenglashtirilishi Fransiyani YIning teng huquqli hamkoriga aylantirdi.

#### ◀ G'arbiy Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti xususiyatlari.

Ikkinci jahon urushidan so'ng Germaniya ikki mustaqil davlatlarga – GFR va GDR ga bo'lingan edi.

Germaniya iqtisodiyotining og'ir holatiga urush vayrona-garchiliklaridan tashqari 1945 yil 2 avgustda urushda g'olib mamlakatlari rahbarlarining Potsdam konferensiyasida qabul qilingan sanoat korxonalari uskunalarini demontaj qilinishi ham katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu qaror ko'rsatilgan zararni kompensatsiyalash va mamlakatni ikkiga ajratilishi munosabati bilan qabul qilingan edi. 1948 yilda L.Erxardning<sup>1</sup> bevosita ishtirokida pul va iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi.

<sup>1</sup> Lyudvig Erxard – iqtisodchi, davlat arbobi (avval iqtisodiyot vaziri, so'ng GFR kansleri), G'arbiy Germaniyaning iqtisodiy tiklari siyosatining arxitektori.

Puxta tayyorlangan iqtisodiy islohot bir vaqtning o'zida pul islohoti, narxlar islohoti, markaziy boshqaruvni qayta qurish bilan birgalikda amalga oshirildi. Avvalgi tizim asta-sekin emas birdaniga buzib tashlandi. Narxlarning o'sishi taxminan yarim yildan so'ng to'xtadi. Islohotlarning muvaffaqiyati o'z vaqtida korrektirovkalar kiritish bilan ham belgilandi (masalan, milliy valyuta almashuv kursini qayta ko'rib chiqilishi) va kuchli va nufuzli hukumatning mavjudligi bilan ham ta'minlandi. L.Erxard neoliberal bo'lib maqsadga erishish yo'lida davlat vositalaridan unumli foydalangandir. Pul islohotlaridan so'ng resurslarni ma'muriy taqsimlanishi va ularni nazorati bekor qilindi.

1948 yilda ishlab chiqarish hajmi 1936 yilga nisbatan 57%ni tashkil etgan bo'lsa, 1949 yil o'rtalariga kelib – 85%, 1950 yil o'rtalarida – 107%, 1951 yil iyulida 127%ni tashkil etdi.

1951 yilda Erxard o'z ma'ruzalarining birida Germaniyada Yevropa mamlakatlari ichida ish haqi indeksi eng katta ko'rsatkichni tashkil etishini ta'kidlab o'tdi: GFR-123%, Buyuk Britaniya -109%, Italiya – 113%, Belgiya – 109%, Gollandiya – 111%, Shvetsiya – 101%.

Erxard islohotlari tez orada ijobjiy natijalarini berdi. 1949 yil oxiriga kelib sanoat 1936 yil holatiga tenglashdi, 1950 yil oxiriga kelib esa 1936 yil ko'rsatkichini 14,4%ga oshib o'tdi.

XX asrning 60-yillaridan boshlaridan boshlab iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlasha boshladi, natijada xalqaro sanoat ishlab chiqarishida GFRning ulushi kamayib bordi. Kapitalistik ishlab chiqarishning ichki qarama-qarshiliklari to'planib borib 1966-1967 yy.dagi siklik inqirozda o'z salbiy jihatlarini namoyon qildi. GFR tarixida eng chuqur 1974-1975 yy.dagi ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi iqtisodiyotni barcha tarmoqlarini qamrab olib yalpi milliy mahsulotni 5%ga, sanoat ishlab chiqarishini – 12,3%ga, asosiy kapitalga ichki xususiy investitsiyalarni – 18,6%ga qisqarishiga olib keldi. Bankrotlik sonlari keskin oshdi, inflyasiya ko'rsatkichlari ko'tarildi. Ishlab chiqarishdagi siklik inqiroz xalqaro xarakterdagi energetik inqiroz va sanoat tarmoqlaridagi tarkibiy inqiroz bilan birgalikda yuz berdi. 1980-1982 yy.da GFR iqtisodiyotida uchinchi ortiqcha ishlab chiqarish siklik inqirozi yuz berdi.

Inqiroz 1982 yil kuzida GFR hukumati tepasiga konservatorlar kelishiga sababchi bo'ldi. 1982 yilda xristian demokrat Gelmut Kol GFR kansleri bo'ldi, u iqtisodiyotni tartibga solishda keyn-

sian metodlaridan voz kechdi. G'arbiy Germaniya neokonservativizmining xususiyatlari yirik kapitalni foyda olishini ta'minlashga yo'naltirilgan konservativ siyosatning "yumshatilgan" varianti qo'llanilganligidadir. 1983 yildan GFRda iqtisodiy o'sish boshlandi.

1990 yilning 3 oktyabrida Germaniyaning birlashuvi yuz berdi. Mamlakat hududi 1/3 qismga oshdi, aholisi 64 mln.dan 80 mln. gacha oshdi. Beshta yangi yerlarda bozor islohotlari boshlanib, katta kapital qo'yilmalarni talab etdi, natijada, budget defitsiti yuzaga keldi, davlat qarzi va ishsizlik oshishiga olib keldi.

Mamlakat birlashgandan so'ng salbiy holatlar yuzaga kelgan bo'lsa ham GFR YIning yetakchi mamlakatlaridan biri bo'lib qolaverdi. GFR iqtisodiy rivojlanishining asosiy sabablari:

- 1) iste'mol talabining yuqori darajasi;
- 2) bandlik va ish haqini oshishi;
- 3) nemis ichki bozorini yangi besh federal yerlar hisobiga ken-gaytirish;
- 4) ilmiy-texnika progressini jadal o'sishi;
- 5) eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni ustuvor rivojlantirish.

#### ◀ Yapon rivojlanish modeli tahlili.

Yapciyaning urushdan keyingi rivojlanishi shunisi bilan qiziqarlikki, urushdan vayron bo'lган mamlakatda qisqa muddatda iqtisodiy jihatdan qudratli mamlakatga aylanishni strategik rejasi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Yaponiyaning urushdan keyingi birinchi bosh vaziri Iosida Sigeru va undan keyingi barcha liberal-demokratik partiyalari o'z doktrinalarda asosiy urg'uni harbiy bo'lman omillarga qaratib shu orqali Yaponiyani jahon hamjamiatini yetakchi rolida mustahkamlanishiga e'tibor qaratdilar (ya'ni, harbiy yo'l bilan erisholmagan yutuqlarga).

Yapciyada iqtisodiyotni barqarorlashtirish dasturi Dodjrahbarligida ishlab chiqildi, u ittifoqdosh kuchlar Oliy qo'mondonligining moliyav'y maslahatchisi edi. Ushbu dasturning asosini quyidagilar tashkil etardi: budget muvozanatini o'rnatish, soliqlarni oshirish, ish haqi va bank krediti berishni cheklash, hamda yenani devalvatsiyalash. 1948 yildan boshlab amalga oshirilayotgan ushbu dastur Yaponiya iqtisodiy tiklanishida muhim rol o'ynadi. U "Dodjtizimi" nomini oldi.

Rivojlanishning yapon modeli o'zida faqatgina iqtisodiy emas, balki siyosiy, etnomadaniy va sotsiopsixologik omillarni o'zida mujassamlashtirgan edi. Yapon modelining iqtisodiy jihatlarini quyidagi uch xususiyat bo'yicha ta'riflash mumkin: son – iqtisodiy-statistik xarakteristikalar; sifat – iqtisodiy modelni samaradorligini baholash; prognozli – uni istiqbolda rivojlanishini baholash. 1950 yildan 1990 yilgacha mamlakat jadal sur'atlari bilan rivojlandi: aholi jon boshiga real daromadlar (1990 yil narxlari) 1230 doll.dan 23970 doll.gacha oshdi, ya'ni o'sish sur'atlari yiliga 7,7%ni tashkil etdi. Shu davrning o'zida AQSh daromadlarni o'sishida yiliga bor yo'g'i 1,9% o'sishga erishdi xolos. Yaponiya aholi jon boshiga YaMM bo'yicha 1991 yilda AQShdan o'zib ketdi va jahonda Shveysariyadan so'ng ikkinchi o'rinni egalladi.

Jahon xo'jaligi tizimida Yaponiyaning pozitsiyalari kuchaydi. Unga jahon YaMMSining 10% to'g'ri kelardi. Yaponiyaning xorijdagi aktivlarining umumiyligi summasi 1988 yilda 1 trln.doll.ni tashkil etdi va Amerikaning darajasiga etdi.

Yaponiya iqtisodiyotining sifat jihatdan o'sishi quyidagi omillar hisobiga ta'minlandi: sanoatda fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish, resurs va energiya tejovchi texnologiyalar qo'llash hisobiga ishlab chiqarish bazasini yangilash, elektronikani rivojlantirish va uni barcha ishlab chiqarish va noishlab chiqarish jarayonlariga (iqtisodiyotni elektronlashtirish va kompyuterlashtirish) joriy etish, kommunikatsion tizimlarda inqilobiyligi o'zgarishlar va axborot jamiyatini modeliga o'tish orqali yirik tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiy o'sishni intensiv modelini shakllantirish.

Ushbu vazifalarning barchasi ITI yutuqlaridan faol foydalanish, xorij tajribasi va o'z ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari(ITTNI-NIOKR)ni jadallashtirish asosida amalga oshirilar edi. ITTKIga xarajatlar bo'yicha jahonda Yaponiya AQShdan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. 1988 yilda fundamental fanga xarajatlar ulushi AQShda 12,2%ni Yaponiyada 12,9%ni tashkil etgan.

Yaponiya iqtisodiyotini eng umumiyligi "sintezlashgan" sifat xarakteristikasi orqali ta'riflaganda uni o'zgaruvchan ichki va ayniqsa, tashqi sharoitlarga moslashuvchanligini ta'kidlash zarur.

Yaponiya iqtisodiyotining yuqori sifati energiya iste'molining solishtirma ma'lumotlari misolidan ko'rishimiz mumkin. 1985 yil-

da Yaponiyada aholi jon boshiga 2,6 tonna shartli yoqilg'i iste'mol qilinad edi. AQShda esa – 6,7 t., ya'ni 2,6 marotaba ko'p, bunda Yaponiyada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM AQShni-kidan yuqori ekanligini hisobga olish kerak. Yaponiyada yangi energetik madaniyat konsepsiysi ishlab chiqildi, uning mazmuni – tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, tugamas va ekologik sof energiya manbalariga ega bo'lish maqsadida energiyaning muqobil manbalarini rivojlantirish hisobiga mamlakatning energetik ehtiyojlarini ta'minlash.

XX asrning 90-yillarda Yaponiya bir ishchiga to'g'riga keladi-gan robotlar soni bo'yicha jahonda birinchi o'rinni egalladi. Ja-honda mavjud 610 mingta ishlab chiqarish funksiyalarini bajaruvchi uskunalardan 385 mingtasi Yaponiyada ishlab chiqilgan edi.

Yaponiya narxlar barqarorligi va ish haqi darajasi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar ichida birinchi o'rinni egallab kelmoqda.

### **12.3. Integratsiya jarayoni**

#### **◀ Integratsiya. Yevropa Ittifoqi.**

Ikkinci jahon urushi yakunida, 1944 yilda, Yevropada yevropa iqtisodiy integratsiyasi g'oyasi amalga oshirila boshlandi. Birinchi urinish sifatida Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg hukumatlarining 1948 yil 1 yanvardan bojaxona ittifoqini tuzish to'g'risidagi qarori namoyon bo'ladi, keyinchalik ushbu ittifoqni Benilyuks deb atashadi. Tomonlar keyinchalik 1921 yildan beri mavjud Belgiya-Lyuksemburg iqtisodiy ittifoq tipidagi ittifoqqa aylantirish xohishini bildirdilar. 1949-1950 yy.da sanoat mahsulotlari importi cheklovlar olib tashlandi, 50-yy.ning o'rtalariga kelib Benilyuks doirasida ish kuchi va kapital erkin harakatlana boshladi. Benilyuks tajribasi mu-vaffaqiyatli bo'lib chiqdi.

1948 yil martida Fransiya va Italiya *Fransital* bojaxona ittifoqini tashkil etishdi. O'sha davrda Germaniya og'ir sanoati ustidan xalqaro nazorat yuritish to'g'risida qaror qabul qilgan AQSh va Buyuk Britaniya xalqaro ma'muriyatni tashkil etib, uning tarkibiga faqatgina AQSh va Buyuk Britaniya vakillari emas, balki Fransiya, GFR va Benilyuks mamlakatlari vakillari ham kiritildi. XX asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropadagi davlatlararo aloqalar xalqaro iqtisodiy integratsiyaga aylana boshladi.

*Xalqaro iqtisodiy integratsiya* – bu mamlakatlarni xo'jalik-siyosiy jarayonini o'zaro chuqur va barqaror aloqalari va milliy xo'jaliklar

o'rtaida mehnat taqsimoti, ularning takror ishlab chiqarish tuzilmalarining o'zaro faoliyatini rivojlantirish asosida birlashtirishdir.

Rasman 1993 yil 1 noyabrga qadar G'arbiy Yevropa mamlakatlarda Yevropa Ittifoqi yetakchi integratsion birlashma hisoblangan, u 1967 yilda avvallari mustaqil bo'lgan uch mintaqaviy tashkilotlarni qo'shilishi natijasida vujudga kelgan:

1) Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (YKPB). 1951 yil 18 aprelda Fransiya, GFR, Italiya va Benilyuks mamlakatlari 1952 yil 25 iyuldan ushbu tashkilotni tuzilishi to'g'risida Parij kelishuvini imzolashdi.

2) Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YIH). 1957 yil 25 martda Fransiya, GFR, Italiya va Benilyuks mamlakatlari 1958 yil 1 yanvardan YIH va atom energiyasi bo'yicha Yevropa Hamjamiyati (Yevroatom) tashkilotini tuzilishi to'g'risida Rim kelishuvini imzolashdi. 1973 yildan Buyuk Britaniya, Irlandiya, Daniya. 1981 yildan – Gretsiya, 1986 yildan – Portugaliya va Ispaniya, 1995 yildan – Shvetsiya, Avstriya, Finlyandiya YIH tarkibiga kirishdi.

3) Yevropa erkin savdo assotsiyasi (YESA). 1960 yil 4 yanvarda Yevropaning quyidagi yetti davlati tomonidan Stokholm konvensiyasi imzolandi: Buyuk Britaniya, Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Avstriya, Shveysariya va Portugaliya. 1991 yil oktyabrida YI va YESA Yevropa iqtisodiy makoni (YIM) ni tuzish bo'yicha kelishuv imzolashdi: unga Arktikadan O'rta yer dengizigacha bo'lgan 19 mamlakat kirdi. YESA – YI malakatlarining asosiy savdo hamkoridir (unga YI eksportining – 27 %, importining 35% to'g'ri kelardi).

1973 yilning 23 yanvarida Norvegiya hamjamiyat tarkibidan chiqqdi, buning sababi 1972 yil 26 noyabrda ushbu mamlakatda o'tkazilgan referendum natijasi edi.

G'arbiy Yevropa integratsiyasi rivojlanishini to'rt bosqichga bo'lib o'rganish mumkin.

Birinchi bosqich (50-yillarning oxiri - 70-yillarning o'rtalari). Bu davr YIH davlatlari hayotida "oltin asr" hisoblanadi. Unda bojxona ittifoqi belgilangan muddatidan oldin tashkil etildi, yagona agrar bozori yaratildi. YIHga uchta yangi davlat - Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya a'zo bo'lib kirdi. YIH yoki "Umumiy bozor"ni tashkil qilishning maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- ishtirokchi davlatlar o'rtaida o'zaro savdoda asta-sekin barcha to'siqlarni olib tashlash;
- uchinchi davlatlar bilan savdoda bir xil boj tariflarini o'rnatish;

- "insonlar, ishchi kuchi, kapital va xizmatlar" ning erkin harakatlanishiga qo'yilgan to'siqlarni olib tashlash;
- transport va qishloq xo'jaligi sohasida umumiy siyosat ishlab chiqish va amalga oshirish;
- valyuta ittifoqi tuzish;
- soliq tizimini unifikatsiya qilish;
- qonunchilikni yaqinlashtirish;
- iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish.

Bularni amalga oshirish maqsadida boshqaruv strukturasi majmu - YIH Vazirlar Kengashi, Yevropa Hamjamiyati komissiyasi, Yevropa Kengashi, Yevropa Sudi, Yevropa parlamenti tashkil qildi.

YIHning birinchi galdeg'i vazifasi sifatida a'zo davlatlar o'rtaida tovarlar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchining umumiy bozorini tashkil qilish vazifasini qo'yildi. Buning uchun Bojxona ittifoqi tuzildi. Aynan Bojxona ittifokini YIHning asosi hisoblanadi. Bojxona ittifoqi doirasida quyidagilar amalga oshirildi:

- ishtirokchi davlatlar o'rtaсидаги о'заро савдода то'силар олиб ташланди;
- uchinchi davlatlarga nisbatan bir xil bojxona tariflari o'rnatildi;
- kapital, kreditlar, pul ko'chirmalarining erkin harakatlanishiga sharoit yaratildi;
- ishchi kuchi migratsiyasi erkinligi va turar joy tanlash erkinligi ta'minlandi.

Bu choralar YIHga a'zo davlatlari o'rtaida sanoat integratsiyasining tezlashishiga imkon berdi. Ayni bir paytda a'zo davlatlarda kompensatsion yig'imlar va qishloq xo'jaligi fondi orqali moliyalashtirish yordamida, umumiy proteksionizm siyosatini qo'llash yo'li bilan agrar sohaning integratsiyalashuvini amalga oshirishga harakat qilindi. YI doirasidagi agrar siyosat YIga a'zo davlatlarning asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun bir xil minimal narx o'rnatishni kafolatlaydigan yagona narxlar tizimiga asoslanadi. Umumiy bozorning shakllanishi YIH davlatlarining milliy monopoliyalarini transmilliy korporatsiyalarga aylanish jarayonini tezlashtirdi, hamkor davlatlar iqtisodiyotiga kirishga imkon yaratdi. YIHni rivojlanishi Hamjamiyatga a'zo-davlatlarning yopiq milliy xo'jalikdan tashqi bozorga yuzlangan ochiq tipdag'i iqtisodiyotga intensiv ravishda o'tishini anglatadi.

Ikkinch bosqich (70 va 80-yillarning o'rtalari). Bu davr YI tarixiga asosan turg'unlik davri sifatda kirdi. Bu davrda YIga a'zo-davlatlar Yevropa valyuta hamkorligi dasturi, tashqi siyosiy maslahatlar mexanizmini qabul qilishga muvaffaq bo'lsalarda, vujudga kelgan salbiy jihatlar G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining jiddiy inqiroziga olib keldi. Bu inqiroz "yevroskleroz" nomini oldi. 70 va 80- yillarning boshida YI davlatlari o'tasida rivojlanish darajasi bo'yicha farq o'sib bordi. 1981 yilda YIga Gretsiyaning kirishi bilan bu farq yanada kuchaydi, chunki ushbu davlat iqtisodiyoti ham-jamiyatning boshqa ishtirokchi davlatlari iqtisodiyotiga nisbatan juda past darajada rivojlangan edi.

Uchinch bosqich (80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshi). Bu davr Hamjamiyat tarkibining yanada kengayishi bilan xarakterlanadi. 1986 yilda Ispaniya va Portugaliyaning YIHga qo'shilishi a'zo-davlatlar o'tasidagi farqning yanada kengayishiga olib keldi. YIHga a'zo bo'lgan vaqtida Portugaliyada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad YIH dagi o'ttacha daromadning taxminan 45-50%ga, Ispaniyada esa 3/4 qismiga to'g'ri kelgan edi. Yangi ishtirokchi davlatlarda aholining taxminan 1/5 qismi qishloq xo'jaligida band bo'lgan bo'lsa, YIH da esa o'ttacha 1/13 qismi to'g'ri kelgan. Shu bilan bir qatorda, aynan shu davrda G'arbiy Yevropa integratsiyasi yanada rivojlandi. Bunga birinchi navbatda Yagona Yevropa Akti (YaYA)ning qabul qilinishi ham sabab bo'ldi. Ushbu aktda YIHga ishtirokchi-davlatlarining umumiy maqsadi - Yevropa Ittifoqining tashkil qilinishi yana bir bor tasdiqlandi. Yevropa Ittifoqi Hamjamiyati ham siyosiy, ham iqtisodiy ittifoq bo'lib, a'zo-davlatlar o'tasida iqtisodiy, valyuta-moliya, gumanitar sohalardagi hamkorliklar bilan bir qatorda tashqi siyosat havfsizlikni ta'minlash sohalarida ham chuqur hamkorlikni amalga oshirish ishlari nazarda tutilgan. YaYAning asosiy maqsadi shundaki, YIHga a'zo-davlatlar o'tasida yagona xo'jalikni tashkil qiladigan yagona iqtisodiy hududni yaratishidir. YaYAning qabul qilinishi bilan Hamjamiyatga a'zo-davlatlar o'tasida mikro va makroiqtisodiyot, siyosat va huquq, fan va ekologiya, mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar sohasidagi integratsion jarayonlar kuchaydi. 90-yillar boshida YIga a'zo-davlatlar yagona bozor asoslarini yaratishni amalda tugatib, valyuta, iqtisodiy va siyosiy ittifoqlarni shakllantirishga bevosita yaqinlashdilar.

To'rtinchi bosqich (90-yillarning o'rta va XXI asr boshi). Bu Yagona Yevropa Aktiga muvofiq 1993 yilning 1 yanvaridan boshlab

Hamjamiyat chegaralari doirasida ishlab chiqarish vositalarining erkin harakati yo'lga qo'yildi. Hamjamiyat doirasida yagona iqtisodiy hudud vujudga keldi. Bu YI doirasidagi iqtisodiy integratsiyaning sifat jihatdan yangi bosqichga kirganini anglatadi.

Maastricht Bitimiga (1992 yil fevral) muvofiq 1994 yilning 1 yanvardan YIH Yevropa Ittifoqiga aylandi va uning a'zolari 15 taga yetdi. YI doirasida yagona ichki bozorning tuzilishi amalga oshirildi. Maastricht bitimida integratsion hamkorlikning keyingi bosqichlarini maqsadlari (Yagona valyuta - YEVROni emissiya qilish huquqiga ega yagona Yevropa bankini tuzish, ichki chegaralarsiz yagona G'arbiy Yevropa hududini tashkil qilish va boshqalar) e'lon qilingan edi.

YI integratsiyasida hozirgi kunda ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda qiyinchiliklar ham ro'y bermoqda. Yuqorida YI ga yangi a'zo-davlatlarning kirishi munosabati bilan yuzaga kelgan davlatlararo iqtisodiy rivojlanishdagi farqlar ko'rib chiqilgan edi. YIga yangi davlatlarning a'zo bo'lib kirishi ham sezilarli muammolari keltirib chiqarishi mumkin. Eng katta muammolardan biri Yevropa valyuta tizimini shakllantirish davomida namoyon bo'limoqda. 1992 yildagi 7%ga Britaniya funt sterlingi va Italiya lirasi devalvatsiyasi oqibatida ro'y bergen YVT inqirozi Buyuk Britaniya va Italiyani avtomatik tarzda YVT dan chiqarib tashladi. Valyuta ittifoqini shakllantirishda unga kirish uchun qo'yilgan bir qator talablar ham davlatlarga qiyinchiliklar tug'dirgan edi. O'sha davrda almashuv kursi inflyasiyasining darajasiga, foiz stavkalari darajasiga, budget defitsiti va davlat qarzi bo'yicha qo'yilgan talablarga faqat Lyuksemburg javob bergen edi. YIga a'zo-davalatlar orasida Ittifoqni kengaytirish, integratsiyani chuqurlashtirish yo'llari haqida kelishmovchiliklar mavjud edi.

Jahon iqtisodiyotida G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi faqat YI chegaralari bilan cheklanmaydi. 1962 yilda Yevropa erkin savdo assotsiyasi (YESA) tashkil topdi. YESA YI dan farqli ravishda davlatdan yuqori turuvchi funksiyalarga va davlatlararo muvofiqlashtiruvchi institutlarga ega emas. 80-yillarda YESA a'zo-davlatlar soni 7 ta bo'lib, 90-yillar o'rtaida yana 4ta davlat - Buyuk Britaniya, Islandiya, Lixtenshteyn, Shveysariya a'zo bo'lib kirgan edi. Ushbu a'zo-davlatlar uchinchi davlatlar bilan u yoki bu savdo-iqtisodiy kelishuvlarga erkin qo'shilishlari va bu davlatlarga nisbatan xohlagan bojxona tariflarini o'rnatishlari mumkin edi. YESAga a'zo-davlatlar o'rtaсидаги савдо-режими саноат

tovarlariga nisbatan qo'llaniladi. Chunki YESA konvensiyasining faoliyati qishloq xo'jalik mahsulotlariga ta'sir o'tkazmaydi.

1972 yilda YESA ga a'zo bo'lgan har bir davlat YIH-YI bilan o'zaro kelishuvlarni imzoladi. Unga muvofiq sanoat tovarlariga boj va son jihatdan cheklashlar asta-sekin kamaytirildi. Bu cavlatlar o'rtaсидagi bojsiz savdo murakkab qoidalar tizimiga asoslanadi. Yagona bojxona tarifi yo'qligi sababli YESA ichida bojsiz savdo erkinligi faqat a'zo-davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

YESA ga kiruvchi davatlarning va ular o'rtasidagi iqtisodiy alo-qalarning yuqori darajada rivojlanganligiga qaramasdan, YESA to'laqonli integratsion guruhga aylanmadidi. Amalda u YIH - YI uchun "farmklub", ya'ni, yangi a'zolar yetkazib beruvchi tashkilot bo'lib qoldi. Hozirgi kunda YESAning ko'pgina a'zolari uni Sharqiy va G'arbiy Yevropa davlatlari o'rtaсидagi istiqbolli erkin savdo zonasini sifatida qaramoqdalar.

Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini. AQSh bilan Kanada o'rtaсидagi mayjud bo'lgan iqtisodiy integratsiya va ularning G'arbiy Yevropadagi davlatlar bilan olib borayotgan hamkorligi AQShni qoniqtirmay qo'ydi. Natijada 1994 yilning 1 yanvarida kuchga kiran Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini (NAFTA) haqidagi shartnomaga imzolandi. NAFTAga AQSh va Kanadadan tashqari Meksika ham qo'shildi. Shunday qilib ushbu blok hududi 370 mln.dan ortiq aholiga, kuchli iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan hududni qamrab oldi. NAFTA davlatlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar taxminan 7 trln. AQSh dollarini tashkil cilib, ushbu davlatlar ulushiga umumiy jahon savdo hajmining 18-20%ni yaqini to'g'ri kelmoqda.

NAFTA davlatlari tomonidan imzolangan shartnomaning asosiy holatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- AQSh, Kanada va Meksika davlatlari o'zaro savdo qiladigan tovarlarga nisbatan bojlarni bekor qilish;
- Shimoliy Amerika bozorlarni Meksika orqali AQShga kirib kelayotgan tovarlar uchun bojlarni to'lmaslikka harakat qiluvchi Osiyo va Yevropa kompaniyalari ekspansiyasidan himoya qilish;
- Meksikada bank va sug'urta kompaniyalarning ishida Amerika va Kanada kompaniyalari kapital qo'yilmalari va raqobatlariga bo'lgan taqiqlarni olib tashlandi;
- Atrof-muhitni himoyalash bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun uch tomonlama guruhlar tashkil qilish va boshqalar.

Shartnomaga ko'ra 2000 yilgacha AQSh Meksikadan import qilinadigan mahsulotlar turining 2/3 qismi uchun import tariflarni bekor qilgan edi. Imzolangan kelishuvlardan eng ko'p foydani savdo bloki iste'molchilari olgan, chunki raqobatning kuchayishi va tariflarning pasayishi natijasida keng tovarlar doirasiga nisbatan narxlar ham pasaya boradi. Amerika sanoatchilari foyda olishadi, chunki arzon ishchi kuchi oqimi kuchayadi. Kafolatlangan daromadning o'sishi Amerika iqtisodiyotining elektronika va kompyuter ta'minotida, qurilish materiallarda, avtomobil ehtiyyot qismlarini ishlab chiqarish va boshqa sohalarida kuzatilmogda. Ayni bir paytda, shakar, sitrus mevalari, qishki sabzavotlar yetishtiruvchi Amerika fermerlari katta zarar ko'radi. Meksika esa NAFTA davlatlari yordamida o'z iqtisodiy o'sishi sur'atlarini oshirib (taxminan YaIMNing yilik o'sish darajasi 1,6%-2,6% atrofida), iqtisodiyotini isloq qilish va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilish muddatini yarim asrdan 10-15 yilga qisqartirishi mumkin.

NAFTAdan eng kam foydani Kanada oladi. Uning iqtisodiyoti AQShni bilan chambarchas bog'liq bo'lсада, Meksika iqtisodiyoti bilan aloqalari unchalik rivojlanmagan. Ammo, NAFTA rivojlanib borishi bilan Kanada ham integratsion jarayonga yanada ko'proq tortiladi va kengayotgan bozordan dividendlar oladi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. Ikkinchи jahon urushidan so'ng G'arbiy Yevropa mamlakatlari holatini xarakterlab bering.
2. "Yevropaning tiklanish dasturi" sifatida Marshall rejasining mohiyati nimada?
3. XX asrning 50-yillarida Buyuk Britaniya rivojlanishining xususiyatlari nimadan iborat?
4. M.Tetcher va R.Reygan iqtisodiy siyosatlarining o'xshash jihatlari nimada?
5. Sharl de Goll hukumatining iqtisodiy islohotlari mazmuni nimadan iborat?
6. G'arbiy Germaniyada L.Erxardning iqtisodiy islohotlarining mohiyati nimada?
7. Yaponiya iqtisodiyotining sifat o'sishi ko'rsatkichlarini tushuntiring.
8. Yevropa integratsiyasi muammolari va istiqbollarini xarakterlang.

## § 13-MAVZU. ANGLIYANING ENG YANGI IQTISODIY TARIXI (XX ASR)

**Tayanch atamalar va iboralar:** "yangi" tarmoqlar, korporatsiyalar, moliyaviy kapital, aralash davlat-kapitalistik kompaniyaları, "Umumiy bozor", "sterlingga oid blok", "Yagona Yevropa".

### ■ Reja:

- 13.1. Sanoat rivojlanishi xususiyatlari.
- 13.2. Monopoliyalar va davlat tomonidan tartibga solish.
- 13.3. Tashqi iqtisodiy aloqalar.

### 13.1. Sanoat rivojlanishi xususiyatlari.

Birinchi jahon urushi natijasida Angliya g'oliblar qatorida bo'lganligi sababli yutuq bilan chiqqan bo'lishi kerak edi. Uning asosiy dushmani hisoblangan Germaniya mag'lub bo'lib, Angliyaga Germaniya mustamlakalarining bir qismi o'tdi. Lekin urush ingliz iqtisodiyoti holatini yomonlashtirdi. Urush davrida Angliya o'z savdo flotining yarmini yo'qotdi. Mustamlakalar bilan aloqalar susaydi – Angliya va mustamlakalar o'tasida ummonlar bo'lib, ularda nemis suvosti kemalari navbatchilik qilardi. Angliyaning Qo'shma Shtatlarga bo'lgan qarzi shu daraja katta ediki, uni qoplash uchun har yili davlat budgetining 40% sarflanar edi.

Ikki urush oraliq'idagi davrda ingliz sanoati ommaviy ishsizlik va ishlab chiqarish kuchlarini to'liq band emasligi bilan xarakterlarnardi. Angliyaning holati boshqa mamlakatlarnikidan og'irroq edi, chunki uning iqtisodiyotida an'anaviy 'eski' tarmoqlar (ko'mir, metallurgiya, tekstil) katta ahamiyatga ega edi, bu tarmoqlar esa "yangi" tarmoqlar tomonidan siqib chiqarilar edi. Angliyada "yangi" tarmoqlar ham asta-sekin rivojlana boshlandi: kimyo, avtomobil, elektrotexnika, aviatsiya. Shu sababdan 1929 yilda, jahon iqtisodiy inqirozi boshlanishiga kelib, ingliz sanoati urushdan oldingi darajagacha ko'tarilmadi, ikkinchi jahon urushi boshlanishi davrida esa 1913 yildagi ko'rsatkichdan 22%ga oshdi.

Ikkinchi jahon urushi natijalari bo'yicha ham Angliya g'oliblar qatorida edi, lekin yana bu holat uni rivojiga yordam bermadi. Angliya sanoati urushdan keyingi davrda ham boshqa mamlakat-

Iarga nisbatan sekinroq rivojlanayotgan edi. 1990 yilga kelib ingliz sanoat ishlab chiqarishi 1938 yilga nisbatan 3,2 marotaba o'sdi, industrial jihatdan rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning barchasida 8,5 marotaba o'sish kuzatildi.

XX asrning 90-yy. boshiga kelib sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Italiya Angliyadan o'zib ketdi va Angliya bu ko'rsatkich bo'yicha 5-o'ringa tushib qoldi.

XX asrning 50-80 yillarda Angliya sanoatining 3 barobar o'sishining asosiy sabablari.

Birinchidan, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi kuch sifatida davlatning tartibga soluvchi siyosati.

Ikkinchidan, urushdan keyin asosiy kapitalni to'liq yangilanishi. Vayron bo'lgan korxonalarini tiklashga va boshqa korxonalarining uskunalarini yangilashga majbur bo'lindi, chunki urush davrida ular yemirilib tugagan edi. Yirik qurilishlar ish kuchi, qurilish materiallari, uskunalarga talabni oshirib yubordi – qurilish "bum"i yuzaga keldi, iqtisodiyot jonlandi. Lekin, eng asosiysi, sanoatni tiklashda texnik jihatdan sakrash yuzaga keladi. Sanoatning texnik darajasini ko'tarilishi, uning imkoniyatlarini, raqobatbardoshligini oshiradi. Undan tashqari asosiy kapitalni yangilanishi jarayonida sanoatni tarkibiy qayta qurish jarayoni ham yuz beradi: kapital istiqbolli tarmoqlarga qarab oqib boradi. Avvallari Angliya aynan shu tarmoqlar rivoji bo'yicha orqada qolayotgan bo'lsa, endi ushbu tarmoqlarga yetarlicha mablag' oqib kela boshladi.

Uchinchidan, mustamlakachilik tizimini yo'q bo'lishi munosabati bilan mamlakatdan kapital olib chiqilishi keskin qisqardi, va endi ushbu mablag'lar o'z sanoatiga sarflana boshlandi.

To'rtinchidan, Shimoliy dengizda yirik neft konlarini ochilishi Angliyani o'zini o'zi neft mahsulotlari bilan ta'minlanishini amalga oshirdi, energetik inqiroz davrida boshqa mamlakatlarga nisbatan ustunlikka ega bo'lishga imkon yaratdi.

### **13.2. Monopoliyalar va davlat tomonidan tartibga solish**

Birinchi jahon urushiga qadar Angliya boshqa mamlakatlardan ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi va monopoliyalarni tashkil etilishi borasida orqada edi. Ammo urush davrida, daromadli davlat buyurtmalarini eng yirik firmalar olayotgan sharoitda, hamda urushlar oraliq'idagi inqirozli va depressiyali yillarda, mayda va kuchsiz firmalar to'xtovsiz xonavayron bo'layotgan

vaqtida, Angliya sanoatini monopolizatsiyalash jarayoni muvaffaqiyatli yakunlandi. 80-yy. boshlarida jahonning 5 yirik monopoliyalaridan 3 tasi amerikaniki, 2 tasi angliyaniki edi: "Royal Dutch Shell" va "British Petroleum" (ikkalasi neft monopoliyalari). GFR va Yaponiyaning hech qaysi monopoliyalari birinchi beshlikka kirmagandi.

Boshqa korporatsiyalar orasida "Unilever" – jahonning yirik oziq-ovqat monopoliyasini ajratib ko'rsatish mumkin.<sup>1</sup> Ushbu konsern o'z korxonalarida sovun, margarin va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. Aynan ushbu korporatsiya tomonidan Yevropada iste'mol qilinadigan margarinning asosiy qismi ishlab chiqariladi. Xom ashyoning asosiy qismi Afrikadan kelardi: palma yog'i, kokos va yer yong'oqlari va boshqa yog' mahsulotlari. Aynan Afrikada konsern ishchilarining yarmi faoliyat yuritishadi. Konsern nominal ingliz-golland hisoblanadi, hujjat bo'yicha esa unda ko'p mamlakatlar ishtirok etishadi. U turli mamlakatlarda 600 dan ortiq sho'ba korxonalarga ega.

Undan tashqari "BAT indastriz" tamaki kompaniyasi va "Imperial kemikl indastriz" kimyo kompaniyasini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Angliya korporatsiyalarining xarakterli belgilari – mustamlakachilik va xalqaro. Korporatsiyalarning asosiy qismi avvalgi mustamlakalarning xom ashvosidan foydalanadilar. Neft monopoliyalari Angliyada "o'zining" nefti topilishidan ancha avval tashkil etilgan edi, tamaki yetishtirish esa Angliya iqlimi umuman to'g'ri kelmaydi. Korporatsiyalarning ko'pchiligi transmilliy hisoblanadi.

Angliyaning moliyaviy kapitali ham shunday xususiyatlarga ega. Sanoat korporatsiyalaridan farqli o'laroq birinchi 5ta banklar tarkibiga ingliz banklari kirmaydi, birinchi 10 talikka esa ikkita ingliz banki kiradi: "Barkleyz benk" va "Westminster benk". Lekin ingliz banklarining "katta to'rtligi" boshqa mamlakatlarnikiga nisbatan ko'proq xorijiy filiallarga ega.

Angliya iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish jarayoni AQShdagidan ko'ra boshqacharoq kechgandi. Birinchi turki 1929-1933 yy.dagi inqiroz bo'ldi. Davlat bu yillarda aksilingiroz choralarini qabul qildi va buning uchun maxsus davlat organlari

<sup>1</sup> Конотопов М. В., Сметанин С. И. Экономическая история: Учебник. - 9-е изд., доп. и перераб. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2007. - С.254.

tashkil etildi. Lekin Angliyada yana bitta shakl mavjud edi – aralash davlat-kapitalistik kompaniyalarini tashkil etish, ya'ni davlat nazorati ostida faoliyat yuritadigan davlat kapitali ishtirokidagi kompaniyalar. Bunday aralash shakllar elektroenergiya ishlab chiqarish va taqsimlash, radioeshittirish (BBC) va boshqa tarmoqlarda qo'llanildi.

Davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirishga turki bo'lgan keyingi sabab – Ikkinci jahon urushidir. Davlat ishlab chiqarishni konsentratsiyalashuvini rag'batlantirdi. Harbiy buyurtmalarni yirik kompaniyalar olishar edi. Ushbu buyurtmalarni ijrosini ta'minlash maqsadida davlat xom ashyo, energiya taqsimotini o'z qo'liga olgandi va ular bilan harbiy buyurtmalarni ijro etuvchi yirik kompaniyalarini ta'minlardi. Undan tashqari davlat ba'zi mayda firmalarni yopdi yoki ularni buyurtmalarni ijro qilish uchun yirik firmalarga qo'shib yuborishdi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jarayoni ikkinchi jahon urushidan so'ng chuqurlashdi. 1945 yilda Angliya hukumati tepasiga leyboristlar (ingliz ishchi partiyasi) kelishdi. Ular o'z das-turlarida Angliyada sanoatni davlat mulkiga o'tkazish orqali sotsialistik tuzumga o'tishni targ'ib etishdi.

1946 yildan 1951 yilgacha ular iqtisodiyotni bir qator tarmoqlari davlat mulkiga o'tkazildi. Angliya banki, ko'mir va gaz sanoati, elektrostansiyalar, radio va televidenie, temir yo'l va transporning boshqa turlari davlat mulkiga o'tkazildi. 1967 yilda leyboristlar yana hukumat tepasiga kelishdi, va metallurgiya sanoati davlat mulkiga o'tdi.

Firmalar davlat mulkiga o'tayotganda aksionerlarning aksiyalari davlat zaymlariga almashtirilib berildi (bunda ular keltiriladigan daromad o'zgarmadi).

Xususiy mulknini davlat mulkiga o'tkazishning asosiy natijalari:

1. Asosan "eski", kamrentabelli tarmoqlar davlat mulkiga o'tkazilgan edi. Davlat ularni sotib olib, ushu tarmoqlarning xaratlarini to'liq o'z bo'yniga oldi, korxonalarining oldingi egalariga esa "yangi" istiqbolli tarmoqlarni egallashga imkon berildi.

Davlat mulkiga o'tkazilgan tarmoqlar, ayniqsa ko'mir va metallurgiya sanoati rekonstruksiya muhtoj edi. Avvalgi egalarining bunday rekonstruksiyani amalga oshirish imkonlari yo'q edi, chunki ular yuqori daromad keltirmasdi. Endi davlat ushu rekonstruksiyalarni davlat budjeti hisobiga amalga oshirdi.

2. Davlat tasarrufiga asosan iqtisodiyotga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar o'tib, iqtisodiyotni yoqilg'i, energiya, metall bilan ta'minlardi, tashish xizmatlarini ko'rsatardi. Davlat tasarrufiga o'tgandan so'ng xususiy sektorga energiya, xom ashyo va transport xizmatlarini arzonlashtirilgan narxlarda ko'rsatilardi. Shunday qilib, korporatsiyalar xarajatlari davlat hisobiga qisqartirildi, daromadlar oshdi.

Ammo iqtisodiy jihatdan davlat sektori kamsamarali bo'lib qoldi. Uni saqlash uchun katta xarajatlar zarur edi. Davlat iqtisodiyoti asosan ma'muriy usullar yordamida boshqarilar edi. Shu sababdan hukumat tepasiga konservatorlar kelganda ular darrov xususiylashtirish jarayonini boshlashar edi.

XX asr 80-yy.da M.Tetcher hukumati bir qator firmalarni xususiylashtirdi. Avval to'liqligacha davlat sektori hisoblangan tarmoqlarga xususiy sektor kiritildi. Iqtisodiyotda davlat investitsiyalari qisqartirildi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari qisqartirildi. Lekin ushbu choralar iqtisodiyotda davlat ulushini katta hajmda qisqarishiga olib kelmadи. Bu davrda kommunal xizmatlar va uy-joylar xususiylashtirildi, millionlab ingilzlar davlatdan uylarini sotib oldilar va natijada 65% aholi shaxsiy uyiga ega bo'ldi.

Xususiylashtirish jarayonida aksiyalarni sotishda xususiylashtirayotgan firmalar xodimlari ustuvor huquqlarga ega bo'ldilar. Natijada M.Tetcher hukumati davrida aksionerlar soni aholining 7%dan 25 %gacha oshdi.

Angliya davlat sektorida sanoat mahsulotining 20% ishlab chiqarilardi. YaMMning 40% davlat budjeti orqali o'tardi. Angliya da iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda asosiy vosita sifatida davlat budjeti hisoblanardi.

Iqtisodiyotni tartibga solish jarayoniga qishloq xo'jaligi ham jalb qilingandi. Birinchi jahon urushi boshida Angliya qishloq xo'jaligi shahar yaqinida joylashtirilganligi sababli iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlarning 2/3 qismi import qilinardi. Birinchi jahon urushi davrida Germaniya Angliyaga oziq-ovqat olib borayotgan kemalarni cho'ktirganligi sababli mamlakatda oziq-ovqat yetishmovchiligi yuzaga keldi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ko'paytirishga majbur bo'lindi. Urushdan so'ng "ichki" oziq-ovqatlarga ehtiyoj qisqardi. Lekin bu holat ikkinchi jahon urushi davrida ham qaytarildi va bu urushdan so'ng davlat fermerlarni

qo'llab-quvvatlash usullaridan foydalana boshladi. Bunda fermerlar ishlab chiqarish xarajatlarining taxminan  $\frac{1}{4}$  qismi qoplanar edi: davlat tomonidan kafolatlangan narxlarda mahsulotlar sotib olinardi, hosildorlik oshirilsa mukofotlar to'lanardi va boshqalar. Natijada 50-yillarning boshlaridan 80-yy.ning boshlariga qadar Angliyaning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi 3 marotaba o'sdi, va Angliya iste'mol qilayotgan oziq-ovqatning 60%ni o'zi yetishtira boshladi.

Angliya "Umumiy bozor"ga kirishi bilan uning qishloq xo'jaligi muammolarga duch keldi. Angliyaning qishloq xo'jalik mahsulotlari "Umumiy bozor"dagi hamkorlarning mahsulotlaridan qimmatroq bo'lib chiqdi, va u o'z raqobatbardoshligini yo'qotdi. Shu sababdan bu holat Angliya va "Umumiy bozor" ishtirokchilari o'rtaida kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi.

### **13.3. Tashqi iqtisodiy aloqalar**

Birinchi Jahon urushiga qadar Angliya jahoning eng yirik savdo mamlakati hisoblanardi. Tashqi savdo unda katta ahamiyat kasb etardi, xorijdan 90% zarur xom ashyo, 70% oziq-ovqat olib kirilardi, uning sanoat mahsulotining  $\frac{1}{3}$  qismi eksportga mo'ljallangan edi. Lekin urushdan keyin u jahon bozorlarida o'z pozitsiyalarini yo'qota boshladi. Jahon kapitalistik eksportida uning ulushi keskin qisqardi.

Tashqi savdoda o'z pozitsiyasini mustahkamlash uchun ingliz hukumati o'z tovarlarini sotilishi uchun bozorlarni yaratish maqsadida iqtisodiy ittifоqlar tashkil eta boshladi.

1931 yilda "sterlingga oid blok" tashkil etilib, u Angliyani mustamlaka imperiyasi, Goillandiya, Skandinaviya mamlakatlari, Portugaliya bilan birlashtirdi. Ushbu mamlakatlar o'zaro savdoda funt sterlingda hisob-kitob qilishga kelishib olishdi, bu davrda boshqa mamlakatlarda AQSh dollarida savdo qilardi. Shunday qilib, ushbu mamlakatlarning tashqi dunyodan ko'ra o'zaro savdo qilish imkoniyatlari kengroq edi.

1932 yilda preferensial tariflarning imperiya tizimi joriy etildi: Britaniya imperiyasi mamlakatlari o'zaro savdo vaqtida bojlarni pasaytirishar edi, boshqa mamlakat tovarlariga bojlar ko'tarilar edi. Shunday qilib, 30-yy.da "yarimyopiq" bozorlar vujudga kelib, ularda ingliz tovarlari ustuvorlikka ega edi.

Urushdan keyin Angliyaning jahon savdosidagi ulushi pasayishda davom etdi. 90-yy. boshlariga kelib ushbu ko'rsatkich jahon kapitalistik eksportining 6%ni tashkil etdi. Avvaliga Angliya oldindi tashqi iqtisodiy siyosatini (o'z tovarlarini sotish uchun hududlar yaratish orqali) davom ettirishga harakat qildi. 50-yy. oxiriga kelib "Umumiy bozor"ga qarama-qarshi qilib 7 mamlakatdan iborat "erkin savdo hududi"ni tashkil etildi. Angliyadan tashqari ushbu savdo ittifoqiga Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Avstriya, Shveysariya va Portugaliya kabi mamlakatlар – ya'ni avvalgi "sterlingga oid blok" mamlakatlari kirishdi. O'zaro savdoda ushbu mamlakatlari bojlarni pasaytirishardi, ittifoqdagi hamkorlarning tovarlarni ustunligini ta'minlashardi.

Britaniya imperiyasi parchalandi. Ingliz mustamlakalari mustaqil davlatlarga aylanishdi. Mustamlakalarni yo'qotilishi ingliz iqtisodiyotiga katta zarba berdi va endi ushbu yo'qotishlardan Angliya o'ziga kela olmaydi deb taxmin qilingandi. Lekin ma'lum vaqt o'tgandan so'ng ingliz diplomatlari oldindi mustamlakalar bilan munosabatlarni tiklab olishdi. Britaniya imperiyasi Britaniya hamdo'stligiga aylandi. Hamdo'stlik mamlakatlari hanuz sterling hududiga kirishar, ma'qul bo'lgan tariflar (ya'ni o'zaro savdoda pasaytirilgan bojlar)ni qo'llashar, Angliya bilan iqtisodiy kelishuv orqali bog'liq edilar. Angliya hamdo'stlikda o'z o'rnnini va ta'sir kuchini saqlab qolishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi: hamdo'stlik mamlakatlarida yirik ingliz kapital qo'yilmalari kiritilganligi (ya'ni bu mamlakatlardagi yirik xo'jalik obyektlari inglizlar mulki edi); hamdo'stlik mamlakatlari ingliz iqtisodiyotini xom fashyo bilan ta'minlovchi ekanligi.

Lekin bu ham yordam bermay qo'ydi. Hamdo'stlik mamlakatlari endi Britaniya eksportining 30%ni iste'mol qilardi, chunki ozod bo'lgan mamlakatlari tovarlarni Yaponiya, GFR va AQShdan sotib olishga xohish bildirishardi. Britaniya eksportining yarmidan ortig'i endi industrial mamlakatlarga yo'naltirildi.

Huddi shu tashqi savdo yo'nalishlarini keskin o'zgarishining asosiy sababi edi: 70-yy. boshida Angliya avvalgi aloqalardan voz kechiib "Umumiy bozor"ga a'zo bo'ldi. Hukumat shunday qilib Angliya xalqaro mehnat taqsimotida qulayroq pozitsiyani egalelaydi, mahsulotlarni industrial mamlakatlarga sotilishini oshiradi, "Yagona Yevropa"ning to'laqonli a'zosi bo'lishiga ishongandi.

### **O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar**

1. Ikkinchì jahon urushidan so'ng Angliyaning iqtisodiy o'sishining asosiy sabablari nimadan iborat?
2. Angliya sanoatini monopolizatsiyalash jarayonining xususiyatlari nimadan iborat?
3. Britaniya imperiyasi parchalanishining xususiyatlari nimada?

## § 14-MAVZU. GERMANIYANING ENG YANGI IQTISODIY TARIXI (XX ASR)

**Tayanch atamalar va iboralar:** reparatsiya, "Yung rejasi", rante, sanoat burjuaziysi, shturm otryadlari, yunker, "zambarak qiroli".

■ **Reja:**

- 14.1. Birinchi jahon urushining iqtisodiy oqibatlari.
- 14.2. Fashistik Germaniya iqtisodiyoti.
- 14.3. GFR iqtisodiy mo'jizasi va uning sabablari.
- 14.4. Korporatsiyalar, moliyaviy guruhlar va ularning davlat tomonidan tartibga solinishi.

### 14.1. Birinchi jahon urushining iqtisodiy oqibatlari

Birinchi jahon urushi Germaniya uchun boshqa kapitalistik mamlakatlarga nisbatan mashaqqatliroq kechgandi. Bu yerda sanoat ishlab chiqarishi 2 barobar qisqardi, g'oliblar barcha mustamlakalarni tortib olishdi, Elzas va Lotaringiya imperiya yerlari qaytadan Fransyaning tarkibiga qo'shildi. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra ushbu yo'qotishlar natijasida Germaniya milliy boyligi ikki marotaba kamaydi. Lekin eng og'ir salbiy natija bu g'olib mamlakatlar tomonidan qo'yilgan reparatsiya<sup>1</sup> hisoblanadi, uning hajmi 132 mlrd.oltin markani tashkil etardi. Qisqa muddat ichida urushdan vayronaga aylangan Germaniya uchun ushbu mablag'ni to'lash imkoniy yo'q edi. Reparatsion summani qoplash maqsadida g'olib mamlakatlar tomonidan Germaniyadan barcha qimmatbaho narsalar olib chiqib ketildi, 1923 yilda franko-belgiya qo'shinchisi Germaniyaning 90% ko'miri va 50% metallini beruvchi Rur viloyatini bosib oldi va hech qanday to'siqlarsiz ushbu xom ashyolar clib chiqib keta boshlandi.

Jami Germaniya reparatsiyalar hisobiga taxminan 20 mlrd. marka to'ladi. Reparatsiyalarning asosiy og'irligi urushdan keyingi birinchi yillarga to'g'ri kelib, bunda Germaniya sanoatining yarmi vayronaga aylangan, kapital yetishmasdi, g'olib mamlakatlar esa

<sup>1</sup> reparatsiya - urushda ko'rilgan zararlarni qoplash uchun yengilgan va urush chiqishiga sabab bo'lgan davlat tomonidan enggan davlatga to'lanadigan tovon.

to'lovlarni talab qilishardi. Avvaliga Germaniyadan barcha oltin olib chiqildi, so'ngra reparatsiyalar hisobiga ko'mir, sigirlar, parovozlar olib chiqib ketildi. Natijada markaning kursi pasayib ketdi. Mamlakatda kuchli inflyasiya yuz berdi.

Inflyasiya mayca burjuaziya, rante, urush davrida olib sotarlik natijasida pul mablag'lari to'plagan odamlarni kasodga uchratdi. Jamg'armalari bo'limgan ishchilardan ko'ra mayda burjuaziya ko'proq zarar ko'rdi. Ish haqining o'sishi narxlar o'sishidan orqada qolganligi sababli ishchilararning moddiy ahvoli yomonlashib borardi.

Sanoat burjuaziysi, korporatsiyalar inflyasiyadan manfaatdor edilar. Ular qadrsizlanib borayotgan qog'ozlar yordamida ishchilarga ish haqi, davlatga soliqlar va banklarga qarzlarini qaytarishardi. Banklarga qarzlarini to'laganlaridan so'ng sanoat korporatsiyalari mustaqillikka erishib moliyaviy guruhlar parchalanib ketdi. Shu sababdan inflyasiyadan banklar ham zarar ko'rganligini aytish mumkin. Sanoat korporatsiyalarining xususiy kapitali esa zarar ko'rmadi: u pulda emas, balki real kapitalda – uskunalar, inshootlar, xom ashyo zaxiralari va mahsulotlarda mujassamlashgan edi. Inflyasiyadan foydalaniib o'z mahsulotini xorijda pasaytirilgan narxlarda (lekin valyutaga) sotib yugori daromad olish mumkin.

1924 yilda AQSh yordamga keldi. Ular "Daves rejasini taklif etishdi. Rejaning mohiyati quyidagicha edi: AQSh (va qisman Angliya) Germaniyaga sanoatni tiklash uchun zaymlar berishadi, sanoatdan olingan daromadlar Angliya va Fransiyaga reparatsiyalarni to'lashga yo'naltiriladi, reparatsiyalarni olgan Angliya va Fransiya AQShga o'z harbiy qarzlarini qaytaradilar.

Daves rejasini bo'yicha Germaniya 30 mlrd. oltin markaga yaqin mablag' oldi. Ushbu reja amal qilish davrida 8 mlrd. marka reparatsiyalarni to'ladi. Ushbu "oltin yomg'ir" ostida nemis sanoati tiklandi va rivoj topdi.

1929 yilda Daves rejasini "Yung rejasini" bilan almashtirildi. Yangi reja Germaniyaga yana imtiyozlar taqdim etdi. Reparatsiyalar summasi sezilarli darajada qisqartirildi va ularni Germaniya har yili kichik summalarda 1988 yilgacha to'lashi kerak edi. Ammo hatto bu variant ham noreal bo'lib qoldi: jahon iqtisodiy inqirozi boshlanardi – bunda hech kim reparatsiyalarni eslamasdi ham. Shu sababdan 1932 yilda Yung rejasini va u bilan reparatsiyalar ham to'liq bekor qilindi.

Daves rejasi qabul qilingandan so'ng monopoliyalar mustahkamlana bordi. Bir-biriga qo'shilib ketishlar yo'li bilan yangi trestlar va konsernlar paydo bo'ldi. 1920 yilda "Po'lat trest" paydo bo'ldi. Bu o'z shaxtalari, elektrostansiyalari, mashinasozlik va kemasozlik zavodlariga ega sanoat sultanati edi. Bu borada "Po'lat trest" "Krupp konserni"ga o'xshash edi. O'z-o'ziga xizmat qiluvchi bunday ko'ptarmoqli monopoliya o'sha davrda Germaniya uchun xos edi. 1925 yilda kimyo kompaniyalarni qo'shilib ketishi natijasida mashhur "Farbenindustri" kimyo tresti paydo bo'ldi.

Shunday qilib, XX asr 20-yy.da nemis sanoati tiklandi va yanada rivoj topdi. Lekin, 1929 yilga kelib Germaniya sanoat ishlab chiqarishi urushdan avvalgi davrga nisbatan bor yo'g'i 8%ga o'sdi. Ishlab chiqarishni o'sishi ichki bozorni torligi sabab chegaralanar edi: Germaniya aholisi inflyasiya davrida qashshoqlashdi va hanuz reparatsiya to'lar edi. Potensial xaridorlar o'z jamg'armalaridan mahrum bo'lgan edilar. Ichki bozorni torligi ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq band qilinmasligi va ishsizlikka olib kelardi. O'sish davrida ishlab chiqarish quvvatlari bor yo'g'i 70%ga band qilingandi, ishsizlar soni esa 4 mln. kishi edi.

Tabiiyki, 1929-1933 yy.dagi inqiroz Germaniyada o'ta chuqur shaklda namoyon bo'ldi. Sanoat ishlab chiqarishi 40%ga qisqardi. Ishlab chiqarish quvvatlarining 70% bekor edi. Ishchilarning yarmi ishsiz qoldi.

Inqiroz yillarda ijtimoiy munosabatlар keskinlashdi. Qabul qilin-gan aksilinqiroz chora-tadbirlar ishchilarga qarshi yo'naliishga ega edi. Qonun bilan ish haqi qisqartirildi, ishsizlik nafaqalari bekor qilindi, ishsizlarni to'playdigan mehnat lagerlarida qat'iy harbiy rejim o'rnatildi.

Mamlakatda inqilobiy holat shakllana bordi. Siyosiy kuchlar polyarizatsiyasi yuz berdi: mo'tadil partiyalar o'z pozitsiyalarini yo'qota bordi, so'l partiyalar kuchayib bordi. Bir qutbda fashistlar, ikkinchi qutbda sotsial-kommunistlar kuchayishdi. Monopolistik burjuaziya tayanish mumkin bo'lgan yangi kuchni izlab oxir natijada Gitler partiyasini tanladi. Fransiyadan farqli o'laroq Germaniyada sotsialistlar va kommunistlar ittifoqi yuzaga kelmadı.

## 14.2. Fashistik Germaniya iqtisodiyoti

Germaniyada fashizm, boshqa mamlakatlardagi kabi, maydaburjua siyosiy harakati sifatida vujudga keldi. Bu uncha boy bo'limgan, o'qimishli bo'limgan, iqtisodiy rivojlanish natijasida jamiyatda o'z o'rmini yo'qotib borayotgan va albatta bundan no-rozi odamlar edi. Fashistik partiyaning shturm otryadlari mayda burjuaziya vakillaridan iborat edi. Gitler tomonidan e'lon qilin-gan shiorlar maydaburjuacha edi. U kapitalistik monopoliyalarni yo'q qilishni, xonavayron bo'layotgan hunarmandlar va mayda savdogarlarni himoya qilishni, ular uchun arzon kreditlar berishni va'da berdi. Shovinistik targ'ibot ham mayda burjuaziyaga qaratilgan edi, chunki ular birinchi jahon urushi natijasida inflyasiya va reparatsiyalar natijasida eng katta talofat ko'rgan qatlarni edi. Germaniya aholisining ushbu qatlarni ommaviy xonavayron bo'lishi ularni faollashtirdi va Gitler partiyasini kuchaytirdi. Gitler ortidan ishchilarning bir qismi ham ergashdi – uning partiyasi milliy-sotsial ishchi partiyasi deb nomlanar ediku. Albatta, birinchi navbatda bular ishsiz qolganlar edi.

Lekin, Gitler hukumat tepasiga kelgandan so'ng mayda burjuaziyaga emas, balki monopolistik burjuaziyaga to'g'ri keladigan siyosatni olib bordi. 1934 yilda Gitler "uzun pichoqlar tuni"ni o'tkazdi: uning tarafdarlari Rem (avval Gitlerning safdoshi) bosh-chiligidagi shturm otryadlarini qirib tashladi. Milliy-sotsialistlar o'z harbiy otryadlarini qirib tashlashdi. Bu voqeanning kelib chiqishi quyidagicha edi: mayda burjuaziya vakillari shturm otryadlariga birlashib va Gitlerning shiorlariga ishonib monopoliyalarga qarshi kurashishni boshlashdi. Rem ushbu harakatni boshqarib shturm otryadlarini armiyaga qo'shilib ketishi va keyinchalik u bosh qo'mondon bo'lishini rejalashtirgan edi.<sup>1</sup> Ammo Gitler hukumat tepasiga kelishda bergen yordami uchun monopoliyalarga daxlsizlik va generalitetga armiya yunkerlar qo'lida qolishini va'da bergen edi. Ushbu va'dalarni bajarish nuqtai-nazaridan "uzun pichoqlar tuni" o'tkazilgan edi.

Shu sababdan fashizm hukumat tepasiga kelgandan so'ng o'z ijtimoiy mohiyatini o'zgartirdi. U davlat monopolistik kapital-

<sup>1</sup> Конотопов М. В., Сметанин С. И. Экономическая история: Учебник. - 9-е изд., доп. и перераб. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2007. - С 272.

izmining, iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning maxsus shakliga aylandi.

Mamlakatning barcha xo'jaliklari davlat boshqaruvi organlariga bo'yundirilib, unda asosiy rolni monopolistik burjuaziyaning yetakchilari o'ynar edi. Eng yuqorida xo'jalikning bosh kengashi qo'yilgan edi, unda "zambarak qiroli" Krupp va 'elektrotexnika qiroli" Simens yetakchilik qillardilar. Bosh kengashga iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini (sanoat, savdo, kredit) mujassamlashtirgan "xo'jalik guruhlari" bo'ysunardi, ularga esa o'z navbatida "tarmoq guruhlari" (kimyo, aviatsiya va boshqa sanoat turmoqlari) bo'ysunardi.

Iqtisodiyotning davlat sektori keskin kengayib ketdi. Mamlakatda Geringning davlat konserni eng yirik korporatsiyaga aylandi. Avvaliga u yaxudiyarning va boshqa repressiya qilingan larning musodara qilingan mol-mulk evaziga rivojlangan bo'lsa, keyinchalik uning tarkibiga Germaniya okkupatsiya qilgan hududlardi korxonalar qo'shila boshlandi. Avval boshdanoq fashistik hukumat bozor munosabatlariiga zid ravishda narxlarni tartibga solishni boshladi. Xalq iste'moli tovarlariga narxlarning past darajasi belgilandi. Natijada bu tovarlar magazinlarda yo'q bo'lib qoldi va ularni endi qora bozorda juda yuqori narxlarda sotib olish mumkin edi. Shu sababdan oziq-ovqat kartochkalarini joriy etishga majbur bo'lishdi.

Qishloq xo'jaligi ham davlat nazoratiga o'tdi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari hisobga olinardi va davlatga belgilangan narxlarda topshirilishi kerak edi. Grossbauer va yunkerlar xo'jaliklari, ya'ni yirik kapitalistik xo'jaliklari "merosga qoladigan saroylar" deb e'lon qilindi: o'rta asr urf-odatlariga binoan mol-mulk faqatgina katta o'g'ilga meros bo'lib qolardi. Boshqa o'g'illar esa davlatga xizmat qilib o'zlariga "yashash hududi"ni egallashlari kerak edi.

Shunday qilib, Germaniya iqtisodiyoti markazlashtirilgan tizimga to'liq o'tkazilgan bo'lib, uni monopolistik burjuaziya yetakchilari boshqarardilar. Iqtisodiyot ustidan nazorat o'nataligandan so'ng gitler hukumati urushga iqtisodiy tayyorgarlikni boshlab yubordi. 1936 yilda 2-chi to'rt yillik reja qabul qilinib, uning asosiy vazifasi Germaniyani importdan iqtisodiy mustaqilligiga erishish va harbiy sanoat asosini tashkil etuvchi tarmoqlarni jadal rivojlantrish hisoblanardi. "Erzats" – sintetik materiallar va sintetik benzin, sintetik kauchuk ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilar

konini berdi. Yoshlar uchun majburiy mehnat joriy etildi, ya'ni barcha yosh nemislar majburiy tekin mehnat qilishlari zarur edi. Konsentratsion lager maxbuslari uchun majburiy tekin mehnat joriy etildi.

Shunday qilib, harbiy xo'jalikni tashkil etishda majburiy, tashqi iqtisodiy metodlar ustuvorlikka ega edi. Ushbu maxsus harbiy iqtisodiyot okkupatsiya qilingan mamlakatlar va hududlar nazorat ostidan chiqqa boshlashi bilan yemirila boshlandi.

### **14.3. GFR iqtisodiy mo'jizasi va uning sabablari**

GFRning ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan sanoat ishlab chiqarish darajasiga erishish boshqa Yevropa mamlakatlarinikidan kechroq (1951 yilda) yuz berdi. Bunga faqatgina harbiy vayronagarchiliklar sababchi emasdi. Mamlakatda harbiy sanoatni tugatish, monopoliyalarni parchalash bo'yicha islohotlar va Germaniyaga qo'yilgan reparatsiya iqtisodiyotni tiklanishini sekinlashtirardi.

Ammo shundan so'ng GFR sanoati jadal rivojlana boshladi. 1950-1966 yy.da sanoat ishlab chiqarishining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 9,2%ni tashkil etdi. 1948 yildan 1990 yilgacha bo'lgan davrda GFRda sanoat ishlab chiqarishi 12 marotaba o'sdi, boshqa rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 5,7 marotabaga teng edi. GFRda rivojlangan kapitalistik mamlakatlar sanoat mahsulotlarining 9% ishlab chiqarilar edi.

Urushda mag'lub bo'lgan Germaniyaning jadal iqtisodiy o'sishi va 50-yy.da jahonda 2-chi o'ringa chiqib olishi "iqtisodiy mo'jiza" deb nomlandi.

Birinchidan, davlatning muvafaqiyatli aralashuvi va past darajada harbiy xarajatlar natijasida asosiy kapitalning yangilanishi. Urushgacha bo'lgan davrdagi ishlab chiqarish darajasiga boshqa mamlakatlarga qaraganda kechroq erishilgani uchun, asosiy kapitalning yangilanishi ham kechroq amalga oshirildi. Kechroq degani yuqoriroq texnik asosda degani, chunki shu bir necha yil farq oralig'ida ishlab chiqarish texnikasi ancha rivoj topgan edi.

Kapitalni yangilanishi asosan davlat yordamida amalga oshirildi, chunki parchalanib tashlangan korporatsiyalar tomonidan texnik qayta qurishni amalga oshirishning imkoniy yo'q edi. Shu sababdan, urushdan keyingi birinchi yillarda korporatsiyalar doro-

madlarining solig'i 90-94%ni tashkil etdi va bu mablag'larni davlat sanoatni tubdan yangilanishga sarfladi.

50-yy.da harbiy xarajatlarga davlat budgetining bor yo'g'i 5-6% sarflanishi rekonstruksiyaga katta mablag' sarflash imkoniyatini yaratdi: Potsdam kelishivi Germaniyaning qurollanishini taqiqlagan edi. Shu sabadan, boshqa mamlakatlarda qurol-yaroqni takomillashtirishga sarflanadigan mablag'lar Germaniyada eksperimental zavodlar va sexlar, ilmiy tadqiqotlarga sarflandi. Natijada GFR sanoatning texnik darajasi bo'yicha boshqa mamlakatlardan ustunlikka ega edi.

Ikkinchidan, urushdan keyingi davrda fashistik hukumat tomonidan ko'p yillar davomida rivojlanishga yo'l qo'yilmayotgan harbiy bo'Imagan tarmoqlarni rivojlantirish imkoni paydo bo'ldi. Ushbu tarmoq tovarlariga talabni qondirish uchun, boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, yangi zavodlarni qurish kerak edi. Shu sababdan, 50-yy.da GFR sanoatiga kapital qo'yilmalar milliy mahsulotning chorak qismiga teng bo'lardi (Angliya va AQShda bu ko'rsatkich 17%dan oshmas edi).

Lekin bu vaqtinchalik omillar edi. Nemis sanoati rivojlanayotgan va jamlangan talabni qondirayotgan vaqtda, boshqa mamlakatlarda korxonalarining rekonstruksiyasi davom etdi, ichki bozor yana toraydi.

Ichki bozor torayib borgan sari sanoat mahsulotlari eksporti oshib bordi. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlar orasida sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha 3-o'rinni egallagan GFR eksport bo'yicha 2-o'rinni egallardi. U Yaponiya eksportiga nisbatan ancha ko'p tovarlar va deyarli AQShni eksporti hajmida tovarlar eksport qildi. 1989 yilda rivojlangan kapitalistik mamlakatlar eksportining 11,4% GFRning hissasiga to'g'ri kelsa 12% AQSh ulushini tashkil etgan. GFR Angliya va Fransianing birgalikda eksportidan ko'proq tovar olib chiqar edi.

#### **14.4. Korporatsiyalar, moliyaviy guruhlari va ularni davlat tomonidan tartibga solinishi.**

Urush tugagandan so'ng Potsdam konferensiyasida Gitler qaramog'ida bo'lgan monopoliyalarni yopilishi to'g'risida qaror qabul qilingan edi. G'arbiy Germaniyada ushbu qaror monopoliyalarni parchalab tashlash ko'rinishida amalga oshirildi: ulkan trest bir qator mustaqil kompaniyalarga bo'lindi. "Po'lat trest" 10

qismga bo'lindi, Krupp konserni 7 qismga bo'lindi. Lekin, ma'lum bir vaqt o'tgandan so'ng, ularni bir-biriga qo'shib ketishiga hech narsa to'siqqliq qilmadi. Hozirgi vaqtda yirik nemis korporatsiyalari ro'yxatida aynan shu kompaniyalar o'rinni olgan.

XX asr 80-yy. boshiga kelib dunyoning 10 ta eng yirik banklari ichida birorta german banki yo'q edi. Dunyoning 20 ta yirik sanoat korporatsiyalari ichida bitta german kompaniyasi "Simens" bor edi, u ham bo'lsa deyarli oxirgi o'rinda edi.

80-yy.da GFR iqtisodiyotida bir necha moliya guruhlari ustunlik qilardi. Ulardan eng yiriklari "Nemis banki" va "Simens" elektrotexnik kompaniyasi boshqaradigan moliya-sanoat guruhi mamlakatning 1/3 qism aksioner kapitalini nazorat qilar edi. Uning tarkibiga shu paytgacha mustaqil guruh bo'lgan "Tissen" korporatsiyasi, avval Dresden banki guruhiga kirgan AEG, "Daymlerbens"lar kirdi. Guruh qora metallurgiya, elektrotexnika, avtomobilsozlik tarmog'i korxonalarini nazorat qilardi.

Ikkinci o'rinda – Dresden banki va Krupp konserni tomonidan boshqariladigan guruh. Uning tarkibiga – qora metallurgiya, mashinasozlik, yengil sanoatning ba'zi tarmoqlari kiradi. 3-o'rinda savdo kompaniyalari, mashinasozlik va qurilish konsernlarini nazorat qiluvchi Tijorat banki guruhni egallagan edi.

Ko'rinish turibdiki, GFR moliya-sanoat guruhlari banklari bilan bir qatorda sanoat korporatsiyalari ham ustuvorlikka egadir. Undan tashqari, 70-yy.da ba'zi sanoat korporatsiyalari ("Tissen", "Flik", "Farbenindustri" merosxo'rlari bo'lgan kimyo kompaniyalari) banklarsiz mustaqil guruhlar hisoblangandi. Bu jahon urushlari dan so'ng banklarning sanoat ustidan hukmronligini bo'shashishi natijasidir. Urushdan so'ng Germaniyaning "katta uchlik" banklarini hattoki bankrotlikdan qutqarishga to'g'ri keldi, chunki o'sha davrga kelib ular kapitalining asosiy qismi fashistlar hukumatining qarz majburiyatlaridan iborat edi.

GFR korporatsiyalar va moliya guruhlaring yana bir xususiyati – chuqurlashib ketgan diversifikasiya jarayoni hisoblanadi. Tarmoqlar turli guruhlar o'rtasida bo'lib olingan edi, lekin turli guruhlar tarkibida bir xil tarmoqlar ham uchraydi. Ko'ptarmoqli tarkibga o'tishni bu yerda 2 holat yengillashtirardi: "o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish"ni nazarda tutgan holda ko'ptarmoqli monopoliyalarni tashkil etishning an'anaviy usuli ("Krupp", "Po'lat tresti") va urushdan keyin monopoliyalarni parchalab tashlash: parchalab

tashlangan kompaniyalar endi diversifikatsiya jarayonini hisobga olib birlashardilar.

GFRning davlat sektori uncha katta emas edi – mamlakat aksioner kapitalining 20%dan kam. Urushdan keyingi davrda xususiy mulkni davlat tasarrufiga o'tkazish amalga oshirilmagandi. Bonn hukumati qo'lga fashistlar hukumati va harbiy jinoyatchilarning mol-mulki o'tdi, keyinchalik esa davlat sektori davlat investitsiyalari va yangi qurilishlar hisobiga kengaydi. GFR elektroenergiyasining 95%, tosh ko'mirining 75%, temir rudasining 80%, alyuminiyning 50%, avtomobilarning 40%ni davlat kompaniyalari ishlab chiqarardi. Deyarli barcha infratuzilma davlat qo'lida edi. Mamlakat kredit tizimida ham davlat sektori ustuvorlikka ega edi. Davlat budjeti orqali yalpi milliy mahsulotning 40% o'tardi, aynan budjet iqtisodiy rivojlanishni tartibga soluvchi vosita edi.

GFRda, Fransiyadagi kabi, indikativ rejalashtirishdan foydalanilgan. Iqtisodiyotga ta'sir etuvchi davlat dasturlari qisqa muddatli (aksilsiklik) va prognozlashtirish va rejalashtirish bilan bog'liq uzoq muddatli (tarkibiy) turlarga bo'linadi. Aksilsiklik choralar – pasayish davrida davlat, asosan infratuzilma tarmoqlariga, investitsiyalarni ko'paytirishida, sanoatchilarni kuchli subsidiyalashda, o'sish davrida esa davlat investitsiyalari va subsidiyalarni qisqartirishdan iboratdir. Uzoq muddatli rejalashtirish ishlab chiqarishning optimal tarkibini saqlab turishga yo'naltirilgandir. Davlat Germaniya uchun istiqbolli tarmoqlarni rag'batlantiradi va shu vaqtning o'zida pastrentabelli ishlab chiqarishlar va infratuzilmalarni qo'llab-quvvataydi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. "Daues rejasining mohiyati nimadan iborat edi?
2. Gitlerning mayda burjuaziya va monopolistik burjuaziyani yoqlab olib borgan iqtisodiy siyosatini yoritib bering.
3. Germaniya okkupatsiya qilgan hududlarda qanday iqtisodiy siyosat olib borar edi?

## § 15-MAVZU. FRANSIYANING ENG YANGI IQTISODIY TARIXI (XX ASR)

**Tayanch atamalar va iboralar:** depressiya, parsellyar xo'jalik, kollaboratsionizm, indikativ rejalashtirish, dirijizm,

### ■ Reja:

- 15.1. Ikki jahon urushlari oralig'ida Fransiya iqtisodiyoti.
- 15.2. Ikkinci jahon urushidan so'ng Fransiya iqtisodiy rivojlanishi.
- 15.3. Fransiyada korporatsiyalar va moliyaviy kapitalning xususiyatlari.
- 15.4. Mulkni davlat tasarrufiga o'tkazish va xo'jalikni davlat tomonidan tartibga solish.

### 15.1. Ikki urush oralig'ida Fransiya iqtisodiyoti

Birinchi jahon urushidan Fransiya iqtisodiyoti katta zarar ko'rgandi: sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 40%ga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 1/3 qismga qisqardi. Ammo urush iqtisodiy o'sishni jadallahuviga imkoniyat yaratib berdi.

1. Fransiyaga Elzas va Lotaringiya imperiya yerlari qaytarildi. 1871 yilda franko-pruss urushidan keyin Germaniyaga o'tib ketgan hududlar hisoblanadi. Lotaringiya – katta ruda zaxiralariga ega metallurgiya hududidir. Lotaringiyani qo'shilishi natijasida Fransiya Yevropada temir rudasi qazib olish bo'yicha birinchi o'ringa chiqib oldi. Elzas rivojlangan tekstil sanoatiga ega bo'lib, uni qo'shilishi natijasida Fransiya tekstil sanoati quvvati 1.5 barobarga oshdi. Elzas va Lotaringiyalarni qo'shilishi natijasida Fransiyada "qadimgi" tarmoqlar (metallurgiya va tekstil) 20-yy.da o'z ishlab chiqarishini ko'paytirdi, bu davrda boshqa mamlakatlarda ushbu tarmoqlar turg'unlik holatida edi.

2. Fransiya Germaniyadan reparatsiya sifatida 8 mlrd.oltin marka olgan edi. Ushbu reparatsiyalarning asosiy qismi toshko'mir bilan to'langan edi. Hukumat ko'mirni sanoatchilarga o'ta past narxlarda sotib ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirardi va raqobatbardoshlikni oshirardi.

3. Urush oqibatidagi vayronagarchiliklarni tiklash natijasida asosiy kapital yangilandi va bu Fransiya sanoat o'sishiga sababchi bo'ldi. Bu o'sha davr uchun noyob hodisa edi.

Fransiyada 20-yy.dagi sanoat o'sishi boshqa mamlakatlarni- ga nisbatan uzoqroq davom etdi (1930 yil yozigacha). 1930 yilga kelib Fransiya sanoat ishlab chiqarishi 1913 yilga nisbatan 40%ga o'sgan edi. O'sha davrda sanoat o'sish sur'atlari Fransiyada AQSh, Germaniya, Angliyanikidan yuqori edi.

Jahon iqtisodiy inqirozi Fransiyada boshqa mamlakatlardan ko'ra kechroq (1930 yilda) boshlandi. Fransiya sanoati ishlab chiqarishni kengaytirayotgan sharoitda boshqa malakatlarda pasayish yuz berayotgan edi.

Inqiroz davrida sanoat mahsulotlar ishlab chiqarilishi 1/3 qismiga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilishi 40%ga qisqardi. Fransiyada kech boshlangan inqirozni tugashi ham kech bo'ldi (1936 yil). Ba'zi tarmoqlar (ko'mir, kemasozlik) ikkinchi jahon urushi boshlangunga qadar ham inqiroz holatidan chiqo olishmadi.

Inqirozdan keyin yangi sanoat o'sishi yuz bermadi. Inqiroz o'rnnini depressiya egalladi, so'ngra sezilar-sezilmas jonlanish yuz berdi. Agar inqirozgacha fransuz sanoati boshqa mamlakatlarga nisbatan tezroq o'sgan bo'lsa, endi u yana ulardan orqada qolardi. 1938 yilda 1913 yildagi kabi hajmda mahsulot ishlab chiqarilgan edi. Qishloq xo'jaligida ham turg'unlik holati edi. 1938 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 1913 yildagi ko'rsatkichga nisbatan bor yo'g'i 10%ga oshgan edi.

XX asr 20-yy.da Fransiya iqtisodiy o'sishini ta'minlagan omillar 30-yy.ga kelib o'z ta'sirini yo'qotdi, ishlab chiqarish kuchlari esa past darajada qolaverdi. Fransuz tovarlari jahon bozorida juda past raqobatbardoshlikka ega edi. Ikkinchi jahon urushiga kelib Fransiya hanuzgacha agrar mamlakat hisoblanar edi: qishloq xo'jaligida aholining 37%, sanoatda esa – 25% band edi. Sanoat tarkibi ham qcloq edi. 20-yy.da og'ir sanoatning "yangi" tarmoqlari jadal rivojlangan bo'lsa ham yengil sanoat katta ustunlikka ega edi: tekstil, poyabzal va oziq-ovqat sanoatlarida sanoat ishchilarining yarmidan ortig'i band edi.

XX asrning 20-30 yy.da Fransiya sanoatida "Komite de forj" harbiy-sanoat konserni, "Kyulman" kimyo konserni kabi monopoliyalar kuchayib bordi, ammo, umuman olganda, ishlab chiqarishni konsentratsiyalashuvi va sanoatni texnik jihozlashuvi jahatidan

Fransiya boshqa yetakchi mamlakatlardan orqada qolar edi. Ikkinchì jahon urushi arafasida sanoatda band bo'lgan ishchilarning 40% hunarmandchilik ustaxonalarida qo'l mehnati bilan, ishchilar soni 10 tagacha bo'lgan ishlab chiqarishlarda band edilar. Modabop tovarlar ishlab chiqarish katta ahamiyat kasb etmasdan, an'anaviy ixtisoslashuv Fransiyani orqaga tortar edi.

Birinchi jahon urushiga qadar Fransiyani dunyo sudxo'ri deb nomlashardi. Urushdan keyin Fransiya haqida bunday fikr bildirib bo'lmashdi. Oktyabr inqilobi natijasida Fransiya Rossiyada chetga olib chiqilgan kapitalning yarmidan mahrum bo'ldi: sovet hukumat oldingi hukumatlarni qarzlarini tan olmadi va Fransiya zaymlarini qaytarishdan voz kechdi, Rossiyaning ko'mir va metallurgiya sanoatiga sarflangan kapitallar esa ushbu sanoatlarni davlat mulkiga o'tkazilishi natijasida yo'qtildi.

Undan tashqari, urush davrida Fransiya, boshqa Yevropa mamlakatlari kabi, AQShga qarzdor bo'lib qoldi va endi kapital eksporti bo'yicha jahonda 4-o'rinni egallar edi.

Bunda kapitalni zaym shaklida emas ishlab chiqarish shaklida olib chiqish hajmi oshdi. Bu ko'proq kapital mustamlakalarga olib chiqilishi bilan bog'liqdir. Urushgacha bo'lgan davrda eksportning 10% mustamlakalarga yo'naltirilgan bo'lsa, 30-yy. oxiriga kelib bu ko'rsatkich 30%gacha ko'tarildi. Fransiya endi mustamlakalarni o'zlashtirishni boshlagan edi. Lekin mustamlakalarga zaymlar berilmaydi, mustamlakalarga olib chiqilgan kapital ularning iqtisodiyotiga sarflanadi.

## **15.2. Ikkinchì jahon urushidan so'ng Fransiya iqtisodiy rivojlanishi**

Ikkinchì jahon urushidan Fransiya ko'rgan talofatlar bombardimonlardan tashqari Germaniya qo'shini tomonidan okkupatsiya natijasida yuz berdi. Ishlab chiqarish o'rtacha uch marotaba qisqardi: sanoat ishlab chiqarishi 70%ga qisqardi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi ikki barobar qisqardi, avtomobil parki va yuk tashish uch marotaba qisqardi. 1938 yildagi sanoat ishlab chiqarish darajasiga 1948 yilga kelib erishildi.

1990 yilga kelib Fransiya sanoat ishlab chiqarishi 5,5 barobar o'sdi. Boshqa rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishining o'sishi 8,5 barobar, 1948 yilga nisbatan 5,7 marta o'sgan edi. Ushbu davrda Fransiya sezilarli darajada orqada qol-

gandi. 1938 yilda Fransiyada rivojlangan kapitalistik mamlakat-larning 7,7% mahsuloti ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1989 yilda bu ko'rsatkich 5,7%ni tashkil etdi.

O'tgan davr ichida Fransiya sanoatida progressiv siljishlar amalga oshdi. Fransiya yengil sanoatning ustuvorligidan voz kechdi. 80-yy. boshlariga kelib mashinasozlik, metallni qayta ishlash, elektrotexnika, avtomobil, aviaraketa va kimyo sanoatlari jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning 60%ni, qazib olish tarmoqlari (metallurgiya, ko'mir, neftgaz) bilan esa 70%ni tashkil qilgan. Yengil sanoat esa sanoat mahsulotining 30%ni tashkil etardi.

Urushdan so'ng Fransiyada iqtisodiyotning barcha tarmoqlari ni kompleks rivojlantirishga qaratilgan siyosat olib borildi. Ushbu siyosat integratsiya qoidalariga zid edi, chunki Fransiya xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish o'rniga barcha mahsulot turlari bilan o'zini-o'zi ta'minlashi nazarda tutilgan edi. Ushbu siyosat iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas edi, chunki unda jahon bozorida talab qilinmayotgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi an'anaviy tarmoqlarni rivojlantirish ham nazarda tutilgandi. Ushbu tarmoqlar fransuz sanoatining 40%ni tashkil etgan.

70-yy.da siyosat o'zgardi. Endi hukumat jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi istiqbolli tarmoqlarni rivojlanishini rag'batlantirardi. Avtomobil, aviaraketa va elektro- texnika sanoatlari katta yutuqlarga erishildi. 80-yy. boshiga kelib rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda ushbu tarmoqlar ulushi bo'yicha Fransiyaga 10% to'g'ri kelardi (butun sanoat bo'yicha esa 6%).

1980 yilda sanoatda 25,8% aholi band edi, xizmatlar sohasida 57%, ya'ni sanoatga nisbatan 2 barobar ko'p. Qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni 8,7%gacha pasaydi. Endi Fransiya agrar mamlakat emas edi.

Qishloq xo'jaligidagi uzoq davrdagi turg'unlik uning tarkibida mayda parsellyar dehqon xo'jaliklari<sup>1</sup> asosiy o'rinni egallaganligi bilan tushuntiriladi. Hisob-kitoblarga ko'ra ushbu xo'jaliklarning 1/3 qismi o'z egalarining ehtiyojlarini qondira olmas edi. Bir so'z bilan aytganda, Fransiya qishloq xo'jaligida hali kapitalizm munosabatlari to'liq shakllanmagan edi. Shu sababdan norenta-

<sup>1</sup> Parsellyar xo'jalik – olibaviy indiv dual dehqon xo'jaligi. Industrial jamiyatgacha bo'lgan davrda natural iste'mol ishlab chiqarishni yuritishning asosiy shakli.

bel mayda xo'jaliklarni yo'q qilish, qishloq xo'jaligini kapitalistik rivojlanish yo'liga o'tkazish, ratsional fermer xo'jaliklarini shakllantirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Davlat majburiy ravishda norentabel xo'jaliklarni sotib olardi, bu dehqonlarning ommaviy chiqishlarini keltirib chiqardi.

Davlat "Kredi agrikol" banki orqali yirik fermer xo'jaliklari shakllanishini, qishloq xo'jaligi texnik darajasini oshirilishini rag'batlantirar edi. Oxirgi yillarda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini jadal o'sishi ushbu islohotlarning natijasi edi.<sup>1</sup>

Hozirgi kunda Fransiya qishloq xo'jaligi o'z mahsulotining 1/3 qismini eksport qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmi bo'yicha Fransiya Yevropada birinchi, jahonda ikkinchi (AQSh-dan keyin) o'rinda.

### **15.3. Fransiyada korporatsiyalar va moliyaviy kapitalning xususiyatlari**

Jahonning eng yirik 10 ta tijorat banklari qatoriga 4 ta fransuz banklari kiradi: "Bank nassonal de Pari", "Kredi agrikol", "Kredi Livne", "Sosete jeneral". Jahonning eng yirik 10 ta sanoat kompaniyalari qatoriga birorta fransuz kompaniyasi kirmaydi. XX asr boshida Fransiya uchun xos bo'lgan xususiyat – kapitalning yuqori konentratsiyalashuvi, lekin ishlab chiqarishni past darajada konetratsiyalashuvi – hozirgi kungacha ham saqlanib qolgan. Fransuz korxonalarining 95%ni 20 kishigacha faoliyat ko'rsatadigan mayda ishlab chiqarishlardan iborat edi. Hunarmandchilik ham katta ahamiyat kasb etadi.

Fransuz korxonalarining ko'pchiligi zamon talab etayotgan optimal hajmga ega emas edi, shu sababdan davlat tomonidan firmalarni qo'shilib ketishi va sanoatni yiriklashtirish siyosati olib borilar edi. Yaqin davrlarga qadar jahonning 100 yirik kompaniyalari qatoriga bor yo'g'i 5 ta fransuz kompaniyalari kirgan, bunda ularning eng kattasi 50-o'rinda edi. XX asrning 80-yy. boshlarida esa 20 eng yirik kompaniyalar qatoriga 2 ta fransuz kompaniyalari kirishga muvaffaq bo'ldi.

Urushdan keyingi birinchi o'n yillikda Fransiya iqtisodiyotida Rothschildar, Lazarlar, Shneyderlarning an'anaviy moliya guruhlari

<sup>1</sup> Конотопов М. В., Сметанин С. И. Экономическая история: Учебник. - 9-е изд., доп. и перераб. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2007. - С.264.

o'z pozitsiyalarini saqlab qoldi. 60-yy.dan boshlab esa ikki yangi guruh – "Pariba" va "Syuez"larning ekspansiyasi boshlandi. Guruhlar boshqaruvida banklar emas xoldinglar turardi. Ular sanoat kompaniyalari va banklar aksiyalarining yirik paketlariga egalik qilishardi. 1980 yilda ushbu ikki guruh fransuz sanoati aktivlarining 20%ni nazorat qilardi va uning tarkibiga deyarli barcha sanoat tarmoqlarida 2,6 ming sanoat korxonalari kirardi.

"Pariba" guruhni tarkibiga "Bank de Pari de Pey Ba", Fransiyaning yirik sanoat korporatsiyasi "Kompani fransez de petrol", "Tomson-Vrandt" elektrotexnik kompaniyasi va boshqalar kirardi. Guruh kapitali neftkimyo, elektronika, metalluriya, mashinasozlik, noshirlik ishi va boshqalarga sarflangandi. Umuman olganda, guruhning manfaatli sohalarini aniqlash uchun fransuz sanoatining barcha tarmoqlarini sanab o'tish kerak.

"Syuez" guruhining nomi Sues kanalining nomidan kelib chiqqan. 50-yy.da Misr hukumati tomonidan Sues kanali davlat tasarrufiga o'tkazilgandan so'ng "Sues kanali kompaniyasi" Misr dan olingan kompensatsiyani fransuz iqtisodiyotining turli tarmoqlariga investitsiyaladi. Guruh tarkibiga "de'Endoshin e de Syuez", "Sen-Goben", "Ron-Pulek" konsernlari va boshqalar kirdi. Guruh tarkibiga kiruvchi kompaniyalar ko'ptarmoqli xususiyatga ega edi.

Fransiyada moliyaviy kapitalning rivojlanishi boshqa mam-lakatlarga nisbatan chuqurroq edi. Banklar va moliya guruhlari bir-birlari bilan tobora chuqurroq bog'lanib, chirmashib ketardi. Har bir yirik bank faqatgina sanoat firmalarining emas, balki boshqa banklarning aksiyalarini sotib olardi.

Alohiда bank va moliya guruhlari bir-biriga shunday qo'shilishib ketishadiki ular o'rtaсидаги chegara sezilmay qoladi. Yangi sanoat firmalari endi bitta emas balki bir necha moliya guruhlari tomonidan ta'sis etilardi; eski firmalar bir necha moliya guruhlari va banklar nazorati ostida faoliyat yuritishadi. Yirik banklarning kredit portfeli (ya'ni unga tegishli aksiyalar) bankning o'z kapitalidan oshib ketardi. Banklar endi portfel kompaniyalarga aylanishdi.

## **15.4. Mulkni davlat tasarrufiga o'tkazish va xo'jalikni davlat tomonidan tartibga solish.**

Ikkinci jahon urushidan so'ng birinchi hukumat tarkibida besh vazirlik portfellari communistlarga tegishli edi. Ushbu vazirliklar aynan iqtisodiyotga tegishli vazirliklar edi. Shu sababdan mulkni davlat tasarrufiga o'tkazish ham communistlar dasturi asosida amalga oshirilgan edi. Davlat tasarrufiga 5 ta yirik banklar (mamlakat bank kapitalining 60%), ko'mir va gaz sanoati, elektrostantsiyalar, harbiy sanoat, transport, aviatsiya, avtomobil sanoatining bir qismi o'tdi. Ishlab chiqarish quvvatlarining 20% davlat qo'liga o'tdi.

Fransiyada mulkni davlat tasarrufiga o'tkazilish angliyanikidan farqlanardi. Bunda "qadimgi" tarmoqlar korxonalari bilan bir qatorda "yangi" tarmoqlar korxonalari ham davlat tasarrufiga o'tkazildi. Kompensatsiyani hamma olmadi: kollaboratsionistlar<sup>1</sup> korxonalari davlatga kompensatsiyasiz olib qo'yildi. "Reno" kompaniyasining avtomobil zavodlari kompensatsiyasiz davlat tasarrufiga o'tkazildi. Eng muhimi – birinchi 10 eng yirik banklar tarkibiga kiruvchi fransuz banklarini davlat tasarrufiga o'tkazilishi jahon moliya bozorida fransuz pozitsiyalarini pasaytirib yubordi.

1982 yilda mulkni davlat tasarrufiga o'tkazilishning ikkinchi bosqichi amalga oshirildi. Endi davlat tasarrufiga yana, davlat sektoridan tashqarida qolgan eng yirik banklardan 36 tasi o'tdi. Kredit tizimi deyarli to'liqligicha davlat qo'liga o'tdi. "Pariba" va "Syuez" yirik moliya guruhlari, 5 ta yirik sanoat korporatsiyalari davlat tasarrufiga o'tkazildi. Endi davlat sektori sanoat mahsulotining 23%ni ishlab chiqarardi, mamlakatdag'i kapital qo'yilmalarning yarmi ushbu sektorga to'g'ri kelardi. Sanoat mahsulotlarining bor yo'g'i 23% davlat sektoriga to'g'ri kelishining asosiy sababi mahsulotlarning asosiy qismi mayda firmalar va korxonalarda ishlab chiqilar edi. Davlat korxonalari endi aviatsiya mahsulotlarining 85%, qora metallning 80%, rangli metallning 62%, kimyo sanoati mahsulotining 48%, elektronika va elektrotexnikanining 44%ni ishlab chiqarardi. Davlat sektori korxonalarining deyarli yarmi – dav-

<sup>1</sup> Kollaboratsionizm (fr collaboration - «hamkorlik») – dushman bilan ongli, ixtiyoriy va ataylab hamkorlik qilish, dushman manfaatlarini kc'zlagan va o'z davlatiga ziyon keltingan holda faoliyat yuritish. Qisqacha – okkupantlar bilan hamkorlik ma'nosini beradi.

lat va xususiy kapital ishtirokidagi aralash kompaniyalar edi. Bunday kompaniyalarda davlat bor yo'g'i eng yirik aksioner edi, xolos. Fransiyada davlat budgeti orqali milliy daromadning 40% o'tardi.

Tabiiyki, bunday holatda davlat rejalashtirishi alohida rivojlanishga ega bo'ldi. Fransiyada rejalashtirish bo'yicha bosh organ "Rejalashtirish bo'yicha bosh komissariat" kommunistlar tashabbusi bilan 1946 yilda tashkil etildi. O'sha davrdan beri rejalashtirish boshlangan edi, 1980 yilda 8-iqtisodiy rivojlanish rejasi qabul qilindi.

Aynan Fransiyani indikativ rejalashtirish namunasi sifatida e'tirof etishadi. Davlat organlari faqatgina davlat sektoridagi korxonalarni bevos ta boshqarib, ular bilan "uzoq muddatli shartnomalar" imzolardilar. Bunda aniq rejali vazifalar bo'yicha shartnomalar faqatgina aksioner bo'limgan kompaniyalar bilan tuzilardi. Davlat sektorida katta ulushga ega bo'lgan aksioner kompaniyalar bilan esa rivojlanishning faqatgina strategik yo'nalishlari qayd etilgan shartnomalar imzolanadi. Rejali tavsiyalarni xususiy firmalar ham olishardi. Ular uchun ushbu tavsiyalar majburiy bo'imasdan, lekin ularni bajarilishi iqtisodiy jihatdan soliq imtiyozlari, kreditlar va subsidiyalar bilan rag'batlantirilardi.

Fransiyada davlat sektori va davlat budgeti kapital qo'yilmalarni ko'paytirish va sanoat o'sishining jadallahushi uchun foydalananlar edi. Fransiyadagi sanoat korxonalari kichik bo'lganligi sababli o'z-o'zini moliyalashtirish, foya hisobiga ishlab chiqarishni kengaytirish masalalari murakkabroq edi. Davlat kapital qo'yilmalarning asosiy qismini o'z zimmasiga olgan edi.

80-yy. bosqlarida Fransiya iqtisodiyotida ikki tendensiya mavjud edi. So'llar, kommunistlar va sotsialistlar sotsializm qurilish dasturini amalga oshirishga intildilar, o'nglar esa iqtisodiyotni liberallashuviga intildilar. Davlat mulkiga o'tkazishning ikkinchi bosqichidan so'ng so'llar ularning dasturi real iqtisodiy voqelikka mos kelmayotganligiga ishonch hosil qilishdi. Agar avvalalari sanoat ishlab chiqarishi yiliga hech bo'limganda 4-4,5%ga o'sgan bo'lsa, 1980-1985 yy.da yiliga o'rtacha 0,1%ga qisqarish yuz berdi.

Kommunistlar hukumatdan ketishdi. Ularning obro'si tushib ketdi. Avvalgi saylovda 20% ovoz to'plangan bo'lsa endi 8%gina to'plandi. Sotsialistlar bir muncha tanaffusdan so'ng hukumatga

qaytdi. Lekin endi bu o'rtacha partiya bo'lib, uning iqtisodiy siyosati M.Tetcher siyosatidan farq qilmasdi.

1986 yilda o'nglar hukumati 1991 yilgacha mulkni davlat tasarrufidan chiqarish to'g'risida qonun qabul qilishdi. 1987 yilda hukumat tepasiga sotsialistlar kelishi munosabati bilan xususiylashtirish jarayoni to'xtatildi. Lekin bu davrgacha 12 ta kompaniya xususiylashtirilib bo'lingan edi. Ular jumlasiga - "Sosete jeneral" banki, "Pariba" va "Syuez" guruhlari kirardi. Bir vaqtning o'zida "dirijizm"<sup>1</sup> pasaytirish bo'yicha choralar qo'llanila boshlandi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

- 1. Buyuk depressiyaning Fransiyaga kech ta'sir etishining sabablari nimada?*
- 2. Ikkinci jahon urushidan so'ng Fransiya sanoatidagi progressiv siljishlarning sababi nimada?*
- 3. Fransiyada mulkning davlat tasarrufiga o'tkazilish xususiyatlari nimada?*

<sup>1</sup> Dirijizm (fr. dirigisme) — davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarishga faol aralashish siyosati.

## § 16-MAVZU. YAPONIYANING ENG YANGI IQTISODIY TARIXI (XX ASR)

**Tayanch atamalar va iboralar:** "oraliq" inqiroz, "Tanaka mem-orandumi", militarizatsiya, demping, ekspansiya, dzaybatsu, "kichik mexanizatsiyalash", paternalizm.

■ **Reja:**

- 16.1. *Yaponiyada harbiy sohaning rivoji va urushdan keyingi qiyinchiliklar.*
- 16.2. *Ikkinchi jahon urushidan oldin va urush davrida iqtisodiyotning harbiylashtirilishi.*
- 16.3. *Urushdan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar. Dzaybaysu'larni qayta tashkil etish.*
- 16.4. *Yapon "iqtisodiy mo'jiza"si va uning sabablari.*
- 16.5. *Tashqi iqtisodiy aloqalar.*

### **16.1. Yaponiyada harbiy sohaning rivoji va urushdan keyingi qiyinchiliklar**

Birinchi jahon urushida Yaponiya Antanta tarkibida urush olib bordi. Uning Germaniya bilan kelishmovchiligi yo'q edi, lekin Antanta tomonida urushish afzalroq edi: Germaniyaning Uzoq Sharqda harbiy qo'shinlari yo'q edi, lekin tortib olish mumkin bo'lgan mustamlakalari bor edi. Agar Yaponiya Antantaga qarshi urushganda u Rossiyaga qarshi urushishi kerak edi.

Yaponiya Angliya oldidagi ittifoqdoshlik majburiyatiga rioxalib urushga kirishdi. Angliya shartnomasi haqiqatda ham bor edi, lekin u Yaponiyani Angliya tarafida urushishga majburlamas edi. Angliya hukumati Yaponiyani urushda qatnashishi nemis mustamlakalarini bosib olinishga olib kelishini tushungandan so'ng Yaponiyani urushda qatnashishdan voz kechishini talab qilgan, lekin natija bo'limgan.

Yaponiya urushda nominal ravishda qatnashgan bo'lsa ham o'ziga yaqin bo'lgan Germaniya mustamlakalarini (Shandundagi

<sup>1</sup> Dzaybaysu - (yap. 財閥, mulk) – "pullik klan" yoki konglomerat i anglatuvchi yaponcha termin.

konsessiya, Tinch okeanidagi Mariana, Karolina va Marshall orollari) muvaffaqiyatli bosib oldi.

Shu bilan urushdan olingen foydalar cheklarmagan. Urush davrida Yevropa mamlakatlari o'z tovarlarini osiyo bozorlariga olib kelishni to'xtatishdi va Yaponiya shoshilinch ravishda ushbu bozorlarni o'zlashtirishni boshladi. Yaponiyada eksport 3 marotaba o'sdi, sanoat ishlab chiqarishi esa 5 marotaba. Eksport kambag'al Yaponiyaga oltin oqib kelishini ta'minladi, urush davrida Yaponiya oltin zaxirasi deyarli 7 marotaba o'sdi.

Lekin hammasi harbiy kon'yunktura tugashi bilan yakunlandi. Yevropa tovarlari osiyo bozorlariga qaytib keldi va Yaponiya eksporti 40%ga qisqardi, buning natijasida sanoat ishlab chiqarishi 20%ga pasaydi. 1920-1921 yy.dagi inqirozdan Yaponiya ancha vaqtgacha o'ziga kela olmadi. Faqatgina 1925 yilga kelib ishlab chiqarish inqirozdan oldingi davr (1919 yil) darajasiga tenglashdi, lekin 1926-1927 yy.da Yaponiyani "oraliq" inqiroz qamrab oldi. Ishlab chiqarish kuchlarining chorak qismi bekor qoldi, bir qator banklar va savdo uylari bankrotga uchradi. Ushbu inqirozning o'zi iqtisodiyotni militarizatsiyalashga bиринчи туркӣ bo'ldi. U hukumat tepasiga reaksiyon general Tanakani olib keldi va 1927 yilda "Tanaka memorandumi" paydo bo'lib, u o'zica butun dunyoga hukmron bo'lishni strategik rejasini mujassamlashtirgan edi.

Ushbu reja asosida avval Xitoy va sovet Uzoq Sharqini, keyinchalik butun Osiyo, Yevropani bosib olish va AQShni tor-mor qilish bilan yakunlash nazarda tutilgan edi.

"Oraliq" inqirozdan bir yil o'tib (1929 yilda) yangi jahon inqirozi boshlandi. Ishlab chiqarish yana 40%ga pasaydi, banklar va sanoat kompaniyalari yopila boshladi.

Shunday qilib, bиринчиjahon urushi oxiridan 30-yy.ga qadar Yaponiya muntazam ravishda inqirozlar va depressiyalarni boshdan kechirdi. Uning iqtisodiyoti tinchlik sharoitida normal rivojlanishi uchun o'ta zaif edi. O'ta past darajadagi ish haqi va mayda dehqon xo'jaliklari sababli ichki bozor juda tor edi, tashqi bozorda esa yapon tovarlari ishlab chiqarish kuchlarining carajasi pastligi sababli raqobatbardosh emas edi. Ular "arzon, lekin sifatsiz" tovarlar hisoblanardi.

Qishloq xo'jaligida bиринчиjahon urushigacha bo'lgan munosabatlar saqlanib qolgandi. Yerning yarmidan ortig'i pomeshiklarning mulki hisoblanardi, ular o'zlari mehnat qilmasdan yarlarni ij-

raga berishardi. Ko'pchilik holatlarda bu "mavjud bo'limgan pomeshiklar" edi, ular qishloqlarda emas shaharlarda yashashardi, ular faqatgina ijara haqi olish orqali yer bilan aloqasini ko'rsatardi. Ijara haqi hosilning 50-60%ni tashkil etardi. Dehqon xo'jaliklariga tegishli yerkarning o'rtacha hajmi 1 gektardan kam edi. Qishloq xo'jaligida, avvalgidek, omoch keng ishlatalardi; dehqonlarning 80% ish hayvonlariga ega emasdilar.

## **16.2. Ikkinchi jahon urushidan oldin va urush davrida iqtisodiyotning harbiylashtirilishi**

Yapon hukumati iqtisodiy inqirozdan chiqishni militarizatsiya va bosqinchilikda ko'rmoqda edi. 1931 yilda yapon qo'shinlari Manchjuriyani bosib olish bilan Xitoya nisbatan "e'lon qilinmagan" urushni boshlab yubordi, 1937 yilda "e'lon qilinmagan" urush, ochiq va e'lon qilingan urushga aylandi. 1932 yildayoq harbiy xarajatlar davlat budjetining 1/3 qismini tashkil qildi, 1938 yilda esa 70%ga etdi. 1938 yilda "Millatni to'liq mobilizatsiya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, unga binoan hukumat mam-lakat iqtisodiyoti ustidan to'liq nazorat qilish imkonini oldi.

Militarizatsiya yaponiya sanoatini inqirozdan tez olib chiqdi. 1936 yilga kelib sanoat ishlab chiqarishi 1929 yil darajasiga nisbatan 70%ga o'sdi, shu jumladan og'ir sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish – 2,6 marotaba o'sdi. Ushbu yillarda og'ir sanoat yengil sanoatdan o'zib ketdi va sanoat mahsulotlarining yarmidan ortig'ini bera boshladi.

Ammo 30-yy.da yengil sanoat ham yuqori sur'atlar bilan o'sa boshladi. Gap shundaki. Yaponiya strategik xom ashyolardan (temir rudasi, neft va boshq.) mahrum edi. Ushbu xom ashyoni xorijdan sotib olishga to'g'ri kelar edi. Sotib olish uchun mablag'ga ega bo'lishi, buning uchun esa o'z tovarlarini eksport qilish kerak edi. Yaponiya faqat yengil sanoat mahsulotlarini (asosan tekstilni) eksport qila olar edi. Tekstil eksportini ko'paytirish uchun boshqa mamlakatlardan bozorni tortib olishi va o'z navbatida esa arzonroq sotish kerak edi. Yaponiya ijtimoiy demping<sup>1</sup>ni amalga oshira boshladi. Yaponiyada yarimfeodal uslublardan va davlat majburlashidan foydalaniib ishchilarni ekspluatatsiya normasi oshib bor-

<sup>1</sup> Demping – raqobatchilarni siqib chiqarish maqsadida chet elda tovarlarni arzon narxlarda sotishdir. Ijtimoiy demping esa – yapon tovarlarining arzonligi mehnatning arzonligi bilan ta'minlanishidir.

di. Juda arzon matolar ishlab chiqarildi va eksport qilindi, natijada Angliya sharq bozorlaridan siqib chiqarila boshlandi. 30-yy.da Yaponiya sun'iy shoyi ishlab chiqarish bo'yicha jahonda 1-o'rinni egalladi.

"Janubiy dengiz mamlakatlari"ga (Janubi-Sharqiy Osiyo) iqtisodiy ekspansiya faqatgina eksportni kuchaytirishda namoyon bo'lindi. Yaponiya strategik xom ashay manbalarini o'zlashtira boshladi: kauchuk plantatsiyalarini yaratdi, neft va mis rudasini qazib olishni boshladi.

30-yy.da Yaponiyada fashistlar rejimi o'rnatildi. Huddi Germaniyadagi kabi, iqtisodiyotda haddan tashqari kuchli davlat boshqaruvi amalga oshirildi. Mayda va o'rta korxonalarning bir qismi yopildi, qolganlari esa "nazoratdagi assotsiatsiyalar"ga birlashtirilib, ular davlat organlari nazorati ostida faoliyat yuritar edi. Davlat ushbu organlar orqali ish kuchi, resurslar, kreditlarni taqsimlar edi. Ishchilar korxonalarga biriktirilgan, dam olish kunlaridan mahrum edilar, ish kuni uzunligi ba'zida 15 soatgacha etardi.

Davlat tomonidan tartibga solishning kuchayishi dzaybatsuni kuchayishini anglatardi, chunki ularning yuqori tabaqasi "nazoratdagi assotsiatsiyalar"da rahbar lavozimlarni egallashdi. Bu davrda dzaybaysularning "katta to'rtligi" - "Mitsui", "Mitsu-bisi", "Sumimoto", "Yasud" kuchayib bordi. Faqat dzaybaysu oddiy kompaniya emasligini e'tiborga olish zarur. ular maxsus tarkibdagi moliya guruhlariga aylanishdi. Har bir guruuh boshida xolding-kompaniyasi ("motikabu kaysya") turib, ular aksiyalarining asosiy qismi guruuh oilasining boshiga tegishli bo'ladi. Guruuh tarkibiga kiruvchi banklar, savdo, transport va sanoat korxonalarga topshiriqlar shu yerdan chiqarilardi.

1941 yil dekabrida Perl-Xarbordagi amerika bazasiga to'satdan hujum qilib, amerikaning tinch okeani flotining asosiy qismini yakson qilish bilan Yaponiya ikkinchi jahon urush ga qo'shildi. 1942 yil bahorga qadar yapon harbiy kuchlari shu kunga qadar "tinch munosabatda" bo'lgan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini bosib oldi. Shu bilan g'alabalar yakunlangan edi. Yaponiyani urushda mag'lub bo'lishi iqtisodiy omillar bilan belgilab berilgan edi. Iqtisodiyotni yuqori darjada militarizatsiyalashuviga qaramasdan, Yaponianing harbiy-sanoat salohiyati juda past edi. Bu strategik xom ashyoning ko'pchilik turlarining yo'qligi va og'ir sanoatning

past darajada rivojlanganligi bilan belgilangan edi. Yaponiyada stanoksozlik mamlakat ehtiyojining chorak qismini qondirar edi. Yoppasiga militarizatsiya harbiy qo'shirlarning birlamchi hujumini ta'minlay oldi, so'ng pasayish boshlandi. 1943 yildan boshlab sanoat ishlab chiqarishi qisqara boshladi. Harbiy ishlab chiqarishni pasayishini to'xtatish maqsadida sanoatda "o'z-o'zini eyish" boshlandi. To'qimachilik stanoklari va yengil sanoatning boshqa uskunalarini po'llat ishlab chiqarish maqsadida eritishga jo'natildi. Harbiy texnikaning etishmovchiligi kamikadze-uchuvchi va kamikadze-dengizchilarni paydo bo'lishi bilan ham bog'liq edi: inson mashina va texnikadan arzon edi.

### **16.3. Urushdan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar. Dzaybaysularni qayta tashkil etish.**

Urushdan so'ng amerika qo'shirlari tomonidan okkupatsiya qilingan Yaponiyada militarizm-fashizm tartiblarini yo'q qilishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Iqtisodiy jihatdan ikkita islohot muhim edi.

Birinchisi: 1945 yilda dzaybaysularni yo'q qilish to'g'risida qonun qabul qilindi. Lekin hanuzgacha Yaponianing yetakchi moliya guruhlari tarkibida Mitsui, Mitsubishi, Sumimotolar mavjud. Buning sabablari: qonun loyihasini guruhlarning birini rahbari Yasuda ishlab chiqqan edi. Keyinchalik ushbu loyiha boshqa guruhlar tomonidan ma'qullangan va shundan so'ng davlat tomonidan qabul qilindi. Ushbu qonun bilan guruhlarning bosh xolding-kompaniyalari yo'q qilindi. Natijada guruhlarni boshqarish funksiyasi banklarga o'tdi. Gap shundaki, har bir dzaybatsu tarkibida guruh nomi bilan nomlanuvchi bank mavjud edi (Mitsui Banki, Mitsubishi Banki va boshq.).<sup>1</sup> Bu banklarning nomlari o'zgartirilgan edi, lekin ular keyinchalik avvalgi nomlarini tiklashdi, Yasuda bankidan tashqari, chunki uning nomi yaponlarning muqaddas tog'i Fudzi nomi bilan nomlangan edi. Guruhlar oilaviylik karakterini yo'qotib bordi: banklar xoldinglar kabi oilaviy mulk emas edi. Moliya guruhlarning oilaviy karakterini yo'qotishi umumiy qonuniyatdir.

Undan tashqari, yetakchi sanoat kompaniyalari 1945 yildagi qonunga binoan (huddi Germaniyadagi kabi) parchalanib tash-

<sup>1</sup> Конотопов М. В., Сметанин С. И. Экономическая история: Учебник. - 9-е изд., доп. и перераб. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2007. - С.284.

langan edi. Lekin keyinchalik ular birlashib ketish asosida avvalgi holatiga qaytib kelishdi.

70-yy.ga qadar "katta to'rtlik" yapon iqtisodiyotida yetakchilik pozitsiyalarini saqlab qolgan edi. Keyinchalik yangi guruhlar – "Dayiti" va "Sanva" yetakchilik qila boshlashdi, endi Yaponiya iqtisodiyotida "katta otilik" hukmrolik qila boshladi.

Yaponiya moliya guruhlarini tom ma'noda dzaybatsu deb nomlash noto'g'ridir, lekin ular yevropa va amerikadagi moliya gurhlaridan farq qilishadi. Sanoat kompaniyalari o'z foydasi hisobidan ishlab chiqarishni moliyalashtirish borasida g'am chekmasligi zarur: moliyalashtirish, investitsiyalar bilan guruhnii boshqaruvchi bank shug'ullanishi kerak. Tabiiyki, banklar ommaviy investitsiyalarni amalga oshirish uchun kengroq imkoniyatlarga egadir. Sanoat kompaniyalari mahsulotni sotish, bozorlarni egallah bilan shug'ullanishi kerak emas: bu bilan har bir guruh tarkibidagi savdo kompaniyalari shug'ullanishi kerak. Shunday qilib, guruh ichida aniq mehnat taqsimoti mavjud, ya'ni uning tarkibiy qismilari o'rtaida boshqa mamlakat guruhlari ichdagiga nisbatan uzviy aloqalar o'rnatilgandir. Yapon mahsulotlarida "Mitsui", "Mitsubishi" markalarini nomi aks etadi, yevropa va amerika tovarlarida guruhlarning nomi emas balki "Kaliforniya" yoki "Tijorat banki" yozuvlarini ko'ramiz. Bu borada yapon guruhlari tarkibida bank va savdo kompaniyasi mavjud o'ta yirik konsernga tenglashtirish mumkin.

Urushdan keyingi iqtisodiy islohotlarning ikkinchisi – 1947-1949 yy.dagi agrar islohot edi. Islohotning asosiy mazmuni davlat pomeshiklardan majburiy ravishda yerlarni sotib olishdan iborat edi, agar pomeshik qishloqda yashasa unga 3 ga yer qoldirilardi, agar pomeshik "ko'rinxas" bo'lsa uning barcha yeri sotib olinardi. Yer pulga sotib olinardi, lekin inflyasiya natijasida islohotlar yakuniga kelib yerning real qiymati 5-7%ga pasayib ketgan edi.

Pomeshiklardan sotib olingan yerlarni davlat avval shu yerlarni ijara olib ishlagan dehqonlarga 24 yil davomida bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotdi. Natijada pomeshik yer egaligi deyarli yo'qotildi, dehqonlar ijara chidan yer egalariga aylanishdi, ijrachi bo'lib qolganlar uchun ijara haqi ikki barobar qisqartirildi.

Bu burjua islohoti edi. U parazitik yarimfeodal yer egaligini yo'q qildi. Yaponiyada yirik kapitalistik xo'jaliklarni rivojlanishiga qishloq joylarda aholining ko'pligi to'siqlik qildi. Avvalgidek qish-

loq xo'jaligida asosiy subyekt – gektardan kam yerga ega mayda fermer edi. Yaponiyada bir xo'jalikka to'g'ri keladigan o'ttacha yer maydoni, avvalgidek, 1 ga edi.

Xo'jaliklarning maydaligiga qaramasdan islohot qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlanishiga olib keldi. 1946 yildan 1970 yilgacha o'sish deyarlik ikki barobar bo'ldi. Islohotgacha dehqonlar daromadlarining asosiy qismi pomeshiklar tomonidan tortib olinardi. Endi bu mablag'lar xo'jalikda qolib ishlab chiqarishga sarflanmoqda. Shu sababdan yerga ishlov berishning texnik darajasi tez o'sdi, mayda yer egaligi sharoitida "kichik mexanizatsiyalash" amalga oshirildi.

#### **16.4. Yapon "iqtisodiy mo'jiza"si va uning sabablari**

Ikkinci jahon urushi oxiriga kelib sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi davrga nisbatan 10 barobar qisqargan edi. Shu sababdan, bu yerda tiklanish jarayoni boshqa mamlakatlarga nisbatan uzoqroq davom etdi: urushdan oldingi darajaga 1952 yilda erishildi. Lekin bu yerda boshqa narsa muhim edi: tiklanish eski texnik asosda amalga oshirildi, ya'ni boshqa mamlakatlardagi kabi texnik yangilanish bu yerda amalga oshirilmagan edi. Yapon sanoatchilari, huddi avvalgidek, arzon ish kuchi bilan yutib chiqish niyatida edi va katta kapital va yuqori texnika talab etmasdan ko'p jonli mehnat talab qiladigan tarmoqlarni tiklashar edi.

Lekin tiklanish davrining oxiriga kelib yangicha sharoitlarda ijtimoiy dempingning eskicha uslublari samarasizligi aniqlandi. Yaponiya borgan sari jahon iqtisodiyotida o'z pozitsiyasini yo'qotib borar eci. Bunda Yaponiya iqtisodiyoti rahbarlari ustuvorliklarni o'zgartirishdi va yapon "iqtisodiy mo'jiza"si boshlandi: asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari bo'yicha Yaponiya barcha mamlakatlardan o'zib ketdi.

1950 yildan 1970 yilgacha sanoat ishlab chiqarishining o'ttacha yillik o'sish sur'atlari 15%ni tashkil etdi. 1990 yilga kelib Yaponiya sanoat ishlab chiqarishi 1938 yil darajasiga nisbatan 21,1 marotaba o'sdi. 1970-1990 yy.da Yaponiya sanoat ishlab chiqarishi 2,2 marotaba o'sdi.

Yalpi milliy mahsulot va sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlari bo'yicha Yaponiya kapitalistik dunyoda 2-o'ringa chiqdi. Yaponiya kemasozlik, po lat ishlab chiqarish, avtomobil, bir qator elek-

tro- va radiotovarlar ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Yaponiya iqtisodiyoti yutuqlarining sabablari:

1. Asosiy kapitalni yangilashni maxsus xarakteri va maxsus shartlari. Yaponiyada urushdan keyingi vayronagarchiliklar asosiy kapitalni to'liq yangilanishini taqazo qildi. Undan tashqari, ushbu yangilanish, sanoatni texnik qayta jihozlanishi tiklanish davrida emas, balki keyinroq, texnik jihatdan yuqoriroq darajada amalga oshirildi.

Yapon sanoatini texnik qayta qurollantirish va u bilan bog'liq tarkibiy o'zgarishlarni 2 bosqichga bo'lish mumkin. XX asr 50-yy. ning ikkinchi yarmidan boshlab yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishning yangi tarmoqlarini o'zlashtirish boshlandi. Bu davrda Yaponiya sanoati ishlab chiqarishning mehnat sig'imi yuqori tarmoqlaridan kapital sig'imi yuqori (jonli mehnatni kam talab etadigan, lekin katta hajmda kapital qo'yilmalar, ishchilarning yuqori malakasini talab etadigan) tarmoqlariga o'tdi. Bu yengil sanoat (ayniqsa, tekstil sanoatini) ulushini qisqarishini va yangi tarmoqlarni (avtomobil, elektrotexnika sanoati, sintetik materiallar ishlab chiqarish) jadal rivojlanishini anglatardi. 60-yy. o'rtalaridan boshlab qayta qurishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bunda ishlab chiqarishni kibernitizatsiyalashga, fan sig'imi katta tarmoqlarni rivojlantirishga o'tildi.

Yaponiyaning mustaqil ilmiy-texnik ishlamalarini olib borish o'rniga boshqa mamlakatlardan ilmiy-texnik tajribasini, patentlar va litsenziyalarni sotib olish tajribasi ham texnik qayta qurish tezligini oshirdi. Bu arzonroq va tezroq amalga oshdi. Masalan, Dyuponlar konserni neylon ishlab chiqarish jarayonini 11 yil davomida, 25 mln.doll.sarflab ishlab chiqdi. "toyo Reyon" yapon kompaniyasi Dyuponlardan neylon ishlab chiqarish bo'yicha patentni 7,5 mln.doll.ga sotib oldi. Ushbu 7,5 mln.doll.ni ular Dyuponlarga 1951-1959 yy. ichida to'ladi, shu davr ichida kompaniya neylon eksportidan 90 mln.doll. oldi.

Shunday qilib, faqat mablag' emas, balki vaqt ham tejaladi. Bunga Yaponiyani shart-sharoit majbur etdi: yapon mutaxassislarining hisob-kitobi bo'yicha, 50-yy.ning o'rtalarida uning sanoati ilmiy-texnik jihatdan yetakchi mamlakatlardan 20-25 yilga orqada edi va rivojlanishni boshlang'ich nuqtadan boshlash orqada qolishni muqarrar qilar edi.

2. Mehnatdan foydalanishning maxsus shakllari va milliy daromadda kapital qo'yilmalarni yuqori ulushi. Yaponiyada hanuzgacha yalpi milliy mahsulotning 1/3 qismi iqtisodiyotga investitsiyalarini foydasi hisobiga emas, balki bank kreditlari hisobiga amalga oshirilgan edi. Bu yapon moliya guruhlarining xususiyatlardan kelib chiqqan edi.

Kapital qc'yilmalarning 1/3 qismi "jismoniy shaxslarning jamg'armałari"dir. Boshqacha qilib aytganda, yaponlar o'z iste'moliga juda kam mablag' sarflab, tejaydilar, jamg'arilgan mablag'larni banklarga qo'yishardi yoki sanoat korxonalarining aksiyalarini sotib olishar edi. Bu Yaponiyada mehnatdan foydalanish xususiyatlari bilan bog'liqdir. Ish haqi "ijtimoiy demping" davridagiga nisbatan oshgan bo'lsa ham boshqa mamlakatlarniga nisbatan past edi. Yaponiyada mahsulot qiymatida mehnatga haq to'lash xarajatlarining ulushi boshqa mamlakatlarnikiga nisbatan 2-3 barobar past edi (ushbu ko'rsatkich AQShda 32%, Angliyada – 27%, Yaponiyada – 11%). Italiyaning "Fiat" avtomobilari qiymatida ish haqi 31%ni tashkil etadi, yapon avtomobilarining qiymatida – 6,6%. G'arbiy Germaniyaning "Simens" korporatsiyasining elektrotexnik mahsulotida ish haqi – 41%, yapon "Xitachi" kompaniyasida – 14%. Bu yerda gap ish haqining real kattaligi to'g'risida ketayotgani yo'q, ushbu kattalik o'rtacha yevropa darajasida edi. Masala mahsulot qiymatida mehnatga haq to'lashning ulushida edi. Ushbu xarajatlar ulushi mehnat unumдорligi, ishlab chiqarishning texnik va tashkiliy darajasi va boshqa omillar bilan aniqlanadi.

XX asr boshidan yapon sanoati uchun xarakterli bo'lgan paternalizm<sup>1</sup> hozirgi vaqtgacha ham saqlanib qolgan edi, lekin biroz shakli-shamoyili o'zgargan holda. Yaponiyada ishchini korxonaga umrbod biriktirib qo'yilish odatiy holdir. Ushbu biriktirib qo'yilish, albatta, majburiy emas, balki iqtisodiy omillar bilan bog'liq edi. Ish boshlovchi xodimning maoshi nisbatan past bo'ladi, lekin u yildan-yilga o'sib boradi, ya'ni 45 yoshli xodim endi ish boshlayotgan xodimdan 2,5 barobar ko'p maosh oladi. Tabiiyki, boshqa firma ga o'tib, xodim maoshning eng quyi darajasidan olishni bosh-

<sup>1</sup> Paternalizm (lot. paternus — otalik, otalarcha) — hukumat fuqarolarning ehtiyojlarini qondiradi va buning evaziga ularni o'zlarini jamiyatda qanday tutishlarini qat'iy belgilab beradigan munosabatlar tiz midir.

laydi. Undan tashqari, mehnat stajini ko'payib borishi bilan ta'til uzayib boradi, imtiyozlar kengayib boradi va kelajakdagi pensiya hajmi oshib boradi. Bunday sharoitda xodimning hayoti firmani gullab-yashnashi bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Ba'zi kompaniyalarda hatto ish kunini firmaning madhiyasini ijro etishdan boshlash odatiy holdir. Tabiiyki, bu mehnat unumdarligini oshiradi.

Undan tashqari, yapon sanoatida ijtimoiy-psixologik omillarga katta e'tibor qaratiladi. Ma'muriyat mehnat jamoasi a'zolarini jipslashtirish, oilaviy dam olishlarni tashkil etish bo'yicha choralar ko'radi. Shu sababdan, ishlab chiqarish brigadasi bo'yicha qo'shnilar bir-birlariga yordam berib, ularning kamchiliklarini to'g'irlashga harakat qilishadi. Firma - bu yagona cila bo'lib, u o'z a'zolari to'g'risida qayg'uradi deb hisoblash umumqabul qilingan haqiqatdir.

Yaponiyada pensiya – bu har bir ishlangan yil uchun bir oylik oklad hisoblangan bir marotaba to'lanadigan summadir. Pensioner korxonadan boshqa hech narsa olmagani uchun ushbu mablag'ni samarali joylashtirishga harakat qiladi, ya'ni ularga aksiyalar sotib olishi mumkin. Shu sababdan kapital qo'yilmalarning 1/3 qismi jismoniy shaxslar jamg'armalari mablag'laridir.

Undan tashqari Yaponiyada quydagicha amaliyat mavjud: yuqori texnikani talab qilmaydigan, lekin jonli mehnatni ko'p talab qiladigan ishlab chiqarish operatsiyalarini yirik firmalar o'zları amalga oshirmsandan mayda firmalarga, ba'zida hunarmandlarga buyurtma beradilar. Bu ancha arzonroq tushadi.

3. Iqtisodiyotni rivojlantirishga xarajatlarning ulushini kattaligi harbiy xarajatlarni kamligi bilan bog'liqidir. Yaponiya konstitutsiyasiga muvofiq harbiy xarajatlar Yalpi ichki mahsulotning 1%dan oshishi mumkin emas. Uning oshishiga sabab Yalpi milliy mahsulotning o'sishidir.

Yaponiyada militarizatsiya konstitutsiya bilan taqiqlangan. Unda quydagi fikr bildirilgan: "Yaponiya xalqi millatning huquqi sifatida urushni va kuch ishlatish xavfini xalqaro muammolarni echish vositasи sifatida foydalanishdan batamom inkor etadi. Mamlakatni urush holatida deb e'lon qilish huquqi tan olinmaydi".

4. Yapon sanoati yuqori sur'atlar bilan o'sishini iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish xususiyatlarni tahlil etmasdan tushuntirib bo'lmaydi. Yaponiyada ascsiy ishlab chiqarish fondlar-

ining 1/3 qismi davlatga tegishli, YaMMning 20% davlat buyurtmasiga binoan yaratiladi. Davlat budgeti orqali YaMMning 30% o'tadi.

"Iqtisodiy rejalashtirish boshqarmasi" – iqtisodiyotni rejalashtirish bilan shug'ullanuvchi organ hisoblanadi. Rejalashtirishda moliya guruhlari va korporatsiyalar vakillari faol qatnashishadi. Parlament rejani ishlab chiqarishda va tasdiqlashda umuman qatnashmaydi. Yaponiyada rejalashtirish bilan qo'lida real xo'jaliklar bor insonlar shug'ullanishi kerak deb hisoblashadi. Bu ma'noda rejalashtirish o'ta markazlashgandir: korporatsiyalar va guruhlardan kengashlari o'z kelajagini rejalashtiradi. Rejalar guruhlardan korporatsiyalar tomonidan so'zsiz ijro uchun qabul qilinadi: rivoja qilmaslik uchun sanksiyalar davlat tomonidan emas, "o'zlari" tomonidan belgilanadi.

Ikki xil rejalar ishlab chiqiladi – umum davlat va tarmoq. Umum davlat rejalarning maqsadi – ma'lum bir o'sish sur'atlarini ta'minlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun rejada har bir tarmoq bo'yicha kapital qo'yilmalar hajmi belgilanib, kapital qo'yilmalarni korporatsiyalarning o'zlari amalga oshirardilar. Tarmoq rejalarining maqsadi – yapon iqtisodiyotining zaif joylarini yo'q qilish, ya'ni davlat yordamisiz rivojlana olmaydigan sohalarni o'sishini ta'minlashdir. Umum davlat rejalarini xususiy investitsiyalar bilan ta'minlansa, tarmoq rejalashtirishi – davlat investitsiyalarini bilan ta'minlanadi.

## 16.5. Tashqi iqtisodiy aloqalar

Yaponiya tashqi savdoga o'ta bog'liqdir. Uning sanoati qayta ishlaydigan deyarli barcha xom ashyo, Yaponiya iste'mol qiladigan deyarli barcha yoqilg'i import qilinadi. Undan tashqari Yaponiya o'ziga kerak oziq-ovqat mahsulotlarining bir qismini ham olib kiradi. Bularning hammasi uchun haq to'lash uchun juda ko'p eksport qilish zarur. Yaponiya esa uncha ko'p eksport qilmaydi – YaMMning 13% hajmida. Yaponiya asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha kapitalistik dunyoda 2-o'rinni egallagan bo'lsa, eksport bo'yicha 3-o'rinni egallaydi. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning sanoat mahsulotlarining 18% Yaponiyaga to'g'ri keladi, yalpi eksportning esa 13%.

Amerika okkupatsiyasi davrida o'rnatilgan munosabatlar natisida AQSh Yaponianing asosiy savdo hamkorli bo'ldi: AQSh-

ga 25-30% tashqi savdo to'g'ri keladi. Hozirgi vaqtida AQSh yapon tovarlarini kirib kelishini qisqartirish niyatida bo'lganligi sababli, Yaponiya tashqi savdo yo'nalishlarini o'zgartirish bilan shug'ullanmoqda. Xususan, Rossiya bozoriga katta qiziqish bildirmoqda.

Urushdan keyingi davrda kapital eksporti kichik edi. XX asr 80-yy. boshlarida xorijiy kapital qo'yilmalar hajmi bo'yicha Yaponiya 5-o'rinni egallar edi. Kapital asosan yapon tovarlarini sotib olish uchun beriladigan zayom ko'rinishida amalga oshiriladi, oxirgi vaqtarda esa Yaponiya xorijdagi xom ashyo manbalarini o'zlashtirishga kapital qo'ya boshladi. Yaponiyada xorijiy kapital qo'yilmalar ham uncha katta emas: chet elliklar qo'lida Yaponiya aksioner kapitalining 4%dan kam miqdori mujassamlashgan. Bu Yevropa mamlakatlarinikidan ko'ra bir necha barobar kichikdir. Bu hol Yaponiya uzoq vaqt davomida AQShga bog'liq bo'lganligi, u tomonidan okkupatsiya qilinganligini e'tiborga olgan holda ajablanarlidir. Urushdan keyingi birinchi yillarda amerika korporatsiyalari tabiiy resurslari yo'q mamlakatni iqtisodiyotini tiklanishiga kapital sarflashga shoshilmadi. Yapon korporatsiyalari amerika yordamisiz oyoqqa turdi. Yaponianing birinchi iqtisodiy yutuqlaridan so'ng amerika tadbirkorlari ushbu mamlakat bilan qiziqib qolishdi, lekin Yaponiya o'z sanoatini maxsus qonunchilik bilan himoya qilib bo'lgan edi. Keyinchalik liberallashtirish e'lon qilindi – xorijiy kapitalni yapon sanoatining bir qator tarmoqlariga sarflanishiga ruxsat berildi. Lekin, ushbu tarmoqlarda yapon korxonalarining holati shu daraja kuchli ediki, chet elliklar bu tarmoqlarda hech narsaga erisha olishmadi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. Yaponiya iqtisodiyotining harbiylashtirilishi xususiyatlari nimada?
2. Yaponiyada fashistlar rejimi o'rnotilishining iqtisodiy asoslari nimada?
3. Dzaybaysularni qayta tashkil etish sabablari va ahamiyati.
4. Yaponiya "iqtisodiy mo'jizasi"ning ilmiy-texnik asoslari nimada?

## § 17-MAVZU. XITOYNING ENG YANGI IQTISODIY TARIXI (XX ASR)

**Tayanch atamalar va iboralar:** "katta sakrash", "madaniy inqilob", "qora dori urushi", byurokratik kapital, beshyillik, "xalq kommunasi", "Datsin g'oyasi", "posekha korxonalar", "xuatsyao"

■ **Reja:**

- 17.1. OsiyoCHA ishlab chiqarish usullari va ularning parchalanishi.
- 17.2. Revolyutsion o'zgarishlar va "katta sakrash".
- 17.3. Iqtisodiy islohotlar.

### **17.1. OsiyoCHA ishlab chiqarish usullari va ularning parchalanishi**

Xitoy osiyoCHA ishlab chiqarish usulidan foydalanadigan qadimgi davlatlardan biridir va ushbu rivojlanish usulining oqibatlari sotsializm qurishdagi "katta sakrash" va "madaniy inqilob" kabi jarayonlarda o'z aksini topdi.

OsiyoCHA usulning asosiy belgisi – yer davlat mulki ekanligidir va bu holat Xitoyning butun tarixida o'zgarmasdan qolgandi. Davlatning yeri dehqonlar o'rtaSIDA yerdan foydalanish tamoyilidan kelib chiqib taqsimlanar edi.

Avvaliga bu tizim "quduqli dalalar" tizimi edi. Uning bunday nomlanishiga sabab da'larni joylashuv sxemasi "quduq" ieroglifini eslatar edi. 8 ta oiladan iborat jamoa a'zolari chekkalar-da joylashgan o'z dalalariga ishlov berishdan tashqari markazda joylashgan umumiy maydonga ishlov berishlari kerak edi. Uning hosili hukmdorga topshirilardi. Har bir dala 100 mu<sup>1</sup> (6 ga) maydonga ega edi. Eramizdan avvalgi 4 asrdagi faylasuf Men-Szi "... yerga ishlov berishning bunday usuli ideal tizim hisoblagandi"- deb ta'kidlagan.

Yerga ishlov berishning tenglashtirilgan tamoyili va o'zining dalasi bilan "katta dala"ga ham jamoa bo'lib ishlov berish ko'p asrlar davomida saqlanib qoldi, lekin asta-sekin davlat yerlarida jamoa bo'lib ishslash soliq-renta va majburiy mehnat bilan almashib

<sup>1</sup> Mu – Xitoya yer maydonini o'lchash birligi. (1 mu = 666.7 kvadrat metr)

bordi. Yerdan tenglashtirilgan foydalanish saqlanib qoldi, lekin yer endi oila tarkibidan kelib chiqib taqsimlanardi. Har bir erkakka 80-100 mu (6,4-6 ga) hosildor yerdan, ayollar yoki o'smirlarga kamroq berilishi mumkin edi. Dehqon mehnatga layoqat yoshidan oshgandan so'ng undan yer olib qo'yilardi. Undan tashqari, oilaga 20 mu bog'-poliz yerlari biriktirilar edi. Ko'pincha unda tut daraxtlari ekilardi.

Dehqonga ushbu kafolatlangan yer uchun u davlat foydasiga uch narsani amalga oshirishi zarur edi. Birinchidan, don hosildan bir qismini davlatga topshirishi. Ikkinchidan, soliqni ipak yoki boshqa matolar bilan to'lash. Chunki, xitoy qishlog'iadi dehqon yarim hunarmand hisoblanardi va ushbu hunarmandchilik mahsulotlarining bir qismi hukumat ixtiyoriga o'tardi. Uchinchidan, dehqon yil davomida ma'lum bir davr (ko'pincha 20 kun) davlatga majburiy mehnat qilib berishi kerak edi: turli binolar, sug'orish inshootlari qurishi, yuk tashishi va boshqalar. Davlat dehqonchilik va to'qimachilikni rag'batlantirar edi. Savdogarlar esa diskriminatsiya qilinardi. E.a. 4 asrda kim ko'p don va ipak ishlab chiqarsa majburiy mehnatdan ozod etilishi, savdodan foya oluvchilar esa qul bo'lishlari qonunchilik bilan belgilab qo'yilgan edi.

Davlat dehqonlar faoliyatini qat'iy nazorat qilar edi, u guruch yoki tariq ekishligi, ipak yoki boshqa matolar to'qishini aniqlab berardi. Tabiiyki, buning uchun juda katta byurokratik apparat zarur edi. Amaldorlar soliq sifatida dehqonlardan olingan don yoki boshqa mahsulotlarni ish haqi sifatida olardilar. Undan tashqari ular yer uchastkali olardilar, har bir darajadagi amaldorga belgilangan hajmda yer berilardi. Davlat xizmatidan ketayotganda amaldor ushbu yerni topshirib ketardi.

Amaldorlar albatta aristokrat oilalar vakillari bo'lishi shart emas edi. Xitoyda imtihonlar tizimi joriy qilingan bo'lib, ularni topshirgan holda ma'lum bir lavozimni egallash mumkin edi. Imtihon topshiruvchi falsafa, she'riyatdan chuqur bilimlarga ega bo'lishi kerak edi, o'z xizmat vazifasiga oid bilimlar ham bo'lishi kerak edi. Xitoyda yuqori darajadagi bilimlarga ega bo'lganlar alohida hurmatga ega edilar. Imtihonlarga oddiy xalq ham qo'yilardi. Bu markaziy hukumatning qudratini oshishiga imkon berardi: imperator quyi qatlamlardan boshqaruvga qo'yilgan insonlarning sodiqligiga shubha qilmas edi.

Davlat sanoatda ham yetakchilik qilardi. Metallurgiya, ipak to'qish, farfor, quroq-yarog' korxonalari davlatning qo'lida edi. Davlat korxonalarida, kiyim-kechak va poyabzal, zeb-ziynat, quroq-yarog' va aslahalar, qog'oz va boshqalar ishlab chiqarilardi. Ushbu korxonalarini davlatning uch inspeksiyasi boshqarib, ularga ko'p sonli devonxonalar bo'y sunardi. Bir qator tovarlar – metall rudasi, tuz, ko'mir, choy – davlat monopoliyasida edi.

Ushbu davlat korxonalarining ishchilari manbasi bo'lib shahar hunarmandlari chiqishardi, ular ham 20 kun davomida majburiy mehnat qilishar edi. Davlat majburiy mehnat qilayotganlarga ovqat bermas edi, ularga ovqat oila a'zolari tomonidan ta'minlanar edi. Hunarmandlar o'z mahsulotlarini g'aznaga topshirishardi va g'aznadan olgan mablag' hisobiga kun ko'rishardi.

Ish kuchining ikkinchi manbasi – davlat qullaridir. Hukumatga qarshi chiqilganda aybdorlar o'lim jazosiga mahkum qilinardilar, ularning oila a'zolari esa qul qilinardi. Davlat qullarining farzandlari ham qul hisoblanardi.

OsiyoCHA ishlab chiqarish usulining yana bir belgisi – sharqona istibdoddir. Imperator Sin Shi-xuandi (e.a. 3 asr) hukmronligi bunga yaqqol misol hisoblanadi. Bu imperator barcha tarixiy asarlari, falsafiy va ilmiy kitoblarni to'plab yoqib yubortirgan, faqtgina ushbu imperatorni maqtagan kitoblar qolgan. Taqiqlangan adabiyotlarni saqlaganlar o'limga mahkum qilinar edilar, tarixiy asarlarni talqin etib, avvalgi tuzumni maqtaganlar esa barcha qarindoshlari bilan birga qatl etildi. O'sha davrning 460 yirik olimlari tiriklayin yerga ko'mib tashlangan edi. Sin-Shi o'z hayotiga qo'rqqani uchun bir saroydan ikkinchisiga ko'chib yurar edi (uning hukmdorligi davrida 700 ta saroy qurilgan edi).

Sharqona istibdodning belgilovchi omil alohida hukmdorlarning shavqatsizligi emas, balki hayotning barcha tomonlarini davlat nazoratida bo'lishidir. Davlat dehqon nima yetishtirishini hal etardi.

OsiyoCHA ishlab chiqarishning xitoycha talqinining asosiy belgilari shulardan iborat. Tabiiyki, vaqt o'tgan sari ushbu tizim emirila boshlandi. Yerga egalik qilishning davlat usulidan tashqari yerga xususiy egalik qilish va ijara munosabatlari shakllandi.

Agar amaldor o'z lavozimidan kelib chiqib xizmat davriga yer olgan bo'lsa, imperator o'z ixtiyoriga ko'ra yerni taqsimlashi mumkin. Bunday xususiy yerkarni, albatta, imperatorning qarin-

doshlari yoki yaqinlari olishlari mumkin edi. Bo'sh yotgan yoki o'zlashtirilmagan yerlarni o'zlashtirgan dehqonlar yer egalariga aylanishardi.

Undan tashqari, dehqonlarni ijrachilikka o'tkazish jarayoni davom etardi, natijada dehqonlar o'z yer uchastkalarini ijrachisiga aylandi.

Xitoyda xususiy yer egaligining rivojlanishi yirik xo'jaliklarni tashkil etilishiga olib kelmadni. Yer egasi o'z ekin maydonlariga ega emasdilar. Unga tegishli hudud mayda dehqon uchastkalariidan iborat bo'lib, daromadi esa natural ijara to'lovlaridan iborat edi.

XIX asrning birinchi yarmida Xitoyda har bir qishloq aholisiga 2 mu (0,125 ga) yer to'g'ri kelardi. Bu agrar aholini ko'payib ketishi dehqonlarni ommaviy ravishda qashshoqlanishiga olib kelib, juda katta "mehmonlar" guruhini yaratdi. "Mehmonlar" – bu o'z xo'jaligidan mahrum bo'Igan, yirik yer egalaridan ijaraga olishga majbur bo'Igan va buning evaziga yarim hosilni beruvchi dehqonlardir.

Shunday bo'lsa ham, davlat eng yirik yer egasi edi. 1912 yilda davlat yerlarida xo'jalik yurituvchi dehqonlar 49%, yarimijarachilar – 23%, ijrarachilar – 28%ni tashkil etardi.

Dehqonchilik uchun ideal variant bo'lib qadimdan amal qilib kelayotgan yerga davlat mulkchiligi va tenglashtirilgan yerda foydalanish xizmat qiladi. XIX asr o'rtaida "taypi qo'zg'oloni" natijasida inqilobchilar Xitoyda hukumatni qo'liga o'tdi. Yangi hukumat tomonidan "yer tizimi" joriy etilib, unga binoan yerga ishlov berish davlatning qat'iy nazorati ostida bo'lishi va yerni oila a'zolari soniga nisbatan taqsimlanishi kerak edi. Davlat qaerda tut daraxtlarini ekish, xo'jalikda qancha cho'chqa va tovuq bo'lishi kerakligini belgilab berishi kerak edi.

Xitoyda Yaponiyadagi kabi mamlakatni tashqi dunyodan chegaralash siyosati olib borilmagan edi. Lekin davlat tovar-pul munosabatlarni rivojlanishini sun'iy ravishda cheklar edi. Bu soliqlarni natural shaklda bo'lishida, savdogarlarga kun bermaslikda namoyon bo'lar edi. Aynan shunday siyosat aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanardi. Tabiiyki, bu taraqqiyotni sekinlashtirardi va Xitoy tashqaridan kapitalizm kirib kelishiga qarshilik qila olmay qoldi.

XIX asrda uch "qora dori urush"lari davrida kapitalizni tashqari-nan kirib kelishi drammatik xarakterga ega bo'ldi, bunda Xitoy importining 46%ni qora dori tashkil etdi, mamlakat esa tipik yarimmustamlakaga aylandi. U imperialistik davlatlar o'tasida ta'sir sohalari bo'yicha bo'lib olingan edi. Chet elliklar endi xitoy sudi oldida javob bermas edi, ularning qo'lida flot, qo'shinlar, politsiya bor edi. Xitoy hukumati endi real hokimiyatga ega emas edi. Buning asosiy sababi – taypi qo'zg'olonini bostirish uchun hukumat chet elliklardan yordam so'raganligidadir, natijada hukumat chet elliklar oldida qarzdor bo'lib qoldi, qarzlardan qutilish uchun esa hatto soliqlarni to'plash ham chet elliklar qo'liga topshirilgan edi. O'sha davrda Xitoyni rasmiy ravishda manchjurlar sulolasi hukumati boshqarar edi, xitoyliklar esa manchjurlarni varvarlar (vahshiylar) deb hisoblar edi. Shu sababdan xalqning inqilobiy kurashi mustamlakachilarga va hukumatga qarshi yo'naltirilgan edi.

Xitoya olib kiritilayotgan tovarlarga ularning narxini 5%dan oshmagan holda boj undirihsga ruxsat berilgan edi, arzon fabrika mahsulotlarini importi esa paydo bo'lib kelayotgan xitoy sanoatini yo'qqa chiqarardi. Ma'lumki, mustamlakachilar hech qachon mustamlakalarda sanoatni rivojlantirishga intilmas edilar, lekin o'sha davrda Xitoyda mayjud sanoatda mustamlakachilar yetakchi pozitsiyalarni egallagan edilar. Chet elliklar qo'lida tashqi savdo, temir yo'l, ko'mir sanoatining yarmi, tekstil sanoatining 40% mu-jassamlashgan edi.

Bu davrda xitoy burjuaziysi uch qismiga bo'lingan edi. Eng imtiyozli holatda kompradorlar<sup>1</sup> edi. Chet elliklarga doim milliy agentlar orqali faoliyat yuritish qulaydir.

Ikkinci, Xitoy uchun xos bo'lgan burjuaziyaning qismi – byurokratik kapitaldir. Ushbu termin asosan "hukumat bilan uzviy bog'langan komprador kapitali" ma'nosini anglatadi. Byurokratik kapital iqtisodiyotda davlatning ustuvorlikka egaligining nati-jasidir. Chet elliklar hukmronligi sharoitida davlat hokimiyati par-cha'anayotgan vaqtda davlatning mol-mulki asta-sekin yuqori lavozimlardagi odamlar qo'liga o'ta boshladi. Bu esa byurokratik kapital edi.

<sup>1</sup> Komprador - (port. "comprador" — xaridor, lotincha "comparare" — xarid qilish, sotib olish) – xorijiy capital va mahalliy bozor o'tasida vositachilik qiluvchi mahalliy tadbirkor, savdogar.

Uchinchı qism – chet el kapitali bilan bog'liq bo'limgan milliy burjuaziyadir. Chet elliklar va kompradorlar tomonidan siuvga olingan burjuaziyaning bu qismi Xitoyda inqilobiy kuchlarni tashkil etardi.

Chet elliklarning hukmronligi natijasida sancat noratsional joylashtirilgan edi. Sanoatning  $\frac{3}{4}$  qismi shimoli-sharqiy qirg'oqba'yı rayonlarida joylashgan edi. Faqatgina Shanxayning o'zida yengil sanoatning yarmi joylashgan edi. Xitoyning ko'pg'na rayonlarida sanoat umuman yo'q edi. Aholi ehtiyojlari, huddi avvalgidek, hunarmandchilik va uy xo'jaligi mahsulotlari yordamida qondirilar edi.

## **17.2. Revolyutsion o'zgarishlar va "katta sakrash"**

Xorijiy va byurokratik kapitalga qarshi xitoy inqilobi 25 yil (1924 yilda 1949 yilgacha) davom etdi va uchta fuqarolik urushlari va Yaponiyaga qarshi milliy-ozodlik urushidan iborat edi. U 1949 yilda Xitoy Xalq Respublikasini e'lon qilinishi bilan yakunlandi.

Xitoyda 25 yil davomida harbiy harakatlar bo'lganligi sababli ma'lum bir vayronagarchiliklarga olib keldi. 1949 yilga kelib sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi davrga nisbatan ikki barobar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 30-40%ga qisqardi. Inflyasiya yuqori cho'qqisiga chiqди. 1937 yilda 100 yuanga ikkitä sigir sotib olsa bo'lardi, 1943 yilda – tovuq, 1946 yilda – 1 ta tuxum, 1948 yilda hech narsa sotib olib bo'lmadi.

Mamlakat iqtisodiyotiga etkazilgan zarar urushni 25 yil davom etganligini hisobga olganda unchalik katta emas edi. Urushdan yirik korxonalar ko'proq jabr ko'rardi, Xitoyda esa mayda hunarmandchilik ishlab chiqarishi keng tarqalgan edi. Undan tashqari ushbu urush o'rta asr xarakteriga ega edi: u alohida janglar va yurishlardan iborat bo'lib, yagona front yo'q edi.

Shu sababdan iqtisodiyotni tiklanishi ham qisqa muddatda (1949-1952 yy.) amalga oshirildi.

Islohotlarning boshlanishida avvalgi tartibni bekor qilib sotsializm qurilishini ta'minlash qat'iy amalga oshirilmagan edi.

Agrar islohotlar to'g'risidagi qonunga binoan 1950-1952 yy.da amalga oshirilgan harakatlarda pomeshiklardan (daromadining asosiy qismi ijara haqi hisoblangan yirik yer egalari) me'yordan ortiq yer, mol va inventarlar tortib olindi, ularga dehqonlarga be-

riладиган хаждында жер учактарынан солтканынды. Мусодара қилинган жерлер деңгөндар ортасында мулк түзүлүп болып берилди.

Ішіншілдер нәтижесінде бар бир деңгөн 1-3 мүн (1 мүн = 1/16га) хаждында жерге едәлек көлдө. Бундай хаждадын жер деңгөн оиласында яшаш минимумынан да мінгілдейді деп саналғандар.

Саңааттың давлат мулкінде орталық амалға оширилмаган жиегі. Фақаттана чет елліктар және бүроуократик капиталның корхоналары давлат мулкінде орталықты. Мілій буржуазияда корхоналар озарында қолданылған жиегі. Алардың давлат капитализмінен босқындықтандыра сotsialistik корхоналарға аялтандырылыш рејиси ішлаб чындаған жиегі.

1955 жылда капиталистик корхоналардың арасынан давлат-капиталистик корхоналарға аялтандырылыш жарының босланылған. Капиталисттер ғойданған 25%-нан олишар жиегі. Ғойданған қолданылған 25%-дан уштаға болынған – давлатта, ішлаб чыгарыштың ривожлантандырылышынан және ішчилардың ахволынан яхшиледі.

Кейинчалық бұл тәсіл озгартылған: капиталисттер қо'йылған киптілден 5-7% олишардың және шу вакттың озидан машиналардың давлат хизметчилерінде аялнады. Мағлұм бір вакттан соң капитальдық ғоиз то'лаш то'xtatilishi керак жиегі.

Кейінгі ішіншілдерде осиyoча ішлаб чыгарышдан ташқарынан үмуми iqtisodiy qoloqlik ham оз аksini topdi. Натто 60-жылдарда ham hunarmandlар саңаат ішлаб чыгарышында жетекшілік қылардың ахолинең борынан 14% шахарларда істігомат қылардың, ішчи және хизметчилардың ахолынан 7%-нан ташкыл етари.

Деңгөншілдікни кооперациялаштырылыш Sharqiy Европа мамлекеттерінде амалға оширилген үсүл мен барлық амалға оширилгендер жиегі. Кооперативлардың үч босқындық ташкыл етілді. Бірламшы деңгөндар озарынан "міннаттандырылыш" гуруларында бірлешілік қылардың ахолинең борынан 14% шахарларда істігомат қылардың, ішчи және хизметчилардың ахолынан 7%-нан ташкыл етари.

Industirlashtirish birinchi besh yillikda (1953-1957 ж.) амалға оширилди. Беш yillik davrda саңаат ішлаб чыгарышы 2,4 мәротаба о'сди. Anshan metallurgiya kombinati, og'ir mashinasozlik, avto-

mobil, traktor zavodlari qurildi<sup>1</sup>. Faqatgina Sovet ittifoqining yordamidagina 170 ta korxona qurilgan edi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi esa bor yo'g'i 25%ga o'sdi. yengil sanoat ham sekin rivojlangan edi. Masalan, 1957 yilda teridan bor yo'g'i 26 ta poyabzal ishlab chiqarilgan edi.

1958 yilda mo'tadil iqtisodiy rivojlanish kursi boshqa kurs bilan almashtirildi, ushbu kursning nomi - "uch qizil bayroq – bosh yo'l, katta sakrash va xalq kommunalari". Avvaliga uch beshyililikda bajarilishi rejalashtirilgan vazifalar bir necha yilda bajarilishga qaror qilindi. Ikkinci besh yillikda (1958-1962 yy) sanoat ishlab chiqarishini 6,5 marotaba, qishloq xo'jaligini – 2,5 marotaba o'stirish rejalashtirilgan edi.

Xitoy rahbariyati "iqtisodiyotni rivojlantirishda hal qiluvchi omil moddiy vositalar emas, balki inson" ekanligi to'g'risida bayonot berishdi: iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmasdan ko'pmillionli xitoy xalqi inson salohiyatidan foydalanishi mumkin edi.

Xitoya osiyocha ishlab chiqarish usulining xususiyatlardan biri dehqon bir vaqtning o'zida hunarmand ham ekanligidir. Agar daladagi mavsumiy ishlar orasida dehqonlarni sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga majburlansa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni to'lqinsimon o'sib borishi kuzatiladi.

Lekin buning uchun dehqonlarni qat'iy intizomga va davlat reglamentiga bo'yundirish kerak edi. Shu sababdan "xalq kommunalari"ni tashkil etish boshlandi.

"Xalq kommunasi" – bu xo'jalik birlashmasi va shu vaqtning o'zida, ma'muriy hududdir. Bir kommunaga o'rtacha 30 ta kooperativ kirar edi. Kommuna tarkibiga sanoat korxonalari, rayon ma'muriyati (kommuna davlat tomonidan boshqarilardi) va harbiy qismilar kirar edi. Kommunalarda dehqonlarning barcha moi-mulk, daromadlari esa teng taqsimlanardi.

Aynan shunday birlashuv inson mehnatidan ratsional foydalaniш imkonini berardi. Xitoyliklar mentaliteti ham ushbu vazifani amalga oshirishga yordam berardi: xitoyliklar qadim zamonlardan hukumatga bo'y sunishni farz deb bilishardi, aynan davlat yerdan

<sup>1</sup> Конотопов М. В., Сметанин С. И. Экономическая история: Учебник. - 9-е изд., доп. и перераб. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2007. - С.303.

foydalanishda tenglashtirishni amalga oshirardi, yirik yer egaligini chegaralar edi.

Kommunadan moddiy manfaatdorlik harbiy intizom bilan almashtirildi – hattoki ishga saf tortib bora boshlashdi. Barcha aholi chumchuqlarni o'ldirishga (hosilni saqlab qolish uchun) yo'naltirilgan edi, natijada esa qurt-qumursqalar ko'payib ketdi va qishloq xo'jaligiga zarar keltirdi. Hamma yerda kichik sug'orish tizimlari yaratilganligi sabab yerni sho'r va zang bosdi.

Dehqonlarni yer ishlaridan chalg'itish qishloq xo'jalik ishlari ni susaytirdi, harbiy intizom esa moddiy manfaatdorlikni o'rnini bosa olmaydi. Undan tashqari, Xitoyda qishloq xo'jaligi texnikasi darajasi juda past bo'lib: yerlarning bor yo'g'i 6-7%ga mexanik usulda ishlov beriladi. Qo'l mehnati esa alohida sinchkovlik va mehnat xarajatlarini oshirishni nazarda tutadi. Natijada, ekin maydonlari qisqardi, yerga ishlov berish yomonlashdi. 1958 yilda juda katta hosil (375 mln.tonna bug'doy) yig'ib olinganligi to'g'risida e'lon qilindi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha bu hosilning yarmi ham yig'ib olinmagan ekan. Keyingi yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlar chop etilmadi, lekin hosildorlik bir necha yil davomida pasayib borganligi ma'lum bo'ldi. Oziq-ovqat berish normalari qisqardi (Shanxayda oyiga 11 funt don). Matbuotda go'sht va tuxumni o'rnini bosuvchi keng tarqalgan o'simliklarning foydaliligi to'g'risida tavsiyalar paydo bo'la boshladi.

Sanoatda ham fan yutuqlari va kasb mahoratlaridan foydalanmasdi. Korxonalar o'z salohiyatidan ancha katta bo'lgan reja vazifalarni olishardi. Ishlab chiqarish quvvatlari cheklangan ekanligini ta'kidlovchi mutaxassislarni "cheklovchilar" deb nomlashardi. Sanoat belgilangan sur'atlarga dosh berolmasdan mahsulot ishlab chiqarishni qisqartira boshladi.

Sanoat oldiga qo'yilgan vazifalarni bajara olmasligi ma'lum bo'lgandan so'ng, dehqonchilikning hunarmandchilik an'analari yodga olindi. Metallurgiya zavodlarining imkoniyatlari chegaralanganligi sababli, aholi qadimgi pechlarda metall eritishni boshladilar. Bunday pechlalar har bir kommunada qurildi. Joylarda ko'mir etishmasligi sababli yoqilg'i sifatida xas-cho'plar, eski mebellar ishlatalardi. Ushbu ishlarni boshqarayotgan odamlar metallurgiya ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha tasavvurga ega emasdilar. Natijada metall yaroqsiz bo'lib qoldi. Bular ruda va ko'mirni erib,

bir-biriga yopishib qolgan qumaloqlari edi va ular qayta eritishga yaroqsiz edi.

Natijada, ikkinchi beshyillikda sanoat ishlab chiqarishi taxminan ikki barobar qisqardi. Aholini meyor yordamida ta'minoti yanada qisqardi. 1961 yilda talonlar faqatgina 80-90 sm, paxta matosi yoki undan tayyorlangan mahsulotga berildi.

"Katta sakrash" mag'lubiyatga uchragandan so'ng "tenglashtirish" davri boshlandi: pasayishni to'xtatish maqsadida, asosiy kuchlar qishloq xo'jaligi va yengil sanoatga tashlandi.

Qishloq xo'jaligi xalq kommunalaridan "ishlab chiqarish brigadalari"ga o'tildi. Bunday brigada, rasman kommunaning bir qismi hisoblanib, lekin katta mustaqillikka ega edi. U 20-30 oiladan tashkil topgan bo'lib, uning boshida saylangan dehqon turardi. Dehqonlarga yana tomorqa xo'jaliklariga ega bo'lishga ruxsat berildi.

Ushbu davrning iqtisodiy kursi - deyarli tekin mehnatga ega bo'lib xalq iste'moli xarajatlari qisqartirishdan iborat edi. O'zini-o'zi ta'minlash shiori ilgari surildi: odamlar deyarli tekinga ishslashlari kerak, ishdan bo'sh vaqtlarida esa o'zini-o'zi ta'minlashlari, ya'ni natural xo'jalik yuritib yashashga zarur mahsulotlarni topishlari kerak.

"Datsin g'oyasi" faol targ'ib etildi – bunda Datsin neft konlari ishchilarining mehnatga to'lanadigan puldan voz ketgaganligi nazarda tutilardi.

Shunday qilib, iqtisodiy rivojlanishning ikki darajasi nazarda tutilar edi.

1) eskirgan natural xo'jalik, uning hisobiga xitoylik mehnatkashlar kun ko'rishi kerak edi. O'zini-o'zi ta'minlash, o'ta past darajadagi turmush darajasi.

2) davlat xo'jaligi, u yirik kapital qo'yilmalardan tashqari, deyarli tekin mehnat ("inson kapital qo'yilmalari") hisobiga rivojlandi. Tabiiyki, bu ishlab chiqarish ichki bozorga emas, balki eksportga va davlat iste'moliga yo'naltirilgan edi.

Lekin iqtisodiy ehtiyojlar ushbu sxemadan chetlashishga majbur etardi. 70-yy. o'rtalariga kelib mehnatga qarab haq to'lash tamoyili yana tan olina boshlandi. Dehqonlarga bozorda tomorqa xo'jaliklarida etishtirilgan mahsulotlarni sotishga ruxsat berildi. Ba'zi joylarda xo'jaliklarni boshqarishga omilkor odamlar qo'yildi. Misol uchun, Anshan metallurgiya kombinatida elektromotor nima ekanligini bilmaydigan, po'lat bilan cho'yanni farqlay olmay-

digan bir necha rahbarlar ishdan olinganligi yirik yutuq sifatida e'lon qilindi.

Yerga ishlov berishdagi tajribalar natijasida ekin maydonlari qisqardi. Oziq-ovqat talonlar orqali cheklangan miqdorda taqsimlanar edi. Inson oyiga talon bo'yicha 15 kg don mahsulotlari olar edi. Pekinda bu asosan un va guruch edi, provinsiyada tariq, xitoy qo'nog'i, jo'xori "ikkinci kategoriyalagi donlar" hisoblanar edi. Pekin aholisi imtiyozli holatda edi, lekin ularning ko'pchiligi ham go'sht va sut olishmas edi.

Xitoyda ancha vaqtidan beri uy-joy qurilishi amalga oshirilmas edi, shu sababdan bir odamga to'g'ri keladigan yashash maydonining me'yori 4 kv.m edi, lekin real hayotda ushbu ko'rsatkich 1,5 kv.m. edi.

### **17.3. Iqtisodiy islohotlar**

1978 yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zarurati to'g'risida qaror qabul qilindi. Xitoydagagi islohotlarning xususiyatlari:

Birinchidan, Xitoyda islohotlar iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlardan boshlandi. Kommunistik partiya mamlakatni boshqarardi va u sotsialistik tizimni "xitoy spetsifikasi" bilan qurishga intilardi.

Ikkinchidan. Xitoyda xususiylashtirish amalga oshirilmagan edi. "Xususiylashtirish" so'zining o'zi Xitoyda salbiy tuyg'uni yuzaga keltiradi. Xususiy, egoistik manfaatlar xitoyliklar mentalitetiga mos emasdir. Undan tashqari "byurokratik kapital" borasidagi muammolar hali yoddha edi.

Shunday bo'lsa ham Yalpi milliy mahsulotda davlatning ulushi 70%dan 40%gacha qisqardi, davlat sektorida band bo'lganlar – 95%dan 18% gacha qisqardi. Davlat xarajatlari YaMMga nisbatan 36%dan 13%gacha kamaydi.

Uchinchidan, Xitoyda ma'muriy rejalashtirish saqlab qolning, bozor davlat rejalarini to'ldirib borishi kerak edi. Davlat zarur turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni rejalashtiradi va ularga narxlarni o'rnatadi. Xususiy savdogarlarga asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarini ulgurji sotib olish taqiqlangandir. Ular davlat tomonidan o'rnatilgan narxlarda davlat tomonidan sotib olinadi.

Islohotlar qishloq xo'jaligidan boshlandi va birdaniga aholining asosiy massasini qamrab oldi. Oilaviy pudrat iqtisodiy faoliy

yatning asosiy shakli bo'lib qoldi. Dehqonga o'rtacha 0,5 ga yer maydoni pudrat uchun ajratilardi. Ushbu maydon unga 50 yilga biriktilirdi. Shu bilan birga davlat bilan ma'lum bir hajmda mahsulot etishtirib topshirish bo'yicha shartnoma imzolanadi. Mahsulotning qolgan qismini dehqon o'z xohishiga binoan taqsimlar edi.

Qadimdan xitoy dehqoni hunarmandchilik bilan shug'ullanligi ham e'tiborga olindi. Qishloqlarda "volost-poselka korxonalari" yaratilib, ularda dehqonlar faoliyat yuritardi. Bu korxonalar bozor qonunlari asosida faoliyat yuritardi. Qishloqning daromadini yarmidan ortig'ini ushbu korxonalar berardi. 80-yy. oxiriga kelib Xitoy sanoat mahsulotining 20% ushbu korxonalarda yaratilardi.

Oilaviy pudratga o'tish aholini qornini to'ydirish va kiyintirish imkonini berdi. Don mahsulotlari hosildorligi 1979 yilgi 300 mln.t.dan 1984 yilda 400 mln.t.ga etdi, aholi jon boshiga esa yiliga 300 kg.dan 400 kg.gacha o'sdi. Dehqonlar daromadi ushbu davr ichida uch marotaba oshdi. Mutaxassislar hisob-kitoblari bo'yicha bunday qisqa muddatda aholining turmush darajasini bunday darajada o'sishi juda yaxshi ko'rsatkich edi.

"Volost-poselka korxonalari" xalq istemoli tovarlarini ishlab chiqarardi, undan tashqari, dehqonlarning daromadlarini o'sishi shahar sanoati uchun bozorni kengaytirardi. Islabhotlarning boshlang'ich davrida yengil sanoat og'ir sanoatdan ko'ra ikki barobar kam mahsulot ishlab chiqarar edi, 90-yy.ga kelib yengil sanoat og'ir sanoatdan o'zib ketdi. Televizor, muzlatkich, kir yuvish mashinalari kabi tovarlar jadal sur'atlarda ishlab chiqarila boshlandi.

1984 yildan boshlab qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'sishi sekinlashdi. Don yetishtirish ham kamaydi, endi aholining o'sish sur'atlarini yuqori ekanligini hisobga olganda jon boshiga don iste'moli qisqardi. Mutaxassislarning hisob-kitoblari bo'yicha milliy daromadning qo'shimcha o'sishining 40% aholining o'sishi evaziga yo'qqa aylanardi. Shaharlarda yana cho'chqa go'shti va tuxumga talon joriy etildi, me'yorashtirilgan mahsulotlarga narxlar oshirildi. Shu bilan birga aholini o'sish sur'atlarini pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ikkinchchi farzand tug'ilgan holda oiladan katta jarima undirilar edi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi o'sishi sur'atlarining pasayish sabablari:

Birinchidan, dehqonning daromadi ma'lum bir darajaga etganda, jamg' armalarni sarflash boshlanardi. Dehqonlar kir yuvish mashinalari, televizorlar, mototsikllar sotib olishardi, loydan qurilgan uylar o'rniiga pishiq g'ishtdan uylar qurishni boshlashdi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishidagi sakrash qo'l mehnati asosida amalga oshirilgan edi. 1995 yilda Xitoy qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi AQSh mehnat unumdorligining 4%ni tashkil etdi. Ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish zarur edi.

Sanoatdag'i o'zgarishlarda davlat sektori ulushini qisqarishi kuzatiildi, bu qisqarish xususiyashtirish evaziga emas, ba'ki xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi hisobiga amalga oshdi. Har birida 8-10 kishi band bo'lgan mayda "posekta korxonalar" ni jadal sur'atlarda ko'payishi sanoat ishlab chiqarishini jadal o'sishini ta'minladi. Tabiiyki, ularda texnika darajasi va mehnat unumdorligi juda past edi. 1995 yilda Xitoy sanoatida mehnat unumdorligi umumjahon ko'rsatkichining 42%ni tashkil etardi.

Yirik sanoatda davlat ustuvorligini saqlab qolgandi. 1996 yilda davlat korxonalarida sanoat mahsulotining 28,5% olindi va sanoatda band bo'lgan ishchi va xizmatchilarining 66%i band edi. Davlat korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ular xo'jalik hisobiga o'tkazildi yoki ijara berildi.

Xitoy sanoati yutug'ida xorijiy kapitalni jalb etilishi katta ahamiyatga ega. Buning uchun "maxsus iqtisodiy zonalar" tashkil etilib, ularda xorijiy kapital uchun qulay muhit yaratilgan edi. Bu yerga xorijiy tadbirkorlarni ish kuchini arzonligi jalb etardi: ushbu zonalarda ish haqi AQShdagidan 20 marotaba kichik, lekin Xitoyning boshqa hududlarinikidan ancha baland edi. Xorijiy kapitalning 70-80% "xuatsyao"<sup>1</sup> larga to'g'ri kelardi. Xorijiy kapital korxonalarini sanoat eksportining chorak qismini ta'minlardi.

Xitoyning iqtisodiy yutuqlari o'sish eng quyi nuqtadan boshlanganligi bilan xarakterlidir. Qo'l mehnatining ko'pligi va xalqning mehnatkashligi, xo'jaliklarning o'ta maydaligi va dehqonchilik bilan sanoatning uzviyligi, sotsializmni qurish va bozor munosabatlarini kengaytirish Xitoy iqtisodiy o'sishning asosiy xususiyatlardan hisoblanadi.

<sup>1</sup> Xuatsyao -avvallari Xitoydan emigratsiya qilgan va boshqa mamlakatda boyib ketgan xitoyliklar

**O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar**

1. Xitoyda osiyocha ishlab chiqarish usullarining xususiyatlari nimadan iborat?
2. Xitoyning iqtisodiy rivojlanishiga "qora dori urushlari"ning ta'siri qanday bo'lgan?
3. Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topishi va iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanishining xususiyatlari.

## **§ 18-MAVZU. CHORIZM MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA TURKISTON IQTISODIYOTI**

**Tayanch atamalar va iboralar:** amirlik, xonlik, mulkchilik, soliq, metropoliya, paxta, hunarmandchilik, shirkatlar, yirik mulkdor, temir yo'l

**■ Reja:**

18.1. XIX asrdagi o'zbek xonliklarida davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayot.

18.2. Soliq va majburiyatlar. Mehnatkash xalqning turmush darajasi.

18.3. Hunarmandchilik, shirkatlar, sanoat va tijorat.

18.4. Agrar siyosat.

18.5. O'ikaning xomashyo bazasiga aylantirilishi.

18.6. Mahalliy mulkdorlar toifasining shakllanishi.

18.7. O'rta Osiyo temir yo'lining imperiya va o'lka iqtisodiyotida tutgan o'rni.

### **18.1. XIX asrdagi o'zbek xonliklarida davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayot**

Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan muhim mavqega ega edi.

XIX asrga kelib, Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etdi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik Sharqda Pomir tog'laridan G'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lgan hududni egallab turardi Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnihan, Panj daryołari vodiysiда joylashgan shahar va qishloqlar, shuningdek, Turkmaniston 208

hududiga kirgan Murg'ob daryosi vohalaridagi yerlar ham Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng mashhur shahar siyatida e'tirof etilgan Buxoroi sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo'y shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtaida, Jizzax, O'ratega va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtaida tez-tez urushlar bo'lar, bu shaharlar qo'lidan-qo'lga o'tib turardi.<sup>1</sup>

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligidida 2 million atrofida aholi istiqomat qilardi. Aholining katta qismi amirlikning servuv vohalarida yashar, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho'llari deyarli kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo vohasida - 500 ming, Surxondaryo vohasida - 200 ming, Sharqiy Buxoroda - 500 ming aholi yashar edi. Amirlikning yirik shaharlari - Buxoroda - 60 ming, Samarqandda - 50 mingga yaqin aholi istiqomat qilardi.

Aholi etnik jihatdan ko'pgina qavm-urug'lardan iborat bo'lib, ularning qariyib 57 foizi o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha elatlardan tashkil topgan bo'lib, ular orasida mang'it, saroy, qo'ng'iroq, jabg'u, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabilalari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular asosan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda istiqomat qilar edilar.

Aholining aksariyat qismi dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Sug'oriladigan yerdarda paxta, bug'doy, sholi, jo'xori ekilib, bog' va poliz mahsulotlari ham etishtirilgan. Chorvachilikda qo'ychilik, qorako'l yetishtirish; funarmandchilikda gilamdo'zlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, tegirmonchilik, ko'nchilik, to'quvchilik, temirchilik, kulolchilik, beshikchilik, sandiqchilik, etikdo'zlik, moy-juvozlik, sovungarlik keng rivojlangan. Shu bilan birga amirlik iqtisodida qishloq xo'jaligi katta rol o'ynagan. Lekin aholining turmush darajasi yuqori bo'lmagan. Chunki yerga ega-

<sup>1</sup> Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) 1-kitob. – T.: "Sharq", 2011. – 8.55.

Ilik shakli ming yillar davomida o'zgarmay kelmoqda edi, ammo aholiga solinadigan soliq va jarimalar soni tobora oshib borgan. Shuning uchun aholining xarid qobiliyati past edi, bu esa hunarmandchilikning rivojlanishiga halal bergan. Ammo sabr-bardoshli hunarmandlar ozgina daromadga ham qanoat qilishgan.

Buxorodagi vaziyat ko'p jihatdan Xiva xonligiga ham xos bo'lgan. Xonlik janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'yan edi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko'hna Urganch, Xazorasp, Qo'ng'iroq, Xo'jayli, Kudar (hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahri 1598 yildan boshlab xonlikning poytaxti bo'lgan. Shahar ikki qism - Ichon qal'a (shaharning ichki qismi) va Dishon qal'a (shaharning tashqi qismi) dan iborat edi. Ichon qal'ada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan. 1842 yilda Dishon qal'a qurilib, devor bilan o'rab olingen. Dishon qal'ada hunarmandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar istiqomat qilganlar.

Aholining ko'pchilik qismini o'zbeklar tashkil qilib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari qo'ng'iroq, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O'zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismda, kanal bo'yalarida joylashgan. Aholining anchagina qismini (taxminan to'rtadan birini) turkmanlar tashkil etgan. Turkmanlar qadimgi o'g'izlarning avlodlari bo'lib, forscha so'zlashuvchi mahalliy xalqlar va o'zbeklar bilan qorishib ketgan edi.

Qoraqalpoqlar yashaydigan Amudaryoning quyi havzasasi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari ham Xiva xonligi tasarrufida edi. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik qoraqalpoqlarning asosiy mashg'uloti edi.

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik Sharqda Sharqiy Turkiston, G'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chega-

radosh bo'lgan. Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtaida huvullab yotgan Mirzacho'l va Muyunqul cho'llari yostanib yotgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li o'ikalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan.

Qo'qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o'laroq, sersuv daryolar, so'lim vodiylar, serhosil yerlarga boy edi. Xonlikning markazi Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farg'ona vodiysi edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyo-ota, Pishpak, Suzak, Oq-machit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi.

Qo'qon xonligida aholi nisbatan zinch joylashgan bo'lib, unda taxminan 3 millioncha kishi istiqomat qilgan. Xonlikning poytaxti Qo'qonda 80 ming, Toshkent shahrida 60 ming aholi yashagan. Qo'qon xonligi aholisining ko'pchilik qismi o'zbeklar, shuningdek, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Bular bilan yonma-yon yaxudiyilar, tatarlar, hindlar va boshqa elatlarning vakillari ham istiqomat qilganlar.

Qo'qon xonligi 15 beklik, ya'ni harbiy okrugga bo'lingan bo'lib, ularning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari hokimlik qilganlar. Hokimlar o'z hududidagi harbiy kuchlar qo'mondoni hamda fuqaro boshqaruvining boshlig'i edi. Ular o'z tasarrufidagi qo'shinni o'zları moddiy jihatdan ta'minlaganlar. Hokimlar harbiy yurishlar oldidan xonning birinchi da'vati bilan o'z qo'shini bilan belgilangan joyga etib kelishi shart edi. Qo'qon xoni zaruriyat tug'ilganda, oziq-ovqat ortilgan 12 ming aravaga ega bo'lgan 60 mingtacha siphohni yig'a olardi.

XIX asr ikkinchi yarmidagi Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida taraqqiyot to'xtab qolmagan. O'zaro urushlar va parokandalikdan qat'iy nazar yaratuvchilik faoliyati davom etgan. Xiva xonligida esa sun'iy sug'orish borasida oldingi asrlarga nisbatan ko'p ish qilingan. Bunda eng avvalo xonlar va yirik amaldorlar tashabbus ko'rsatganlar. Arab Muhammadxon turk qal'asidan Kuygun tomon qazitgan kanal, Abulg'oziy Bahodirxon nomi bilan bog'liq G'ozibod kanalining ta'mir etilishi, Anushaxon zamonida qurilgan Shohobod (uzunligi 14 km, eni 30 metr, chuqurligi 3,5

metr), O'rmish (uzunligi 96 km, eni 17,5 metr) kanallari, Ali Sultan qurdirgan Toshli yormish kanali hamda Manqitarna (XVII), eshim Yaragan, Omonquli, Ingichka, Ixlos, Qilich Niyozboy (1815), Yangiyop va Qorako'z (XIX), Shohmurod (1846), Rahmonberdi-boy, Toshsaqo (1828), Ko'hna Urganch-Xonyop (1831), Qoraqalpoq, Xonobod (1847), Sipohiy, Muhammadamin (1850), XIX asr 50-yillaridagi Kaltaminor, Bog'yop, Amirobod, Saribiy kanallari va boshqa qator katta-kichik sun'iy sug'orish inshootlari bilan bog'liq tadbirlar shular jumlasidandir.

Qo'qon xonligida erdona, Norbo'ta hukmronlik qilgan zamonalarda So'x daryosidan chiqarilgan kanallar, Olimxon buyrug'i bilan qazdirilgan oltita kanal (ariq), Umarxon davrida Sirdaryo-dan chiqarilgan O'zgandan boshlanib Andijon va Marg'ilon oralig'idagi Shahrixongacha boradigan kanal, Norin daryosidan boshlanadigan Yangiariq kanali (1819), Xon va Zarbak kanallari (1803) xonlik davridagi obodonchilikdan darak beradi. Xonlikda jamoaviy binolar qurilgan, 200 ga yaqin masjid va madrasa, qorixona va maktab barpo etilgan, shaharlarda savdo va hunarmandchilik rivojlangan<sup>1</sup>.

Buxoro shahrining o'zida XIX asr o'rtalarida, ya'ni Rossiya bosqinidan oldin, 38 karvonsaroy, 9 savdo timi, 16 hammom, 45 bozor bo'lGANI ma'lum. Shuningdek 200 dan ortiq masjid, 100 dan ortiq madrasa mavjudligi ham manbalarda yozilgan. Ular orasida Tursunjon (1796-1797), Ernazar elchi (1795), Xalifa Niyozqul (1807), Xalifa Xudoydod majmuasidagi madrasalar ayniqsa diqqatga sazovordir.

Xiva xonligida ham qurilish ko'p bo'lgan. Arab Muhammadxon (1616), Hojamberdibiy (1688), Sherg'ozixon (1719-1728), Muhammad Amin inoq (1765), Qutli Murod inoq (1809), Olloqulixon (1832-1835), Arab Muhammadxon (1870), Musato'ra (1841), Said-boy (1842), Amirto'ra (1870), Muhammad Rahimxon (1871), Muhammadmurod devonbegi, Otajon to'ra, Qadam yasovulboshi, Ibrohimxoja, Yusuf yasovulboshi, Husayn Muhammadboy,

<sup>1</sup> Исабоева Г.С. XIX асрда йўқон хонлигига маданий ҳаёт. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент, 2010, 21-бет.

Do'st Olim, Qozi Muhammad Salim, Islomxoja, Isfandiyorxon madrasalari, Saidboy (1842), Oqmasjid (1875) masjidlari, Pahlavon Mahmud maqbarasi (1835), Ko'hna Ark, Toshhovli, Nurullaboy saroylari, Juma, Saidboy (1842), Ko'kminor (1852-1853), Islomxoja (1908) minoralari ana shunday buryodkorlik ishlardan guvohlik beradi.

Farg'ona vodiysida 1740 yili eski O'rda o'rnida hozirgi Qo'qon shahriga asos solinishi, xonlikning turli shaharlarida bonyod etilgan ko'plab o'rdalar, bozorlar, karvonsaroylar, masjidlar, xonaqohlar, qorixonaclar, madrasalar, chunonchi, Mir (1798), Norbo'ta, Xonmirza YOdgor (1830), Hazrati Sohib (1861), Xudoyorxon (1850, 1870 yillari) Qo'qonda, 1873 yili Namanganda, 1874-1875 yili Shohobodda, Chustda, Hakimoyim (1869), Olimbek (O'shda), Nasriddinbek (Andijonda), Toshkentda XIX asrda qurilgan Beklarbegi, Muyi Muborak, Eshonqul dodxoh, Yunusxon, Abulqosim madrasalari ham shular qatorida turadi.

Xulosa qilib aytilsa, asosiy boylik bo'lgan yerga mulkchilikning eski usuli bir necha asrlardan beri o'zgarmadi. Xonliklarda oliy hukmdor yerning birdan-bir egasi bo'lib, yer ishlovchikarga - dehqonlarga ijara tarzida xatlab biriktirilgan edi. Dehqon yer egasi emas, yerdan olinadigan hosilning egasi edi, xolos. Shu bois dehqon yerni asrab avaylashga, uning unumdorligini os-hirishga intilmadi.

Xonliklarda sanoat rivojiga e'tibor kuchaymadi. Oltingugurt, rangli metallar, marmar, toshko'mir, neft kabi tabiiy boyliklarga serob konlar bo'lsa-da, ularni qazib olish, tog'-kon ishlarini rivojlantirish, kemasozlikni yo'lga qo'yish masalalari hal qilinmadidi.

Tovar-pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Daromad iste'mol va qo'shin xarajatlarini zo'rg'a qoplar, kapitalga aylanmasdi. Pul, oltin-kumush xon va amaldorlarning xazina toplash manbai bo'lib qolgan edi.

Xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayriboshlash usuli davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgani ustiga bu yerda yagona ichki bozor ham tashkil topmadidi.

## **18.2. Soliq va majburiyatlar. Mehnatkash xalqning turmush darajasi.**

Rossiya hukmon doiralari Turkiston o'lkasiga mo'may daromad manbai va arzon xom ashyo makoni sifatida qarab, xalqqa solinadigan soliq va majburiyatlarni ko'paytirish siyosatini qo'llab keldi.

O'lkada soliqlar miqdori tinimsiz oshib bordi. 1889 yildan 1896 yilgacha mustamlaka ma'muriyati soliqlarni 40 foizga oshirdi. General-gubernator imperatorga 1895-1897 yillar bo'yicha bergen hisobotida soliqlarni yanada ko'paytirib, o'lkadon olinadigan daromadni oshirish uchun aholidan yangi harbiy soliq undirishni taklif qildi.

Temir yo'l o'lkada ruslashtirish jarayonini tezlatishda katta xizmat ko'rsatdi. Metropoliyadagi xususiy kapital endilikda o'lka tabiiy boyliklarini arzon va qulay yo'l bilan tashib ketish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1895 yilning o'zidayoq birgina Farg'onadan Rossiyaga 3 million 399 ming 371 pud paxta, 451 ming 740 rublik teri, 192 ming rubllik pilla tashib ketildi. O'lkaning gavhari - Farg'ona viloyatiga minglab kelgindi "mujiklar" joylashtirildi.<sup>1</sup>

XX asr boshlariда paxtachilik Turkiston sanoati va qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, don 37 foiz, chorvachilik - 15,8 foiz, bog'dorchilik - 3 foiz, uzumchilik - 3 foiz, boshqa sohalar esa - 1,2 foizni tashkil qilgan. Paxtachilik imperianing chet ellarga sarflaydigan 70 million oltin pulini tejashga imkon bergani ham to'qimachilik, gazlama sanoati gurkirab o'sishiga turtki bo'ldi. Ammo keng dehqon ommasi tobora qashshoklashib ishchilar sinfi safini to'ldirdi. Hunarmandlar ham shunday ahvolga tushib ishchilar armiyasi safini to'ldira boshladilar.

Turkiston o'lkasi aholisining 90 foizini tashkil etgan dehqon va chorvadorlarning ahvoli tobora mushkullashib bordi. Turkistondagi yer solig'i 1914 yilda 6859021 rubl bo'lgan bo'lsa, 1916 yilda bu raqam 14311771 rublni, ya'ni ikki barobarni tashkil qildi. 1915 yilda esa maxsus harbiy soliq solinib, u paxtakorlar uchun har pud paxtadan 2 rubl 50 tiyinni tashkil qildi. O'sha 1915 yildagi soliqlar miqdori 38329000 rubldan iborat bo'ldi. Mustamlakachilar imperiya to'qimachilik sanoati manfaatlarini himoya qilib paxtaga

<sup>1</sup> Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) 1-kitob. – T.: "Sharq", 2011. –B.270.

bozor iqtisodiyoti qonunlariga xilof ravishda qat'iy narx - pudiga 24 rubl belgiladi. Natijada paxtakorlar bir yil ichida 60 million rubl yo'qotdilar. Agar 1913 yilda paxta narxi 50 foiz oshirilgan bo'lsa, boshqa zarur mollar narxi 400-500 foizga ko'tarildi. Non narxi esa 6 barobar oshdi. Chayqovchilik avj oldi<sup>1</sup>.

Paxta xarid narxining ana shunday sharoitda yana 20 foizga tushirilishi faqat mahalliy paxtakorlar emas, balki paxta yetishtirishga ixtisoslashgan rus mujiklarining ham keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Urush bahonasida turli-tuman qo'shimcha majburiyatlari va yangi soliqlar undirilishi ham xalq ahvolini og'irlashtirgani va bu hol xunuk oqibatlarga olib kelishini siyosiy politsiya agentlari xabar qilgan edilar.

Mustamlakachilar Turkistondan urush yillari 59 million pud paxta, 8,5 million pud paxta yog'i, 950 ming pud pilla, 2925 ming pud teri, 300 ming pud go'sht, 229 ming pud sovun, 474 ming pud baliq olib ketishgan. Frontga aholidan 70 ming ot, 12 ming tuya, 38 ming kvadrat metr gilam-namatlar, 2400 ming rubl yig'ib olingan. Xuddi shu davrda guruch, go'sht, qand, poyabzal va gazlamaning narxi bir necha marta ko'tarilib, dehqon bilan hunarmand hamda ishchi ro'zg'orini mushkul holga soldi.

Mahalliy millatlardan iborat ishchilar sinfi o'rtasida ham mavjud tuzum va tartiblardan norozilik uchqunlari asta-sekin\alanga olmoqda edi. Temir yo'l ishchilar safida tub joy millatiga mansub ishchilar 4,5-5 ming kishini tashkil qilgan. Xuddi shu temir yo'ldagi qora ishda, qurilishlarda va malakali kasblarda ishlovchilar ozodlik g'oyalari ta'siri ostida o'z haq-huquqlarini tanib, milliy o'zligini anglay boshlagan edilar.

### **18.3. Hunarmandchilik, shirkatlar, sanoat va tijorat**

XIX asr oxirlarida o'lkada sanoat ishlab chiqarishi asosan aholining maishiy ehtiyojlarga xizmat ko'rsatuvchi mayda hunarmandchilikdan iborat edi. Sanoat ibtidoiy bosqichda edi.

Ko'chmanchi aholi orasida hunarmandchilik: kigiz tayyorlash, uy jihozlari ishlab chiqarish, oila ehtiyoji uchun teri va mo'yna ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu yerda kigiz (namat) tayyorlash ancha rivoj topgan, chunki unga talab hamma vaqt katta bo'lgan. Umuman, Turkistonda bo'z, atlas, shoyi to'qish,

<sup>1</sup> O'zRMDA,461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 21-ish, 140-varaq.

do'ppido'zlik, temirchilik, zargarlik keng rivoj topgan. Qandoltchilik, shirmonpazlik, novvoylik ham taraqqiy etgan.

Uy-ro'zg'or ishtlarida, xo'jalikda kerak bo'ladijan barcha jihozlar: egar-jabduq, sandiq, mis idishlar, xalatlar, charm buyumlar, sopol, yog'och, kumush, oltin buyumlar, ketmon, pichoq, maxsi, kalish va shu kabi ko'pgina narsalar ishlab chiqarilgan.

Shahar hunarmandlari XIX asrning ikkinchi yarmida paxta yigirish uchun charx, qo'l bola to'quv dastgohini ishlab chiqardilar. Bu buyumlar ancha oddiy bo'lib, undan foydalanishni o'rganish uchun ko'p vaqt talab qilinmas, maxsus malakaga ega bo'lishning ham hojati yo'q edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiyanan sanoat mahsulotlarining keltirilishi ortib borgan sari mahalliy hunarmandchilik ishlab chiqarishi inqirozga uchray boshladи. To'quvchi qo'l dastgohida 17-18 soatdan ishlab bor-yo'g'i 4-8 arshin (1 arshin 72.12 smga teng) mato ishlab chiqarar, lekin oladigan maoshi arzimagan miqdorda edi. Xonavayron bo'lgan hunarmand-kosiblarning soni ortib bordi.

Xonliklar Rossiya tarafidan bosib olinishiga qadar ularda fabrika va manufaktura ishlab chiqarishi bo'lmasa-da, uyda ishlaydigan dehqon hunarmandchiliga asoslangan markazlashgan, shuningdek asosan tarqoq holdagi manufakturalarning kurtaklari mavjud bo'lgan. Samarqand, Marg'ilon, Qo'qon, Andijon, Buxoro shaharlari o'lkaning xunarmandchilik markazlari hisoblanar edi. Buxoroda 1841 yilda 6 ta cho'yan quyish sexi bo'lib, ularda qishloq xo'jalik qurollari, to'plar uchun yadro ishlab chiqarilgan. Xuddi shunday korxonalar boshqa xonliklarda ham mavjud edi. Birgina Toshkent shahrining o'zida 1870 yilda 775 ga yaqin to'quvchilik ustaxonasi faoliyat ko'rsatib turgan. Turkiston o'lkasida rus kapitaliga xizmat ko'rsatuvchi katta-kichik korxonalar soni ham asta-sekin ortib borgan<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Bu ma'lumotlar tadqiqotchi A.Tojiboev tomonidan ishlangan. Turkiston sanoati, temir yo'l ishchilar haqidagi axborotlar ham shu tadqiqotdan olingan.

**TOSHKENT SHAHRIDAGI FABRIKA VA ZAVODLAR SONI<sup>1</sup>**

| <b>Korxonalar</b>         | <b>1872 yil</b> | <b>1873 yil</b> |
|---------------------------|-----------------|-----------------|
| Zavodlar:                 |                 |                 |
| Sovun ishlab chiqaruvchi  | 17              | 17              |
| Ko'n ishlab chiqaruvchi   | 90              | 91              |
| G'isht ishlab chiqaruvchi | 35              | 34              |
| Vino ishlab chiqaruvchi   | 5               | 6               |
| Pivo ishlab chiqaruvchi   | 1               | 2               |
| Fabrikalar:               |                 |                 |
| Pillakashlik              | 3               | 3               |
| To'quvchilik              | 430             | 420             |
| Bo'yash                   | 14              | 14              |

Ko'rinib turibdiki, to'quvchilik ustun darajada rivojlangan bo'lib, ular aholiga ham turli matolar etkazib borgan. Fabrikalarda to'qilgan gazlamalar o'lkaza ommaviy tusda keltirilishi munosabati bilan yarim kustar korxonalar soni kamayib borgan. Bu jarayon haqida quyidagi ma'lumotlar aniq tasavvur beradi:

**1890-1913 YILLARDA TURKISTONDAGI HUNARMANDCHILIK-TO'QUVCHILIK ISHLAB CHIQARISHI**

| <b>Ko'rsatkichlar</b> | <b>Farg'ona viloyati</b> |                 | <b>Sirdaryo viloyati</b> |                 |
|-----------------------|--------------------------|-----------------|--------------------------|-----------------|
|                       | <b>1890 yil</b>          | <b>1913 yil</b> | <b>1890 yil</b>          | <b>1913 yil</b> |
| Korxonalar soni       | 869                      | 754             | 230                      | 20              |
| Ishchilar soni        | 934                      | 817             | 246                      | 36              |
| Mahsulot (ming rubl)  | 200.6                    | 149.4           | 49.8                     | 18.8            |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ana shu yillar orasida korxonalar soni 43 marta, ularda ishlab turgan ishchilar soni deyarli 26 barobar, ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati 10,7 barobar qisqargan. Xuddi shunday ahvolni boshqa viloyatlar va hunarmandchilik korxonalarida ham ko'rish mumkin.

O'lka zabit etilgandan so'ng mahalliy sanoatning rivojlanishi paxtani qayta ishlash bilan bevosita bog'liq bo'lib qoldi. Paxta tozalash, yog',sovun pishirish korxonalari tarmogi kengaydi. Turkistondagi birinchi paxta tozalash zavodi 1874 yilda Toshkentda qurildi. 1880 yilda Olimxo'ja Muhammadjonov Andijon-

<sup>1</sup> general-gubernator fon Kaufmanga Toshkent shahrining ruslar yashaydigan qismidagi fabrika va zavodlar haqida berilgan malumot asosiga tuzilgan

da paxta tozalash zavodi qurdi, sanoatchi L.Yugovich 1881 yilda Kattaqo'rg'onda shunday zavod barpo etdi. 1890 yilda esa Andijon tumanining Bo'taqora qishlog'ida paxta zavodi ishga tushirildi. U ko'p tarmoqli agrosanoat korxonasi bo'lgan "Andreev xutori" nomli savdo-sanoat shirkati tarkibiga kirdi. Zavod bir kecha-kunduzda taxminan 1800 pud paxtani chigitdan tozalagan. Mavsum mobaynida 200 ming pudgacha (3200 t) paxtani tozalash imkoniyatiga ega bo'lgan.

Xullas, 1880-1914 yillar orasida qariyib 220 ta paxta tozalash zavodi qurildi. Bunday zavodlar Buxoro amirligida va Xiva xonligida ham barpo etildi. Masalan, Buxoro amirligida 1905 yilda 9 ta, 1913 yilda esa 26 ta paxta zavodi ishlab turgan. 1890 yilda Xiva xonligida 81 ta sanoat korxonasi bo'lib, ulardan 27 tasi nisbatan yirik korxonalar edi. 1917 yilgi fevral inqilobi arafasida Xiva xonligida 36 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta yog' va sovun ishlab chiqarish zavodlari ishlab turgan. Paxta tozalash zavodlarining egalari savdogarlar va yirik yer egalari bo'lib ular orasida aka-uka Vadyaevlar, Fuzalovlar, Yusufboevlarning salmog'i katta bo'lgan.

Dastlabki yog' ishlab chiqarish zavodlari 1884 yilda Qo'qon va Toshkentda paydo bo'ldi. 1897 yilda Kattaqo'rg'onda ham yog' zavodining qurilishi o'lkada yirik yog' ishlab chiqarish korxonalarining paydo bo'lishiga asos yaratdi. 1915 yilda bu yog' zavodi qariyib 2 mln. pud yog', 5 mln. puddan ko'proq kunjara, 5 mln. pudga yaqin shulxa ishlab chiqargan. Yog' ishlab chiqaruvchi korxonalarining anchagina qismi Farg'onada joylashgan. Bu yerda tayyorlangan o'simlik yog'inining talay qismi Rossiyaga, kunjara Germaniya va Angliyaga olib ketilgan.

Paxta sanoatchilarining yirik monopol birlashmalari ham vujudga keldi. 1915 yilning iyulida 5 ta yirik firmani birlashtirgan "Beshbosh" savdo-sanoat shirkati tashkil etildi. 1892 yildan 1915 yilgacha o'lkada Davlat banklarining 10 ga yaqin bo'limlari va xususiy tijorat banklarining 40 ta bo'limi ochildi. Bank-moliya kapitali O'rta Osiyo iqtisodiyotining barcha sohalariga kirib bordi. Dastlabki monopoliyalar paxtachilikda va u bilan bog'liq bo'lgan yog' ishlab chiqarish sohasida vujudga keldi. Lekin ular ichki jamg'armalar hisobiga emas, balki Rossiya moliya kapitali tomonidan tashkil etildi. Turkiston o'lkasiga xorijiy firmalar va ularning kapitallari ham kirib keldi. Ular orasida jahonga mashhur "Zinger" firmasi alohida o'rinn tutadi. Rossiyani o'lsa bilan bog'lagan temir

yo'llar ishga tushirilgach, rus va chet el kapitalining Turkistonga kirishi uchun katta imkoniyatlar ochildi.

O'lkada 1895 yildan 1914 yilgacha 11 ta urug'-zavodi, o'nlab ko'n, g'isht, ohak qizdirish, mis eritish, jun yuvish sexlari, vino, pivo, farmatsevtika, oziq-ovqat korxonalari ishga tushirildi. Elektr-lashtirish hali boshlang'ich holatda edi. Faqat bir nechta yirik korxonalarda elektr apparatlari mavjud edi, xolos. "Chimyon" hissadorlik jamiyatining neft haydash zavodi o'zining dizel elektr stansiyasidan quvvat olgan. Qovunchi qand zavodi esa xususiy GESiga ega bo'lgan. Turkiston o'lkasida elektr quvvatining ishlatalishi hali boshlang'ich bosqichda bo'lsa, G'arbiy Yevropa mamlakatlari 30-50 yil oldin bu yo'lni bosib o'tishgan. Agar 1913 yilda Rossiyada aholi jon boshiga faqat 14 kvt. soat elektr quvvati to'g'ri kelgan bo'lsa, Turkistondagi aholi jon boshiga 1 kvt. soat elektr quvvati ishlab chiqarilgan.

Shuni unutmaslik kerakki, XX asr boshlarida o'lkaning sanoat jihatidan rivojlanishi Rossiyaga qaraganda ancha pastroq darajada edi. 1908 yilgi sanoat korxonalari ro'yxati ma'lumotlariga qaraganda, bu yerda 378 ta sanoat korxonasi mavjud bo'lib, u butun Rossiya imperiyasidagi barcha sanoat korxonalarining 2%ini tashkil etgan. Viloyatlarda sanoat bir xilda rivojlanmagan. 1880 yildan 1914 yilgacha Farg'ona viloyatida 224 ta, Samarqand viloyatida 163 ta, Yertisuv viloyatida 107 ta korxona bunyod etilgan. Sanoat korxonalarining 60 foizi o'lkaning yirik shaharlarda joylashgan.

Yuqorida aytiganidek, Rossiya kapitalizmi uchun Turkiston arzon xom ashyo manbai sifatida muhim ahamiyatga ega edi. Turkiston bilan Rossiya o'rtaida temir yo'l aloqasining o'rnatilishi dehqon xo'jaligining Umumrossiya bozori tasarrufiga tortilishini tezlashtirdi. XIX asrning oxirgi choragidan o'lka qishloq xo'jaligida sanoat uchun paxta yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan katta o'zgarishlar davri boshlandi. Paxtachilikning dastlabki ta'siri ikki yo'nalishda namoyon bo'ldi. Birinchisi, paxta maydonlari bug'doy ekiladigan, sug'oriladigan yerlar hisobiga kengaytirildi. Ikkinchisi, avval asosan o'z xo'jaligining ehtiyojini qondirish uchun paxta ekadigan dehqon so'ngra bozor uchun mahsulot yetishtirish bilan shug'ullana boshladi. Chunki mavjud sharoitda paxtaga ixtisoslashish, uni bozorga sotish iqtisodiy jihatdan foydaliroq bo'lib qoldi. Turkistonda dehqon xo'jaligining bozor munosabatlari moslashish sur'atlari G'arbiy Yevropaga nisbatan niroyatda kam vaqtini talab qildi.

Paxtachilikning yil sayin kengayishi natijasida XX asrning birinchi o'n yilligida Turkiston qishloq xo'jaligi bozor munosabatlari ustivorligi sharoitida dastlabki iqtisodiy tanglikka uchradi. Uning kelib chiqish sababi asosan mayda dehqonchilik xo'jaligining moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishida edi.

Rus kapitalistlari sanoat mahsulotlarini sotish bozori hamda xom ashyo manbai bo'lgan Turkistondagi ishlab chiqarish jarayoniga boshda faol ishtirok etishdan o'zlarini chetga oldilar. Yirik sanoat firmalaridan bir yilga veksel sifatida qarz olgan rus ulgurji savdogarlar ushbu firmalarning mahsulotlarini Turkistonda Rossiyadagi narxidan bir necha barobar qimmatiga sotardilar. Mahalliy savdogarlar har kungi savdodan tushgan mablag'ni rus savdogarlariga berar, qarzining qolgan qismi uchun esa ustama haq to'lar edilar. Rus ulgurji savdogarlar Turkistonda sotilgan mahsulotlarining puliga ipak, ten, paxta, quruq meva sotib olar va ularni Rossiyaga jo'natar edilar.

Rossiyaning yirik savdo ko'rgazmalarida tuzilgan savdo bitimlari O'rta Osiyoning Rossiya bilan iqtisodiy munosabatlarida alohida o'rinn tutar edi. Bunda Nijegorod yarmarkasining roli katta bo'lgan. Mahalliy sarmoya rus kapitali tomonidan tamomila siqib qo'yilgan. Sanoat mahsulotlari va paxtadan boshqa xom ashylarни chetga chiqarishda esa mahalliy kapital sezilarli o'rinn tutgan. Mamlakat ichida chakana savdo qilish jabhasi to'la mahalliy savdogarlar qo'lida edi. Rossiyaning savdo-sotiq sohasidagi siyosati savdo markazlaridan biri bo'lgan Qo'qon misolida to'la namoyon bo'ladi. Farg'ona viloyat boshqarmasi 1876 yilning 7 martida viloyatning hamma shahar va tumanlari uchun umumi zakot to'lash tartibini o'rnatdi. Viloyatdagi hamma mahalliy savdogarlar yillik savdo-sotiq muomalasida bo'lgan kapitallarining 2,2% miqdorida zakot berishi va zakot boshqarmasini o'zlarining boyliklari hamda savdo xususidagi ishlari haqida muntazam xabardor qilib turishlari shart edi. Mazkur qonunni buzuvchilar esa o'zlariga qarashli umumi boylikning 1/10 miqdorida jarima to'laganlar.

1877 yilning 1 iyunida Farg'ona viloyatida "Savdo-sotiq va boj haqida"gi qonunga amal qilina boshlandi. Bu qonunni ishlab chiqishda "Savdo-sotiq bilan shug'ullanish huquqi" haqidagi 1865 yil 9 fevralda qabul qilingan Umumrossiya qonuni asos qilib olingan bo'lib, u Farg'ona shaharlarining savdo-sotiq sohasidagi faoliyatida katta voqealbo'lgan edi.

Turkiston o'lkasiga keltirilayotgan mollarning 25 % i Qo'qonga, 14 % i Samarqandga, 3 % i Marg'ilonga keltirilgan. 1882 yilga kelib, Qo'qon chetga mol sotish bo'yicha Turkiston shaharlari orasida birinchi o'rinni egalladi. Bu 4 920 937 rublni tashkil etdi. Qo'qonga Rossiyadan, asosan, turli bo'yoqlar, jun, dori-darmon, kitoblar, tangalar, qand, temir, po'lat va ulardan tayyorlangan buyumlar keltirilib, paxta, pilla, chorvachilik va turli hunarmandchilik mahsulotlari olib ketilgan. Qo'qon shahrining ichki va tashqi savdo muomalasining nafaqat viloyatda, balki o'lkada ham yetakchi o'rnlardan birini egallashi Farg'ona viloyati harbiy gubernatorining 1883 yil mayda Turkiston general-gubernatoriga bergen hisobotida ham ta'kidlab o'tilgan. Qo'qon qo'shni shahrlar va mamlakatlardan tashqari, Moskva. Nijegorod yarmarkasi bilan ham savdo muomalasi olib borgan va uning yillik savdo muomalasi 10 mln.rubldan oshiq edi.

1886 yilning 1 yanvarida butun Turkiston o'lkasida, shu jumladan, Farg'ona viloyati shaharlarda ham, ichki bojlar bekor qilinib, rus va mahalliy mollaridan yagona boj olish haqidagi qonun kuchga kirdi.

1889 yil davomida "Katta Yaroslavl yarmarkasi" Qo'qonga 24 648 rubl 75 tiyinlik mollar keltirib, evaziga 66600 pud paxta (431850 rubllik) jo'natdi. O'sha yili Qo'qondan chetga chiqarilgan mollarning umumiyligi qiymati 10711277 rubldan iborat bo'ldi. Farg'ona viloyati boshqaruvining Turkiston general-gubernatoriga 1890 yil 4 sentyabrda bergen ma'lumotida o'lkaning savdo masalalarida Qo'qon shahrining o'rni alohida ta'kidlanib, bu yerda Osiyo mamlakatlari, Rossiya va Sibir shahrlari bilan doimiy savdo munosabatlarda bo'lgan juda ko'p savdogarlar va hunarmandlar borligi aytildi. Transport idoralarining ma'lumotlariga ko'ra, 1892 yilda Qo'qon tumaniga olib kelingan va chiqarib ketilgan mollar qiymati 21 mln. rubldan oshiq bo'lib, buning 3/4 qismi shaharning hissasiga to'g'ri keldi.

XIX asrning 90-yillarida savdoning rivojlanishi tufayli Qo'qonda ichki va tashqi savdoda asosiy rolni o'ynovchi yirik mablag'ga ega bo'lgan mahalliy savdogarlar guruhi ajralib chiqa bordi. Yillik savdo muomalasida 50 mingdan 100 minggacha puli bo'lgan va doimiy mablag'i 500 ming rublni tashkil etuvchi Sion Pinxasov, 250 ming mablag'inining 200 minggi savdo muomalasida bo'lgan "Islom Xoimov va K", 500 ming mablag'inining 300 ming rubli savdo

muomalasida bo'lgan "Yumoev va K" kabilar shular jumlasidan-  
dir. Pinxas Ribakovning savdo muomalasida 200 ming rubli bor  
edi. Farg'ona viloyatida bunday yirik savdogarlar ko'p edi. 123  
yahudiy savdogarlarning 44 tasi Qo'qonda savdo qilar, ulardan 19  
tasining savdo muomalasida 800000 rubl, 23 tasida o'rtacha 2000  
rubldan bo'lgan.

Qo'qondagi ichki savdoda davlatga qarashli "katta bozor" va  
shaxsiy savdo rastalari asosiy o'rinni egallar edi. Tadqiqotchilarning  
ma'lumotiga ko'ra, bozorda 5000 ga yaqin savdo do'konlari  
bo'lgan. Qo'qon bozori o'zining joylashishiga ko'ra, nafaqat yaq-  
in tumanlarning, balki butun O'rta Osiyo shaharlarining savdo  
markazlaridan biri hisoblangan. Bu yerda savdo keng ko'lamda  
olib borilgan, savdo do'konlari mahalliy boy-savdogarlarga ijara-  
ga berilishi bilan birga, rus savdogarlari bilan ham savdo mun-  
sabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Markaziy bozordan tashqari,  
tumanning katta qishloqlarida haftaning ayrim kunlari bozor uy-  
ushtirilgan.

1909 yilda 44 taga etgan karvonsaroylar ichki bozorda kat-  
ta o'rinni tutgan. Savdo do'konlari xususiy shaxslar ixtiyorida edi.  
Shuning uchun ham mahalliy hokimiyat yangi savdo shaxobcha-  
lari qurish, bozorlarni kengaytirish va u yerdagi shart-sharoitni  
yaxshilash haqida qayg'urmas edi.

Shahar bozorlari asosan Markaziy Rossiya sanoati uchun zarur  
bo'lgan mahalliy xom ashyo sotib olish va olib kelgangan rus mol-  
larini sotishda vos tachilik rolini bajarar edi.

1890 yilda ixtisoslashtirilgan transport idoralari Qo'qon tuman-  
idan 557555 pud Amerika va 242546 pud mahalliy navli paxtani  
olib ketgan. XIX asrning 90-yillaridan o'lkaga Rossiyadan qishloq  
xo'jaligi va sanoat mashinalari, temir ko'plab keltirila boshlandi.  
Rossiyadan keltirilayotgan mollar 8 marotaba, Rossiyaga chiqar-  
ilayotgani esa 7 marotabaga o'sdi.

Keltirilgan raqamlar shuni ko'rsatadi, Rossiya ishbilarmonlari  
o'zlarini keltirgan sanoat mahsulotlarini sotishdan ham, xom ashyo  
sotib olishdan ham katta foyda ko'rganlar. Ular olib kelayotgan  
mollarining miqdori va sifati o'zgarib, bu mollar ichida tikuv mash-  
inalari, unga ehtiyyot qismlari, shisha, uy-ro'zg'or buyumlari, mu-  
siqua asboblari va boshqalarini uchratish mumkin edi. Shu tariqa XIX  
asrning oxiri - XX asrning boshlarida Turkiston rayonlari o'zar  
savdo aloqalariga kengroq jalb etila bordi. Xuddi shu davrda

Turkistonda yagona ichki bozorning shakllanishi boshlandi. Bu jarayon Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarning kengayishi, O'rta Osiyo temir yo'llining qurilishi va Amudaryoda kema qatnovining rivojlanishini ancha tezlashtirdi.

#### **18.4. Agrar siyosat**

Uzoqni ko'zlagan maqsaddan kelib chiqqan holda Rossiya Turkistonda olib borgan yer-suv munosabatlarida quyidagi siyosatni o'tkazdi:

1. O'lkadagi barcha yerlar davlat xazinasiga tegishli, deb e'lon qilindi. O'troq mahalliy aholiga yer merosiy yakka jamoa egaligi tariqasida, ko'chmanchi aholiga esa muddati cheklanmagan tarzda jamoa bo'lib foydalanish uchun topshirildi.

2. O'troq joylarda yer undan amalda foydalanayotganlarga biriktirildi. Bu tartibga binoan sud organlariga yer-suvga oid munozarali masalalarini hal etishda qozilar tomonidan berilgan yerga egalik qilish haqidagi hujjalari - vasiqalarga tayanmay, aksincha, yerdan kim amalda foydalanayotganiga qarab ish tutish lozimligi haqida ko'rsatma berildi. O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingunga qadar katta yer egalari dehqonlarga ijaraga bergen yerlar endilikda ijarachilarga meros tarzda foydalanishga topshirildi. Chorizmning yer-suv sohasidagi bunday "tartiligi"ning sababi, birinchidan, Rossianing dastlabki yillarda ko'chirish ehtiyojlari uchun zarur yer jamg'armasiga muhtoj bo'Imagani, ikkinchidan, bu sohada o'ziga raqib bo'lgan mahalliy zodagonlar bilan kurashda keng mehnatkashlar ommasini betaraf qilib qo'yish edi.

3. Ko'p hollarda vaqflar avvalgi tarzida qoldirildi, ammo ayrim hollarda vaqf yerlarini davlat ixtiyoriga olish ham mumkinligi belgilandi.

4. Sobiq imtiyozli shaxsiy mulk yerlariga boshqalar qatori soliq solindi. Ular endi xususiy mulk emas, balki davlat yerlari deb ataldi va dehqonlarga meros ravishda egalik qilish va foydalanishga topshirilgani ma'lum qilindi.

5. Shahar tashqarisida rus aholisiga yer ajratish ham taqilandi.

6. Yevropaliklar, xususan, ruslar tomonidan mahalliy aholiga qarashli yerlarni sotib olish mutlaq man etildi. Bu ta'qiq 90-yillar oxiriga qadar o'z kuchini saqlagan.

Podsho hukumati Turkiston o'lkasidagi o'troq aholining yerlarini qishloq jamoalari va qishloqlarda yasirinchalik soliq yig'ishda "doiraviy javobgarlik"ni joriy etdi. Bunda soliq birligi sifatida avvalgidek yakka hovli - xo'jalik emas, balki butun qishloq, yo jamoa olindi. Rus amaldorlari kambag'allar uchun ularning boy qarindoshlari yoki hamqishloqlari uning solig'ini to'lab yuborishlarini bilib, shu odatni qonunlashtirdilar. Ko'pincha soliq yig'uvchilarning o'zлari kambag'allarning solig'ini to'lab, keyin uni ortig'i bilan undirib olishgan.

Chorizmning bunday siyosati mahalliy dehqonchilikning kapitalistik asosda rivojlanishiga xalal bergen. Eski munosabatlarning saqlanib qolishiga imkon beruvchi tartib-qoidalari esa o'lka qishloqlarida sudxo'rlikning keng ildiz otib, qishloq xo'jaligining taraqqiyot yo'lini bo'g'ib qo'ygan.

O'z yerlaridan dehqonlarning chekka o'lkalarga ketib qolishi-ga qarshilik qilgan rus pomeshchiklari ham mamlakatda kuchayib borayotgan dehqonlar harakatidan xavotirlanib, "to'polonchi unsurlar"ning Turkistonga ketishiga xayrixohlik ko'rsata boshladi. Mustamlaka o'lkasiga ruslarni ko'chirish masalasi bilan shug'ullanuvchi maxsus idora - "Ko'chirib keltirish boshqarmasi" tashkil qilindi. Chorizm hukumati 90-yillar oxiridan rus dehqonlaridan yeri kam bo'lgan va umuman yerga ega bo'Imaganlarga "Osiyo Rossiyasida bo'sh yotgan erkin yerdan" foydalanishga keng imkoniyat yaratdi. Shunday qilib, podsho hukumati Rossiya dvoryan-pomeshchiklari manfaatini ko'zlab, ularni "ichki balo" bo'lmish kambag'al dehqonlar xurujidan saqlash niyatida, Turkiston yerlarini ularga ehson qildi. Ichki norozilikni esa mustamlaka xalqini ezish, ularani yanada kambag'al va nochor ahvolga tushirish hisobidan bosishga urindi.

Paxta yakkahokimligini o'rnatish maqsadida Turkistondan Rossiyaga yuboriladigan paxtadan butunlay boj olinmaydigan bo'ldi. 1879 yildan esa boj yig'imi har pud paxtadan 40-50 tiyin miqdorida belgilandi. Soliq olishda ham paxtakorlarga ayrim imtiyozlar berildi. Moliya vazirligi rus burjuaziyasining Turkiston paxtachiliginı rivojlantirishdagi harakatlarini faol quvvatlab turdi.

Mustabid saltanat markazi talabi bilan 1905 yilda ziroat va davlat mulklari vazirligi tarkibida "Ko'chiruvchilik boshqarmasi" tuzildi. Turkistonda esa 1906 yilda "Sirdaryo ko'chiruvchilik rayo-

ni" tashkil etilib, mahalliy aholi yerlarini rus mujiklari uchun tortib olib berish rejali tus oldi.

Turkistondagi mustamlaka ma'muriyati bundan awal bu sohada o'z holicha ish tutgan bo'lsa, endilikda mahalliy aholi yerlarini tortib olish bevosita markaz tomonidan boshqariladigan va izchil amalga oshiriladigan bo'ldi. Natijada XX asr boshida rus kelgindilarining soni 175 mingdan oshib ketdi. Turkiston aholisining atigi 5 foizini tashkil etuvchi rus mustamlakachilari qo'liga ekin ekiladigan hosildor yershing 60 foizi berib qo'yilgan edi<sup>1</sup>.

### **18.5. O'lkaning xomashyo bazasiga aylantirilishi**

Rossiya imperiyasining Turkiston xom ashysidan oladigan foydasining aniq miqdorini hech kim bilmagan va u faqat metropoliya burjuaziyasigagina ma'lum edi. Rossiya to'qimachilik sanoati mahsulotlari qiymati 1900 yildan 1913 yilga qadar 150 foiz oshganidan kelgan foyda ham shu rus kapitalistlarining cho'ntagiga tushgan va uning hisobini ham hech kim bilmaydi.

Rossiya Turkistonni qisqa muddatda o'z sanoati uchun xom ashyo manbaiga aylantirdi. Agar 1885 yilda paxta maydoni 41,4 ming tanobni tashkil qilgan bo'lsa, 1915 yilga kelib u 541,9 ming tanobga etdi, ya'ni 13 barobarga o'sdi. O'lka Rossiyaning asosiy paxta bazasiga aylandi.

Metropolianing iqtisodiy siyosati Turkistonni xom ashyo bazasiga aylantirish, uni rus mollari sotiladigan bozor sifatida tutib turish va tabiiy boyliklarini markazga tashib ketishga qaratilgan edi. Bu siyosatdan dvoryan-pomeshchiklar sinfdan tashqari, tobo ra rivojlanib va kuchga kirib borayotgan rus burjuaziysi, ayniqsa to'qimachilik sanoatining egalari manfaatdor edilar. Turkiston mo'may daromad manbai sifatida ham chor Rossiyasining xazinasini boyitib borayotgan edi. Bu daromadlar 1867-1896 yillarda 4 barobarga ko'paydi, aholidan olinadigan soliqlar 1889-1893 yillarda 40 foizga oshdi. 1869-1896 yillar davomida imperiya xazinasini o'lordan 158 million rubl daromad oldi.

Metropoliyadagi kapitalistik munosabatlarning rivoji mustamlakalarni ham o'z domiga tortdi. Turkiston o'lkasi ham bu jarayon-

<sup>1</sup> Исаев Б. 20-летие восстания в Киргизии. «Революция и национальности». М., 1936, № 9, стр. 32.

ga jalb etilib, unda ham markaz manfaatlariiga mos kelgan kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. O'lkaning birgina Farg'ona viloyatida XX asr boshida 157 paxta tozalash zavodi bo'lib, ular mahalliy, rus va chet el kapitalistlariga qarashli edi. Turkistonning Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona kabi uch viloyatida 1867-1900 yillar mobaynida 170 sanoat korxonasi ochilgan bo'lsa, 10 yil davomida (1900-1910) yana 220, 4 yil ichida (1910-1914) esa 180 korxona ishga tushirilgan.

O'lka fabrika-zavod sanoatining asosini ham xuddi shu paxta tozalash korxonalari tashkil etgani tasodifiy emas, albatta. Chunki metropoliyaning sanoat sohasidagi siyosatini rus burjuaziysi belgilari, unga esa o'lkaning paxtasi birinchi navbatda zarur edi.

Rus to'qimachilik sanoati Turkiston paxtachiligining rivoji tufayli jahon bozorida mustahkam marrani egalladi. 1900 yilda Turkiston paxtasi rus sanoati ehtiyojining 25 foizini tashkil qilib, bu raqam yil sayin oshib bordi va birinchi jahon urushi arafasida 50 foizga etdi. Imperiya gazlama sanoatining gurkirab o'sishi ana shu paxta tufayli edi. 1889-1916 yillar orasida "amerika" navi ekiladigan Turkiston o'lkasi paxta maydonlari 7 barobar kengayganining boisi ham shunda edi<sup>1</sup>. Birgina Qo'qonning o'zidagina 1900 yilda 22 ta paxta tozalash zavodi ishlagan. Arzon xom ashyo asosida ishlovchi yog', vino, pivo, kolbasa zavodlari, o'lka yer osti boyliklarini o'zlashtiruvchi tog'-kon korxonalari paxta tozalovchi zavodlardan keyingi o'rinda turgan.

1884 yildan rus sanoatchilar "Amerika" navli paxtani o'lkada katta maydonlarda ektirishlaridan so'ng imperiya to'qimachilik sanoati korchalonlarining ishtahasi ochilib ketgan edi. 1889 yilda bunday nav 50 ming, 1895 yilda 100 ming tanob maydonga ekildi. 1901 yilga kelib esa o'lkada 186326 tanob yerni egallagan paxtadan 174026 tanobi rus sanoati ehtiyoji uchun mo'ljalangan amerika naviga tegishli paxta edi. Rus ishbilarmonlari va chet el normalarining maxsus paxta plantatsiyalari ham shitob bilan o'z maydonini kengaytirib bordi. G.Belyakov, N.Raevskiy, S.Tarsin kabi plantatorlar amerika navli paxtani Turkistonda keng tarqatish ishining tashabbuskorlari va boshlovchilar bo'lishdi. Eng katta plantatsiya Katta Yaroslavl manufakturasiga tegishli edi (2750).

<sup>1</sup> O'zR MDA, 1-jamg'arma, 5-ro'ykat, 939-ish, 6-varaq.

keyingisi esa rus kelgindilarining Andreev xutori (Andijon uezdi) bo'lib, u 700 tanob maydonni egallagandi.

XX asr boshlarida paxtachilik Turkiston sanoati va qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, don -37 foiz, boshqa ekinlar esa 1,2 foizni tashkil qilgan. Paxtachilik imperianing chet ellarga sarflaydigan 70 million oltin pulini tejashda yordam bergani ham to'qimachilik, gazlama sanoati gurkirab o'sishiga turki berdi.

### **TURKISTON O'LKASIDAN ROSSIYA TO'QIMACHILIK SANOATIGA**

#### **ETKAZIB BERILGAN HAJMI**

|                   | <b>1906</b> | <b>1909</b> | <b>1913</b> | <b>1915</b> |
|-------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| Paxta hajmi (pud) | 566 878     | 1 102 876   | 2 115 119   | 2 426 298   |

Shunga qaramay, paxtaning narxi nihoyatda past edi. 1913 yilda paxta narxi 50 foiz oshirilganda mustamlaka ma'muriyati ataylab eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bahosini 400-500 foizga oshirdi. Nonning narxini 6 martaga ko'tarib, paxta narxini esa 20 foizga kamaytirdi<sup>1</sup>.

Rus mustamlakachilari Turkistondan 1914-1916 yillar mobaynida 59 million pud paxta, 8,5 million pud paxta yog'i, 950 ming pud pilla, 2925 ming pud teri, 300 ming pud go'sht, 229 ming pud sovun, 474 ming pud baliq olib ketdilar.

Turkiston o'lkasi imperianing xom ashyo manbai bo'lishidan tashqari u Rossiyaning Yevropa bozorlarida raqobatga dosh bera olmaydigan o'tmas matohlarining sotiladigan qulay bozoriga ham aylantirildi. XX asr boshlarida Turkistonga keltirilayotgan temir, mis, chinni idishlar, gazlama va boshqa mahsulotlar miqdori 8 marta ko'paygan. Xususan, birgina Farg'onaga Moskvadan ~ 605412, Irbitdan - 5000, Nijniy Novgoroddan - 71233, Orenburgdan - 23910, Louzdan - 33600 rublik mollar keltirilgan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1676-ish, 2-varaq.

<sup>2</sup> O'zR MDA, 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2599-ish, 2-varaq.

## **18.6. Mahalliy mulkdorlar toifasining shakllanishi**

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi savdo-sotiqliq markazlarida mahalliy sarmoyador-mulkdorlar toifasi shakllana boshladi. Qishloqlarda esa o'rta sarmoyalni mulkdorlar soni ko'payla boshladi.

Eng so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, XX asr boshlarida Turkiston qishloqlarida paxtachilik rivojlangani va yuqori xarid qobiliyati yangi ijtimoiy qatlama - o'rta mulkdorlarni vujudga keltirdi: 1,5 tanobgacha (desyatina) yerga ega kambag'allar qishloq aholisining 45,6 %, 1,5 dan 5 tanobgacha yer egalari - o'rta mulkdorlar 38,9 %, o'ziga to'q o'rta hollar: (5-10 tanobli) 10,6 %, boylar (10 tanobdan ortiq) 4,9 %ni tashkil etdi. Shu tariqa Turkiston qishloqlarida o'rta mulkdorlar dehqon xo'jaliklarining 50 %ni qamrab oldi. Ular xususiy mulkdorlar o'zagi va baquvvat qatlami bo'lib fermer xo'jaliklari shakli tomon rivojlanmoqda edilar.

Sanoat ishlab chiqarishda o'rta mulkdorlar toifasini asosan kosiblar va hunarmandlar tashkil qilgan. 1897 yilda Toshkentda 1699 kosibchilik korxonalarini va ularda ishlovchi 3 300 xodim ro'yxatga olingan. Ulardan har birining yillik unumdarligi 1-3 ming rublni tashkil qilgan.

Savdo-sotiqliq doirasida ham o'rta mulkdorlar salmoqli o'rinni egallahgan. Toshkentda 1878 yilda berilgan savdo guvohnomalaridan 224 tasi yirik mulkdorlarga, qolgan 3689 tasi o'rta sarmoyalni savdogarlarga berilgan. 1904 yilda Farg'ona viloyatida 26512 savdo guvohnomalaridan 48 tasi ko'tara savdoga oid bo'lsa, 747 tasi chakana, 25717 tasi kichik savdoga tegishli bo'lган.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasi savdo-sotiqliq doiralalarining paxtaga katta ehtiyoji, to'qimachilik sanoati korchalonlarining Turkiston paxtasiga qo'yan yuqori narxlari dehqon xo'jaliklarini paxtachilikni rivojlantirishga katta turtki berdi.

Qishloqlarda va shaharlarda o'rta mulkdorlar toifasini shakllantirdi. Huddi shu toifa Turkiston iqtisodiyotida barqarorlikni saqlab turuvchi asosiy omil edi.

Yirik mulkdorlar soni ham, kapitalistik sarmoyasi ham ko'payib bordi. Mashhur o'zbek davlat arbobi Fayzulla Xo'jaevning otasi Ubaydulla Xo'jaev Buxoro amiri Said Abdulahadxon bilan jahon qorako'l teri savdosida yetakchi o'rinni egallagan. Ko'p millionli sarmoyalari chet el banklari operasiyalarida ishtirok etgan.

Farg'ona vodiysida esa shunday yirik sarmoyadorlar qatorida Temirbek hoji va Mirkomil Mirmo'minboev birnchi o'rinda turishgan.

Rus va chet el kapitalistlari bilan hamkorliqdag'i faoliyat davomida tijorat ilmini o'zlashtirgan bu mulkdorlar jahon bozoriga chiqishga ham urina boshlagandi. Andijonlik Mirkomil Mirmo'min-boy hoji o'g'li (1860-1919) ana shunday yirik o'zbek mulkdorlarining yorqin namoyandasini edi. XX asr boshlarida uning shaxsiy boyligi 15 millionga yaqin bo'lган va u "Aka-uka Shlyusberg", "Knop", "Aka-uka Stensum" firmalari, Moskva hisob banki, Rus - Xitoy banki, Rus - Osiyo banki va boshqa savdo-sotiq firmalari hamda banklari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsata boshladi. Mirkomil-boyning 5 ta paxta tozalash zavodi, 5 ming tanob yeri, 300 dan ortiq do'konlari, 4 ta katta bog'-uzumzor, 6 milliondan ortiq naqd puli, qimmatbaho qog'oz, aksiyalari bo'lган<sup>1</sup>. Rus kapitalistlarning vositachi xizmatkori bo'lib o'z xalqini talashda qatnashgan, sudxo'rlik qilgan va har xil yo'llar bilan boylik orttirgan boshqa tijoratchilardan farqli o'laroq, u rus va chet el kapitalistlari bilan muvaffaqiyatlari raqobat qila olgan, tadbirkor va ma'rifatparvarligi bilan ham o'z birodarlaridan keskin ajralib turgan. Rus mustamlakachilari uni yomon ko'rishsa ham u bilan hisoblashishga mabjur bo'lishgan. Shu bois unga qarshi doimiy, beto'xtov tazyiq, ta'qib olib borilgan, har bir qadami, xatti-harakati chor ma'murlari kuzatuvida bo'lган.

### **18.7. O'rta osiyo temir yo'slining imperiya va o'lka iqtisodiyotida tutgan o'rni**

Rossiya imperiyasining hukmdor dciralari XVIII asrning birinchi yarmidayoq o'zbek xonliklari bilan savdo-sotiq aloqalarini yanada kengaytirish ustida izchil faoliyat ko'rsatishgan. Petr I Buxoro va Xivaga yuborgan Florpo Beneveni elchiligi buning yorqin dalilidir. Elchilik o'zbek xonliklari hududlaridagi tabiiy bcyliklarni aniqlash va bozorlardagi savdo-sotiq ko'lami xususida boy materiallar to'plagan edi.

Rossiya bilan O'rta Osiyo o'rtasida tovar almashinuvining kuchayishi, aniqsa rus kapitalist-fabrikalarining paxtaga bo'lган "ishtaxa"sining oshishi, o'lcamizning iqtisodiy jihatdan tezroq

<sup>1</sup> O'zRMDA. 19-jamg'arma, 4-ro'yxat, 178-ish. 97-varaq

zabt etilishi va rus mollari sotiladigan bozor sifatida tushib turish siyosatini amalga oshirish uchun metropoliya bilan mustamlaka o'rta sidagi transport aloqalarni kengaytirish lozimligini tushungan mustamlakachilar "Rossiyaning Osiyo yerlaridagi tsivilizatsiya tarqatuvchilik missiyasi"ni keng targ'ib eta boshladilar. Ayrimlar kema qatnaydigan suv yo'llari bilan Qora dengiz, Azov, Kaspiy va Orol dengizlarini birlashtirishga, "rus tovarlarining O'rta Osiyoga borishini osonlashtirish"ga chaqirsalar, boshqalar Kaspiy dengizida harbiy faoliyatni kuchaytirishni, Orol dengizga yo'l ochish va Sirdaryo bo'ylab kemachilikni rivojlantirishni taklif etishar<sup>1</sup>, uchinchi yo'naliish tarafдорлari esa tezroq temir yo'l qurilishini boshlashni talab qilar edi<sup>2</sup>. Ular bu haqda oshkora bahslashar, O'rta Osiyoga go'yoki "o'z qonuniy mulki" dek qarab, uning boyliklarini hisob-kitob qilish yuzasidan tadqiqotlar olib borishdan charchamasdilar.

Rossiyaning markaziy hududlarini O'rta Osiyo bilan temir yo'l orqali bog'lash masalasi 25 yildan ortiqroq muhokama qilinib, 1854 yildan 1880 yilgacha bo'lgan davrda 40 dan ortiq loyihalarni Rossiya hukumatiga taqdim etildi. Mazkur loyihalarning aksariyati Orenburg - Qorato'g'oy - Toshkent, Uralsk - Orol dengizi - Toshkent yo'naliishida temir yo'l qurish orqali Rossiyaning markaziy hududlarini O'rta Osiyo bilan bog'lash, qisman Petropavlovsk - Oqmala - Turkiston - Chimkent - Toshkent, Omsk - Qarqato - Avliyoota - Toshkent yo'naliishida O'rta Osiyonini Sibir magistrali bilan ulashga mo'jallangan edi. Shu bilan bir qatorda ayrim xorijiy muhandislar va kompaniyalar tomonidan ham Orenburg - Toshkent - Peshovor yo'naliishi orqali rus va anglo-hind temir yo'lini o'zaro bog'lashga mo'ljallangan loyihalalar taklif qilingan edi.

XIX asrning 60-yillari oxirlarida Ferdinand Lesseps tomonidan taklif etilgan dastlabki loyiha ko'ra Orenburg - Toshkent-Peshovor yo'naliishi orqali rus va anglo-hind temir yo'lini bog'lash mo'ljallandi.

Taklif qilingan loyihalarni atroficha o'rganish maqsadida 1874 yili Imperator Rus Geografik jamiyatning Orenburg bo'limi huzur-

<sup>1</sup> Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарихи шоҳидлиги ва сабоқлари. (1865-1990 йиллар). Ташкент: «Шарқ», 2000, 13-бет.

<sup>2</sup> Железные дороги в Среднюю Азию. Сборник статей и проектов по проведению железных дорог в Среднюю Азию. С-Петербург, 1874, стр. 3.

ida Maxsus komissiya tashkil etilib, quyidagi vazifalar yuklatildi, xususan:

**birinchidan**, taklif qilingan temir yo'l loyihalarning Rossiya uchun ahamiyatini aniqlash;

**ikkinchidan**, Orenburg o'lkasidagi joylarning topografik ma'lumotlarni o'rganish asosida eng qulay temir yo'l yo'nalishini aniqlash va belgilash;

**uchinchidan**, temir yo'l qurilishi va uni ekspluatatsiya qilishning eng arzon usullari xususida ma'lumotlar to'plash;

**to'rtinchidan**, temir yo'l qurilishining Turkiston o'lkasiga keltiradigan foydasini aniqlash;

**beshinchidan**, Rossianing markaziy hududlari bilan Turkiston o'rtaida yuk tashish, shu bilan bir qatorda o'zaro savdo-sotiqlar aloqalarini rivojlantirish xususida ma'lumotlar to'plash.

Maxsus komissiya tashkil etilgandan so'ng joylarning topografik ma'lumotlari asosida eng qulay temir yo'l yo'nalishlarini aniqlash, uni qurish va ekspluatatsiya qilishning eng arzon usullarini tanlash masalalarining atroflicha tadqiq etish amalga oshirila boshlandi.

Chunki bosib olingan ulkan hududlarda chegara yo'nalishlari bo'ylab yangi mustahkam tayanch postlar, mudofaa inshootlari qurish zarurligi kun tartibiga qo'yilgan edi. Shu bilan birga ehtiyoj tug'ilganda zuiddik bilan jangovar kuchlarni o'lkaza keltirish, ularni zarur o'q-dori va harbiy zahiralar bilan ta'minlash vazifalari ko'ndalang bo'lib, buning uchun chegaraga yaqin hududlarda temir yo'l qurilishi nihoyatda zarur edi.

1873 yili Xiva xonligiga uyushtirilgan harbiy yurish vaqtida rus qo'shinlari Qizilqumni kesib o'tish vaqtida katta talofat ko'rgan edilar, ularga yordamga otlangan qo'shinlar ham o'z maqsaddariga erisha olmay Krasnovodska qaytishga majbur bo'lishgan edi. 1879 yili general Lazerev qo'mondonligidagi harbiy qo'shinlar Ko'ktepa ostonasida turkman qo'shinlari tomonidan to'xtatilib, katta talofatlar bilan orqaga chekinishgan edi. 1880 yilda harbiy ekspeditsiya bosh qo'mondoni qilib tayinlangan M.D.Skobelev rus qo'shinlarining mag'lubiyatlardan tegishli saboq olgan holda imperatorga yozgan xatida general Lazerev harbiy qo'shinlarning mag'lubiyati sabablarini tahlil qilib, harbiy qismi ar ta'minotini yaxshilash uchun temir yo'l zarurligini alohida uqtirgan edi. Turkiston o'lkasining chegara hududlari bo'ylab temir yo'l qurish navbatdagi vazifa ekanligini asoslab bergen edi.

1880 yilda general M. Skobelev qo'mondonligidagi ekspedisiya natijasida Kaspiy dengizidan Qizil Arbotgacha temir yo'l yotqizildi. 1885 yilda esa afg'on masalasida boshlangan Angliya-Rossiya to'qnashuvidan kelib chiqqan siyosiy tanglik bu yo'lni Chorjo'y va Samarqandgacha etkazish zaruratini kun tartibiga qo'ydi. 1888 yilda tugallangan bu yo'l harbiy strategik jihatdangina emas va balki sof iqtisodiy tomondan ham katta foyda keltirdi. Agar 1883 yilda Rossiyaga 600000 pud paxta chiqarilgan bo'lsa, endilikda temir yo'l tufayli imperiya sanoati uchun 1896-1898 yillarda 4-5 million pud paxta chiqarilib, Rossiyaning chet eldan sotib olish uchun paxta sarflanadigan mablag'idan yiliga 45 million rubl tejab qolindi. Rossiya manufakturasini Turkistonga chiqarish ham ken-gayib 1.000000 pudga etib, har yilgi tovar almashinuvi 12.000.000 pudga etdi. Kaspiyorti temir yo'l daromadlari ham yil sayin ortib bordi. 1898 yilda kirim 6 694 306 rublni tashkil etib, sof foyda 2.172633 rublga etdi. 1900 yilga kelib esa yalpi daromad 11122564 rublni tashkil qildi. Shuning uchun ham O'rta Osiyo (1880-1898 yillar), Toshkent-Orenburg (1901-1906 y.) temir yo'llari davlat mablag'i hisobiga qurilgan bo'lsa, Farg'ona (1911-1916 y.), Buxoro (1914-1916 y.), Ettisuv (1912-1917 y.) temir yo'llari xususiy kapital-hissadorlik jamiyatlari hisobiga qurildi. Temir yo'llari yoqasida ularga xizmat ko'ssatadigan ustaxona va depolar qurila boshlandi. 1882 yilda Qizil Arbot vagon ta'mirlash, 1900 yilda Toshkent va Krasnovodsk ustaxonlari ishga tushirildi.

Imperianing savdo-sanoat doiralari Turkistonda bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda temir yo'ning uikan ahamiyatini yaxshi tushunishgan. Buni chorizmning tayanch kuchi bo'lgan dvoryan-pomeshchiklar ham anglashgan. Ko'p masalalarda rus burjuaziyasi dvoryanlar bilan to'qnashib, bir-birlariga tosh otsalar ham bu masalada ya'ni temir yo'l masalasida o'zaro yakdil bo'lishdi. Shuning uchun ham Rossiya kapitali oqimi uchun keng yo'l ochgan, keyinchalik O'rta Osiyo temir yo'li deb qayta nomlangan Kaspiyorti harbiy temir yo'li shitob ila kengaya boshladi.

1881 yil 20 sentyabrda ishga tushirilgan Qizil Arbotgacha yo'li 1886 yili Marvgacha etdi. 1888 yili esa Samarqand ham temir yo'l bilan bog'landi. Kaspiyorti temir yo'li uzunligi 1 708 chaqirim (verst) masofani qamrab oldi. Unga xazinadan 79 721 000 rubl sarflandi. O'rta Osiyo temir yo'li Krasnovodsk qo'Itig'idan Toshkentgacha 1747 verstni tashkil qildi. Kushka, Andijon, Marg'ilongacha

shahobchalari bilan 2354 verstga cho'zildi. Bu temir yo'lni 1899 yilgacha harbiy vazirlig boshqardi. So'nq aloqa yo'llari vazirligiga o'tdi.

1890 yilda yo'l xizmatchilar va ishchilar soni shtat bo'yicha 5 520 kishi bo'lib ulardan ikki mingga yaqini harbiy xizmatchilar: ofitser va sołdatlarni tashkil qilgan. Yo'l boshqarmasi mahalliy aholidan unumli foydalangani uchun temir yo'lda ishlovchi o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkmanlar soni mingdan oshgan holda ruslar soni 1760 kishini tashkil qildi.

1895 yilda temir yo'lda ishlovchi ruslar 2803 kishini tashkil etgan bo'lsa, general Kuropatkining g'ayrati bilan ularning soni to'rt yil ichida ikki barobar ko'payib 4280 kishiga etdi. 1895 yilda temir yo'lda 174 o'zbek ishlagan bo'lsa, 1895 yilda ularning soni 8 barobar qisqarib, bor-yo'g'i 25 kishi qoldi xolos.

Turkistonni imperiyaning ajralmas qismiga aylantirish, aholisini ruslashtirish, o'lka iqtisodini umumimperiya doirasiga tortish, uni metropoliya mollar sotiladigan bozor va imperiya sanoatining xomashyo makoniga aylantirish siyosatida O'rta Osiyo temir yo'li beqiyos xizmat ko'rsatdi. Buni 1898 yilda Kaspiyorti stansiyasidan Yevropa Rossiyasi, Kavkazga chiqariladigan mollar va u yerlardan keltiriladigan mollar statistikasi ham yaqqol isbotlaydi.

Metropoliya sanoati ehtiyojlari uchun Turkistondan 400 ming pud paxta 241 ming pud quruq meva, 315 ming pud teri, 58 ming pud jun chiqarilgan bo'lsa, Rossiyadan 87 ming pud manufakturna, 115 ming pud neft, 398 ming pud qand, 115 ming pud temir buyumlar, 352 ming pud yog'och materiallar, 135 ming pud g'alla keltirilgan.

O'rta Osiyo temir yo'li Farg'ona, Samarcand, Sirdaryo viloyatlari, Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan Rossiya o'rta sidagi tovar almashinuviga katta xizmat ko'rsatdi. 1898 yilda tovar-mol almashinuvi 8 343 000 pudga etdi. Shundan 3 246 000 pud Rossiyan dan keltiriladigan mollar bo'lsa, 5 097 000 pudi Rossiyaga chiqariladigan tovarlar edi.

Temir yo'l o'lka hayotida ham katta o'zgarishlar yasadi. Turkistonga Rossiya va chet ellardan katta kapital kirib kela boshladi. O'lka tabiiy boyliklarini o'zlashtirish jarayoni kuchaydi, savdo-sotiq rivojlanib yangicha iqtisodiy va ijtimoiy manosabatlar shakllandi. Sanoat va savdo-sotiqning yangicha tarmoqlari vujud-

ga keldi. Ashxabod, Marv, Chorjo'y, Rus Buxorosi va boshqa yangi shaharlar paydo bo'ldi.

Temir yo'l mahalliy aholining yangi tabaqasi - mulkdorlarning faoliyat doirasini kengaytirib jahon bozoriga chiqishga imkoniyat yaratdi. Turkistonni umumimperiya taraqqiyoti orbitasiga qo'shilishiga turki berdi.

Xulosa tariqasida shuni aytish lozimki, O'rta Osiyo temir yo'li harbiy strategik maqsadlarda qurilib imperiya mustamlaka siyosatini o'tkazishga xizmat qilgan bo'lsa ham xolisona obyektiv tarzda Turkiston o'lkasini iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida ijobjiy rcl o'ynadi. Bu holatni inkor etish - tarixiy haqiqatga ziddir.

### **O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar**

1. *Buxoro amirligida rivojlangan hunarmandchilik yo'nalishlarini tavsiflab bering.*
2. *Qo'qon xonligi hududining boshqa hududlardan farqli tomoni nimadan iborat?*
3. *Soliqlar miqdorining tinimsiz oshib borishining sabablari nimada?*
4. *Paxtachilikka e'tiborning kattaligi sabablari nimada?*
5. *Hududda paydo bo'layotgan zavod va fabrikalarning yo'nalishlarini ta'riflang.*
6. *Rossiyaning Turkistonda olib borgan yer-suv siyosatining xususiyatlari nimadan iborat?*
7. *Turkistonni xomashya bazasiga oylantirish siyosatining mohiyati nimadan iborat?*
8. *Rossiyaning markaziy hududlarini O'rta Osiyo bilan temir yo'l orgali bog'lash masalasi qanday hal qilindi?*

## § 19-MAVZU. SOVET MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Tayanch atamalar va iboralar:** sanoatlashtirish, jamoalashtirish, front, quroq-yarog', zavod, fabrika, mashinasozlik, sabzavot, GES, kimyo sanoati, paxta, suv tanqisligi.

### ■ Reja:

19.1. Sanoatlashtirish.

19.2. Ikkinci jahon urushi davrida O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi.

19.3. Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi.

### 19.1. Sanoatlashtirish

Har qanday milliy mustaqil davlat yashashining asosiy sharti o'zining zamонавији rivojlangan sanoatiga, og'ir industriyaga ega bo'lismiga bog'liq. Buni yaxshi tushungan bolsheviklar dohiysi sho'ro Rossiyasini sanoati rivoj topgan ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqish vazifasini qo'ydi. Ammo O'zbekiston singari mustamlaka mamlakatlarga nisbatan bu siyosat mutlaqo boshqacha maqsadlarda amalga oshirildi.

1925-1940-yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati sho'ro hukumati va kompartiya shovinistik va mustamlakachilik siyosatining tarkibiy va ajralmas qismi edi. Bunday siyosatni xaspo'shslash maqsadida SSSR yagona xo'jalik kompleksi g'oyasi ilgari surildi. Ushbu g'oyadan kelib chiqqan holda O'zbekistonda xalq xo'jaligining qaysi tarmog'ini rivojlantirish masalasini Moskva markazdan turib boshqarar edi. Bu taraqqiyot yo'naliishi "stalincha besh yilliklar" direktivalarida o'z aksini topdi va ular Kompartiya qurultoylarida tasdiqlandi. Ana shu direktivalar asosida rivojlangan O'zbekiston sanoat ishlab chiqarish taraqqiyotining 1925-1940-yillardagi ahvoli tahlil etiladigan bo'lsa, shu davr mobaynida respublikada yirik sanoat mahsulotlarini mustaqil o'zi ishlab chiqara oladigan birorta industriya gigantining bunyod etilmaganligiga guvoh bo'lamiz. Chunki, O'zbekistonda bunday yirik sanoat gigantlarini qurish Sho'ro Rossiyasining milliy mus-

tamlakachilik manfaatlariga javob bermas edi. Mustamlakachilik siyosati yuritishning bunday tartib-qoidasi dunyodagi Angliya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya, Germaniya va boshqa mam-lakatlar tarixiy tajribalarida ham sinovdan o'tgan. Mustamlakachi davlatlar (shu jumladan Rossiya ham) o'zlarini bosib olgan hudud-larda tez foyda beradigan, o'z milliy manfaatlariga javob beradigan va milliy mustamlakachilikka xavf tug'dirmaydigan siyosat olib boradilar. Sho'ro Rossiyasi ham "ixtisoslashtirish" bahonasida Rossianing o'zida, Ukraina, Belorusiya va boshqa respublikalarda og'ir sanoat korxonalarini qurishga asosiy diqqat-e'tiborni qaratadi. O'zbekistonda esa asosan paxtachilikning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan sanoat tarmoqlari, aholining yashashi va turmush kechirishi bilan bevosita aloqador bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-ke-chak va hokazolar ishlab chiqaradigan yengil sanoat korxonalari buniyod etildi. 1925-1940-yillarda qurilib ishga tushirilgan bunday korxonalar jumlas ga Bo'zsuv GES, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termiz, Asaka shaharlarida issiqlik elektrostansiyalari, Olmal-iqstroy, Chirchiqstroy, elektr kimyo kombinati, Toshkent, Samار-qand, Farg'ona va Buxoroda to'qimachilik fabrikalari, Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi, Farg'ona konserva, Xilkov sement zavodlari, Toshkent "O'rtoq" qandolatchilik fabrikasi, Toshkent tamaki fabrikasi, Samarqand, Buxoro va Marg'ilonda Ipak yigiruv fabrikalari, "Chimyon" va "Santo" neft konlarida neft zavodlari, "Toshtram", "Qizil Sharq" va "Birinchi may" ustaxonali-ari, ko'plab paxta tozalash, sut-yog' tayyorlash, sovun pishirish kabi zavodlar qurildi va qayta jihozlandi. Holbuki, bu sanoat korxonalarining birortasi ham O'zbekistonning iqtisodiy mustaqil-ligini ta'minlash darajasidagi korxonalar bo'lmaganligiga bugungi istiqlol kunlarimizda ishonch hosil qilmoqdamiz.<sup>1</sup>

1925-1940-yillarda shaharlar, transport va yo'l qurilishi, pochta-telegraf va telefon tarmoqlari rivojlanishida ham o'zgarishlar bo'ldi.

XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda sanoat taraqqi-yoti bilan monand tarzda ishchilar sinfining ham son jihatdan o'zganganligini ko'ramiz. Jumladan, 1940-yilga kelib industrial ishchilarning umumiy soni 142 ming kishiga etdi. Bu dastlab-

<sup>1</sup> Sodiqov H. O'zbekiston tarixi: (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) 2-kitob. - T.: "Sharq", 2011. -B.348.

ki besh yilliklar davomida ishchilarining 8 baravar o'sganligini ko'rsatadi. Ayni paytda Sho'rolar yuritgan ulug' davlatchilik va mustamlakachilik siyosati tufayli mamlakat aholisi o'rtasida o'ziga xos ijtimoiy mehnat taqsimoti vujudga kelganligi ko'zga yaqqol tashlanadi. O'zbekistonga chetdan kelgan Yevropa millatlariga mansub aholi asosan shaharlar, posyolkalarda yashab, boshqaruv-rahbarlik idoralari, zamonaviy fan-teknika bilan bog'liq zavod-fabrikalarda mehnat qildilar. Mahalliy tub yerli aholi esa, asosan, qishloqlarda yashaydi, shaharlarda yashaydiganlari ham yuqori malaka talab qilmaydigan sohalarda faoliyat ko'rsatdilar.

O'zbekiston temir yo'l tarmoqlarida 1931-yilga kelganda mahalliy millat vakillaridan ishchilar soni 17 foizga teng edi. Faqat 1934-yilning o'zida O'zbekistonga boshqa respublikalardan 119 ming kishi ko'chib keldi, shundan 96 ming kishi RSFSR fuqarolari edi.

Masalaning xarakterli tomoni shundaki, 20-yillarda mahalliy tub yerli ishchilar soni ko'payish o'rniqa qisqarib borgan. Buning eng asosiy sababi: birinchidan, rahbarlik lavozimlarida o'tirganlarning aksariyati yevropa millatlariga mansubligidadir. Ikkinchidan, davlat idora boshqarish va ish yuritish ishlarining rus tilida olib borilganligidir. Uchinchidan, sanoat-teknika asbob-uskunalarining ruscha nomlanganligi va ularga oid qo'llanma, kitob va yo'llanmalarning rus tilida bo'lganligidir.

Xullas, 20-30-yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoat-lashtirish siyosatining bosh maqsadi, respublikani istiqbolda mustaqil taraqqiyot yo'lida borishini ta'minlaydigan iqtisodiy poydevordan mahrum qilish va uni Rossiya xo'jalik mexanizmining bir yacheykasiga aylantirishdan iborat edi.

## **19.2. Ikkinci jahon urushi davrida O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi**

O'zbekistonning ishchilar sinfi urush yillarida yuksak onglilik va uyushqoqlik namunalarini ko'rsatib, g'alaba uchun barcha zarur bo'lgan ishlarni qildi. Respublika iqtisodiyotini harbiy izga solish, armiyani dushman ustidan g'alaba qozonishini ta'minlashga qodir bo'lgan qudratli harbiy xo'jalikni barpo etish ana shu vazifalardan biri edi.

Urushga qadar Sovet Ittifoqida chiqarilgan temirning 68 foizi, po'latning 58 foizi, alyuminiyning 60 foizi g'arbiy mintaqalar-

dan olinardi. Mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan og'ir sanoat korxonalarining ham katta qismi g'arbiy hududlarda joylashgan edi. Bu hududlarni esa qisqa muddatda fashistlar Germaniyasi egallab oldi. Vazifa tez fursatlarda ana shu katta yo'qotishning o'rnnini qoplashdan va dushman ustidan g'alabani ta'minlaydigan sanoat ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdan iborat edi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining o'rni va salmog'i, albatta, katta edi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi byurosining 1941 yil 25-avgustda qabul qilgan maxsus qarori asosida sanoat korxonalari ishiga rahbarlik qilish uchun respublika hukumat komissiyasi tuzildi. Bu komissiya respublika sanoatini harbiy izga solish masalalari bilan shug'ullandi. Natijada urushga qadar tinch ishlayotgan sanoat korxonalari qisqa muddat ichida harbiy texnika, qurol-yarog' ishlab chiqaradigan korxonalarga aylan-tirildi. O'zbekistonda 1941 yilning oxirlariga kelib 300 zavod va fabrika Qizil Armiya uchun qurol-yarog' va o'q dori ishlab chiqara boshladi. Birinchi navbatda turgan masala mudofaa sanoati korxonalarini zarur bo'lgan yoqilg'i, elektr quvvati va metall bilan ta'minlashdan iborat bo'ldi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1941 yil 5-7-dekabrda bo'lib o'tgan V Plenumi respublika sanoatini harbiy izga solish sohasidagi ishlarga yakun yasadi. O'zbekistonga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarini tezlik bilan ishga tushirish, mamlakatga, front uchun kerak bo'lgan mahsulotlarni o'z vaqtida etkazib berish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi va uni amalga oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqildi.

Elektr energiyasi, yoqilg'i va xom ashyo bazalarini rivojlantirish masalalariga ham katta e'tibor berildi. 1942 yil noyabrgacha Chirchiq, Toshkent energetika tizimlarining qishki quvvatini 160-170 ming kilovattga etkazish, 4-5 oy ichida Toshkent shahri yaqinida 60-70 ming kilovatt elektr energiya bera oladigan issiqlik elektrostansiya qurish, bu stansiyalarni mahalliy ko'mir asosida ishlatish tadbirlari ilgari surildi. Respublikada metall-ko'mir va neft qazib chiqarishni ko'paytirish tadbirlari belgilandi. Bu ehtiyojlar uchun bir milliard so'm mablag' ajratildi. Ushbu dasturni ijrosini ta'minlaishga doir bir qancha tadbirlar belgilandi va Solar, 1-Quyi Bo'zsuv (birinchi navbatini), 2-Oqqavoq (ikkinchi navbatini) va Farhod gidroelektrostansiyalarini qurish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetin-

ing VIII Plenumi Farhodstroy qurilishining 1943 yilgi kuzgi reja topshiriqlarini bajarishga yordam ko'satish tadbirlari to'g'risidagi masalani muhokama qilib, qurilish sur'atlarini oshirish choralarini ko'rdi.

Farhod GES qurilishiga respublikaning o'zida 8 ming kubometr dan ko'proq yog'och va boshqa binokorlik materiallari, 800 tonna metall, 110 mingdan ortiq har xil asbob-uskuna, transport vositalari ishga solindi. Bundan tashqari respublikamiz mehnatkashlari bu umumxalq qurilishiga 300 vagondan ko'proq har xil qurilish materiallari yubordilar.

Ko'rilgan tadbirlar, Farhod GESi ishchilarining qahramonona shijoati va mehnati tufayli Sirdaryoni "jilovlash" juda qisqa muddatda - 10 oyda amalga oshirildi, odatda bunday ishlar 2-3-yilga cho'zildi. Farhod GESining ikki agregati (birinchi navbat) 1946 yilning fevral oyida foydalanishga topshirildi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan Farhod GESi qurilishida jonbozlik ko'rsatganligi va qahramonona mehnati uchun 500 kishi Sovet Ittifoqining orden va medallari bilan mukofotlandi.

Urush yillarda Tovoqsoy, Oqtepa, Oqqovoq, Qibray, Solar, Quyibo'zsuva boshqa gidroelektrostansiylar qurilib, ishga tushirildi. Natijada, O'zbekistonda elektr energiya hosil qilish 1940-yildagi 482 mln. kv soatdan 1945 yilda 1 187 mln. kv soatgacha ko'paydi.

Urush yillarda O'zbekiston yoqilg'i sanoatini rivojlantirish masalalariga ham katta e'tibor berildi. Ko'mir sanoatini rivojlantirishga 639 million 980 ming so'm miqdorda mablag' ajratildi. Natijada respublikada ko'mir qazib chiqarish 1945-yilda 103 ming tonnaga etdi yoki u 1940 yildagiga nisbatan 30 martadan ko'proq o'sdi.

Urush yillarda O'zbekistonning neft sanoati ham ulkan odimlar tashladi. SSSR Xalq Komissarlari Soveti 1941 yil 4-apreldagi "O'rta Osiyoda neft sanoatini rivojlantirish to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi. Ana shu qaror asosida O'zbekistonda yangi neft konlari ochildi. 1940 yildagiga qaraganda respublikada neft qazib chiqarish 1945 yilda 4 marta ko'paydi va u yiliga 478 ming tonnani tashkil etdi. Elektroenergetika va yoqilg'i sanoati yuksak bazalarining vujudga keltirilishi O'zbekistonda metallurgiya va mashinasozlik sanoatlarini ham rivojlanishi uchun baza bo'lib xizmat qildi.

1941-1942 yillarda respublikaga evakuatsiya qilingan korxonalar bazasida 16 ta yirik mashinasozlik zavodlari tashkil etildi.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat tarmoqlarining yuqori sur'attlar bilan rivojlanishi metallurgiya ishlab chiqarish bazasini barpo etishni talab qilayotgan edi. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlarasi Soveti 1942 yil 17-iyunda Bekobod shahrida metallurgiya zavodi qurish to'g'risida qaror qabul qildi. Zavod qurilishi bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti Byurosida 20 ta qaror qabul qilindi.

1944 yil 5-mart kuni O'zbekiston tarixida ilk marotaba O'zbekistonning birinchi metallurgiya zavodi ishga tushdi va u faoliyattdagi korxonalar qatoriga qo'shildi.

Urush yillarda respublikamizda rangli metallurgiya sanoati 6 marta o'sdi.

O'zbekiston mehnatkashlari urush yillarda kimyo, qurilish materiallari, to'qimachilik, poyabzal, yengil va oziq-ovqat sanoati, mahalliy va kooperativ sanoat va transport tarmoqlarini rivojlantirish sohasida ham bir qator taddbirlarni amalga oshirdilar.

1945 yilda 1940-yilga nisbatan O'zbekiston SSR sanoat mahsulotining umumiy hajmi 7 baravar, shu jumladan, og'ir sanoat ishlab chiqarish 4 baravar, mashinasozlik 13,4 baravar oshdi.

Urush yillarda O'zbekiston xaritasida yangi sanoat markazlari: Chirchiq, Ohangaron, Bekobod, Yangiyo'l va boshqa sanoat shaharlari vujudga keldi. Toshkent shahri yirik sanoat markazlaridan biriga aylandi.

Xullas, O'zbekiston urush yillarda frontga 2090 samolyot, 17342 aviamotor, 2 318 000 aviabomba, millionlab minalar, snary-adlar, granatalar va boshqa shuning singari quroq-aslaha va o'qdorilar etkazib berdi. Yengil sanoat korxonalari va sanoat kooperatsiyasi artellari umumiy qiymati 443,3 million so'mlik mahsulotlarni front ehtiyojlari uchun ishlab chiqardi.

**Urush yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligi.** Mamlakatdagi barcha sanoat korxonalari urush manfaatlariiga bo'yundirilib, qayta qurilganligi oqibatida respublikamizga Markazdan traktor va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalari kelishi deyarli to'xtab qoldi. Jamoa va davlat xo'jaliklaridagi texnikani ta'mirlash uchun kerakli materiallar, ehtiyyot qismlar, o'g'it va yonilg'i bilan ta'minlash umuman qisqariq ketdi. Yuz minglab qishloq mehnatkashlari frontga, "Vatan mudofaasi"ga safarbar qilindilar.

Asosan paxtachilikka ixtisoslashtirilgan respublika dehqonchiligining yo'nalishi ham keskin o'zgardi. Paxtachilikni asosiy tarmoq sifatida saqlab qolgan holda endi respublika mehnatkashlari mamlakatga juda ko'p miqdorda don, qand lavlagi, kanop, pilla, sabzavot va poliz mahsulotlari ham etkazib berishi kerak edi. Bunday og'ir vazifani O'zbekiston mehnatkashlari so'zsiz bajardilar.

1941 yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlari davlatga 1645,7 ming tonna 1940-yildagiga nisbatan qariyb 200 ming tonna ko'proq paxta topshirdilar, hosildorlik gektar boshiga 17,7 sentnerga etdi, davlat rejası 106 foiz bajarildi. Paxtachilikni rivojlantirishda jamoa xo'jaliklarining ichki imkoniyatlariidan to'liq foydalanilmadi. Ularni xo'jalik-tashkiliy jihatdan mustahkamlashga yetarli darajada e'tibor berilmadi, ilg'orlar tajribasi umumlashtirilmadni va ommalashtirilmadi, mehnatni tashkil etish va hisobga olishda egasizlikka yo'l qo'yildi, yerlar agrotexnika qoidalari asosida ishlanmadni, shudgorlash ishlari sifatsiz amalga oshirildi va pay-salga solindi. Ba'zi tuman xo'jaliklarida g'o'zapoyalarni yig'ishtirib olish cho'zilib ketdi. G'o'za qator oralarida ishlov berish muddatlarini kechikib, sifatsiz o'tkazildi. Albatta, bu kamchiliklarning urush bilan bog'liq obyektiv va subyektiv sabablari bor edi. Shu sababdan O'zbekiston partiya va sho'ro tashkilotlari Markaziy Ittifoq hukumatining yordami bilan respublika jamoa, davlat xo'jaliklari va MTS(Mashina-texnika stantsiya)larining modciy-texnika bazalarini mustahkamlash uchun 1944-1945 yillarda urush yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan 2300 yangi traktorlar, 3000 yuk avtomobili, 70 mingdan ortiq qishloq xo'jalik inventarlari, 660 ta ta'mirlash asbob-uskunalari va 375 ming tonna mineral o'g'it ajratildi. Shaharning qishloqqa otaliq yordami kuchaytirildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston 1944 yilni muvaffaqiyat bilan yakunladi. Paxta tayyorlash rejası 15-dekabrdyoq ado etildi. Davlatga 820 ming tonna yoki 1942 yildagiga qaranga 325 ming tonna ko'p paxta etkazib berildi.

1945 yil yanvar oyida O'zbekiston paxtakorlarining ikkinchi qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy Markazning topshirig'iga asosan 1945 yilda davlatga 1 million tonna paxta etkazib berish vazifasini qo'ydi.

O'zbekiston qishloq mehnatkashlari mamlakat va xalq hayoti uchun eng og'ir sharoitda bu murakkab vazifani muvaffaqiyatli hal etib, 1945 yilda kattagina yutuqlarga erishdi. Davlatga paxta

topshirish rejasiga 26-dekabrda 100,6 foiz qilib ado etildi va 1944 yilda nisbatan bir necha ming tonna ko'p paxta etkazib berdi.

Urushning dahshatli va og'ir yillarida ishchilar bilan dehqonlar, shahar bilan qishloq o'rta sidagi mustahkam do'stlikning samarasini tufayli bunday murakkab va ulug'vor ishlarni amalga oshirish mumkin bo'ldi. Birgina Toshkent shahar sanoat korxonalarining o'zigina 1941-1945 yillar mobaynida jamoa xo'jaliklariga 5 ming chigit seyalkasi, 2 ming dizel, 1552 ko'rak chuviydigan mashina, 8,8 ming g'o'zapoyalarni yig'ishtirib beradigan mashinalarni berdi. Butun respublika qishloq xo'jaligi uchun tayyorlab berilgan ehtiyyot qismlari 16 million so'mni tashkil etdi.

Bundan tashqari shahar aholisi qishloq mehnatkashlari ming-ming tonnalab mineral va mahalliy o'g'itlar bilan ham yordam berdi. Respublikamizning yirik sanoat korxonalarida minglab qishloq mehnatkashlari slesarlik, temirchilik, tokarlik, quruvchilik kasblarini egalladilar.

Ko'plab oliy va o'rta maxsus ma'lumotli muhandis-texniklar, qishloq xo'jaligi mutaxassislari, iqtisodchilar, o'qituvchilar respublikaning turli shaharlardagi o'quv dargohlarida ta'lim olib o'z qishloqlariga qaytdilar. Xullas, 1941-1945 yillar davomida O'zbekistondagi har xil kurslarda 200 mingdan ko'proq jamoa a'zosi o'qib chiqdi.

Umuman aytganda, O'zbekiston qishloq mehnatkashlari g'oyatda og'ir va qiyin sharoitlarda mehnat qilib Germaniya fashizmi ustidan qozonilgan g'alabani tezlashtirishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Respublika qishloq xo'jaligi urush yillarida front va g'alaba uchun havo va suv kabi zarur bo'lgan 4 million 806 ming tonna paxta, 1 million 282 ming tonna don, 54,1 ming tonna pilla, 482 ming tonna kartoshka va sabzavot, 57,6 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna qoqi, 159 ming tonna go'sht, 22,3 ming tonna jun etkazib berdi. Bu ulkan va mislsiz jasoratdir.

Urushdan keyingi davrda O'zbekiston qishloq xo'jaligini faqat paxtachilikka ixtisoslashtirish yo'lida olib borilganligi paxta yakka hokimligining yanada kuchayishiga olib keldi. O'zbekiston SSSRning xom ashyo bazasi bo'lib qoldi. Bu hol O'zbekiston mehnatkashlaring milliy fojiasi sifatida uning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'nnaviy qashshoqlashishiga bosh sababdir.

### **19.3. Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi**

1946-1985 yillarda O'zbekiston hududida qurilgan va ma'lum darajada ahamiyatliroq bo'lgan sanoat korxonalarining 30 foizi Ittifoq tasarrufida, 60 foizi Ittifoq-Jumhuriyat tasarrufida bo'lib, ular batamom Markazga bo'ysunar edi. Faqat 10 foizgina sanoat korxonasi bevosita O'zbekistonga bo'ysungan va u respublika iqtisodiyotida hal qiluvchi o'rinn tutmagan.

Sho'rolar hukumati sof mustamlakachilik siyosati olib bordi. O'zbekistonni o'zining asosiy xom ashyo etkazib beruvchi mint-aqalaridan biriga aylantirdi, yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarni rivojlantirishni o'zining bosh maqsadi qilib qo'ydi. 1946-1985 yillarda O'zbekistonda elektroenergiya sanoatini rivojlantirish maqsadlarini ko'zlab Angren, Navoiy, Chorvoq, Toshkent elektr stansiyalari, umumi quvvati 300 ming kvt.dan oshadigan 19 ta Chirchiq-Bo'zsuv gidroelektr stansiyalari, quvvati 126 ming kvt.ga yetadigan Farhod GESi qurilishi poyoniga etkazildi. Markaziy Osiyoda eng yirik bo'lgan va umumi quvvati 3 million kvtga etadigan Sirdaryo GRESi qurib bitkazildi.<sup>1</sup>

Shu yillar mobaynida yengil va oziq-ovqat sanoatining bir qator korxonalari qurilib ishga tushirildi. Chimboy yog' zavodi, Toshkent trikotaj fabrikasi, Namangan sun'iy tola zavodi, Yangiyo'lda tikuvchilik fabrikasi (1945-1950 yy.), Buxoro, Uchqo'rg'on va Qo'qon yog' zavodlari, Toshkent Chinni korxonasi (1951-1955 yy.), Pop rezina mahsulotlari zavodi, Toshkent, Nukus, Xo'jayli va Olmaliqda katta panellar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kombinatlar, Ohangaron sement zavodi, Yangiyo'l konditer fabrikasi, Namangan konserva zavodi, Shahrisabz go'sht kombinati, Urganch, Namangan va Navoiyda sut zavodlari (1959-1965 yy.), keyingi yillarda Angren rezina kombinati, Xiva gilam fabrikasi, Koson yog'-moy zavodi, Toshkent motor zavodi, Samarkand maishiy xolodilniklar-muzlatgichlar zavodi, Quvasoy chinni buyumlar zavodi (1966-1985 yy.) va boshqalar qurilib ishga tushirildi.

O'zbekistonda Sovet hukumatining rangli va qora metallurgiya, ko'mir ishlab chiqarish, gaz va neft mahsulotlarini qazib ol-

<sup>1</sup> Sodiqov H. O'zbekiston tarixi: (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) 2-kitob. – T.: "Sharq", 2011. – 8.518.

ish, taransport va aloqa tarmoqlarini rivojlantirish, kapital qurilish hamda shaharsozlik kabi sohalarga e'tibor bergenligi to'g'risida keragidan ortiqcha yozilgan.

Jumladan, O'zbekistonning poytaxti Toshkent Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridan biridir. Unda 250 dan ortiq sanoat korxonaları bor. Shahar, ayniqsa 1966-yilda ro'y bergan tabiiy ofat - yer silkinishidan so'ng rivoj topdi. Shaharda o'nlab ulkan qurilishlar yuzaga keldi. Xalqlar do'stligi saroyi, Toshkent metrosi, Paxtakor Markaziy stadioni va boshqalar shahrimiz ko'rkidir. 1946-yildan so'ng O'zbekistonda o'nlab shaharlar paydo bo'ldi. Bular Olmaliq, Angren, Guliston, Yangiyo'l, Yangier, Zarafshon, Yangiobod, Shirin, Navoiy, Taxiatosh va boshqalardir. 1946-1985 yillarda O'zbekistonda yirik va kuchli gaz sanoati kompleksi yaratildi. Jarqoq, Gazli, Uchqir, Saritosh, Muborak, Sho'rtan, O'rtabuloq, Yangi qazgan kabi yirik gaz konlari topildi va ishga tushirildi. Natijada, 1940 yilda O'zbekistonda 0,7 milliard kubometr gaz qazib olingan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1966 yilda 22 milliard 566 million kubometrni, 1970-yilda - 32,1 million, 1980 yilda - 34,8 million va 1986 yilda esa 38,6 million kubometrni tashkil etdi. Bu hol O'zbekiston yoqilg'i tizimida gaz hissasining keskin oshishini ta'minladi. Oqibatda 1960 yilda yoqilg'i tizimida gaz iste'mol qilishning hissasi 8,6 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 1970 yilda bu daraja 64,6, 1980-yilda - 79,6, 1985 yilda esa 80,2 foizni tashkil qildi.

Sovet hukumati O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan katta hajmdagi oltin va kumush zahiralarini izlab topish va qazib olib ketish uchun zarur bo'lgan kapital mablag'larni ayamasdan sarfladi. Buni quyidagi raqamlar yaqqol isbotlaydi:

**O'ZBEKISTON HUDDUDIDAGI OLTIN VA KUMUSH ZAHIRALARINI IZLAB TOPISH  
VA QAZIB OLIB KETISH UCHUN SARFLANGAN INVESTITSIYALAR HAJMI  
(MILLION RUBL)**

| 1966-1970 | 1971-1975 | 1976-1980 | 1981 | 1982 | 1983 | 1984 | 1985 |
|-----------|-----------|-----------|------|------|------|------|------|
| 107,0     | 183,0     | 292,0     | 65,6 | 71,6 | 75,4 | 77,4 | 83,0 |

Ana shu miqdordagi kapital mablag' surʼ qilish hisobidan 1985 yilda oltin qazib olishni yiliga 250 tonnaga va kumush qazib olishni 450 tonnaga etkazildi. 1946-1985 yillarda O'zbekistonda kuchli kimyo sanoati vujudga keltirildi. Respublika

kimyo sanoatining to'ng'ich korxonasi bo'lgan, 1940 yilda qurilib ishga tushirilgan va urush yillarda front manfaatlariga xizmat qilgan Chirchiq elektro kimyo kombinati qayta jihozlantirildi, u mineral o'g'itlar ishlab chiqishga moslashtirildi. Urushdan keyingi yillarda Qo'qon va Samarqand superfosfat, Farg'ona azotli o'g'itlar, O'limaliq kimyo zavodlari, Navoiy kimyo kombinati, Andijon gidroliz, Farg'ona furon birikmalar va Yangiyo'l biokimyo zavodlari qurib ishga tushirildi. Bu korxonalarning ishlab chiqarish quvatlari keskin oshib bordi. Buni quyidagi raqamlar ochiq-oydin ko'rsatadi: Agar 1940-yilda respublikada 2 ming tonna mineral o'g'it ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1960-yilda - 1120,5 ming tonnani, 1965-yilda - 2145,5 ming, 1970-yilda - 4091,0 ming, 1975-yilda esa 6132 ming tonnani tashkil etdi.

**O'ZBEKİSTONDA MINERAL O'G'IT ISHLAB CHIQARISH HAJMI  
(MING TONNA)**

|                                 | <b>1940</b> | <b>1960</b> | <b>1965</b> | <b>1970</b> | <b>1975</b> |
|---------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| mineral o'g'it ishlab chiqarish | 2000,0      | 2120,5      | 2145,5      | 4091,0      | 6132,0      |

Bu hol respublika ekologik vaziyatiga halokatli ta'sir ko'rsatdi. Xullas, 1985 yillarga kelganda O'zbekiston og'ir vaziyatga tushib qoldi. Respublikadan chetga chiqarilayotgan mahsulotning 3/2 qismi xom ashyo hissasiga to'g'ri keldi, O'zbekistonga chetdan keltirilayotgan narsalarning 60 foizini esa mashinalar, asbob-uskunalar, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari tashkil etdi. Milliy nafsoniyatga qattiq tegadigan jumboq yörqin ko'zga tashlanib qoldi. Respublika o'zi ter to'kib etishtiradigan va Markazga etkazib beradigan juda qimmatli xom ashyo mahsulotlari - metall, paxta, nitron, kaprolaktam va boshqalarni o'zida tayyor mahsulot tarzida ishlab chiqarish imkoniyati bo'lmasligidan, uni tayyor mahsulot shaklida bir necha barobar qimmat narxlarida Markazdan sotib olishga majbur bo'ldi. Natijada hayot uchun g'oyat zarur xom ashylarni ishlab chiqarayotgan O'zbekiston bu mahsulotlarni yetishtirishdan foyda emas, zarar ko'rди. Markazdan dotatsiyalar olib yashaydigan boqimanda respublikaga aylandi. Va aksincha, bunday xom ashyo mahsulotlarini o'zi etishtirmsada, uni o'zida qayta ishlab tayyor sanoat mahsulotlari tarzida sotuvchi markaz bundan behisob boyliklar olib foyda orttirdi.

**Qishloq xo'jaligi.** 1946-1985 yillar mobaynida Sovet hukumati O'zbekiston qishloq xo'jaligini ilgarigi yillardagidek bir tomonlama rivojlantirish yo'lidan olib bordi va asosan paxtachilik taraqqiyotiga e'tiborni qaratdi. Respublikaning Markazga qaramligini yanada mustahkamlashning sharti bo'lgan bu siyosatni g'oyaviy va nazariy jihatdan asoslash uchun "Yagona xo'jalik kompleksi" va "ixtisoslashtirish" ta'limoti ro'kach qilindi. Natijada O'zbekistonda paxta yakka hokimligi mamlakatning istiqboli va taqdiri uchun halokatli kuchga aylandi. 1946-1985 yillar mobaynida ham ilgarigi yillardagi singari Kommunistik partiya va sovet hukumati O'zbekistonda asosan paxtachilikni rivojlantirishga e'tiborni qaratdi. U bu borada o'nlab qarorlar qabul qildi, uni rivojlantirish bilan bog'liq rejalar Moskvada Davlat reja qo'mitasida ishlab chiqilar va so'ng u xalq xo'jaligini rivojlantirish direktiv hujjaligiga asos qilib olinar edi.

Markaziy hukumat O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish maqsadlarini ko'zlab juda katta hajmdagi mablag'larni sarfladi va paxtachilikning moddiy-texnika bazasini mustahkamladi.

#### **O'ZBEKISTONDA PAXTACHILIK MODDIY-TEXNIKA BAZASINI RIVOJLANTIRISH KO'RSATKICHLARI (MING DONA)**

|                                       | <b>1940</b> | <b>1960</b> | <b>1965</b> | <b>1970</b> | <b>1975</b> | <b>1980</b> | <b>1985</b> |
|---------------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| traktor                               | 23          | ***         | 89,9        | 121,3       | 145,2       | 157,3       | 188,9       |
| shu jumladan paxta terish mashinalari | 0,2         | 8,3         | ***         | 26,1        | ***         | 36,6        | 39,6        |

\*\*\* - ma'lumot yo'q

Sovet hukumati O'zbekistonda suv xo'jaligi qurilishi, irrigatsiya-melioratsiya ishlari yaxshilash maqsadlari uchun juda katta hajmdagi kapital mablag'larni sarfladi. Agar respublikada 1924-1940 yillarda suv xo'jaligi qurilishi uchun (16-yil mobaynida) 264 million so'm kapital mablag' sarflangan bo'lsa, 1961-1975-yillarda (o'n besh yil) 7 milliard 87 million so'm, 1976-1985-yillarda esa (ya'ni o'n yilda) bu sohada sarflangan kapital mablag' 10 milliard 243 million so'mga teng bo'ldi. Ya'ni keyingi o'n yil mobaynida suv xo'jaligi qurilishiga sarflangan kapital mablag' 1924-1940 yillardni o'z ichiga olgan 16-yildagi kapital mablag' hajmidan salkam 39 baravar ko'p bo'ldi. Bu hisobga irrigatsiya va melioratsiya ishlari uchun qilingan sarf-xarajatlar kirmaydi. Faqat 1971-1985 yil-

larda melioratsiya tadbirlari uchun davlat 19 milliard 881 million so'm mablag' ajratdi. Natijada, O'zbekistonda Amudaryo va Sirdaryo havzasi suvlari hisobidan 20 dan ortiq suv omborlari, o'nlab kanallar barpo etildi. Agar 1946 yilda O'zbekiston xaritasida faqat bitta Kattaqo'rg'on suv ombori bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda O'rta to'qay, Janubiy Surxon, Uchqizil, Chimqo rg'on, Quyimozor, Kosonsoy, Tuyabo'g'iz, Tuyamo'yin, Chorvoq, Ohargaron kabi suv omborlari paydo bo'ldi.

Sovet hukumati nima qilib bo'lsa-da, ko'proq paxta olishni bosh maqsad qilib qo'ydi. Ana shu niyatda O'zbekiston qishloq xo'jaligiga etkazib berilgan mineral o'g'itlar yildan-yilga oshirildi. Agar 1951 yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligi 0,9 million tonna mineral o'g'it olgan bo'lsa, 1980 yilda uning miqdori 5 million tonnadan oshib ketdi. Respublika Davlat agrosanoat qo'mitasi ma'lumotlariiga qaraganda, 1981-1985 yillarda har hektar paxta maydoniga 241 kg azot, 120 kg fosfor va 51,6 kg kaliy (100 foiz ozuqa modda hisobida) ishlatilib, yiliga jami 412,6 kg mineral o'g'it tashlangan. Bu Umumittifoq ko'rsatgichidan 3,5 va AQSh dan 4,5 baravar yuqori demakdir. Hisobsiz ishlatilgan va turgabitgani zahri qotil bu mineral tuproqning tabiiy holatini buzib, o'nglab bo'lmas darajada zarar keltirishdan tashqari atrof-muhitga ta'sir o'tkazib, ekologik vaziyatni halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. Ammo bu masalalar mustamlakachi qizil sultanatchilarni qiziqtirmaydi. Ularga nima bo'lsa-da ko'proq paxta kerak edi. Shu bois besh yilliklar rejalarida respublikada paxta yetishtirish miqdori muttasil oshib boraverdi. O'zbekiston 1946-1950 yillarda davlatga 7 million 729 ming tonna paxta bergen bo'lsa, 1951-1955 yillarda bu ko'rsatgich 12 million 270 ming tonnani tashkil etdi. 1981-1985 yillarda esa qo'li qadoq zahmatkash O'zbekiston mehnatkashlari etkazib bergen paxta 28 million 617,6 ming tonnaga etdi. Bu raqamlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda paxta tayyorlash 1946-1950 yillarga nisbatan 1951-1955 yillarda bir yarim barobar atrofida ko'paygani holda 1981-1985-yillarda qariyb to'rt barobarga yaqin ortgan. Har bir narsaning ham o'z o'Ichovi va chegarasi bor albatta. Paxta yetishtirishning O'zbekistonda bu darajada katta sur'atlar bilan o'sishi nimaning hisobidan bo'ldi, degan qonuniy savol tug'iladi. Balkim, bu o'sish ko'p miqdorda ishlab chiqarilgan zaharli mineral o'g'itlarning qishloq xo'jaligida ishlatilishi natijasida yuz bergandir. Yo'q, unday emas ekan. Mutax-

assislarning hisob-kitoblari va bergen ma'lumotlariga qaraganda paxtachilikda mineralarning beradigan foydasi 40-45 foizdan os-hmas ekan. Aksincha, mineral o'g'itlarning paxta ekiladigan maydonlarda haddan tashqari ko'p ishlatalishi yerlarning tabiiy hola-tini o'zgartirib, hosildorlikka halokatli ta'sir ko'rsatdi. Ikkinchidan esa, xo'jaliklarning iqtisodiyotiga juda katta moddiy zarar keltirdi. Chunki 1989 yilgi narxlar bo'yicha ammiak 70 so'm, ammosining 1 tonnasi 96 so'm 50 tiyin, kotoran gerbitsidning 1 tonnasi 12 ming so'm va hokazoni tashkil etgan. Raqamlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda 1960-1980 yillarda gektar boshiga paxtadan olinadigan hosil ko'payish o'rniغا kamayib ketdi. Jumladan, agar 1966-1970-yillarda har gektar yerdan o'rtacha 25,1 sentner, 1970 yilda esa, 26,3 sentner hosil olingan bo'lsa, 1986 yilda bu ko'rsatgich 23,7 sentnerga tushib qolgan. Paxta tayyorlash yalpi miqdorining yildan yilga oshib borishi asosan paxta ekiladigan maydonlarning kengayishi hisobidan amalga oshirilgan.

1976-1980 yillarda meva-sabzavot yetishtirish rejalarini Jizzax viloyati 71%, Farg'on'a viloyati -78% Xorazm viloyati - 81% va Surxondaryo viloyati - 87% ado etdi, xolos. 1980 yilda respublika bo'yicha 167 xo'jalik sabzavot, 136 xo'jalik kartoshka, 85 xo'jalik bog'dorchilik, 244 xo'jalik meva, 150 xo'jalik uzum, 142 xo'jalik go'sht, 295 xo'jalik sut, 136 xo'jalik tuxum tayyorlash rejasini ba-jarmadi.

1985 yilda QQASSR xo'jaliklarida kartoshka ekish rejası 72 foizni tashkil etgan bo'lsa, Jizzax viloyatida - 73, Sirdaryoda -45, Toshkent viloyatida - 92 foiz bajarildi. Kartoshkadan gektar boshiga olinadigan hosildorlik Buxoro viloyatida 33 sentnerdan oshmadi, Navoiy viloyatida - 34, Qashqadaryo viloyatida 46 sentnerga teng bo'ldi. Natijada bu sohalar bo'yicha davlatga mahsu-lot sotish rejaları o'lda-jo'lda qolib ketar edi. Jumladan, Toshkent viloyati bo'yicha 1985 yilda davlatga sabzavot topshirish rejası 76 foiz, kartoshka - 70 foiz, bog'dorchilik mahsulotlari - 78 foiz, uzum topshirish rejası 65 foizni tashkil etdi. Xuddi shunday ahvol QQASSR, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Sirdaryo viloyat-larida ham qayd etildi.

Yaylovlarning paxta ekiladigan maydonlarga aylantirilganligi natijasida chorva mollari tuyog'ining umumiyl soni keskin qisqarib ketdi. Bu hol o'z navbatida respublika aholisi uchun juda zarur

bo'lgan go'sht, sut va sut mahsulotlarini yetishtirishni juda og'ir ahvolga solib qo'ydi.

O'zbekistonda 1960-1986 yillarda 1940-yilga taqqoslaganda aholining o'sish sur'atlari 282,2 foizni tashkil etgani holda paxta yetishtirish 388,4 foizni tashkil etgan, sigirlar, qo'y-echkilar va otlarning o'sishi esa aholi o'sishidan juda ham orqada qolgan.

Qo'y va echkilar 1971 yilda ko'payish o'rniiga 1961 yilga nisbatan 16 foizga kamayib ketgan. Faqat 1981 yilga kelib 1961 yilgi darajaga ko'tarila olgan, xolos. Otlar masalasida esa ahvol nihoyatda achinarli ahvolga tushib qolgan. Otlarning umumiy soni 1941 yildagi 450,8 mingdan 1981 yilda birdagina 82,2 ming boshga tushib ketgan, yoki 82,1 foiz kamayib ketgan. Paxta ekin maydonlari kengayishi Amudaryo va Sirdaryon ng tinka-madorini quritdi, Orol fojiasi kelib chiqdi.

Sovet hukumati aholi uchun nihoyatda zarur bo'lган sohalar: don mahsulotlari, kartoshka, sabzavot kabi tarmoqlarga ham ikkinchi darajali soha deb qaradi. Natijada, O'zbekistonda don, kartoshka va sabzavot mahsulotlari yetishtirish gektar boshiga o'sish o'rniiga kamayib bordi. Buning oqibatida o'lkamizning markaz (Moskva)ga qaramligi va tobeligi yanada oshdi.

### ***O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar***

1. *O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatining tub maqsadi nimadan iborat edi?*
2. *Sanoatlashtirish jarayoniga mahalliy aholining jalb etilishi darajasi pastligi sabablari nimada?*
3. *Ikkinci jahon urushi davrida O'zbekistonda sanoatning qaysi tarmoqlari jadal rivojlandi?*
4. *Urush yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligi qaysi mahsulotlar yetishtirishga ixtisoslashgan edi?*
5. *Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekistonda kimyo sanoati rivojlirilishining sabablari nimada?*
6. *Paxta yakkaxokimligining salbiy oqibatlari nimada namoyon bo'ladi?*

**5 ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Аллен Р. Глобальная экономическая история. Краткое введение. Пер. с англ. М.: Изд-во Института Гайдара, 2013. – 224 с.
2. Заславская М.Д. История экономики: Учебное пособие для бакалавров / М.Д.Заславская. – М.: "Дашков и К°", 2013. – 296 с.
3. Зубарева Т. С. История экономики – Новосибирск: Изд-во НГТУ, 1999. – ч. 1. – 73 с.
4. Зубарева Т. С. История экономики – Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2001. – ч. 2. – 73 с.
5. Зубарева Т. С. История экономики: Учеб. Пособие. – Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2002. – ч. 3. – 90 с.
6. Исабоева Г.С. XIX асрда Кўқон хонлигига маданий ҳаёт. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент, 2010, 21-бет.
7. Исаков Б. 20-летие восстания в Киргизии. "Революция и национальности". М, 1936, № 9, стр. 32.
8. История мировой экономики. Хозяйственные реформы 1920-1990гг.: Учеб. пособие для вузов; Под ред. А.Н. Марковой. - М. : Закон и право: ЮНИТИ, 1995. - 192 с.
9. История мировой экономики: учебник для вузов / под ред. Г. Б. Поляка, А. Н. Марковой. - 3-е изд., стер. - М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2008. - 671 с.
10. История мировой экономики: Учебник для вузов / Под ред. Г.Б. Поляка, А.Н. Марковой. — 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.- 671 с.
11. История экономики / под ред. О. Д. Кузнецовой, И. Н. Шапкина. /М.: 2001
12. История экономики: учеб. для вузов / под ред. О. Д. Кузнецовой, И.Н. Шапкина .- 2-е изд., испр. и доп. - М. : ИНФРА-М, 2007. - 416 с.
13. Железные дороги в Среднюю Азию. Сборник статей и проектов по проведению железных дорог в Среднюю Азию. С- Петербург, 1874, стр. 3.
14. Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) 1-kitob. – T.: "Sharq", 2011. – 552 b.
15. Конотопов М. В., Сметанин С. И. Экономическая история: Учебник. - 9-е изд., доп. и перераб. - М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К°", 2007. - 492 с.

16. Конотопов, М. В. История экономики зарубежных стран: учеб. для вузов / М. В. Конотопов, С. И. Сметанин . - б-е изд., стер. - М. : КниРус, 2010. - 319 с.
17. Кустова Т.Н., Камакина О.В. История экономики: Учебное пособие / РГАТА.- Рыбинск, 2001.- 129 с.
18. Lafasov M. Jahon tarixi: Akad. litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik/ M. Lafasov; Mas'ul muharrir E. Z. Nuriddinov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — T.: "Turon-Iqbol", 2010. — 368 b.
19. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарихи шоҳидлиги ва сабоқлари. (1865-1990 йиллар). Тошкент: "Шарқ", 2000, 13-бет.
20. Sodiqov H. O'zbekiston tarixi: (O'zbekiston Soviet mustamlakachiligi davrida) 2-kitob. – Т.: "Sharq", 2011. – 720 b.
21. Темур тузуклари. Т.: "O'ZBEKISTON" 2015. – 181 бет.
22. Тимошина Т.М. Экономическая история зарубежных стран. Учеб. пос./М.-2002
23. Хашимов П.З., Тураев Х.Н. Экономическая история. Т.: "Университет", 2003.- 243 стр.
24. Шевчук Д.А. История экономики: учебное пособие. М.: 2009. — 305 с.
25. Экономическая история мира. Европа. Т. 1 / Под общ. ред. М. В. Конотопова. — 3-е изд. — М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и КО", 2007. — 636 с.
26. Tenney Frank// An Economic History of Rome (Second Edition Revised)/ Kiechener-2004. - Baltimore, MD, 538 pages
27. History of economic thought / Harry Landreth, David C. Colander.- 4th ed 2002.- Boston : Houghton Mifflin, 511 pages
28. <http://www.istmira.com/vsemirnaya-istoriya-v-3-ch-ch-2-xix-v-oktyabr-v84-/3896-soedinennye-shtaty-ameriki-v-konce-xix-nachale-xx-v.html>

**MUNDARIJA**

|                     |          |
|---------------------|----------|
| <b>KIRISH .....</b> | <b>3</b> |
|---------------------|----------|

**1-MAVZU. IQTISODIY TARIX FANIGA KIRISH**

|                                                                      |   |
|----------------------------------------------------------------------|---|
| 1.1. Iqtisodiy tarixning qisqacha izohi .....                        | 5 |
| 1.2. Iqtisodiy tarix fanining predmeti, metodlari va vazifalari..... | 7 |
| 1.3. Iqtisodiy tarixning manbalari va tuzilmasi.....                 | 9 |

**2-MAVZU. QADIMGI DUNYO IQTISODIYOTINING RIVOJI**

|                                                                                                  |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 2.1.1."Buyuk ipak yo li"ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi o'rni..... | 18 |
| 2.1.2.IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo .....                                                       | 20 |
| 2.1.3.Amir Temur davridagi iqtisodiy g'oyalar.....                                               | 21 |
| 2.1.4. Shohruh Mirzo va Mirzo Ulug'bek davridagi iqtisodiy islohotlar .. ..                      | 28 |
| 2.2. Qadimgi Gretsya rivojlanishining asosiy xususiyatlari .....                                 | 31 |
| 2.3. Qadimgi Rim iqtisodiy rivojlanishining asosiy bosqichlari.....                              | 35 |

**3-MAVZU. O'RTA ASRLARDA YEVROPANING IQTISODIY RIVOJLANISHI**

|                                                                                          |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 3.1. V-X asrlarda G'arbiy Yevropada feodalizmning rivojlanish xususiyatlari.....         | 38 |
| 3.2. XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropada qishloq xo'jaligi .....                            | 41 |
| 3.3. XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropada feodal shahar, hunarmandchilik va savdo sotiq..... | 45 |
| 3.4. Yevropada kapitalistik ishlab chiqarish kurtaklarining vujudga kelishi .. ..        | 48 |
| 3.5. Buyuk geografik kashfiyotlar .. ..                                                  | 53 |
| 3.6. Yevropada "narxlar inqilobi" .. ..                                                  | 56 |
| 3.7. Jahan bozorining vujudga kelishi .. ..                                              | 58 |

**4-MAVZU. YANGI DAVRDA INDUSTRIAL TIZIMNING VUJUDGA KELISHI (XVIII asr)**

|                                                                      |    |
|----------------------------------------------------------------------|----|
| 4.1. Davrning umumiy tavsifi.....                                    | 61 |
| 4.2. Angliya – sanoat inqilobin ng vatani.....                       | 63 |
| 4.3. Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari ..... | 65 |
| 4.4. Germaniyan ng iqtisodiy qoloqligi sabablari .. ..               | 69 |

**5-MAVZU. INDUSTRIAL SIVILIZATSIYANING SHAKLLANISHI DAVRIDA YEVROPANING IQTISODIY TARAQQIYOTI (XIX asr)**

|                                                                      |    |
|----------------------------------------------------------------------|----|
| 5.1. Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari .....  | 72 |
| 5.2. Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari ..... | 75 |
| 5.3.Germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari.....  | 77 |

**6-MAVZU. YANGI DAVRDA AQSh  
(XVIII asrning oxiri-XIX asrning 70 y.gacha)**

|                                                                      |    |
|----------------------------------------------------------------------|----|
| 6.1. Mustaqillik uchun kurash. AQShning tashkil topishi .....        | 84 |
| 6.2. AQShning XIX asr birinchi yarmidagi iqtisodiy rivojlanishi..... | 88 |
| 6.3. AQShda sanoat to'ntarilishi .....                               | 89 |
| 6.4. Fuqarolik urushi va uning oqibatlari .....                      | 92 |

**7-MAVZU. XVIII-XIX ASRLARDA YAPONIYANING  
IQTISODIY RIVOJLANISHI**

|                                                                                    |    |
|------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 7.1. XVIII asrda Yaponiyaning iqtisodiyoti rivoji .....                            | 93 |
| 7.2. XIX asrda Yaponiya iqtisodiyoti .....                                         | 94 |
| 7.3. Imperializmga o'tish davrida Yaponiya<br>iqtisodiyotining xususiyatlari ..... | 96 |

**8-MAVZU. MUSTAMLAKACHILIK DAVRIDA SHARQ  
MAMLAQATLARI IQTISODIYOTI**

|                                                        |     |
|--------------------------------------------------------|-----|
| 8.1. Mustamlakachilikning tarixiy shakkllari .....     | 98  |
| 8.2. XVI-XVII asrlarda mustamlakachilik .....          | 99  |
| 8.3. Sanoat kapitalizmi davrida mustamlakachilik ..... | 100 |
| 8.4. Mustamlakalar iqtisodiyotining rivojlanishi ..... | 101 |

**9-MAVZU. JAHON AGRAR INQIROZI VA IKKINCHI ILMIY-TEXNIK  
INQILOBI (XIX asr oxiri-XX asr boshi)**

|                                                                                                       |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 9.1. XIX asrning to'rtinchi choragida jahon agrar inqirozi<br>va uning ahamiyati .....                | 103 |
| 9.2. Ikkinchilik ilmiy-tekhnika inqilobi va jahon ishlab chiqarish<br>kuchlarining rivojlanishi ..... | 105 |

**10-MAVZU. Yetakchi KAPITALISTIK MAMLAQATLARNING IQTISODIY  
TARAQQIYOTI (XIX asr oxiri-XX asr boshi)**

|                                                 |     |
|-------------------------------------------------|-----|
| 10.1. AQShning iqtisodiy taraqqiyoti .....      | 110 |
| 10.2. Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti ..... | 113 |
| 10.3. Yaponiyaning iqtisodiy taraqqiyoti .....  | 116 |

**11-MAVZU. IKKI JAHON URUSHLARI ORALIG'IDA TARTIBGA  
SOLINADIGAN KAPITALIZMNING SHAKLLANISHI**

|                                                                        |     |
|------------------------------------------------------------------------|-----|
| 11.1. Estatizatsiya jarayoni davrlari .....                            | 119 |
| 11.2. Yirik industrial mamlakat - AQShning iqtisodiy taraqqiyoti ..... | 121 |
| 11.3. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti .....                               | 124 |
| 11.4. Fransiyaning iqtisodiy rivojlanishi .....                        | 126 |
| 11.5. Germaniya iqtisodiyoti .....                                     | 128 |
| 11.6. Italiya va Yaponiyaning iqtisodiy taraqqiyoti .....              | 131 |

**12-MAVZU. IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG DUNYONING  
Yetakchi MAMLAQATLARI IQTISODIY RIVOJLANISHNING  
XUSUSIYATLARI**

|                                                                               |     |
|-------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 12.1. AQSh iqtisodiy qudratining o'sib borishi .....                          | 133 |
| 12.2. Yetakchi mamlakatlarning rivojlanishi dinamikasi<br>va shakkllari ..... | 138 |
| 12.3. Integratsiya jarayoni.....                                              | 148 |

**13-MAVZU. ANGLIYANING ENG YANGI IQTISODIY TARIXI (XX ASR)**

|                                                               |     |
|---------------------------------------------------------------|-----|
| 13.1. Sanoat rivojlanishi xususiyatlari.....                  | 155 |
| 13.2. Monopoliyalar va davlat tomonidan tartibga solish ..... | 156 |
| 13.3. Tashqi iqtisodiy aloqalar.....                          | 160 |

**14-MAVZU. GERMANIYANING ENG YANGI IQTISODIY TARIXI  
(XX ASR)**

|                                                                                                 |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 14.1. Birinchi jahon urushining iqtisodiy oqibatlari .....                                      | 163 |
| 14.2. Fashistik Germaniya iqtisodiyoti .....                                                    | 166 |
| 14.3. GFR iqtisodiy mo'jizasi va uning sabablari .....                                          | 169 |
| 14.4. Korporatsiyalar, moliyaviy guruhlar va ularni davlat<br>tomonidan tartibga solinishi..... | 170 |

**15-MAVZU. FRANSIYANING ENG YANGI IQTISODIY TARIXI (XX ASR)**

|                                                                                                   |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 15.1. Ikki urush oraliq'ida Fransiya iqtisodiyoti.....                                            | 173 |
| 15.2. Ikkinchchi jahon urushidan so'ng Fransiya iqtisodiy rivojlanishi.....                       | 175 |
| 15.3. Fransiyada korporatsiyalar va moliyaviy<br>kapitalning xususiyatlari .....                  | 177 |
| 15.4. Mulkni davlat tasarrufiga o'tkazish va xo'jalikni davlat<br>tomonidan tartibga solish ..... | 179 |

**16-MAVZU. YAPONIYANING ENG YANGI IQTISODIY TARIXI  
(XX ASR)**

|                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 16.1. Yaponiyada harbiy sohaning rivoji va urushdan<br>keyingi qiyinchiliklar .....                  | 182 |
| 16.2. Ikkinchchi jahon urushidan oldin va urush davrida<br>iqtisodiyotning harbiylashtirilishi ..... | 184 |
| 16.3. Urushdan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar.<br>Dzaybaysularni qayta tashkil etish .....  | 186 |
| 16.4. Yapon "iqtisod y mo'jiza"si va uning sabablari .....                                           | 188 |
| 16.5. Tashqi iqtisodiy aloqalar .....                                                                | 192 |

**17-MAVZU. XITOYNING ENG YANGI IQTISODIY TARIXI (XX ASR)**

|                                                                          |     |
|--------------------------------------------------------------------------|-----|
| 17.1. Osiyocha ishlab chiqarish usullari va ularning parchalanishi ..... | 194 |
| 17.2. Revolyutsion o'zgarishlar va "katta sakrash" .....                 | 199 |
| 17.3. Iqtisodiy islohotlar .....                                         | 204 |

**18-MAVZU. CHORIZM MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA  
TURKISTON IQTISODIYOTI**

|                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 18.1. XIX asrdagi o'zbek xonliklarda davlat boshqaruvi<br>va ijtimoiy hayot .....        | 208 |
| 18.2. Soliq va majburiyatlar. Mehnatkash xalqning<br>turmush darajasi.....               | 214 |
| 18.3. Hunarmandchilik, shirkatlar, sanoat va tijorat .....                               | 215 |
| 18.4. Agrar siyosat.....                                                                 | 223 |
| 18.5. O'lkaning xomashyo bazasiga aylantirilishi .....                                   | 225 |
| 18.6. Mahalliy mulkdorlar toifasining shakllanishi .....                                 | 228 |
| 18.7. O'rta osiyo temir yo'lining imperiya<br>va o'lka iqtisodiyotida tutgan o'mni ..... | 229 |

**19-MAVZU. SOVET MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA  
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

|                                                                                                 |            |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| 19.1. Sanoatlashtirish .....                                                                    | 235        |
| 19.2. Ikkinci jahon urushi davrida O'zbekiston sanoati<br>va qishloq xo'jaligi .....            | 237        |
| 19.3. Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda<br>O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi..... | 243        |
| <b>ADABIYOTLAR RO'YXATI: .....</b>                                                              | <b>250</b> |

Muminov N.G., To'rayev X.N., Ochilov N.Y.

## IQTISODIY TARIX fanidan O'QUV QO'LLANMA

Muharrir: Raximkariyev Shuxrat

---

Original-maket, matbaa dizayn,  
sahifalash ishlari va chop etishga tayyorlash  
"Catrin Group" XKda bajarildi.

---

Nashriyot litsenziyasi: AI №280, 11.01.2016

Terishga berildi: 02.05.2018-y.

Bosishga ruxsat etildi: 25.05.2018-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 84x108 1/32.

SegoUI garniturasi. Ofset usulida bosildi.

Hisob-nashriyot t: 12,81. Shartli b.t: 18,9.

Adadi: 100 nusxa.

Buyurtma № 195.

Bahosi kelishilgan narxda.

"Tsentr innovatsionníx texnologiy" nashriyotida  
nashrga tayyorlandi.

100174, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Olmazor tumani,  
Universitet ko'chasi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,  
Iqtisodiyot fakulteti binosi,  
2-qavat, 207-xona.

Tel.: (99895) 198-80-87; e-mail: zamonaviytalim@itm.uz

"Print Line Group" XK bosmaxonasida chop etildi.  
100097, Toshkent shahri, Bunyodkor shohko'chasi, 44.